



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI KASBIY TAYYORGARLIK
FAKULTETI MAXSUS FANLAR SIKLI**

**MAXSUS TAYYORGARLIK KURSINING
“PASPORT TIZIMINI TA'MINLASH” MODULI BO‘YICHA
O‘QUV USLUBIY MAJMUA
(14-26-MAVZULAR BO‘YICHА)**

O‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar siklida 2024 yil “14” oktyabrdagi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. “17” - sonli bayonnomalar.

Tuzuvchilar:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, podpolkovnik (14-26 mavzular) **N.L.Melikulov**

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari polkovnik **B.A.Sayfullaev**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasini dotsenti, polkovnik **Z.R.Umarov**

O‘quv uslubiy majmua “O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti “Pasport tizimini ta’minalash” mutaxasisligi bo‘yicha “Pasport tizimini ta’minalash” moduli bo‘yicha qayta ishlab chiqilgan. O‘quv uslubiy majmuada o‘quv dasturidagi 13 ta mavzu bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriqlar, test nazorat savollari, glossariy va foydalilanilgan adabiyotlar keng yoritilgan.

Mazkur o‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakultetida “Pasport tizimini ta’minalash” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oluvchi tinglovchilarga hamda Ichki ishlar organlarida Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimlarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun mo‘ljallangan.

Mundarija

Kirish.....	4
Modul bo'yicha darslar taqdimoti.....	8
14-mavzu. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelish-ketish tartibi va tranzit o'tish qoidalari.....	9
15-mavzu. O'zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari toifalari.....	27
16-mavzu. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalari.....	38
17-mavzu. Vatandoshlar va ularning oila a'zolarini O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish asoslari.....	47
18-mavzu. O'zbekiston va qo'shni davlatlar fuqarolarining o'zaro kelib-ketishlari va chegara zonalarida bo'lish tartibi.....	54
19-mavzu. O'zbekiston hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi.....	79
20-mavzu. O'zbekiston hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi.....	93
21-mavzu. Toshkent shahar va Toshkent viloyatida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi.....	111
22-mavzu. O'zbekistonda doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasi.....	134
23-mavzu. O'zbekiston Respublikasini fuqaroligi bo'lmagan shaxslarining biometrik harakatlanish hujjati.....	143
24-mavzu. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish soxasidagi huquqbazarliklar uchun javobgarlik.....	152
25-mavzu. Buklet yoki plastik ko'rinishidagi biometrik hujjatlarni hisobini yuritish va yo'q qilish tartibi.....	164
26-mavzu. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatiga oid xorijiy tajriba.....	181
Taxminiy test savollari.....	191
Xulosa	202
Glossariy.....	203
Asosiy adabiyotlar.....	211

KIRISH

Mazkur o‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-son qarorlari hamda Ichki ishlar vazirligining 2021 yil 27 avgustdagи “Ichki ishlar organlarida uzlucksiz o‘quv-kareraya jarayoni tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 310-sonli buyruqlariga muvofiq ishlab chiqilgan dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, unda ichki ishlar organlarining uzlucksiz o‘quv-kareraya jarayoni tizimini amalga oshirish va ichki ishlar organlariga xizmatga yangi qabul qilingan xodimlarni tizimli ravishda maxsus kasbiy tayyorgarlikdan o‘tkazishni nazarda tutadi. Ushbu dasturga ko‘ra, xodimlarni kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirish o‘quv jarayoni blok-modul tizimiga asoslangan bo‘lib, mashg‘ulotlarda innovation pedagogik texnologiya, interfaol metod va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash orqali amalga oshirish, ularning huquqiy va kasbiy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalarini yuksaltirishga qaratilgan.

Pasport tizimini ta’minlash –modulining asosiy maqsadi tinglovchilarda o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda ularning maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishini ta’minlash shuningdek mustaqil ravishda xizmat faoliyatini olib borish uchun kasbiy bilimlarini egallash, chuqurlashtirish hamda ko‘nikma va mahoratlarini oshirishni uzlucksiz ta’minlashdan iborat.

Pasport tizimini ta’minlash –modulining asosiy vazifalari:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumati va Ichki ishlar vazirligi tomonidan ichki ishlar organlari xodimlariga qo‘yilayotgan bugungi kun talablariga javob beradigan yuksak kasbiy mahoratni rivojlantirish;

tinglovchilarni yuksak darajadagi vatanparvarlik, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash;

tinglovchilarning blok-modul tizimi asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikni sifatli va tizimli tashkil etish;

tinglovchilarni xizmat faoliyatini amalga oshirish jarayonida tuziladigan hujjatlar hamda ularning majburiyatları va vazifalari bilan tanishtirish;

o‘qitishning zamonaviy shakl va usullarini, innovation texnologiyalarini, shu jumladan aniq vaziyatlar tahlili mashg‘ulotlarda axborot-huquqiy va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, axborot-kommunikasiya texnologiyalari hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;

xizmat vazifalarini bajarishda, nazariya va amaliyotda uchrayotgan barcha o‘zgarishlarga

yeterli darajada aniq baho bera olish, mavjud muammolarni tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;

tinglovchilarda tezkor va kriminogen vaziyatni tahlil qilish, prognozlash va baholashning zamonaviy usullarini o‘rgatish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining mavjud kuch, vosita va usullaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

mamlakatimiz va xorijdagi huquqni muhofaza qilish organlari tizimiga kiruvchi asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan bo‘lgan jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish va tergov qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jamoat xavfsizligi va huquq tartibotni ta‘minlash muammolarini hal etish bo‘yicha to‘plangan ilg‘or ish tajribasini o‘rgatishdan iborat.

Tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar kasbiy tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Tinglovchi:

“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni, ya’ni o‘z xizmat burchini so‘zsiz bajaradigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmada ekanligini anglashi, Vatanimiz ravnaqi yo‘lida xizmat qilishni ulug‘ va oljanob maqsad deb biladigan, xizmat qiyinchiliklariga (ekstremal holat, ruhiy og‘ir va qiyin vaziyatlar) ruhiy bardoshli bo‘ladigan kasbiy ko‘nikma va mahoratga;

milliy mafkura, madaniy merosimiz va tarixiy an'analarimiz, milliy va ma’naviy xavfsizlikni ta‘minlash hamda mafkuraviy immunitet, shuningdek, axborot xuruji va ommaviy madaniyat kabi omil va jarayonlarning mazmun-mohiyatini;

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, unda shaxsning huquqiy maqomi, inson huquqlari, davlat organlari tizimi, ularni tashkil etish, vakolati va faoliyat shakllari, qonunchilik sohasidagi islohotlar, xizmat sohasi faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi normativ hujjatlar talablarini;

qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarining ijrosini o‘z vaqtida, bir xilda va to‘liq bajarilishini;

bo‘ysinuvchanlik, bo‘ysinuvchilarga yuqori talabchanlik, bo‘ysinuvchilarning ish natijalarini holisona baholash va ularga g‘amxo‘rlik qilishni, xodimlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar qoidalariiga amal qilish, boshliqlar va hamkasblarni hurmat qilishni;

pasport tizimi, xorijiy davlatlar fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lish qoidalariiga rioya etishlarini ta‘minlashni;

o‘z ish ko‘rsatkichlariga tanqidiy qarashni, ijrochilik intizomiga rioya etish va uni tashkil etish asoslarini, axborotlarni to‘plash, tahlil qilishni, o‘z vakolati doirasida respublikada kriminogen vaziyatni tizimli tahlil va prognoz qilish asoslarini;

xizmat faoliyati mobaynida turli etnik ijtimoiy guruqlar va konfessiyalarning madaniy hamda o‘ziga xos jihatlarini hurmat qilish ijtimoiy barqarorlikka millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko‘maklashish;

o‘z faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholashni ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishdek ulug‘ va olrijanob maqsadga intilish, jasurlik va fidoyilik bilan el-yurtga xizmat qilish;

o‘z faoliyatini rejalashtirish, faoliyatiga taalluqli axborot bilan ishslash, axborot-tahlil faoliyati metodlarini aniqlash, ish yuritish va maxfiylik tartibiga rioya etish;

migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘yicha xalqaro-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bitimlar va boshqa huquqiy asoslardan foydalanish;

ichki ishlar organlarida boshqaruv usullarini qo‘llash, faoliyatidagi muammo va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf qilish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishslash, har qanday vaziyatda fuqarolarga hurmat bilan murojaat qilish, munosabatlarda vazmin bo‘lish, muomala madaniyati va qonuniylikka qat’iy rioya qilish;

xizmat vazifalarini bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo‘lgan xulq atvordan o‘zini tiyish, shuningdek, o‘z obro‘siga yoki davlat organining nufuziga zarar yetkazishga sabab bo‘ladigan vaziyatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

xizmat faoliyatida mavjud bo‘lgan texnik vositalardan samarali foydalanish, doimiy ravishda o‘z bilim va kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirib borish, malaka va huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim;

ichki ishlar organlari faoliyatining istiqbolini belgilash va modellashtirishning metodologik asoslarini amaliyotga tadbiq etish, murakkab sharoitlarga tez moslashish, keskin vaziyatlarda eng maqbul qarorlar qabul qilish;

Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirishni ta’minalash faoliyatini tashkil etish;

jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan ariza va shikoyatlarni mazmunan ko‘rib chiqish va qonun doirasida hal qila olish, fuqarolarning murojaatlariga xolisona va vijdonan yondashish, ayniqsa, bolalar, ayollar, keksalar va nuroniyalarga alohida e’tibor qaratish;

fuqarolar, turli toifadagi huquqbazarlar, jamoatchilik vakillari bilan muloqot qila olish, fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlarga, qonunga xilof ravishda jismoniy kuch ishlatishga, haqorat qilish yoki qiynoqqa solishga yo‘l qo‘ymaslik;

yangi innovasion g‘oyalarni xizmat faoliyatiga joriy etish, sohaviy xizmatlar faoliyatini tashkil etishda axborotlar bilan ta’minalash va almashish, faoliyatiga taaluqli huquq normalaridan foydalanish va qo‘llash ***malakalariga*** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash;
ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish;
ish faoliyatida yuzaga kelgan turli ziddiyatli holatlar va muammolarni hal etish hamda
tegishli boshqaruv qarorlarini to'g'ri qabul qilish;
samarali ish yuritish va hujjatlar aylanishini hamda jismoniy va yuridik shaxslar
murojaatlari bilan ishslash tizimini yo'lga qo'yish;
ilg'or ish tajribasi va uslublarini amaliyotga tatbiq etish ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi lozim.

Modul bo'yicha dars taqsimoti:

№	<i>Modul mavzusi</i>	Auditoriya o'quv yuklamasi, soat						
		<i>Jami</i>	Jumladan					
			<i>Auditoriya soati</i>	<i>ma'ruba</i>	<i>seminar</i>	<i>Amaliy mashg'ulot</i>	<i>Mstaqlil ta'lif</i>	

III. IXTISOSLIK								
10.	Pasport tizimini ta'minlash	184	132	52	52	24	4	52
14	Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelish-ketish tartibi va tranzit o'tish qoidalari	8	6	2	2	2	-	2
15	O'zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari toifalari	6	4	2	2	-	-	2
16	Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalari	6	4	2	2	-	-	2
17	Vatandoshlar va ularning oila a'zolarini O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish asoslari	6	4	2	2	-	-	2
18	O'zbekiston va qo'shni davlatlar fuqarolarining o'zaro kelib-ketishlari va chegara zonalarida bo'lish tartibi	6	4	2	2	-	-	2
19	O'zbekiston hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi	6	4	2	2	-	-	2
20	O'zbekiston hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi	6	4	2	2	-	-	2
21	Toshkent shahar va Toshkent viloyatida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi	8	6	2	2	2	-	2
22	O'zbekistonda doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxsnинг identifikasiya ID-kartasi	8	6	2	2	2	-	2
23	O'zbekiston Respublikasini fuqaroligi bo'lmagan shaxslarining biometrik harakatlanish hujjati	6	4	2	2	-	-	2
24	Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish soxasidagi huquqbazarliklar uchun javobgarlik	8	6	2	2	2	-	2
25	Buklet yoki plastik ko'rinishidagi biometrik hujjatlarni hisobini yuritish va yo'q qilish tartibi	8	6	2	2	2	-	2
26	Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatiga oid xorijiy tajriba	6	4	2	2	-	-	2

14-MAVZU. ChET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO‘LMAGAN ShAXSLARNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KELISH-KETISH TARTIBI VA TRANZIT O‘TISH QOIDALARI.

Ma’ruza-2 soat

Reja:

- 1. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelish-ketish tartibi.**
- 2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tish qoidalari.**



1-savol. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelish-ketish tartibi.

Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibini yanada soddalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1996 yil 21 noyabr kuni «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi 408-son qarori qabul qildi. Ushbu qaror bilan “Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari va O‘zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibi”, “Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlari qoidalari”, “Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari qoidalari”, “O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari (elektron bo‘limgan) toifalarining ro‘yxati” va “Fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar ro‘yxati” tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar xususiy hamda xizmat ishlari bo‘yicha, turist sifatida, dam olish, o‘qish, ishslash, davolanish va doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari va undan ketishlari mumkin. Keyingi o‘rinlarda matnda «xorijiy fuqarolar» deb ataladi.

Xorijiy fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasiga kirish vizalari, shu jumladan tranzit kirish vizalari:

- O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasalari tomonidan, bunday konsullik muassasalari mavjud bo‘limgan taqdirda esa - O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar

vazirligining ikki tomonlama bitimi mavjud bo‘lgan boshqa davlatlarning konsullik muassasalari tomonidan beriladi.

Bosh konsulliklar, konsulliklar, vitse-konsulliklar, konsullik agentliklari va elchixonalarning konsullik bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi konsullik muassasalari hisoblanadi;

b) xalqaro aeroport maqomiga ega bo‘lgan O‘zbekiston aeroportlaridagi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bo‘linmalari tomonidan beriladi.

Aeroportlarda Tashqi ishlar vazirligining konsullik muassasalari va bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga kirish vizalari xorijiy fuqarolarning barcha toifalariga beriladi.

Kirish vizalari, qoidaga ko‘ra, bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladi. Qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda ma’lum toifadagi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga kirish vizalari uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladi.

Investitsiya kiritish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 8 500 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxona tashkil etish shaklida O‘zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan xorijiy fuqarolarga ko‘p martalik uch yillik investitsiya vizasi (investitsiya vizasi) beriladi va uning amal qilish muddati O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytiriladi.

Bunda investorning oila a’zolariga (turmush o‘rtog‘i, ota-onasi va farzandalari) investitsiya vizasi amal qilish muddatiga mos ravishda mehmon vizasi respublikadan chiqmasdan turib uzaytirish huquqi bilan rasmiylashtiriladi.

«Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chel el fuqarolari, shuningdek, ularning oila a’zolari (er (xotini) va voyaga yetmagan bolalar) davlat boji to‘lamasdan uch yil muddatgacha ko‘p marta foydalilaniladigan vizalarni olish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va uning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi bo‘linmalari vizalarning amal qilish muddatini uzaytirishni xorijiy fuqarolarning quyidagi toifalari uchun amalga oshiradi:

a) O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy davlatlarning doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo‘lmagan) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallari xodimlariga (va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga), shuningdek Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan matbuot vakillariga va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga;

- b) rasmiy va parlament delegasiyalari a'zolariga;
- v) diplomatik maqomga ega bo'lgan boshqa shaxslarga;
- g) «a» kichik bandida ko'rsatilgan xorijiy fuqarolarning taklifi bo'yicha kelganlarga, biroq ko'pi bilan 2 marta kelganlarga.

Vizaning uzaytirilishi respublika hududida rasmiy bo'lishga ruxsatnomaning uzaytirilishini anglatadi. Amaliy jihatdan vizani uzaytirish amal qilish muddati yangilangan yangi viza berish yo'li bilan amalga oshiriladi, xorijiy fuqaro akkreditasiya qilingan taqdirda esa vizaning turi ham o'zgartiriladi.

Ko'p marta foydalaniladigan vizalar Tartibning 3-bandi «a» kichik bandida ko'rsatilgan xorijiy fuqarolarga ular akkreditasiya qilingan muddatga, Tartibning 3-bandi «b», «v» va «g» kichik bandlarida ko'rsatilgan fuqarolarga bir yilgacha muddatga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmalari O'zbekiston Respublikasidan ketish (ketish, ketish-kelish) vizalarini berish va ularning amalda bo'lish muddatini uzaytirishni Tartibning 3-bandida ko'rsatilmagan xorijiy fuqarolar uchun amalga oshiradilar.

Ko'p marta foydalaniladigan vizalar uch yilgacha muddatga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan xorijiy fuqarolarning quyidagi toifalariga va ularning oila a'zolariga beriladi:

a) vakolatxona xodimining akkreditasiya qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi akkreditasiya qilingan firmalar va kompaniyalar doimiy vakolatxonalari xodimlariga beriladi. Viza xorijiy firma yoki kompaniyaning doimiy vakolatxonasi iltimosnomasi asosida beriladi;

b) xorijiy fuqaroning xorijiy bank yoki boshqa moliya tashkiloti shtatiga kiritilganligini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lgan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan xorijiy bank yoki boshqa moliya tashkiloti xodimlariga beriladi. Viza xorijiy bank yoki boshqa moliya tashkilotining iltimosnomasi asosida beriladi;

v) O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki akkreditasiya qilingan qo'shma korxonalar va 100 foiz xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar xodimlariga, ular Tashqi mehnat migrasiyasi agentligining mehnat faoliyati ko'rsatish uchun ruxsatnomasini olganlaridan so'ng, agar ikki tomonlama va ko'p tomonlama hukumatlararo Bitimlar bilan boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, beriladi. Viza korxona iltimosnomasi asosida beriladi.

g) investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashayotgan xorijiy kompaniyalarning mansabdar shaxslari va mutaxassislariga vizalar O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va xo'jalik birlashmalari rahbarlarining iltimosnomalari asosida beriladi.

d) xorijiy investitsiyali korxonalarning muassislari (ishtirokchilari) va ularning oila a'zolari uchun.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan «Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chel el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga, shuningdek, ularning oila a'zolari (er (xotini) va voyaga yetmagan bolalar)ga davlat boji to'lanmasdan uch yil muddatgacha ko'p martalik kirish-chiqish vizalari beriladi va O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqmasdan ularning muddati uzaytiriladi.

Investitsiya vizasi noelektron shaklda berilgan ishbilarmonlik kirish vizasi, mehmon vizasi va vatandoshlar uchun kirish vizasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar hududiy organlari tomonidan beriladi va uzaytiriladi.

Xorijiy fuqaro O'zbekiston Respublikasiga investitsiya vizasi bilan kelgan taqdirda uni uzaytirish O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijiy fuqaro investitsiya vizasini olish va uzaytirish uchun vaqtincha yashash joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari hududiy bo'linmalariga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonasidan iltimosnomani, shuningdek, kiritilgan investitsiyalar to'g'risidagi tegishli ma'lumotnomalardan birini ilova qilib va milliy pasportini ko'rsatib belgilangan shakldagi anketa bilan murojaat qiladi.

Ma'lumotnoma:

«Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasi tomonidan - xo'jalik jamiyatlarining sotib olingan aksiyalari miqdori to'g'risida;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan - xo'jalik jamiyatlarining sotib olingan ulushlari miqdori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalar tashkil etilganligi to'g'risida beriladi.

Investitsiya vizasini olgan xorijiy fuqaro rasmiylashtirilgan vizani investitsiya vizasi amal qilishining qolgan muddati uchun fuqaroligi bo'limgan shaxsning yangi (almashtirishda) milliy pasportiga yoki harakatlanish hujjatiga yopishtirish uchun vaqtincha yashash joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining hududiy bo'linmalariga murojaat qilishga haqlidir.

Investitsiya vizasi berilganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi hisobni va tegishli reestrni yuritish uchun O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligiga va «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasiga har oyda tegishli ma’lumotlarni yuboradi.

Ishtirokchilar ulushlari o‘zgarganligi bilan bog‘liq ustav hujjatlarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasi keyinchalik investitsiya vizasining amal qilish muddatini qisqartirish yoki bekor qilish masalasini ko‘rib chiqish uchun uch kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga ma’lumot yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasiga ma’lum muddatga vizasiz, elektron va turistik viza bilan kelib, shu muddat ichida baxtsiz hodisa (jarohat olganligi yoki boshqa og‘ir kasallik) sababli davolash muassasalariga joylashtirilgan va belgilangan muddatda respublika hududidan chiqib ketish imkonи bo‘lmagan xorijiy fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari tomonidan har bir holat bo‘yicha tegishli davolash muassasasi xorijiy fuqaroning davolanish muddati ko‘rsatilgan holda bergen xulosasiga asosan, ma’muriy choralar qo‘llanilmasdan «chiqish» (EXIT) vizasi rasmiylashtirib beriladi.

Xorijiy fuqaro yoki uning qonuniy vakili davolanish muddati tugagach, uch ish kunida «chiqish» (EXIT) vizasini rasmiylashtirish uchun hududiy ichki ishlar organiga belgilangan tartibda ariza va boshqa tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

Alovida hollarda, epidemiya (pandemiya) munosabati bilan karantin joriy etilgan hududda vaqtincha bo‘lish muddati tugagan xorijiy fuqarolarga, shuningdek, ularni qabul qilgan uy-joy egalari va mansabdor shaxslarga nisbatan karantin muddati tugagunga qadar hududda bo‘lish qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy choralar qo‘llanilmaydi.

Karantin muddati tugaganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasiga ma’lum muddatga vizasiz, elektron va turistik viza bilan kelgan xorijiy fuqarolar 30 sutka ichida «chiqish» (EXIT) vizasini rasmiylashtirmasdan respublika hududidan chiqib ketishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi bilan vizasiz rejim joriy etilgan xorijiy davlatlar fuqarolari hamda viza asosida yashayotgan xorijiy fuqarolar karantin muddati tugagach, belgilangan tartibda uch ish kuni ichida hududiy ichki ishlar organlariga tegishli hududda vaqtinchalik bo‘lish muddatini uzaytirish masalasida ularni taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslar orqali murojaat qilishlari mumkin.

Bo‘lish muddati karantin muddati tugagan kundan boshlab uzaytiriladi.

O‘zbekiston Respublikasiga kelish uchun berilgan viza, tranzit vizadan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida haqiqiy hisoblanadi, xorijiy fuqarolarning borishlari uchun yopiq bo‘lgan joylar, ob’ektlar bundan mustasnodir.

O‘zbekiston Respublikasiga kirish va chiqish vizalarini berish yoki amal qilish muddatini uzaytirish uchun xorijiy fuqarolardan:

a) O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan tartibda va miqdorda konsullik yig‘imlari, shuningdek, konsullik ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqiy xarajatlarni qoplash hisobiga O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va konsullik muassasalari boshliqlari yoki O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari boshliqlari tomonidan belgilanadigan tartibda va miqdorda yig‘imlar undiriladi;

b) O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tomonidan «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi.

Xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari va ketishlari tartibi, ularga vizalar berish hamda ularning amal qilish muddatlari O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama bitimlari bilan, tenglik asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari bilan o‘zgartirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Xorijiy tashuvchilarining davlatlarida bo‘lish uchun O‘zbekiston Respublikasining tashuvchilariga beriladigan muddatlarga mos ravishda O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy tashuvchilarining bo‘lish muddatlariga hamda respublika hududida uzoq muddat bo‘lish uchun ruxsatnoma faqat asoslangan sabablar mavjudligida taqdim etilishiga nisbatan choralarni ko‘rish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasiga kelish va O‘zbekiston Respublikasidan ketish vizalarini rasmiylashtirish tartibining o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘zbekiston Respublikasiga kelish vizalarini rasmiylashtirish tartibi. Yuridik shaxslar yoki O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy davlatlarning doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, xorijiy fuqarolarning, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo‘lmagan) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallari taklifi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasiga kelmoqchi bo‘lgan xorijiy fuqarolar vizalar olish uchun O‘zbekiston Respublikasining chet eldagil konsullik muassasalariga, bunday muassasalar bo‘lmagan taqdirda - O‘zbekiston Respublikasi uchun konsullik funksiyalarini bajarish yuzasidan kelishib olingen boshqa davlatlar konsullik muassasalariga to‘ldirilgan belgilangan shakldagi viza anketasiga taklifnomaga va milliy pasportni yoki uning o‘rnini bosadigan hujjatni (keyingi o‘rinlarda matnda «milliy pasport» deb yuritiladi) ilova qilgan holda murojaat qiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xorijiy fuqarolar - xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo‘lman) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallari xodimlari hamda ularning oila a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining akkreditasiya kartochkasi asosida viza olish va uning amal qilish muddatini uzaytirish uchun murojaat qiladilar.

Yuridik shaxslar yoki O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy davlatlarning doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo‘lman) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallari xorijiy fuqarolarga taklifnomalarni faqat O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga viza berilishida yordam ko‘rsatish to‘g‘risida iltimosnoma bergenlaridan keyingina yuboradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy davlatlarning doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, xorijiy fuqarolarning, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo‘lman) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallarining yozma murojaatlarini ko‘rib chiqadi va chet eldag'i konsullik muassasalariga tegishli ko‘rsatmalar yuboradi.

Yuridik shaxslarning taklifnomalariga binoan O‘zbekiston Respublikasiga kontrakt va shartnomalar bo‘yicha uch oydan ortiq muddatga ishga kelayotgan xorijiy fuqarolarga vizalar berish belgilangan tartibga muvofiq Tashqi mehnat migrasiyasi agentligi tomonidan xorijiy fuqaroga berilgan mehnat faoliyatiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy fuqarolar - xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari xodimlari va ularning oila a’zolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan matbuot vakillari va ularning oila a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining akkreditasiya kartochkasi asosida vizalarning amal qilish muddatini uzaytirish uchun murojaat qiladilar.

Viza berish hujjatlarini ko‘rib chiqish va xorijiy fuqaroga kelish vizasini rasmiylashtirish muddati 10 sutkadan oshmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasiga fuqarolar taklifnomasi bo‘yicha yoki doimiy yashash uchun kelmoqchi bo‘lgan xorijiy fuqarolar vizalar olish uchun O‘zbekiston Respublikasining chet eldag'i konsullik muassasalariga, bunday muassasalar bo‘lman taqdirda - O‘zbekiston

Respublikasi uchun konsullik funksiyalarini bajarish yuzasidan kelishib olingen boshqa davlatlarning konsullik muassasalariga to‘ldirilgan belgilangan shakldagi viza anketasiga taklifnomani va milliy pasportni ilova qilgan holda murojaat qiladilar.

Chet eldan xorijiy fuqarolarni taklif qilmoqchi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha (3 oydan ortiq) yashab turgan va doimiy yashayotgan xorijiy fuqarolar yashash joyidagi ichki ishlar organlariga ikki nusxada to‘ldirilgan belgilangan shakldagi anketa-ariza bilan murojaat qiladilar.

Fuqarolarning taklifnomasi bo‘yicha xorijiy fuqaroga O‘zbekiston Respublikasiga kelishga viza berish uchun ruxsatnomani rasmiylashtirish muddati 15 sutkadan oshmasligi kerak. O‘zbekiston Respublikasiga doimiy yashash uchun kelayotgan xorijiy fuqarolar uchun hujatlarni ko‘rib chiqish muddati ayrim hollarda 30 sutkagacha uzaytirilishi mumkin.

Xorijiy fuqarolar turist sifatida kelish vizalarini olish uchun O‘zbekiston Respublikasining chet eldag‘i konsullik muassasasiga, bunday muassasalar bo‘lmagan taqdirda - O‘zbekiston Respublikasi uchun konsullik funksiyasini bajarish yuzasidan kelishib olingen boshqa davlatlarning konsullik muassasalariga to‘ldirilgan belgilangan shakldagi viza anketasiga milliy pasportni va o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirayotgan turistik tashkilotlarning taklifnomasini taqdim etgan holda murojaat qiladilar.

Xorijiy fuqaroning turist sifatida kelish vizasini rasmiylashtirish O‘zbekiston Respublikasining chet eldag‘i konsullik muassasasi tomonidan 3 sutkadan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi, bayram va dam olish kunlari bundan mustasnodir.

Xorijiy davlatda O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasiga turistlar sifatida kelayotgan xorijiy fuqarolarga kelishketish vizalarini O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining aeroportlardagi konsullik byurosi tomonidan berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Xorijiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining turistik vizasida ko‘rsatilgan muddatdan oldin kelgan taqdirda turistik vizalarga O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining konsullik byurolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o‘tish punktlarida tegishli o‘zgartirishlar kiritishga ruxsat etiladi.

Fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxatiga kiritilgan xorijiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining chet eldag‘i konsullik muassasalari va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamentiga murojaat qilmasdan, O‘zbekiston Respublikasi hududiga 30 kun muddatga bir martalik, ikki martalik va ko‘p martalik kirish uchun «e-visa.gov.uz» portali orqali «E-

VISA.UZ» tizimi yordamida elektron vizani rasmiylashtirishlari va olishlari mumkin. Elektron vizani rasmiylashtirish va olish tartibi Elektron viza to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

Elektron vizani rasmiylashtirish va berishga doir murojaatni ko‘rib chiqish muddati murojaat berilgan kundan tashqari ikki ish kunini tashkil etadi.

Xorijiy fuqarolar tranzit vizasini olish uchun O‘zbekiston Respublikasining chet eldag‘i konsullik muassasasiga, bunday muassasalar bo‘lmagan hollarda - O‘zbekiston Respublikasi uchun konsullik funksiyalarini bajarish yuzasidan kelishib olingan boshqa davlatlarning konsullik muassasalariga to‘ldirilgan belgilangan shakldagi viza-anketa bilan murojaat qiladilar hamda milliy pasportni, borilayotgan davlat vizasini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidan borilayotgan davlatga jo‘nab ketish sanasi tasdiqlangan yo‘l hujjatlarini taqdim etadilar.

O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali shaxsiy, yo‘lovchilar tashish yoki yuk transportida tranzit bilan o‘tib ketadigan xorijiy (haydovchilar) fuqarolar (72 soatdan ko‘p bo‘lmagan muddat mobaynida) viza anketasi, milliy pasport va borilayotgan mamlakat vizasidan tashqari xalqaro namunadagi haydovchilik guvohnomasini, transportga egalikni va avtotransportning texnik holatini tasdiqlovchi hujjatlarni, yukning borilayotgan mamlakatga yetkazib berilishini tasdiqlovchi yuk hujjatlarini va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etadilar.

Tranzit vizani O‘zbekiston Respublikasining chet eldag‘i konsullik muassasasi tomonidan rasmiylashtirish 3 sutka mobaynida amalga oshiriladi.

Xorijda bo‘lgan xorijiy fuqarolarga investitsiya vizasini rasmiylashtirish O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijda bo‘lgan xorijiy fuqarolarga investitsiya vizasini rasmiylashtirish uchun iltimos qiluvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonasidan iltimosnomani, taklif qilayotgan shaxs pasporti nusxasini, shuningdek, kiritilgan investitsiyalar to‘g‘risidagi tegishli ma’lumotnomalardan birini ilova qilib belgilangan namunadagi anketa bilan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamentiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘linmalariga murojaat qiladi.

Ma’lumotnomasi:

«Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasi tomonidan - xo‘jalik jamiyatlarining sotib olingan aksiyalari miqdori to‘g‘risida;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan - xo‘jalik jamiyatlarining sotib olingan ulushlari

miqdori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalar tashkil etilganligi to‘g‘risida beriladi.

Investitsiya vizasi O‘zbekiston Respublikasining chet eddag'i konsullik muassasalari tomonidan milliy pasport ilova qilingan holda belgilangan shakldagi viza anketasini to‘ldirishda yoxud kelganidan keyin - xalqaro maqomga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi bo‘lmagan davlatlardan kelgan shaxsga iltimosnomani rasmiylashtiruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona investitsiya vizasini kelganidan keyin xalqaro maqomga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida rasmiylashtirish masalasini O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘linmalari bilan oldindan ishlab chiqadi.

Investitsiya vizasini olgan xorijiy fuqaro rasmiylashtirilgan vizani investitsiya vizasi amal qilishining qolgan muddati uchun fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning yangi (almashtirilganda) milliy pasportiga yoki harakatlanish hujjatiga yopishtirish uchun O‘zbekiston Respublikasining chet eldag'i konsullik muassasasiga yoxud O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamentiga, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘linmalariga murojaat qilishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasining chet eldag'i diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari boshliqlari alohida hollarda xorijiy fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasiga kelish vizasini berish to‘g‘risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqiga egadirlar. Bunda ular qabul qilingan qaror to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga bir sutka mobaynida xabarnoma yo‘llaydilar.

O‘zbekiston Respublikasidan ketish vizalarini rasmiylashtirish tartibi.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasidan ketish hujjatlarini olganlaridan so‘ng viza olish uchun tegishli davlatlarning diplomatik va konsullik vakolatxonalariga murojaat qiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning yashash uchun guvohnomasi va doimiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi:

xorijiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha chiqqanda, agar ular uch yildan ortiq vaqt mobaynida uzrli sabablarsiz O‘zbekistondagi doimiy yashash joyiga qaytmasa;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan vaqtincha tashqariga chiqqan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning harakatlanish hujjatining amal qilish muddati tamom bo‘lgach, agar ular harakatlanish hujjatini almashtirmasa yoxud uzrli sabablarsiz uni almashtirishni rad etsa;

bekor qilish to‘g‘risida shaxsan murojaat qilsa yoxud notarial tasdiqlangan ishonchnoma bo‘yicha boshqa shaxs murojaat qilsa yoki chet eldagil tegishli organlarning so‘rovi bo‘yicha bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan ketish huquqidagi cheklashlar.

Xorijiy fuqaroning O‘zbekiston Respublikasiga kelishi quyidagi hollarda rad etilishi mumkin:

a) milliy xavfsizlik yoki jamoat tartibini muhofaza qilishni ta’minalash manfaatlari yo‘lida;

b) agar bu O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va boshqa shaxslarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lsa;

v) agar shaxs chet el terrorchi, ekstremist va boshqa jinoiy tashkilotlarning faoliyatiga aloqador bo‘lsa;

g) agar shaxs o‘zi haqida qasddan soxta ma’lumotlar bergan bo‘lsa yoki zarur hujjatlarni taqdim etmagan bo‘lsa;

d) agar shaxs ilgari xorijiy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelish-ketish tartibini hamda bu yerda bo‘lish qoidalarini, O‘zbekiston Respublikasining bojxona, valyuta va boshqa qonunchilagini buzganligi aniqlangan bo‘lsa;

ye) agar shaxs kasal bo‘lsa yoki uning salomatligi jamiyat xavfsizligi va sog‘lomligiga xavf tug‘dirsa hamda ushbu kasallik O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lini saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilgan bo‘lsa.

Qaror bilan tasdiqlangan Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlari qoidalarining 22-bandiga muvofiq xorijiy fuqaroga nisbatan O‘zbekiston Respublikasiga kelish cheklangan bo‘lsa, unga O‘zbekiston Respublikasiga kelishi rad etiladi.

Xorijiy fuqaroning O‘zbekiston Respublikasidan ketishiga quyidagi hollarda ruxsat berilmaydi:

a) agar uning ketishi davlat xavfsizligini ta’minalash manfaatlariga zid bo‘lsa - ketishga to‘sinqinlik qiluvchi holatlarning amal qilish muddati tugagungacha;

b) agar shaxsga nisbatan uning doimiy yashash uchun chet elga ketishiga to‘sinqinlik qiluvchi shartnomasi, kontrakt majburiyatlar amalda bo‘lsa - ushbu majburiyatlar to‘xtatilgunga qadar;

v) agar shaxsga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa - ish oxiriga yetkazilgunga qadar yoki uning yuzasidan sud qarori qabul qilingunga qadar;

g) agar shaxs jinoyat sodir etganligi uchun jazoga hukm qilingan bo‘lsa - jazoni o‘tab bo‘lgungacha yoki jazodan ozod etilmaguncha;

d) agar shaxs unga sud tomonidan yuklangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortayotgan bo‘lsa - majburiyatlarni to‘liq bajarib bo‘lgunga qadar;

ye) agar shaxs o‘zi haqida qasddan soxta ma’lumotlar bergen bo‘lsa;

j) agar sudda shaxsga nisbatan fuqarolik da’vosi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa - sud tomonidan qaror qabul qilinib va u ijro etilgunga qadar.

Chet elga ketish huquqi rad etilganligi ustidan shikoyat qilish tartibi.

Tartibning IV bo‘limida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha chet elga ketish huquqining rad etilishi, javob berishning belgilangan muddatidan ortiqcha kechiktirilishi ustidan xorijiy fuqarolar yuqori organlarga shikoyat qilishlari mumkin, bu organlar bir oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda javob berishlari kerak, xorijiy fuqaro uning qaroridan norozi bo‘lganda, sudga shikoyat qilishi mumkin. Chet elga ketish huquqini Tartibning 20-bandи «b» kichik bandida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra cheklash ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.



**2-savol. Chet el fuqarolari va fuqaroligi
bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston
Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tish
qidaları.**

Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-son qarori bilan tasdiqlangan “**Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari Qoidalari**” asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tuvchi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari va O‘zbekiston Respublikasidan ketishlariga, agar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan berilgan tranzit vizalar mavjud bo‘lgan taqdirda haqiqiy pasportlar yoki ularning o‘rnini bosuvchi hujjatlar bo‘yicha ruxsat beriladi. Keyingi o‘rinlarda matnda «xorijiy fuqarolar» deb ataladi.

Xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali o‘zlari boradigan mamlakatga havo, temir yo‘l va suv transporti bilan tranzit o‘tishlariga O‘zbekiston Respublikasi bilan qo‘shti bo‘lgan davlatga borish uchun haqiqiy hisoblangan hujjatlar va tegishli o‘tish hujjatlari (ularda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi boshqa transportga o‘tirish punktidan ketish sanasi tasdiqlangan holda) mavjud bo‘lgan taqdirda ruxsat beriladi.

Xalqaro tranzit avtotashishlarni amalga oshiruvchi xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi orqali tranzit o‘tishlari va ularning yengil avtomobilarda tranzit o‘tishlari O‘zbekiston Respublikasiga qo‘shti bo‘lgan davlatga o‘tish uchun haqiqiy bo‘lgan hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda, shuningdek, davlatlararo bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Tranzit vizalar O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘xtash huquqisiz beriladi. Istisno hollarda xorijiy fuqarolarga qo‘shti davlatga o‘tish yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududida bir yoki bir necha punktda to‘xtash huquqi bilan tranzit viza berilishi mumkin.

Quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali vizasiz tranzit o‘tishga ruxsat beriladi:

- a) havo transporti yo‘lovchilari O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali qo‘nmasdan uchib o‘tganlarida;
- b) xalqaro aviayo‘nalishlar samolyotlarida samolyotdan samolyotga o‘tib uchishda hamda yo‘lovchilarda boriladigan mamlakatga kirish huquqini beruvchi hujjatlar va aviachiptalar mavjud bo‘lganda, ularda samolyotdan samolyotga o‘tish sanasi tasdiqlanganda, O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lish vaqtiga 24 soatdan oshmaganda. Bunda yo‘lovchilar aeroportning ular uchun maxsus ajratilgan hududidan tashqariga chiqish huquqiga ega bo‘lmaydilar;
- v) O‘zbekiston Respublikasi tegishli hukumatlararo bitimlarga ega bo‘lgan mamlakatlar fuqarolariga.
- g) O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shtinlari bo‘linmalariga passajirlar to‘g‘risida oldindan o‘z vaqtida ma’lumot beradigan tashuvchining uchinchi mamlakatga aviabileti mavjud bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo‘shtimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018 yil 4 iyuldaggi PQ-3836-son qaroriga 2-ilovada ko‘rsatilgan davlatlarning O‘zbekiston Respublikasidan tranzit orqali o‘tadigan fuqarolariga besh sutkadan ortiq bo‘lmagan muddatda.

O‘zining shaxsiy transport vositasida, piyoda yoki guruh tarkibida avtobusda turizm maqsadida tranzit yurmoqchi bo‘lgan xorijiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasiga kelgungacha

O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi turizm tashkilotlarining avtoturlarini belgilangan tartibda, to‘xtash joylarini ko‘rsatgan holda olishi hamda tegishli turizm vizasiga ega bo‘lishi shart, o‘zlariga nisbatan viza rejimi qo‘llanmaydigan xorijiy fuqarolar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tuvchi xorijiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasidan chiqish chegara punktidan mazkur qoidalarga rioya qilgan holda belgilangan yo‘nalish bo‘yicha yuradilar hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida faqat tranzit vizalarda ko‘rsatilgan punktlarda to‘xtashlari mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali avtotransport vositalarida tranzit o‘tuvchi, shu jumladan avtomobilda xalqaro yuk tashishlarni amalga oshiruvchi xorijiy fuqarolar faqat xalqaro avtomobil qatnovi uchun ochiq bo‘lgan yo‘llar va yo‘nalish varaqasida ko‘rsatilgan yo‘nalish bo‘yicha yurishlari mumkin.

Mazkur bandning birinchi xatboshida nazarda tutilgan talablar O‘zbekiston Respublikasi chegaralari orqali safar yo‘nalishi qayd etilgan avtotransport vositasida (tunash uchun qayta butlangan yer usti avtotransport vositasida) turistik (notijorat) maqsadlarda tranzit o‘tayotgan chet el fuqarolariga tatbiq etilmaydi.

Ovqatlanish, dam olish va tunab qolish uchun faqat motellar, kempinglar yoki maxsus ajratilgan to‘xtash joylari mavjud bo‘lgan yo‘nalishdagi punktlarda to‘xtash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasidan temir yo‘l orqali o‘tayotgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tayotgan poezdlarda o‘tayotgan xorijiy fuqarolar poezd to‘xtab turishining amaldagi jadvalda ko‘rsatilgan vaqtida stansiyalarga tushish huquqiga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida 24 soatdan ortiq bo‘lmagan muddatda bir yoki bir necha punktda to‘xtash ko‘rsatilgan tranzit vizaga ega bo‘lgan xorijiy fuqarolar ushbu punktlarga kelganlaridan keyin Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlari qoidalari bilan belgilangan tartibda joylashish vositalari va davolash muassasalarida hisobga turishga yoki vaqtincha ro‘yxatdan o‘tishga va ular uchun belgilangan bo‘lish muddatidan kechikmay O‘zbekiston Respublikasidan jo‘nab ketishga majburdirlar.

Tranzit o‘tuvchi va O‘zbekiston Respublikasi hududida 24 soatdan ortiq muddatga majburiy to‘xtagan xorijiy fuqarolar to‘xtash paytidan boshlab keyingi sutka mobaynida ichki ishlar organlarida O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish ruxsatnomasini rasmiylashtirishga majburdirlar.

Majburiy to‘xtash quyidagi hollarda bo‘lishi mumkin:

a) poezd, avtotransport vositasi, kema yoki samolyotning harakatini to‘xtatuvchi tabiiy ofatlar yuz berganda;

b) avtomobilning biron-bir qismi buzilishi yoki yo‘l-transport hodisasi yuz berishi natijasida shikastlangan avtotransport vositasini tuzatish uchun;

v) vrachning xulosasiga ko‘ra bemorning yo‘lda yurishi uning salomatligi uchun xavfli hisoblangan kasallik holatida. Bunday holda u bilan birga borayotgan oila a’zolari yoki hamrohlik qilayotgan shaxslar bemorning oldida qolishlari mumkin.

g) yo‘llar tutashgan joyda bir transport turidan boshqasiga o‘tirish kechikkanda.

Majburiy to‘xtash xorijiy fuqarolarga bunday to‘xtash yuz bergen shahar yoki boshqa aholi yashaydigan joy doirasida majburiy to‘xtashni keltirib chiqargan sabab bartaraf etilgunga qadar bo‘lish huquqini beradi.

Bo‘lishni va tranzit vizalarning amal qilish muddatini uzaytirishni rasmiylashtirish yo‘nalish yo‘lida to‘xtash sababi va muddatini tasdiqlovchi tegishli tashkilot yoki muassasaning ma’lumotnomasi ko‘rsatilgan holda xorijiy fuqaroning shaxsiy arizasiga binoan amalga oshiriladi.

Quyidagilar to‘xtash vaqtida xorijiy fuqarolar yashaydigan joylar bo‘lishi mumkin:

b) o‘z faoliyatini belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan joylashish vositalari va davolash muassasalari.

v) tranzit yo‘lovchi u bilan birga bo‘ladigan vakolatxonadagi aniq shaxs ko‘rsatilgan holda xorijiy vakolatxonaning yozma iltimosnomasi bo‘lgan taqdirda akkreditasiya qilingan xorijiy vakolatxona binosi.

To‘xtash vaqtida xorijiy fuqarolarning yotoqxonalar va shaxsiy kvartiralarda yashashlariga istisno hollarda va faqat ichki ishlar organlarining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida 24 soatdan ortiq bo‘limgan muddatda majburiy to‘xtagan xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketishlariga tranzit viza ichki ishlar organlarida uzaytirilmasdan ruxsat berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tuvchi, yo‘nalishni va O‘zbekiston Respublikasidan chiqish chegara punktini o‘zgartirishni istovchi xorijiy fuqarolar buning uchun ichki ishlar organlarining ruxsatnomasini olishlari shart.

Mazkur qoidalarning shubhasiz buzilishiga olib keladigan hollarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijiy fuqarolarga joy, transport vositalari berishlariga yoxud ularga boshqa xizmatlar ko‘rsatishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xorijiy fuqarolarga joy va transport vositalari berilgan barcha hollarda ularning egalari bu haqda bir sutkadan kechikmay ichki ishlar organlariga ma’lum qilishlari shart.

Xorijiy fuqarolar mazkur Qoidalar buzilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Xorijiy davlatlarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxonalari va konsullik muassasalari boshliqlari va xodimlarining javobgarligi to‘g‘risidagi masala diplomatik yo‘l bilan hal etiladi.

Mazkur qoidalarning xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tish shartlariga rioya qilishlarini ta‘minlovchi yoxud ularga xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar tomonidan buzilishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1996 yil 21 noyabr kuni «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi 408-sun qarorini to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

MUSTAQIL TA’LIM UChUN SAVOLLAR:

1. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari Qoidalari;
2. O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali vizasiz tranzit o‘tishga ruxsat berish tartibi;
3. Tranzit o‘tuvchilarning majburiy to‘xtash holatlari;
4. To‘xtash vaqtida xorijiy fuqarolar yashaydigan joylar;
5. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari Qoidalari buzilganligi uchun javobgarligi;
6. O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalar (elektron bo‘lmagan) toifalari;
7. Fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar;
8. Xorijiy fuqarolar “Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari Qoidalari” buzilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortilishi.
9. Xorijiy fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasiga kirish vizalari, shu jumladan tranzit kirish vizalari berilishi;


10. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va uning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi bo‘limmalari vizalarning amal qilish muddatini uzaytirish;
11. Xorijiy fuqaroga investitsiya vizasi berilishi;
12. «Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chel el fuqarosiga viza berilishi;
13. O‘zbekiston Respublikasiga kirish va chiqish vizalarini berish yoki amal qilish muddatini uzaytirish;
14. O‘zbekiston Respublikasiga kelish vizalarini rasmiylashtirish tartibi;
15. O‘zbekiston Respublikasidan ketish vizalarini rasmiylashtirish tartibi;
16. O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan ketish huquqidagi cheklashlar.

14-mavzu. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelish-ketish tartibi va tranzit o‘tish qoidalari.

Seminar – 2 soat

1-savol. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelish-ketish tartibi.


Ushbu o‘quv mashg‘uloti **“Klaster”** interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.



2-savol. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari qoidalalariga rioya etishlari tartibi

O‘quv mashg‘uloti “**Kichik guruhlarda ishslash**” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

“Kichik guruhlarda ishslash” metodining bosqichlari



IZOX: Ushbu metod qo‘llanilganda har bir guruhga shartli nom berilib, ularning javoblari besh ballik tizim asosida baxolanadi. Bir guruh boshqa guruhning savoliga to‘g‘ri javob bersa ballar to‘g‘ri javob bergan guruh hisobiga yoziladi. Guruhlarni har bir guruhning javobi tinglanadi umumlashtiriladi, qo‘sishimchalar bilan to‘ldiriladi. Aniq javoblar to‘xtamiga kelinadi.

O‘quv mashg‘ulotining guruhlarga topshiriqlari:

1-guruhga topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali vizasiz tranzit o‘tishga ruxsat berish.

2-guruhga topshiriq. Majburiy to‘xtash holatlari.

3-guruhga topshiriq. O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari (elektron bo‘lmasan) toifalari.

4-guruhga topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tuvchi xorijiy fuqarolar to‘xtash vaqtida xorijiy fuqarolar yashaydigan joylar.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1996 yil 21 noyabr kuni «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi 408-son qarorini to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

14-mavzu. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelish-ketish tartibi va tranzit o‘tish qoidalari.

Amaliy mashg‘uloti -2 soat

15-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KIRISH, CHIQISH VA TRANZIT VIZALARI TOIFALARI.

Ma’ruza-2 soat

Reja:

- 1. O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari (elektron bo‘lmagan) toifalarining ro‘yxati.**
- 2. Fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar.**

1-savol. O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari (elektron bo‘lmagan) toifalarining ro‘yxati.

Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibini yanada soddalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1996 yil 21 noyabr kuni «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi 408-son qarori qabul qildi. Ushbu qarorning 4-ilovasi bilan “O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari (elektron bo‘lmagan) toifalarining ro‘yxati” va 5-ilovasi bilan “Fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar ro‘yxati” tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar xususiy hamda xizmat ishlari bo‘yicha, turist sifatida, dam olish, o‘qish,

ishlash, davolanish va doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari va undan ketishlari mumkin.

Xorijiy fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasiga kirish vizalari, shu jumladan tranzit kirish vizalari:

a) O‘zbekiston Respublikasining chet eldag'i konsullik muassasalari tomonidan, bunday konsullik muassasalari mavjud bo‘lmagan taqdirda esa — O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ikki tomonlama bitimi mavjud bo‘lgan boshqa davlatlarning konsullik muassasalari tomonidan beriladi.

Bosh konsulliklar, konsulliklar, vitse-konsulliklar, konsullik agentliklari va elchixonalarning konsullik bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi konsullik muassasalari hisoblanadi;

b) xalqaro aeroport maqomiga ega bo‘lgan O‘zbekiston aeroportlaridagi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bo‘linmalari tomonidan beriladi.

Aeroportlarda Tashqi ishlar vazirligining konsullik muassasalari va bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga kirish vizalari xorijiy fuqarolarning barcha toifalariga beriladi.

Kirish vizalari, qoidaga ko‘ra, bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ma’lum toifadagi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga kirish vizalari uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari (elektron bo‘lмаган)

toifalarining

RO‘YXATI

T/r	Tur	Ta’rif
1.	D-1	<p align="center">Diplomatik kirish vizasi (doimiy akkreditasiya qilinganlar uchun)</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy davlatlarning doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy turgan xodimlari va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga (diplomatik pasportga ega bo‘lgan) akkreditasiya muddatiga beriladi.</p>
2.	D-2	<p align="center">Diplomatik kirish vizasi (vaqtincha turganlar uchun)</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy davlatlarning doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukamatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan xodimlari va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga (diplomatik pasportga ega bo‘lgan) 3 oygacha muddatga beriladi.</p>
3.	DT	<p align="center">Diplomatik kirish vizasi (diplomatik pasport egalari uchun turistik)</p> <p>O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kirayotgan xorijiy davlatlarning diplomatik xodimlari va xalqaro hukamatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining xodimlari va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga (diplomatik pasportga ega bo‘lgan) 1 oygacha muddatga beriladi.</p>
4.	S-1	<p align="center">Xizmat kirish vizasi (doimiy akkreditasiya qilinganlar uchun)</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy davlatlarning vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy turgan xodimlari va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga (diplomatik pasportga ega bo‘lмаган), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo‘lмаган) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallarining O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy turgan xodimlariga va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga akkreditasiya muddatiga beriladi.</p>
5.	S-2	<p align="center">Xizmat kirish vizasi (vaqtincha)</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilingan xorijiy davlatlarning vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan xodimlari va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga (diplomatik pasportga ega bo‘lмаган), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo‘lмаган) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallarining O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan xodimlariga va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga 3 oy muddatgacha beriladi.</p>

		Xizmat kirish vizasi (O‘zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlarining taklifi bo‘yicha) O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, qonunchilikda nazarda tutilgan, shuningdek, Prezident va Hukumat tashabbusi bilan tashkil etilgan nodavlat notijorat birlashmalar taklifi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasiga xizmat safariga keluvchi xorijiy fuqarolarga 1 yil muddatgacha beriladi.
6.	S-3	Rasmiy kirish vizasi (rasmiy va davlat tashriflari doirasida) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining taklifi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyuruvchi rasmiy delegasiya a’zolariga rasmiy tadbirlar o’tkazish muddatiga beriladi.
7.	O	Ishbilarmonlik kirish vizasi (O‘zbekiston Respublikasining profil muassasalari va idoralarida akkreditasiya qilinganlar uchun) O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy tijorat tashkilotlari vakolatxonalari, shuningdek xorijiy banklar yoki boshqa moliyaviy tashkilotlar xodimlariga akkreditasiya muddatiga beriladi.
8.	V-1	Ishbilarmonlik kirish vizasi (biznes viza) O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha turgan ishbilarmonlik doiralari vakillariga 1 yil muddatgacha beriladi.
9.	V-2	Turistik kirish vizasi O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda tashrif buyurayotgan xorijiy fuqarolarga 1 oy muddatgacha beriladi.
10.	T	Guruqli turistik kirish vizasi O‘zbekiston Respublikasiga kamida 5 kishidan iborat bo‘lgan turistik guruh tarkibida turistik maqsadlarda tashrif buyurayotgan xorijiy fuqarolarga 1 oy muddatgacha beriladi.
11.	TG	Ziyorat kirish vizasi Turistik faoliyat sub’ektlari va O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining so‘rovnomalari bo‘yicha O‘zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy-ma’naviy merosi, an’analarini o‘rganish uchun xorijiy fuqarolarga 2 oy muddatgacha beriladi.
12.	PLG	Ishchi kirish vizasi (O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migrasiyasi agentligi litsenziyasи asosida) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migrasiyasi tomonidan xorijiy fuqaroga berilgan mehnat faoliyati huquqi tasdiqlangan muddatga beriladi.
13.	E	Matbuot vakillari uchun kirish vizasi (O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida doimiy akkreditasiya qilingan) O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida doimiy akkreditasiya qilingan xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari va ularning qaramog‘ida bo‘lgan ularning oila a’zolariga akkreditasiya muddatiga beriladi.
14.	J-1	Matbuot vakillari uchun kirish vizasi («Dunyo» AAda vaqtincha akkreditasiya qilinganlar) O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida vaqtincha akkreditasiya qilingan xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillariga akkreditasiya muddatiga beriladi.
15.	J-2	Mehmon kirish vizasi (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi orqali O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining taklifi

		bo'yicha) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining taklifi bo'yicha mehmon safarini amalga oshiruvchi xorijiy fuqarolarga 1 yilgacha muddatga beriladi.
17.	PV-2	Mehmon kirish vizasi (xorijiy fuqarolarning taklifi bo'yicha) O'zbekiston Respublikasida doimiy akkreditasiya qilingan va ro'yxatdan o'tkazilgan xorijiy fuqarolar taklifi bo'yicha mehmon safarini amalga oshiruvchi xorijiy fuqarolarga 1 yilgacha muddatga beriladi.
18.	VTD	Vatandoshlar uchun kirish vizasi (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi orqali O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining taklifi bo'yicha) O'zbekiston Respublikasida tug'ilganlar va ularning oila a'zolari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan va uning hududida doimiy yashovchi ularning qarindoshlari tomonidan taklifnomalar mavjud bo'lganda 2 yilgacha muddatga beriladi.
19.	STD	Talabalar kirish vizasi (oliy ta'lif muassasalararo almashish asosida — vaqtincha ta'lif olish davriga) O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan oliy ta'lif muassasalarida qisqa muddatda (oliy ta'lif muassasalararo almashishga binoan yoki oliy ta'lif muassasalararo o'zaro aloqalar doirasida vaqtincha asosda) ta'lif oluvchi xorijiy talabalarga 1 yilgacha muddatga beriladi, o'z tasarrufida ta'lif muassasasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining ta'lif muassasalari, vazirliklar, idoralar va tashkilotlar iltimosnomalariga ko'ra rasmiylashtiriladi.
20.	A-1	O'quv kirish vizasi (doimiy asosda — ta'lif davriga) O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchi xorijiy talabalarga 1 yilgacha muddatga beriladi, o'z tasarrufida ta'lif muassasasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining ta'lif muassasalari, vazirliklar, idoralar va tashkilotlar iltimosnomalariga ko'ra rasmiylashtiriladi.
21.	A-2	O'qituvchilar kirish vizasi (O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy asosda ishga joylashishda) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimi o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy o'quv muassasalari filiallarining professor-o'qituvchilar tarkibiga — xorijiy fuqarolarga 1 yilgacha muddatga beriladi. O'z tasarrufida ta'lif muassasasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining ta'lif muassasalari, vazirliklar, idoralar va tashkilotlar iltimosnomalariga ko'ra rasmiylashtiriladi.
22.	A-3	Akademik kirish vizasi (vaqtincha asosda) O'zbekiston Respublikasida ilmiy-tadqiqot (dissertasiyalar, ilmiy ishlar uchun materiallar to'plash) va o'qituvchilik faoliyatini (qisqa muddatli sayyor ma'ruzalar) yuritishni xohlaydigan xorijiy shaxslar uchun 3 oydan 2 yilgacha muddatga beriladi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalari, vazirliklar yoki idoralar iltimosnomalariga ko'ra rasmiylashtiriladi.
23.	MED	Tibbiy kirish vizasi Davolash-profilaktika muassasalari taklifi bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga davolanish uchun keladigan xorijiy fuqarolar uchun 3

		oygacha muddatga beriladi.
24.	S-1	Ekipaj uchun kirish vizasi Havo kemalari va temir yo‘l tarkiblari ekipajlarining xorijiy a’zolariga 1 yilgacha muddatga beriladi.
25.	S-2	Haydovchilar uchun kirish vizasi Yuk tashuvchi avtotransport vositalarining xorijiy haydovchilariga 1 yilgacha muddatga beriladi.
26.	EXIT	Chiqish vizasi Xorijiy fuqarolar tomonidan kirish vizalarining muddati kechiktirilgan hollarda ularning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishi uchun 1 oygacha muddatga beriladi.
27.	TRAN	Tranzit vizasi O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit bilan o‘tuvchi xorijiy fuqarolarga 3 kungacha muddatga beriladi.
28.	INV	Ko‘p martalik investitsiya vizasi Xorijiy investitsiyalarni kiritish paytida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan 8500-martali bazaviy to‘lov kattaligidan kam bo‘lмаган miqdorda xo‘jalik uyushmalarining aksiyalari va ulushlarini olish, shuningdek xorijiy investitsiyalar ishtirokida bo‘lgan korxonalarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiya kiritayotgan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqmasdan uning muddatini uzaytirish imkoniyati bilan ushbu korxonalarning so‘rovnomalari bo‘yicha beriladi, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga rasmiylashtiriladi, 3 yilgacha amal qilish muddati bilan beriladi.
29.	IT	Ko‘p martalik «IT-visa» axborot texnologiyalari sohasidagi xorijiy investorlar va mutaxassislarga, shuningdek, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlarining ta’sischilarini (ishtirokchilari)ga Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasining tavsiyasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqmasdan uning muddatini uzaytirish imkoniyati bilan 3 yilgacha amal qilish muddati bilan beriladi.

2-savol. Fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar.

Fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar

RO‘YXATI

Cheklanmagan muddat:

1. Ozarbayjon Respublikasi
2. Gruziya
3. Armaniston Respublikasi
4. Belarus Respublikasi
5. Qozog‘iston Respublikasi
6. Moldova Respublikasi

8. Ukraina

60 kungacha:

9. Qirg'iziston Respublikasi

30 kungacha:

10. Avstraliya Ittifoqi

11. Avstriya Respublikasi

12. Argentina Respublikasi

13. Bosniya va Gersegovina

14. Vatikan

15. Lyuksemburg Buyuk Gersogligi

16. Vengriya

17. Bruney-Dorussalom davlati

18. Isroil davlati

19. Gresiya Respublikasi

20. Irlandiya

21. Islandiya

22. Italiya Respublikasi

23. Kanada

24. Andorra Knyazligi

25. Lixtenshteyn Knyazligi

26. Monako Knyazligi

27. Belgiya Qirolligi

28. Daniya Qirolligi

29. Ispaniya Qirolligi

30. Niderlandiya Qirolligi

31. Norvegiya Qirolligi

32. Shvesiya Qirolligi

33. Latviya Respublikasi

34. Litva Respublikasi

35. Malayziya

36. Mo‘g‘uliston

37. Yangi Zelandiya

38. Birlashgan Arab Amirliklari

39. Portugaliya Respublikasi

40. Bolgariya Respublikasi

41. Indoneziya Respublikasi
42. Kipr Respublikasi
43. Koreya Respublikasi
44. Malta Respublikasi
45. Polsha Respublikasi
46. San-Marino Respublikasi
47. Serbiya Respublikasi
48. Sloveniya Respublikasi
49. Tojikiston Respublikasi
50. Xorvatiya Respublikasi
51. Chili Respublikasi
52. Ruminiya
53. Singapur
54. Slovakiya Respublikasi
55. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi
56. Turkiya Respublikasi
57. Braziliya Federativ Respublikasi
58. Germaniya Federativ Respublikasi
59. Finlyandiya Respublikasi
60. Fransiya Respublikasi
61. Chernogoriya
62. Chexiya Respublikasi
63. Shveysariya Konfederatsiyasi
64. Estoniya Respublikasi
65. Yaponiya
66. Antigua va Barbuda
67. Barbados
68. Beliz
69. Grenada
70. Dominika Respublikasi
71. Meksika Qo'shma Shtatlari
72. Gvatemala Respublikasi
73. Gonduras Respublikasi
74. Kosta-Rika Respublikasi
75. Kuba Respublikasi

76. Nikaragua Respublikasi
77. Panama Respublikasi
78. Trinidad va Tobago Respublikasi
79. El-Salvador Respublikasi
80. Sent-Vinsent va Grenadin
81. Sent-Lyusiya
82. Bagama Orollari Hamdo'stligi
83. Dominikana Hamdo'stligi
84. Sent-Kits va Nevis Federatsiyasi
85. Yamayka

7 kundan ko'p bo'limgan:

86. Xitoy Xalq Respublikasi, shu jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining Gonkong maxsus ma'muriy hududi.

Izoh:

1. Ikki tomonlama xalqaro shartnomalar va tenglik asosida Ozarbayjon Respublikasi, Gruziya, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qirg'iziston Respublikasi (60 kungacha) va Tojikiston Respublikasi (30 kungacha) bilan ikki tomonlama vizasiz rejim o'rnatilgan.

2. Ushbu Izohning 1-bandida ko'rsatib o'tilmagan qolgan mamlakatlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi tomonidan bir tomonlama tarzda 30 kun muddatga vizasiz rejim joriy qilingan.

3. Vizasiz rejim yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarning fuqarolariga, ularning safar maqsadlaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurishni rejalashtirayotgan barcha toifadagi pasport (diplomatik, xizmat va umumfuqarolik) egalariga nisbatan qo'llaniladi. Mamlakatga kirish uchun shaxs amaldagi milliy pasport yoki xorijiy mamlakatlarga safar vaqtida qo'llaniladigan, uning o'rniiga o'tadigan, amal qilish muddati vizani rasmiylashtirishdan kamida 6 oyni tashkil qilishi kerak bo'lgan boshqa hujjatga ega bo'lishi kerak.

Vizasiz rejim ko'rsatib o'tilgan mamlakatlar hududida doimiy yashaydigan, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

30 kunlik va 60 kunlik vizasiz rejim O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini kesib o'tgan vaqtdan boshlab amalga kiradi va uning tugashiga qadar xorijiy fuqaro respublikadan chiqib ketishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida 30 yoki 60 kundan ko'p bo'lish zarurati holatlarida xorijiy fuqaro ushbu qarorga 4-ilovada bayon etilgan, O'zbekiston Respublikasiga kirish vizalari toifalarining birini unga rasmiylashtirish uchun zarur hujjatlarni topshirishi kerak.

4. Ro‘yxatda 66 dan 85 gacha ko‘rsatib o‘tilgan mamlakatlar fuqarolari uchun 30 kun muddatga vizasiz rejim 2020 yil 1 yanvardan belgilanadi.

5. Xitoy Xalq Respublikasi, shu jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining Gonkong maxsus ma’muriy hududi fuqarolari uchun mamlakatning xalqaro aeroportlari orqali ko‘pi bilan 7 kun muddatga O‘zbekiston Respublikasiga kirishning vizasiz rejimi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘sishinlarining bo‘linmalariga yo‘lovchilar to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim qiluvchi tashuvchining qaytuvchi aviachiptasi mavjud bo‘lganda 2020 yil 1 yanvardan belgilanadi.

6. Birlashgan Arab Amirliklari fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e’tiboran 30 kun muddatga vizasiz rejim 2020 yil 1 yanvardan boshlab Birlashgan Arab Amirliklari rezidenti maqomini olgan xorijiy davlatlar fuqarolariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Birlashgan Arab Amirliklari rezidenti maqomini olgan xorijiy davlatlar fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga kirishda amal qilish muddati 90 kundan kam bo‘lmagan rezidentlik vizasining asl nusxasini taqdim etadilar.

So‘nggi yillarda migratsiya jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlarga shu jumladan Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi yanada soddallashtirilishi, ularning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari uchun viza olish va ro‘yxatdan o‘tishdagi yengillashtirilgan tartiblarning joriy etilganligi yoki bo‘lmasa elektron viza olish, ayrim davlatlar fuqarolari uchun turist sifatida vizasiz 30 kungacha kelib-ketish tartibi joriy etilishi, ko‘p martalik uch yillik investitsiya, faxriy fuqaro vizalar berilishi yurtimizga kelish istagida bo‘lgan xorijiy fuqarolarga yengilliklar va qulayliklar yaratish bilan birga, O‘zbekistonga keluvchilar sonining ko‘payishiga, investitsiya olib kiruvchilar soni ortishiga hamda turizm salohiyatining ko‘tarilishiga olib keldi.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1996 yil 21 noyabr kuni «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi 408-sun qarorini to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.


15-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari toifalari.

Seminar – 2 soat

1-savol. O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari (elektron bo‘limgan) toifalarining ro‘yxati.

2-savol. Fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar.

Ushbu o‘quv mashg‘uloti “**Klaster**” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.



Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1996 yil 21 noyabr kuni «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi 408-son qarorini to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

15-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari toifalari.

Amaliy – 2 soat

16-MAVZU. ChET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO‘LMAGAN ShAXSLARNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BO‘LISH QOIDALARI.

Ma’ruza-2 soat

Reja:

- 1. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalariga amal qilishning o‘ziga xos jihatlari.**
- 2. Bo‘lish muddatini qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborishda belgilangan tartibga rioya etish.**



1-savol. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalariga amal qilishning o‘ziga xos jihatlari.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar (keyingi o‘rinlarda chet el fuqarolari deb ataladi) O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashlari yoki vaqtincha bo‘lishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-son qarori bilan tasdiqlangan “Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlari Qoidalari”:

- chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanishi;
- chet el fuqarolarini akkreditatsiya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasiga boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolarining avtotransport vositalarini hisobga qo‘yish;

g)qonun hujjatlarini va Qoidalarni buzganlik uchun chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddatlarini qisqartirish va ularni O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha bo‘lib turgan chet el fuqarolari joylashtirish vositalarida (mehmonxonalarda, mehmonxona xizmatlari — vaqtincha yashash xizmatlari ko‘rsatiladigan turistik bazalarda va majmualarda, dam olish uylari va zonalarida, pansionatlarda, kempinglarda, motellarda, oilaviy mehmon uylarida, o‘tov va chodirli lagerlarda, sanatoriylarda va boshqa ob’ektlarda, shuningdek, tunash uchun joylashish vositalariga aylantirilgan yer transportida), o‘zлari tanlagan boshqa uy-joy maydonida, shuningdek, davolash muassasalarida qabul qiluvchi tashkilotlarni (vazirliklar, idoralar, mulkchilik shaklidan hamda faoliyat turidan qat’i nazar korxonalar va tashkilotlarni, chet davlatlarning doimiy vakolatxonalarini, xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning vakolatxonalarini va chet davlatlarning hukumat tashkilotlarini, xalqaro va chet el nodavlat (nohukumat) notijorat tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda tashkilotlar deb ataladi) vakolatxonalarini), shuningdek, ularni shaxsiy ishlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilgan shaxslarni xabardor qilgan holda yashaydilar.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lib turgan chet el fuqarolari yonida pasport yoki pasport o‘rnini bosuvchi hujjatlar (keyingi o‘rinlarda milliy pasportlar deb ataladi) bo‘lishi hamda ular bu hujjatlarni vakolatli organlar vakillarining talabiga muvofiq taqdim etishlari shart.

Chet el fuqarolari milliy pasport yo‘qolganligi haqida darhol qabul qiluvchi tashkilotga va ichki ishlar organlariga xabar qilishlari shart.

Turistlarning hujjatlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadigan soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Taklif qilgan (qabul qiladigan) shaxslar, tashkilotlar, shu jumladan turoperator va turagent chet el fuqarolariga ularning O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida va Qoidalarda nazarda tutilgan huquqlari va majburiyatları o‘z vaqtida tushuntirib berilishini, chet el fuqarolari bilan munosabatlarda belgilangan huquqiy me’yorlar aniq bajarilishini ta’minlaydilar, chet el fuqarolarining tegishli hisobini yuritadilar (O‘zbekiston Respublikasiga shaxsiy ishlar bilan notijorat maqsadlarda kelayotgan chet el fuqarolarini qabul qiladigan va ularga turar joy beradigan jismoniy shaxslar bundan mustasno), shuningdek, Internet tarmog‘i orqali ixtisoslashtirilgan elektron avtomatlashtirilgan dastur (keyingi o‘rinlarda Dastur deb ataladi) yordamida xabardor qilish yoki O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli bo‘limlariga murojaat qilish yo‘li bilan ularning vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishini, respublika hududida harakatlanishini hamda o‘zlariga belgilab berilgan bo‘lish

muddati tugagach, O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketishini ta’minlash uchun javobgar bo‘ladilar.

Chet ellik turistlarni qabul qiladigan turoperator va turagent, shuningdek, ularning xodimlari chet ellik turistlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, yuqorida nazarda tutilgan javobgarlik bundan mustasno.

Joylashtirish vositalariga, davolash muassasalariga va boshqa uy-joy maydonlariga joylashtirilgan chet el fuqarolari (mustaqil sayohat qilib, chodirli lagerlarda hamda tunash uchun joylashtirish vositasiga aylantirilgan yer transportida yashaydigan chet el fuqarolari bundan mustasno) vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinib, chet el fuqarolari kelganlaridan keyin uch sutka ichida ishlar organlarini mustaqil ravishda xabardor qilishlari shart bo‘lgan joylashtirish vositalari va davolash muassasalari ma’muriyatining, shuningdek, boshqa uy-joy maydonlari egalarining javobgarligi kuchaytiriladi.

Chet ellik fuqaro tashkilotlardan birining taklifiga muvofiq kelgan hollarda boshqa tashkilot ushbu fuqaroga nisbatan majburiyatlarni va Qoidalarning 5-bandida nazarda tutilgan javobgarlikni zimmasiga olgan holda, uni o‘z yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida qabul qilish huquqiga ega.

O‘ziga nisbatan viza rejimi qo‘llanilmaydigan yoxud viza berishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llaniladigan, uchinchi shaxslarning taklifisiz yoki taklifsiz turistlar sifatida kelgan chet el fuqarolari pasport nazoratidan o‘tishdan oldin Qoidalarning 5-bandida nazarda tutilgan talablar va javobgarlik bilan tanishib chiqadilar. Mazkur fuqarolar zarur hollarda viza muddatini uzaytirish uchun mustaqil ravishda hujjatlar topshirish huquqiga ega.

Chet el fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasiga notijorat maqsadlarda shaxsiy ishlar bo‘yicha taklif qilgan va ularga uy-joy maydonini bergen shaxslar quyidagi larga majbur:

ularni quyidagi yo‘llar bilan vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish choralarini ko‘radilar:

agar chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddati 30 kundan ortiq bo‘lsa, hududiy ichki ishlar organlariga shaxsan murojaat etish orqali xabardor qilish;

agar chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddati to‘liq 30 kundan oshmasa, Dastur yordamida yoki hududiy ichki ishlar organlariga shaxsan murojaat etish orqali;

chet el fuqarolari uchun belgilangan O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddati tugaganidan keyin ularning O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketishiga yordam berishlari shart.

Bu shaxslar tomonidan chet el fuqarolariga uy-joy, transport vositalari berish yoxud boshqa xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va Qoidalarning buzilishiga olib kelishi oldindan ma'lum bo'lgan hollarda ushbu shaxslarning chet el fuqarolariga uy-joy, transport vositalari berishiga yoxud boshqa xizmatlar ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida bo'lib turgan chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va Qoidalarga rioya etishlari shart.

Chet el fuqarolari, mansabdor shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa fuqarolari Qoidalarning talablariga rioya etishlari yuzasidan nazoratni ichki ishlar organlari hamda Tashqi ishlar vazirligi o'z vakolatlari doirasida joylardagi hokimiyat organlari va O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlikda, shu jumladan Dastur yordamida amalga oshiradilar.

Chet el fuqarolarini vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish va ularga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash hamda uning hududida harakatlanishi uchun ruxsatnomalar berish tartibi O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlari bilan, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda teng asoslarda o'zgartirilishi mumkin.

Chet el fuqarolarini akkreditatsiya qilish. Chet el fuqarolarining avtotransport vositalarini hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazish xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida chet el fuqarolarining quyidagi toifalari akkreditatsiya qilinadi:

- a) chet el diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining rahbarlari, diplomatik personal a'zolari, konsulliklarning mansabdor shaxslari, harbiy attashelar, diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatish personali, shuningdek, ularning oila a'zolari;
- b) ommaviy axborot vositalarining vakillari va ularning oila a'zolari;
- v) xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning va chet davlatlar hukumat tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasiga xizmat ishlari bo'yicha kelgan mansabdor shaxslari, mazkur tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari xodimlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida shtab-kvartirasi bo'lgan xalqaro tashkilotlar huzuridagi mamlakatlar vakolatxonalarining mazkur tashkilotlar ustav hujjatlariga yoki tegishli shartnomalarga muvofiq diplomatik imtiyozlardan va immunitetlardan foydalanuvchi xodimlari, shuningdek, ularning oila a'zolari.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, uning vakolatxonalari tomonidan mazkur shaxslarga akkreditatsiya kartochkalari beriladi hamda bevosita ularning milliy pasportlariga akkreditatsiya haqida yozib qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasiga olti oygacha muddatga kelgan chet el fuqarolarining shaxsiy va xizmat avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasining bojxona organlarida hisobga qo‘yilishi kerak. Chet elliq egalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga olti oydan ortiq muddatga olib kirilayotgan transport vositalari Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlarida ro‘yxatga olinib, milliy raqam belgilari almashtiriladi.

Yo‘l harakati to‘g‘risidagi konvensiya (Vena, 1968 yil 8 noyabr) talablariga javob beradigan xalqaro haydovchilik guvohnomalari va milliy haydovchilik guvohnomalari O‘zbekiston Respublikasi hududida avtotransport vositalarini boshqarish uchun haqiqiydir. Chet el fuqarolariga milliy haydovchilik guvohnomalarini berish yoki fuqarolarning mazkur Konvensiya talablariga javob bermaydigan haydovchilik guvohnomalarini almashtirib berish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Chet elliq egalarining transport vositalarini davlat texnik ko‘rigidan o‘tkazish ham O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yoki O‘zbekiston Respublikasida yashayotgan chet el fuqarolariga qarashli bo‘lgan avtomototransportni foydalanish uchun chet el fuqarolariga berish notarial tartibda rasmiylashtirilib, avtomototransportning davlat raqami belgisini chet el fuqarolariga mo‘ljallangan tegishli toifadagi belgiga almashtirish uchun ichki ishlar organlari xabardor qilinadi. Chet el fuqarolari tomonidan qaytarib olib chiqib ketish majburiyati bilan olib kirilgan avtotransport belgilangan muddat tugaganidan keyin chet elga olib chiqib ketilishi kerak va u O‘zbekiston Respublikasi hududida olib qo‘yilishi mumkin emas.

Chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanishining o‘ziga xos jihatlari.

Chet el fuqarolari O‘zbekiston Respublikasining o‘zlariga tashrif uchun ruxsat berilgan hududidagina harakatlanishlari shart.

Chet el fuqarolari vaqtincha bo‘lish punktiga yetib kelganlaridan keyin taklif qilgan (qabul qiladigan) shaxslar, tashkilotlar ularni O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida Dastur vositasida yoki hududiy ichki ishlar organlariga yozma murojaat qilish orqali vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazishlari shart.

Joylashtirish vositalarida yoki davolash muassasalarida turgan chet el fuqarolari mazkur muassasalarda hisobdan o‘tadilar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan va yashash guvohnomalariga ega bo‘lgan chet el fuqarolarini vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish ularning muayyan yashash joyida

turadigan davri uchun amalga oshiriladi. Uch sutkadan to olti oygacha davrga vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish shaxsni doimiy yashash joyidan o‘chirmagan holda amalga oshiriladi. Xizmat safariga, ta’tilga, dam olish yoki davolanishga jo‘nab ketayotganlardan tashqari boshqa shaxslarni olti oydan ortiq muddatga vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish shaxsni doimiy yashash joyidan o‘chirgan holda amalga oshiriladi.

Qabul qiluvchi tashkilotlar yo‘nalishi bo‘yicha kelgan chet el fuqarolarining chegara zonasiga va tashrif uchun yopiq bo‘lgan joylarga kirishi hamda harakatlanishi:

ushbu tashkilotlarning yozma murojaatlari asosida;

shaxsiy ishlar bilan kelgan chet el fuqarolarining chegara zonasiga va tashrif uchun yopiq bo‘lgan joylarga kirishi hamda harakatlanishi chet el fuqarolarining shaxsiy yozma arizalari asosida faqat ichki ishlar organlarining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Qabul qiluvchi tashkilotlarning iltimosiga ko‘ra chet el fuqarolariga ko‘p marta kirish va harakatlanish uchun ruxsatnomalar berilishi mumkin.

Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditatsiya qilingan chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish tartibi, agar O‘zbekiston ishtirokchisi bo‘lgan xalqaro kelishuvlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ikki tomonlama shartnomalar bilan va tenglik asosida belgilanadi.

Chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasida tranzit harakatlanishi Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidan tranzit o‘tishi qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasidagi turar joyini Qoidalarni buzgan holda o‘zgartirgan chet el fuqarolari ichki ishlar organlarining talabi bilan oldingi turar joylariga qaytishlari yoki tanlagan borish punktlariga muvofiq yurishlari shart.

2-savol: Bo‘lish muddatini qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborishda belgilangan tartibga rioya etish.

Bo‘lish muddatini qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborish. Chet el fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-sod qarori bilan tasdiqlangan “Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlari Qoidalari”ni buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalari muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Qoidalarning talablariga amal qilishlari shart bo‘lgan shaxslarning (shu jumladan respublikaga chet el fuqarolarini shaxsiy ishlar bo‘yicha taklif qilgan yoki ularga xizmat ko‘rsatadigan shaxslarning) Qoidalalar talablarini buzishi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjalari muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini yoki Qoidalarni buzayotgan chet el fuqarosiga O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish uchun unga belgilangan muddat qisqartirilishi mumkin.

Chet el fuqarosining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddati uning bundan buyon bo‘lishi uchun asoslar yoki mablag‘lar bo‘lmaganida ham qisqartirilishi mumkin.

Chet el fuqarosining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddatini qisqartirish hamda uni chiqarib yuborish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzgan, ya’ni O‘zbekistonda yashash huquqini beruvchi hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo‘lmagan hujjatlar bilan yashagan, vaqtinchalik yoki doimiy ro‘yxatdan o‘tish, harakatlanish yoki yashash joyini tanlash bo‘yicha belgilangan tartibga rioya qilmagan, bo‘lish muddati tugaganidan keyin chiqib ketishdan bo‘yin tovlagan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tranzit o‘tish qoidalariga rioya etmagan hollarda O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqarib yuborilib, keyinchalik uning O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi bir yildan uch yilgacha cheklanishi mumkin.

Chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyat uchun sud tomonidan belgilangan jazoni ijro etib bo‘lgan yoki o‘tab bo‘lganidan keyin yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilinganidan keyin O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqarib yuborilib, bundan keyin uning O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi:

katta ijtimoiy xavf tug‘dirmaydigan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etganlik uchun - besh yilga;

og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun - o‘n yilga;

o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun - umrbod cheklanadi.

Chet el fuqarosining O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqini cheklash muddati u O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborilgan (Davlat chegarasini kesib o‘tgan) paytdan boshlab hisoblanadi.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni, agar uning ota-onasidan biri yoki uni vasiylikka yoxud homiylikka olgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda yashash huquqiga ega bo‘lsa, kuyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi:

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzgan, ya’ni O‘zbekistonda yashash huquqini beruvchi hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo‘lmagan hujjatlar bilan yashagan, vaqtincha turgan joyi yoki doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxat, ko‘chish yoki turar joyni tanlash yuzasidan belgilangan tartibga rioya etmagan, bo‘lish muddati tugagach chiqib ketishdan bo‘yin tovlagan,

shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining hududi orqali tranzit tarzda o‘tish tartibiga rioya qilmagan hollarda;

O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etgan jinoyati uchun sud tomonidan belgilangan jazo ijro etib bo‘lingan yoki o‘tab bo‘linganidan keyin yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan hollarda.

Chet el fuqarosining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddatini qisqartirish va uni O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qarorlar O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari tomonidan qabul qilinadi. Chet el fuqarosi qarorda ko‘rsatilgan muddatda O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketishi shart. Bunday hollarda chiqib ketishdan bo‘yin tovlaydiganlar qonun hujjatlariga muvofiq majburiy tartibda chiqarib yuborilishi lozim.

Chet el fuqarosiga berilgan viza uni O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqarib yuborish vaqtida bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lib turgan chet el fuqarolarini taklif qilgan qabul qiluvchi tashkilotlar va xususiy shaxslar ichki ishlar organlariga chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddatlarini qisqartirish hamda ularni chiqarib yuborishni iltimos qilishlari mumkin.

Xizmat, shaxsiy, savdo yoki jamoat ishlari bo‘yicha, o‘qish, malaka oshirish, ishlash uchun yoki turistlar sifatida kelgan chet el fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborilayotgan chet el fuqarolarini taklif qilgan qabul qiluvchi tashkilotlar va xususiy shaxslar zimmasida bo‘ladi.

Boshqa chet elliklarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan chet el fuqarolarini chiqarib yuborish xarajatlari ichki ishlar organlari zimmasida bo‘ladi.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1996 yil 21 noyabr kuni «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi 408-sont qarorini to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

Mustaqil ta’lim uchun savollar:

1. Chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanishi;
2. Chet el fuqarolarini akkreditatsiya qilish;

3.O‘zbekiston Respublikasiga boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolarining avtotransport vositalarini hisobga qo‘yish;

4.O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish Qoidalarni buzganlik uchun chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish muddatlarini qisqartirish;

5.O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish Qoidalarni buzganlik uchun chet el fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborish tartibi;

6.Qabul qiluvchi tashkilotlar yo‘nalishi bo‘yicha kelgan chet el fuqarolarining chegara zonasiga va tashrif uchun yopiq bo‘lgan joylarga kirishi hamda harakatlanishi;

7.Chet el fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasiga notijorat maqsadlarda shaxsiy ishlar bo‘yicha taklif qilgan va ularga uy-joy maydonini bergen shaxslar majburiyatlar;

8. Chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyat uchun sud tomonidan belgilangan jazoni ijro etib bo‘lgan yoki o‘tab bo‘lganidan keyin yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilinganidan keyin O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqarib yuborish, bundan keyin uning O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi.

16 mavzu. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalari.

Seminar– 2 soat


Ushbu o‘quv mashg‘uloti “**Baliq skeleti**” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«Baliq skeleti» grafik organayzer (GO) tinglovchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda tinglovchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o‘qituvchi tinglovchilarini GO ni qo‘llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) tinglovchilar kichik guruhlarga biriktiriladi;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar o‘z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
- 5) jamoa guruhlarning yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi

Tinglovchilar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



Tahlil qilinadigan muammo:

1-muammo. O‘zbekiston Respublikasiga notijorat maqsadlarda shaxsiy ishlar bo‘yicha taklif qilgan shaxs tomonidan vaqtincha propiskaga o‘tkazmasdan chet el fuqarosiga uy-joy maydoni berilishi.

2-muammo. Chet el fuqarolarining chegara zonasiga va tashrif uchun yopiq bo‘lgan joylarga kirishi hamda harakatlanishi.

3-muammo. Chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan, jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilinganidan keyin O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqarib yuborish, bundan keyin uning O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi.

4-muammo. Chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida milliy pasportini yo‘qotishi.

17-MAVZU. VATANDOSHlar VA ULARNING OILA A’ZOLARINI O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA TAKLIF QILISH ASOSLARI.

Ma’ruza -2 soat

Reja:

- 1.Vatandoshlarni O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilishning o‘ziga xos jihatlari.**
- 2.Vatandoshlarga O‘zbekiston Respublikasiga ko‘p martalik kirish vizalarini rasmiylashtirish hamda ularni ichki ishlar organlarida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishning ayrim xususiyatlari.**



1-savol. Vatandoshlarni O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilishning o‘ziga xos jihatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3982-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi «Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolarini O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish va ko‘p martalik kirish vizalarini berish hamda ularni ichki ishlar organlari tomonidan vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 326-son qarori qabul qilindi.

Mazkur Nizom bilan xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolarini O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish va ko‘p martalik kirish vizalarini berish hamda ularni ichki ishlar organlari tomonidan vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi tasdiqlandi.

Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolarini taklif qilishni rasmiylashtirish va ko‘p martalik vizalarni berish hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema bo‘yicha Ichki ishlar vazirligining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

Vatandoshlarni O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish uchun taklif qiluvchi doimiy istiqomat qiladigan joyidagi MvaFR bo‘linmasiga murojaat qilishi va quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

Nizom 2-ilovaga muvofiq belgilangan namunadagi 2 nusxada ariza-anketa;
taklif qiluvchining pasporti (nusxasi olinib, asli qaytarib beriladi);
vatandoshning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, harakatlanish hujjati va boshqalar) nusxasi;

taklif qiluvchining vatandosh bilan qarindoshlik darajasini tasdiqlovchi hujjatlar (nikoh tuzilganligi va tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi hujjatlar, nusxasi olinib, asli qaytarib beriladi);

agar vatandosh O‘zbekiston Respublikasiga oila a’zolari bilan birgalikda kelish niyatida bo‘lsa, ularning har birining shaxsini va qarindoshlik darajasini tasdiqlovchi hujjatlarining nusxalari;

taklif qiluvchining 3,5 x 4,5 sm o‘lchamli ikki dona fotosurati;
davlat boji to‘langanligi haqidagi kvitansiya.

MvaFR bo‘linmasi uch ish kuni mobaynida ariza-ankemani va taqdim etilgan boshqa hujjatlarni ko‘rib chiqadi, vatandoshning taklif qiluvchiga qarindoshlik darajasini o‘rganib chiqadi hamda vatandoshlar va taklif qiluvchining shaxsini ichki ishlar organlaridagi mavjud ma’lumotlar bazasi bo‘yicha tekshiradi.

Ariza-anketa o‘rganib chiqilgach, agar vatandoshning O‘zbekiston Respublikasiga kelishiga ichki ishlar organlarida to‘sinqinlik qiluvchi ma’lumotlar aniqlanmasa, ariza-anke taning bir nusxasini kelishish uchun vakolatli organga yuboriladi.

Vakolatli organ bilan kelishilganidan va ijobjiy qaror qabul qilinganidan so‘ng Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklidagi taklifnomasi to‘ldirilib MvaFRB bo‘linmasi boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolanadi, gerbli muhr bilan tasdiqlanadi va bevosita taklif qiluvchiga yoki uning ishonchli vakiliga beriladi.

Vatandoshlarni taklif qilish haqidagi hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati o‘n besh ish kunidan oshmasligi lozim.

Taklifnomasi berilgan kundan boshlab uch oy davomida amal qiladi. Taklif qiluvchi ushbu muddat mobaynida taklifnomani O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti yoki vazirlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘linmalariga kirish vizalarini rasmiylashtirish uchun taqdim etadi.

2-savol. Vatandoshlarga O‘zbekiston Respublikasiga ko‘p martalik kirish vizalarini rasmiylashtirish hamda ularni ichki ishlar organlarida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishning ayrim xususiyatlari.

Vatandoshlarning O‘zbekiston Respublikasiga ko‘p martalik kirish vizalari O‘zbekiston Respublikasining chet eldag‘i konsullik muassasalari tomonidan, bunday konsullik muassasalari mavjud bo‘lmagan taqdirda esa — xalqaro maqomga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi aeroportlaridagi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bo‘linmalari tomonidan beriladi.

Vatandoshlarga ko‘p martalik kirish vizalarini rasmiylashtirish uchun taklif etuvchi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti yoki vazirlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘linmalariga murojaat qilib quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Nizom 4-ilovaga muvofiq belgilangan shaklda viza talabi;

e-visa.mfa.uz sayti orqali olingan elektron anketa;

MvaFR bo‘linmasi tomonidan berilgan taklifnomasi;

taklif qilinuvchi vatandoshning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, harakatlanish hujjati va boshqalar) nusxasi;

taklif qiluvchining pasporti nusxasi;

kirish vizalari Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida olinishi mo‘ljallangan holatlarda - aviachipta yoki bron nusxalari;

davlat boji to‘langanligi haqidagi kvitansiya.

Taqdim etilgan hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti yoki vazirlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘linmalari tomonidan ko‘rib chiqish muddati besh ish kunidan oshmasligi kerak.

Murojaat ijobiy hal etilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti yoki vazirlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘linmalari tomonidan amal qilish muddati ikki yil bo‘lgan ko‘p martalik «VTD» turdagи kirish vizasi rasmiylashtiriladi.

Bunda vizaning amal qilish muddati taklif qilinayotgan shaxsini tasdiqlovchi hujjatning amal qilish muddatidan oshmasligi lozim.

Vatandoshlarni ichki ishlar organlarida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi.

Vatandoshlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi va barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida» 1996 yil 21 noyabrdagi 408-son, «O‘zbekiston Respublikasida doimiy va vaqtincha propiska qilish tartibini yanada soddallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 28 dekabrdagi 1049-son, «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 28 avgustdagи PQ-3924-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2018 yil 22 oktyabrdagi 845-son qarorlari bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan vatandoshlar o‘z xohishlariga ko‘ra mehmonxona, davolash muassasalari, sanatoriy va dam olish uylarida (keyingi o‘rinlarda joylashtirish muassasalari deb ataladi) hisobdan o‘tgan holda vaqtincha bo‘lishlari yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinib hududiy ichki ishlar organlarida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatda turib xususiy uy-joylarda yashashlari mumkin.

Xususiy uy-joyda yashash istagini bildirgan vatandoshlarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish uchun taklif qiluvchi o‘zi yashab turgan joydagi MvaFR bo‘linmasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Nizom 5-ilovaga muvofiq belgilangan shaklda ariza;

vatandoshning shaxsini tasdiqlovchi hujjat, O‘zbekiston Respublikasiga kirish vizasi (O‘zbekiston Respublikasi bilan vizasiz rejimi o‘rnatilgan MDHga a’zo davlatlar bundan mustasno);

vizasiz rejimi o‘rnatilgan MDHga a’zo davlatlardan kelgan vatandoshlarning taklif qiluvchi bilan qarindoshlik darajasini tasdiqlovchi hujjatlar (nikoh tuzilganligi, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi hujjatlar nusxasi olinib asli qaytarib beriladi);

uy-joy mulkdori (mulkdorlari)ning vaqtincha turar joy maydoni berishga roziligi to‘g‘risidagi arizasi yoxud notarial tasdiqlangan arizasi — agar shaxsan o‘zi berish imkonni mavjud bo‘lmasa;

davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi kvitansiya.

MvaFR bo‘linmasi vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish uchun topshirilgan vatandoshlarning hujjatlari haqiqiyligini, o‘z vaqtida topshirilganligini, arizadagi biografik va viza ma’lumotlarining to‘g‘ri yozilganligini tekshirishi lozim.

Barcha tekshirishlar tugaganidan so‘ng ikki ish kunida MvaFR bo‘linmasi ikki yil muddatga vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishni rasmiylashtiradi.

Bunda vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxat muddati shaxsini tasdiqlovchi hujjat va viza muddatidan ortiq bo‘lmasligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha yashovchi vatandoshlarning huquq va majburiyatları. Vatandoshlar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga rioya etishlari shart.

Vatandoshlar yashash manzillarini o‘zgartirsalar uch ish kunidan kechikmay vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joy bo‘yicha hududiy MvaFR bo‘linmasiga turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishni o‘zgartirish uchun murojaat qilishi lozim (mehmonxona, sanatoriy va davolanish muassasalariga ko‘chib o‘tish bundan mustasno).

Muayyan manzilda vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligi asosida yashayotgan vatandoshlar O‘zbekiston Respublikasining boshqa manzilida uch kundan ortiq bo‘lish istagini bildirsalar, amaldagi vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligi bekor qilinmasdan bo‘lish muddatiga vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligi qilinadi. Bunda yangi manzildagi vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligi avvalgi vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligi muddatidan oshmasligi lozim.

Vatandoshlar O‘zbekiston Respublikasida bundan buyon qolishga qonuniy asoslari bo‘lmasa, viza va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish muddatlari tugaguncha mamlakat hududidan chiqib ketishlari lozim.

Vatandoshlar qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari, ta’lim olishlari, doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish bilan yashash guvohnomasi olishlari mumkin.

Vatandoshlar O‘zbekiston Respublikasida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun tegishli ruxsatnomalar olish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Tashqi mehnat migrasiyasi agentligiga murojaat qilishlari kerak.

Vatandoshlarning O‘zbekiston Respublikasi hududida yashash guvohnomasini doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish orqali rasmiylashtirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida doimiy va vaqtincha propiska qilish tartibini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 28 dekabrdagi 1049-son va «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 28 avgustdaggi PQ-3924-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2018 yil 22 oktyabrdagi 845-son qarorlari bilan tartibga solinadi.

Vatandoshlarning «VTD» turdagи vizalari mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun berilgan ruxsatnomalar yoki ta’lim muassasasi bilan tuzilgan shartnomalar muddatiga uzaytirilganda viza turi o‘zgarmaydi.

Agar vatandosh shaxsini tasdiqlovchi hujjatni turli sabablarga ko‘ra almashtirsa, amal qilish muddati tugamagan eski hujjatdagi viza va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish MvaFR bo‘linmasi tomonidan belgilangan tartibda yangisiga o‘tkazib berilishi mumkin.

Vatandoshlarning kirish vizasi va vaqtincha propiskasi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

sodir etgan ma’muriy huquqbazarligi yoki jinoyati uchun O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborilayotganda;

taklifnomalar, vizani rasmiylashtirish hamda vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish chog‘ida yolg‘on ma’lumot yoki qalbaki hujjat taqdim etilganda;

yashash guvohnomasi rasmiylashtirilganda va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganda;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinganda.

Nizom talablariga riona etilishi ustidan nazorat hududiy ichki ishlari organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzgan hamda boshqa qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yan vatandoshlar haqida joylashtirish muassasalari ma’muriyatları, uy-joy mulkdorlari zudlik bilan hududiy ichki ishlari organlarini xabardor qilishi shart.

Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi «Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolarini O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish va ko‘p martalik kirish vizalarini berish hamda ularni ichki ishlar organlari tomonidan vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 326-son qarorni to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

1. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolarini ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi;

2. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolarini ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishni ko‘rib chiqish va ro‘yxat muddati;

3. Vatandosh va uning oila a’zolari doimiy yashashga ruxsatnoma olish;

4. O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha yashovchi vatandoshlarning huquq va majburiyatları.

17-Mavzu. Vatandoshlar va ularning oila a’zolarini O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish asoslari.

Seminar – 2 soat

Ushbu o‘quv mashg‘uloti **“Aqliy hujum”** metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

Mavzu yuzasidan tinglovchilarga savol tashlanadi. “Aqliy hujum” metodi orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlari aniqlanadi.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat: xodimlarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi; xodimlarlar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi; xodimlarning fikr-g‘oyalari (diktofonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi; fikr-g‘oyalari ma’lum belgilari bo‘yicha guruhanadi; yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

O‘quv mashg‘ulotning savollari:

1-savol. Vatandoshlarni O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish tartibi.

2-savol. Vatandoshlarga O‘zbekiston Respublikasiga ko‘p martalik kirish vizalarini rasmiylashtirish tartibi.

3-savol. Vatandoshlarni ichki ishlar organlarida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi.

4-savol.O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha yashovchi vatandoshlarning huquq va majburiyatlari.

5-savol. Vatandoshlarning kirish vizasi va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatini bekor qilinishi tartibi.

MUSTAQIL TA’LIM UChUN SAVOLLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 oktyabrdagi «Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-3982сон qarorining mazmun-mohiyati;

2.Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolarini O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish tartibi;

3.Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolariga O‘zbekiston Respublikasiga kirishga ko‘p martalik kirish vizalarini berish tartibi;

4. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolariga O‘zbekiston Respublikasiga kirishga ko‘p martalik kirish vizalarini berishda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquqiy departamenti yoki vazirlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘lmalari tomonidan ko‘rib chiqish muddati.

18-MAVZU. O‘ZBEKISTON VA QO‘ShNI DAVLATLAR FUQAROLARINING O‘ZARO KELIB-KETISHLARI VA ChEGARA ZONALARIDA BO‘LISH TARTIBI.

Ma’ruza- 2 soat

Reja:

1. O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar fuqarolarining o‘zaro kelib-ketishlari tartibi.

2.O‘zbekiston respublikasi chegara zonalarida bo‘lishni tartibga solishda ichki ishlar organlarining faoliyati.

1-savol. O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar fuqarolarining o‘zaro kelib-ketishlari va chegara zonalarida bo‘lish tartibi.



<p>O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari shartlari to‘g‘risida”gi Bitim 2000 yil 7 iyul Ostona (hozirgi Nur Sulton) shahrida imzolangan va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 13 oktyabrdagi «Hukumatlararo bitimni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 399-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda 2003 yil 26 iyundan kuchga kirgan.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi hamda Qozog‘iston Respublikasi fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlarini yo‘lga qo‘yishning ahamiyati.</p>
---	---

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi (tomonlar), O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida abadiy do‘slik to‘g‘risida Toshkent shahrida 1998 yil 31 oktyabrdagi imzolangan Sharhnomalariga amal qilib, ikkala davlat fuqarolarining o‘zaro kelib-ketishlari tartibini yo‘lga qo‘yish maqsadida, quyidagilar to‘g‘risida ahslashib oldilar:

Tomon davlatining fuqarolari Bitimning 1- va 2-ilovalarida ko‘rsatib o‘tilgan haqiqiy hujjatlar bo‘yicha va Bitimda ko‘zda tutilgan shartlarga muvofiq boshqa Tomon davlati hududiga kirishlari, chiqishlari, tranzit o‘tishlari hamda unda vaqtincha bo‘lishlari mumkin.

Tomonlar davlatlarining milliy pasportga ega bo‘lgan fuqarolari boshqa Tomon davlati hududiga 5 (besh) sutkaga qadar ro‘yxatga olinmagan (vaqtinchalik propiskadan o‘tmagan) holda kiradilar va unda bo‘ladilar.

Bo‘lib turish muddatini 5 sutkadan ortiq muddatga uzaytirish ichki ishlari organlari tomonidan Tomonlar davlatlarining qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tomonlar davlatlarining fuqarolariga boshqa Tomon davlati hududiga kirish vaqtida Tomonlarning chegara xizmatlari tomonidan migrasiya nazorati kartochkasi beriladi, chiqib ketish vaqtida u qaytarilishi lozim.

Boshqa Tomon davlati hududiga temir yo‘l transportida kirib kelgan fuqarolar ichki ishlari organlari tomonidan beriladigan migrasiya nazorati kartochkasi asosida 5 sutka davomida ro‘yxatdan o‘tkazilmasdan (vaqtinchalik propiska qilinmasdan) boshqa Tomon davlati hududida bo‘lishlari mumkin.

Quyidagilar migrasiya nazorati kartochkasini rasmiylashtirish, ro‘yxatdan o‘tish (vaqtinchalik propiska)dan ozod qilinadilar:

- fuqaro aviatsiyasi havo kemasining ekipaj a’zolari haqiqiy milliy pasportga ko‘ra va bosh deklarasiyada (uchish topshirig‘ida) yozuv bo‘lgan taqdirda;
- dengiz va daryo kemalari ekipajlarining a’zolari kema rolida yozuv va undan ko‘chirma mavjud bo‘lgan taqdirda haqiqiy milliy pasportlar bo‘yicha;

v) temir yo'llarning yo'lovchi, poezd, refrijerator va lokomotiv brigadasi xizmatchilari hamda Tomonlar davlatlari hududi bo'ylab temir yo'l transportida tashilayotgan yuklarni kuzatib boruvchi shaxslar haqiqiy milliy pasport va har bir reys uchun tasdiqlanadigan ismlar yozilgan ro'yxat, yo'l varaqalari bo'yicha;

g) hukumatlararo feld'egerlik aloqasi xodimlari haqiqiy milliy pasport va Tomonlarning vakolatli organlari tarafidan beriladigan tegishli hujjatlar bo'yicha;

d) huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari oldindan kelishilganiga muvofiq ravishda haqiqiy milliy pasport va xizmat safari guvohnomasi bo'lgan xizmat guvohnomasi (shahodatnomasi) bo'yicha (Tomonlar davlatlari huquqni muhofaza qilish organlarining ro'yxati diplomatik kanallar orqali belgilanadi);

ye) Tomonlar davlatlarining rasmiy davlat va hukumat delegasiyalari a'zolari hamda ularni kuzatib boruvchi shaxslar;

j) Tomonlar davlatlari diplomatik pasportining egalari;

z) Tomonlar davlatlarining diplomatik pasportga ega bo'lgan, Tomonlar davlatlarining hududida joylashgan, Tomonlarning diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarining xodimlari va ularning oila a'zolari;

i) Tomonlar davlatlari diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning oila a'zolari.

Yuqoridagi «z» va «i» bandlarida ko'rsatilgan shaxslar Tomonlar davlatlarining Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilinadilar.

Tomonlar davlatlarining bir Tomon davlati hududida joylashgan davlat ob'ektlarida ishlaydigan, xizmat vazifalarini bajarish uchun boshqa Tomon davlati hududiga kiradigan, chiqadigan va unda bo'ladigan fuqarolari migrasiya nazorati kartochkasini rasmiylashtirishdan ozod etiladilar.

Mazkur shaxslarni chegaradan o'tkazish milliy pasportlar hamda kelishilgan ro'yxatlar bo'yicha xizmat guvohnomalari asosida amalga oshiriladi.

Bitimning 4-modda 1-bandida ko'rsatilgan ob'ektlarning ro'yxati Bitim imzolangan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kun davomida diplomatik kanallar orqali notalar almashinib aniqlanadi.

Tomonlar davlatlarining boshqa Tomon davlati hududidan temir yo'l transportida tranzit tarzida o'tayotgan fuqarolari migrasiya nazorati kartochkasini rasmiylashtirishmasdan ushbu Tomon davlati hududiga milliy pasportlar va temir yo'l biletlari asosida kiradilar va undan chiqadilar.

Migrasiya nazorati kartochkasini berish va muddatini uzaytirish uchun yig‘imlarning tariflari Tomonlar tarafidan diplomatik kanallar orqali notalar bilan almashib kelishib olinadi. Ular Bitimning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tomonlar hamjihatlik asosida quyidagi shaxslarni migrasiya nazorati kartochkalarini rasmiylashtirish va muddatini uzaytirish uchun yig‘imlar to‘lashdan ozod etadilar:

- a) Tomonlar o‘rtasidagi shartnomalarga muvofiq, fan, texnika, ta’lim, madaniyat, san’at va sport sohasida almashuv tarzida borayotganlar;
- b) boshqa Tomon davlati hududidagi o‘quv yurtlarida ta’lim olayotganlar;
- v) Ulug‘ Vatan urushi veteranlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1- va 2-guruh nogironlari - tegishli hujjat taqdim etilganida, shuningdek yoshi 60 dan oshgan fuqarolar;
- g) yoshi 16ga yetmagan bolalar.

Odamlar, transport vositalari, mollar, yuklar, boshqa mulklar hamda jonivorlarni chegaradan o‘tkazish Tomonlarning kelishuvi bo‘yicha belgilangan o‘tkazish punktlarida amalga oshiriladi.

O‘tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya va boshqa turdagи nazoratlar amalga oshiriladi.

O‘tkazish punktlari quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- a) xalqaro o‘tkazish punktlari, ularda Tomonlar davlatlari va boshqa davlatlarning odamlari, transport vositalari, mollari, yuklari, boshqa mulklari va jonivorlarini o‘tkazish amalga oshiriladi;
- b) ikki tomonlama o‘tkazish punktlari, ularda Tomonlar davlatlarining odamlari, transport vositalari, mollari, yuklari, boshqa mulklari va jonivorlarini o‘tkazish amalga oshiriladi;
- v) soddalashtirilgan o‘tkazish punktlari, ularda Tomonlar davlatlarining odamlari va transport vositalarini o‘tkazish amalga oshiriladi.

Soddalashtirilgan o‘tkazish punktlari va ularning ish tartibi Tomonlar davlatlarining chegara va bojxona xizmatlari tomonidan kelishuv asosida belgilanadi.

Tomonlar xalqaro va ikki tomonlama o‘tkazish punktlarining ro‘yxatini diplomatik kanallar orqali almashadilar.

O‘tkazish punktlarining ish rejimi Tomonlarning kelishuvi bo‘yicha belgilanadi. Bu rejim o‘tkazish punktlarining ish vaqtiga, Tomonlar davlatlarining odamlari, transport vositalari, mollari, yuklari, boshqa mulklari va jonivorlarini o‘tkazish tartibini o‘z ichiga oladi.

O‘tkazish punktlari ish rejimini tashkil etish va unga amal qilinishini nazorat qilish Tomonlar davlatlarining chegara va bojxona xizmatlari zimmasiga yuklanadi.

Tomonlarning qaroriga kura, ular istisno hollarda (epidemiya, epizootiya, tabiiy ofatlar va h.) chegaradan odamlar, transport vositalari, mollar, yuklar, boshqa mulklar va jonivorlarni o‘tkazishni vaqtincha to‘xtatishlari mumkin.

Bu holda shunday choralarini qo‘llayotgan Tomon oldindan, biroq, 24 soatdan kechikmasdan boshqa Tomonni shunday choralar ko‘rilganligi va ular bekor qilinganligi to‘g‘risida xabardor qiladi.

Tomonlar davlatlarining fuqarolari boshqa Tomon davlati hududida bo‘lgan vaqtlarida shu Tomon davlatining qonun va qoidalariga, jumladan chet ellik fuqarolar uchun belgilangan ro‘yxatdan o‘tish (vaqtinchalik propiska), bo‘lib turish va harakatlanish qoidalariga rioya qilishlari lozim.

Bitim Tomonlarning boshqa Tomon davlatining fuqarosi kelishini rad etish yoki bo‘lib turish muddatini cheklash huquqiga daxl qilmaydi.

Tomonlardan har biri agar bu davlatning milliy xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash yoki aholi salomatligini qo‘riqlash uchun zarur bo‘lsa, vaqtincha Bitim amal qilishini butunlay yoki qisman to‘xtatib turish huquqiga ega.

Bunday choralar ko‘rilganligi yoki bekor qilinganligi to‘g‘risida Tomonlar oldindan, ammo qaror qabul qilingach 72 soatdan kechikmasdan bir-birlarini diplomatik kanallar orqali xabardor qiladilar.

Tomonlar davlatlari yangi hujjatlar joriy etgan hollarda Tomonlar mazkur hujjatlar joriy etilishidan kamida 1 (bir) oy oldin ushbu hujjatlarning namunalarini diplomatik kanallar orqali almashlaydilar.

Tomonlar davlatlarining Tashqi ishlari vazirliklari chet ellik fuqarolarning kelishlari, ketishlari va bo‘lib turishlari tartibi borasida amaldagi qonunlar to‘g‘risida axborot va shu sohadagi boshqa axborotni almashlaydilar.

Tomonlar, zaruratga ko‘ra, Bitimni amalga oshirishga aloqador masalalarni muhokama qilish uchun maslahatlashuv o‘tkazib turadilar.

Bitimni bajarish yoki uning qoidalarini qo‘llash borasida kelib chiqadigan har qanday kelishmovchiliklar va nizoli masalalar Tomonlar o‘rtasida muzokaralar o‘tkazish orqali hal etiladi.

Tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan, Bitimga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin. Ular alohida bayonnomalar tarzida rasmiylashtiriladi, Bitimning tarkibiy qismi deb hisoblanadi va Bitimning 17-moddasiga muvofiq kuchga kiradi.

Bitim Tomonlarning ular ishtirok etgan boshqa xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

Bitim Tomonlarning uni kuchga kiritish uchun zarur davlat ichki protseduralarini bajarganliklari oxirgi xabarnoma olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Bitim Tomonlarning biri ikkinchisidan uning amal qilishini to‘xtatish niyati to‘g‘risida yozma xabar olgan sanadan olti oy o‘tgunicha amal qiladi.



O‘zbekiston Respublikasi hamda Turkmaniston fuqarolarning o‘zaro qatnovlari va chegarabo‘yi viloyatlarida yashovchi fuqarolarga yengillashtirilgan qatnov tartibini joriy etilishining o‘ziga xos jihatlari

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro qatnovlari va chegarabo‘yi viloyatlarida yashovchi fuqarolarga yengillashtirilgan qatnov tartibi to‘g‘risida”gi Bitim 2004 yil 19 noyabrdagi Buxoro shahrida imzolangan va 2004 yil 4 dekabrdan kuchga kirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati (Tomonlar), O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o‘rtasida do‘slik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida 1996 yil 16 yanvarda imzolangan Shartnomaning qoidalariga amal qilib, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirish va o‘z davlatlari fuqarolari o‘rtasida aloqalarni rivojlantirishga bo‘lgan intilishni ifodalab, Davlat chegarasini kesib o‘tish qoidalarini tartibga solish, Tomonlar davlatlarining hududlariga fuqarolarning kirishlari, chiqishlari va unda bo‘lishlarini tartibga solish maqsadida, ikki davlat fuqarolarining qatnovlari shartlarini yanada takomillashtirish davlat chegarasi rejimini mustahkamlash, qonuniylik va huquqiy tartibotni saqlashga xizmat qiladi deb hisoblab, quyidagilar to‘g‘risida ahslashib oldilar:

Bir Tomon davlatining fuqarolari ilovada sanab o‘tilgan amaldagi hujjatlari bo‘yicha va Bitimda nazarda tutilgan tartibda boshqa Tomon davlati hududiga kirishlari, chiqishlari, tranzit o‘tishlar va unda vaqtincha bo‘lishlari mumkin. (*O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkmaniston Hukumati o‘rtasida 2009 yil 13 dekabrdagi imzolangan «O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o‘rtasida fuqarolarning o‘zaro qatnovlari va chegarabo‘yi viloyatlarida yashovchi fuqarolarga yengillashtirilgan qatnov tartibi to‘g‘risida 2004 yil 19 noyabrdagi bitimga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish haqida»gi Protokol*).

Bitimda tartibga solinmagan masalalar Tomonlar davlatlarining milliy qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

Tomonlar davlatlarining fuqarolari boshqa Tomon davlatining hududida bo‘lganlarida shu Tomon davlatining qonun va qoidalariga, jumladan xorijiy fuqarolar uchun belgilangan ro‘yxatdan o‘tish, bo‘lish va unda harakatlanish qoidalariga rioya qilishlari lozim.

Tomonlar davlatlarining fuqarolari davlat chegarasida o‘tkazish punktlari orqali Tomonlardan bir davlatining hududi orqali Tomonlar davlatlarining milliy qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chegara, bojxona va boshqa protseduralarga rioya qilgan holda kirishlari, chiqishlari va undan tranzit tarzida o‘tishlari mumkin.

O‘tkazish punktlari ro‘yxati Tomonlar o‘rtasida diplomatik kanallar orqali kelishiladi.

Bir Tomon davlatining fuqarolari boshqa Tomon davlatining vizasini olish uchun shu Tomonning diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga yozma murojaatnoma va tegishli yuridik yoki jismoniy shaxsning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan taklifnomasini taqdim qiladilar. Bitimda qayd etilgan holatlar bundan mustasno.

Amaldagi diplomatik pasportlarga ega bo‘lgan Turkmaniston hududida uzog‘i bilan **o‘ttiz kun** bo‘lishi nazarda tutilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va amaldagi diplomatik pasportlarga yoki xizmat pasportlariga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi hududida uzog‘i bilan **o‘ttiz kun** bo‘lishi nazarda tutilgan Turkmaniston fuqarolari boshqa Tomon davlatining hududiga vizasiz kirishlari, chiqishlari va unda bo‘lishlari mumkin.

Tomonlar davlatlarining yuqorida qayd etilgan fuqarolari boshqa Tomon davlati hududida **o‘ttiz kundan** ortiq bo‘lishni niyat qilsalar, viza olish uchun ular qaysi Tomon davlatining fuqarosi bo‘lsalar, o‘sha Tomon davlati diplomatik vakolatxonasining yoki konsullik muassasasining yozma murojaatnomasi zarur.

Bir Tomon davlatining amaldagi diplomatik yoki xizmat pasportlariga ega bo‘lgan fuqarolari boshqa Tomon davlati hududiga diplomatik vakolatxonalar hamda konsullik muassasalari, rasmiy vakolatxonalarning, shuningdek xalqaro tashkilotlarning xodimlari bo‘lsalar, butun xizmat davomida boshqa Tomon davlati hududiga vizasiz kiradilar, chiqadilar va unda bo‘ladilar.

Bitimning 6-moddasi 1-bandidagi qoidalar mazkur fuqarolarning rasmiy ish faoliyati davrida ular bilan birga yashaydigan hamda amaldagi diplomatik yoki xizmat pasportiga ega bo‘lgan oila a’zolariga ham tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi milliy fuqarolik pasportiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Turkmanistondagi diplomatik vakolatxonalari va unga tenglashtirilgan boshqa ma’muriy-texnik personali a’zolari, shuningdek ularning oila a’zolari konsullik yig‘imlarini undirmasdan rasmiylashtirilgan ko‘p marotabali vizalar asosida Turkmaniston hududiga kiradilar, chiqadilar va unda bo‘ladilar.

Bitimning 6-moddasi 1-3-bandlarida ko'rsatilgan shaxslar qabul qiluvchi davlat Tashqi ishlari vazirligining tegishli akkreditatsiyasiga ega bo'lishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining Xorazm va Buxoro viloyatlarida, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarining (*Bayonnomaning 3-ilovasi*) Turkmaniston chegarasiga bevosita tutashgan tumanlarida doimiy istiqomat qiluvchi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yangi shakldagi pasportlari va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining amaldagi eski shakldagi pasportlariga ega bo'lган O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Turkmanistonning Dashouz va Lebop viloyatlariga **bir oyda bir marta** vizasiz kirishlari, chiqishlari va unda ko'pi bilan uch kun bo'lishlari mumkin.

Turkmanistonning Dashouz va Lebop viloyatlarida doimiy istiqomat qiluvchi Turkmaniston fuqarolari, O'zbekiston Respublikasining Xorazm va Buxoro viloyatlariga, shuningdek Turkmanistonning davlat chegarasiga bevosita tutashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining rayonlari (*Bayonnomaning 3-ilovasi*) hududlariga **bir oyda bir marta** vizasiz kirishlari, chiqishlari hamda unda ko'pi bilan **uch kun** bo'lishlari mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan fuqarolar, Turkmaniston fuqarolarining haqiqiy pasportlari yoki Turkmanistondan chiqib ketish va Turkmanistonga kirish uchun Turkmaniston fuqarolarining haqiqiy pasportlari va yashash joylarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan chegarani kesib o'tish huquqiga egadirlar.

Ramazon hayiti (Amazon) va Qurbon hayiti (Qurbon bayram) kunlari an'anaviy marosimlarni bajarish maqsadida Bitimning 7-moddasi amal qilishi tatbiq etiladigan fuqarolar yuqorida qayd etilgan Tomonlar davlatlarining hududlariga **bir oyda ikki marta** vizasiz kirishlari, chiqishlari, lekin ko'pi bilan **yetti kun** unda bo'lishlari mumkin.

Bitimning 7-moddasida qayd etilgan fuqarolarning yashash joylari Tomonlar davlatlari fuqarolarining pasportlarida propiska to'g'risida qo'yiladigan belgilar asosida aniqlanadi.

Bitimning 7-moddasida ko'rsatilgan Tomonlar davlatlari fuqarolarining boshqa Tomon davlati hududida ushbu moddada belgilangan muddatlardan ko'p bo'lishlari o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan vizalar asosida amalga oshiriladi.

Bitim 7-moddaning amal qilishi tatbiq etiladigan ikkala Tomon davlatlarining fuqarolari xalqaro aloqalar uchun belgilangan o'tkazish punktlari orqali davlat chegarasidan o'tish vaqtida Tomonlarning milliy qonunlariga muvofiq zarur bo'lgan protseduralarga riosa qilgan holda boshqa Tomon davlati hududiga kirishlari va ushbu hududdan chiqishlari mumkin.

Bitimning 1- va 2-ilovalarida sanab o'tilgan hujjatlar bo'yicha vizasiz kirish, chiqish va unda bo'lish tartibi ikkala Tomon davlatining quyidagi toifadagi fuqarolarga nisbatan belgilanadi:

a) fuqaro aviatsiyasi havo kemalari ekipaji a'zolari amaldagi milliy pasportlariga ko'ra va bosh deklarasiya (uchish vazifasi)dagi qaydnomalar mavjud bo'lganda;

b) daryo kemasi va katerlari ekipaji a'zolarining amaldagi dengizchilar pasportlariga ko'ra hamda kema roli qaydnomasini yoki undan ko'chirma mavjud bo'lganda;

v) temir yo'l, poezd, refrijerator va lokomotiv brigadalari xodimlarining amaldagi milliy pasportlari hamda nomma-nom ko'rsatilgan ro'yxat, har bir reys uchun tasdiqlanadigan yo'naliш varaqalariga ko'ra;

g) hukumatlararo feld'eger aloqasi xodimlari amaldagi milliy pasportlari va Tomonlarning vakolatli organlari beradigan tegishli hujjatlarga ko'ra.

Bir Tomon davlatining boshqa Tomon davlati hududida joylashgan xo'jalik ob'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi personali xodimlari bo'lgan fuqarolari Tomonlar o'rtasida tuzilgan alohida bitimda belgilangan tartib va shartlarda xizmat vazifalarini bajarish uchun bu Tomon davlati hududiga kiradilar, chiqadilar va unda bo'ladilar.

Insonparvarlik xarakteridagi kechiktirib bo'lmas hollarda Tomonlarning vakolatli organlari og'ir betob oila a'zosi yoki yaqin qarindoshini (er-xotin, ota-onalar, bolalar, tug'ishgan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotinlarning ota-onalari) ziyorat qilish maqsadida, shuningdek Tomonlarning vakolatli organlari tarafidan berilgan tasdiqlovchi hujjatlarni ko'rsatgan holda oila a'zosi yoki yaqin qarindoshni ko'mish marosimida ishtirok etish uchun ketayotgan shaxslarga bir sutka ichida vizalar beradi.

Tomonlar quyidagi toifadagi fuqarolarga nisbatan vizalar berishda konsullik yig'imlarining imtiyozli tariflarini o'zarolik asosida qo'llaydilar:

- ko'milgan joyini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lgan holda yaqin qarindoshlarining qabrlarini ziyorat qilish maqsadida ketayotgan shaxslar;

- tegishli hujjatlarni ko'rsatgan holda 1941-1945 yillardagi urush veteranlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1- hamda 2- guruh nogironlari.

Tomonlar davlatlarining fuqarolari tasdiqlovchi hujjatlarni ko'rsatgan holda uchinchi mamlakatlarda tushib qolish yoki u yerga borish maqsadida o'z Tomoni davlati hududida transport vositasiga minish va undan tushish sharti bilan boshqa Tomon davlati hududi orqali tranzit tarzida temir yo'l transportida vizasiz yurishlari mumkin.

Bitim Tomonlarning boshqa Tomon davlati fuqarolarining ular hududida bo'lishi nomaqbul deb topilgan hollarda ularning kirib kelishini rad etish yoki bo'lish muddatini cheklash huquqiga daxl qilmaydi.

Tomonlar boshqa Tomon davlati hududini belgilangan muddatga qadar tark etishi lozim bo'lgan yoki chiqarib yuborilgan o'z davlatlarining fuqarolarini qabul qilish majburiyatini oladilar.

Favqulodda hollarda (milliy xavfsizlikka, jamoat tartibiga yoki fuqarolarning sog‘lig‘iga tahdid, shu jumladan yuqumli kasalliklar, tabiiy ofatlar) Tomonlar Bitimning amal qilishini butunlay yoki qisman to‘xtatib qo‘yish huquqini saqlab qoladilar. Tomonlar Bitimning amal qilishini to‘xtatib qo‘yish va qayta tiklash haqida mumkin qadar bu to‘g‘rida qaror qabul qilinishidan **eng kamida 24 soat** ilgari oldindan bir-birlarini diplomatik kanallar orqali xabardor qiladilar.

Tomonlar Bitim kuchga kirgandan so‘ng **30 kun** davomida Bitimning amal qilishi tatbiq etiladigan hujjatlarning nusxalarini diplomatik kanallar orqali almashadilar.

Yangi hujjatlar kiritiladigan yoki amaldagi hujjatlarga o‘zgartishlar kiritilgan hollarda Tomonlar bir-birlarini xabardor qiladilar va yangi yoxud o‘zgartirilgan hujjatlarning nusxalarini ularning kiritilishidan kamida **30 kun** ilgari diplomatik kanallar orqali yuboradilar.

Tomonlar diplomatik kanallar orqali xorijiy fuqarolarning kirishlari, chiqishlari, unda bo‘lishlari tartiblariga oid amaldagi qonunchilik to‘g‘risida va shu sohadagi boshqa axborotni almashadilar.

Tomonlar Bitimni bajarish bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish maqsadida zaruratga ko‘ra maslahatlashuvlar olib boradilar.

Tomonlarning o‘zaro kelishuvlariga ko‘ra Bitimga uning 19-moddasida nazarda tutilgan tartibga muvofiq kuchga kiradigan va Bitimning ajralmas qismi hisoblanadigan o‘zgartish hamda to‘ldirishlar kiritilishi mumkin.

Bitim qoidalarini bajarish yoki qo‘llash davomida yuzaga keladigan har qanday kelishmovchilik yoxud bahsli masalalar Tomonlar o‘rtasida muzokaralar orqali hal qilinadi.

Bitim imzolangan kundan **o‘n besh kun** o‘tgach kuchga kiradi va Tomonlardan biri boshqa Tomondan ushbu Bitim amal qilishini to‘xtatish niyati to‘g‘risidagi rasmiy xabarnoma olgan sanadan keyin to‘qson kun o‘tgunicha amal qiladi.



**O‘zbekiston Respublikasi hamda Qирг‘из
Respublikasi fuqarolarning o‘zaro kelib-
ketishlarining o‘ziga xos xususiyatlari.**

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qирг‘из Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risida”gi Bitim, 2006 yil 3 oktyabrda Toshkent shahrida imzolangan, Bitim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 9 yanvardagi «Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-557-sonli qarori bilan tasdiqlangan va 2007 yil 12 fevraldan kuchga kirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg‘iz Respublikasi Hukumati (Tomonlar) ikki qardosh davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga hamda o‘z mamlakatlarining fuqarolari o‘rtasida aloqalarni rivojlantirishga intilib, O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iz Respublikasi o‘rtasida abadiy do‘stlik to‘g‘risida 1996 yil 24 dekabrda imzolangan Shartnoma qoidalariga amal qilib, ikkala davlat fuqarolarining o‘zaro kelib-ketishlari tartibi va shartlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida, quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

Bir Tomon davlatining fuqarolari Bitimning 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatib o‘tilgan haqiqiy hujjatlar bo‘yicha va Bitimda ko‘zda tutilgan shartlarga muvofiq vizasiz **60 sutkagacha** boshqa Tomon davlati hududiga kirishlarni, chiqishlarni tranzit o‘tishlari hamda unda vaqtincha bo‘lishlari mumkin.

Tomonlar davlatlarining fuqarolari **60 sutkadan ortiq** muddatga Tomonlar davlatlari hududlariga kirish va u yerda bo‘lishni ko‘zlasalar, oldindan vizalarni Tomonlarning qonunchiligi bilan o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtiradilar.

Bir Tomon davlatining haqiqiy diplomatik, xizmat va milliy pasportiga yega va diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari hamda xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini xizmatchilari hisoblanadigan, boshqa Tomon davlati hududida bo‘lgan fuqarolari kirishdan keyin Tomonlar qonunchiligi bilan o‘rnatilgan tartibda akkreditatsiyani rasmiylashtiradilar va akkreditatsiya muddati davomida vizasiz u yerda bo‘ladilar.

Yuqorida belgilangan guruh fuqarolari bilan ularning boshqa davlat hududida bo‘lib turish davrida birga yashaydigan oila a’zolari (er/xotin va voyaga yetmagan bolalar)ga ham tatbiq etiladi.

Tomonlar xalqaro aloqalar uchun ochiq bo‘lgan o‘tkazish punktlari orqali haqiqiy va Tomonlar davlatlari milliy qonunchiligiga muvofiq tegishli ravishda rasmiylashtirilgan, chegarani kesib o‘tish huquqini beruvchi hujjatlarga ega Tomonlar davlatlari fuqarolarini uchinchi davlatlarga o‘tkazishga majbur va Tomonlarning vakolatli organlari tomonidan chiqish taqiqlangan shaxslarning uchinchi davlatlarga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan choralar ko‘radilar.

Tomonlar xalqaro aloqalar uchun ochiq bo‘lgan o‘tkazish punktlari orqali haqiqiy va Tomonlar davlatlari milliy qonunchiligiga muvofiq tegishli ravishda rasmiylashtirilgan, chegarani kesib o‘tish huquqini beruvchi hujjatlarga ega Tomonlar davlatlari fuqarolarini uchinchi davlatlarga o‘tkazishga majbur va Tomonlarning vakolatli organlari tomonidan chiqish taqiqlangan shaxslarning uchinchi davlatlarga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan choralar ko‘radilar.

Tomonlar o‘zaro yozma roziliklariga asosan Bitimning 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan hujjatlar ro‘yxatidagi o‘zgarishlar yuzasidan qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bunda, yangi hujjatlarga o‘zgartishlar kiritish holatida, Tomonlar ularning namunalarini diplomatik kanallar orqali ularni kuchga kiritishga **30 sutkadan** kechiktirmasdan almashadilar.

Tomonlar Bitimni imzolaganlaridan keyin, Bitimning 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan hujjatlarning namunalari bilan diplomatik kanallar orqali almashadilar.

Vizalar berish uchun konsullik yig‘imlarining tarif stavkalari Tomonlar tomonidan Bitimning 3-ilovasiga ko‘ra o‘zarolik shartlari asosida o‘rnataladi.

Tomonlar o‘zarolik asosida quyidagi shaxslarni viza berishda konsullik yig‘imlaridan ozod qiladilar:

- «Tomonlar o‘rtasidagi shartnomalarga ko‘ra fan, texnika, ta’lim, madaniyat, san’at va sport sohasidagi almashish tartibida ketayotganlarni;

- Ulug‘ Vatan Urushi faxriylari va ularga tenglashtirilgan shaxslarni, tegishli guvohnomalarini ko‘rsatgan holda 1 va 2-guruh nogironlarini;

- 16 yoshdan kichik va 60 yoshdan katta bo‘lgan fuqarolarning;

- Taklif qiluvchi o‘quv muassasalarining iltimosnomalariga asosan tomonlar davlatlari hududlaridagi o‘quv muassasalari va o‘tkaziladigan kurslarda o‘qiydiganlarni.

Bitim kuchi amal qiladigan ikkala Tomon davlatlari fuqarolari Tomonlardan biri davlat hududlariga davlat chegarasini kesib o‘tish uchun mo‘ljallangan o‘tkazish punktlari orqali kirishlari, chiqishlari va tranzit o‘tishlari mumkin. Ushbu holda Tomonlarning milliy qonunchiligiga ko‘ra, davlat chegaralarini kesib o‘tishdagi tartiblarga rioya qilinishi kerak.

Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarining ro‘yxati alohida bitimlar bilan belgilanadi.

Tomonlar davlatlari fuqarolari boshqa Tomon davlati hududida vaqtincha bo‘lishlari davrida ushbu davlat qonunlari va qoidalariga rioya qilishlari shart.

Xizmat ishi yuzasidan bir Tomon davlati hududida bo‘lgan fuqarolarning vaqtincha propiskasi va ro‘yxatga olinishi boshqa Tomon davlati vakolatli organi tomonidan mazkur Bitimning ajralmas qismi hisoblangan 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan hujjatlar hamda xizmat va safar guvohnomalari asosida boj va yig‘imlar olmasdan amalga oshiriladi.

Bitim Tomonlarning boshqa Tomon davlatining ularning hududlarida bo‘lishlari maqsadga muvofiq yemas deb hisoblanadigan fuqarolarining kirishlarini rad yetishi yoki vaqtincha bo‘lish muddatlarini cheklashdagi huquqlariga taalluqli yemas.

Tomonlarning harbiylari boshqa Tomon hududiga kirish, tranzit orqali o‘tish va chiqishi, agar ular davlat tomonidan yuklatilgan xizmat vazifalarini davlat chegarasining ayrim

hududlarida bajarayotgan bo‘lsalar, Tomonlarning vakolatli organlari tomonidan Bitimning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadigan alohida bayonnomalar bilan belgilanadi.

Tomonlarning vakolatli organlari diplomatik notalar almashish yo‘li bilan aniqlanadi.

Istisno holatlarda (milliy xavfsizlikka, jamoat tartibiga yoki fuqarolar sog‘ligiga tahdid, shuningdek, favqulodda holatlarda va boshq.) Tomonlar Bitim yoki uning ayrim qoidalarining amal qilishini vaqtincha to‘xtatib qo‘yish huquqini o‘zlarida saqlab qoladilar.

Ushbu holatda manfaatdor Tomon boshqa Tomon fuqarolarining vizasiz kirishlari, chiqishlari, vaqtincha bo‘lishlari va tranzit o‘tishlariga tegishli cheklovlar kiritishlari mumkin. Bu haqda tegishli Tomon diplomatik kanallar orqali ko‘rsatilgan cheklovlar amalga kiritilishidan oldin **72 soat** ichida bu haqda xabar beradi.

Bitimni qo‘llash natijasida kelib chiqadigan masalalarni Tomonlar maslahatlashuvlar va muzokaralar yo‘li bilan hal etishadi.

Tomonlarning kelishuviga ko‘ra, Bitimga uning ajralmas qismi hisoblanadigan va Bitimning 16-moddasida ko‘rsatilgan tartibda kuchga kiradigan alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladigan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Bitim O‘zbekiston Respublikasi va Qирғиз Respublikasi ishtirok etadigan boshqa xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga taalluqli emas.

Bitim uning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan davlat ichki protseduralarini Tomonlar tomonidan amalga oshirilganligi haqida oxirgi yozma xabarnoma olingan kundan boshlab kuchga kiradi va bir Tomonning boshqa Tomondan Bitimning kuchini bekor qilish istagi haqida rasmiy xabarnoma olingan kundan e’tiboran **90 kun** o‘tishigacha amal qiladi.



**O‘zbekiston Respublikasi hamda Tojikiston
Respublikasi fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlariga
kiritilgan yengilliklar.**

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Tojikiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risida”gi Bitim 2018 yil 9 martda Dushanbe shahrida imzolangan, mazkur Bitim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagি PQ-3604-soni «Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi uchun 2018 yil 19 martdan kuchga kirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Tojikiston Respublikasi Hukumati (Tomonlar), ikki qardosh davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirish va o‘z davlatlari fuqarolari o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishga intilgan holda, ikkala davlat fuqarolarining

o‘zaro kelib-ketish qoidalari va shartlarini tartibga solish maqsadida, quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

Bitimning 1-va 2-ilovalarda sanab o‘tilgan amaldagi harakatlanish hujjatlari yegalari bo‘lgan Tomonlar davlatlarining fuqarolari vizasiz **30 sutkagacha** Tomonlar davlatlari hududiga kirishlari, chiqishlari, undan tranzit o‘tishlari va unda vaqtincha bo‘lishlari mumkin.

30 sutkadan ortiq muddatga Tomonlar davlatlari hududlariga kirish va u yerda bo‘lishni ko‘zlagan Tomonlar davlatlarining fuqarolari Tomonlar davlatlari qonunchiligi bilan o‘rnatilgan tartibga muvofiq viza rasmiylashtiradilar.

Bir Tomon davlatining amaldagi diplomatik, xizmat va milliy pasportlariga ega bo‘lgan fuqarolari boshqa Tomon davlati hududida joylashgan diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar vaklatxonalarining xodimlari bo‘lsalar, kirib kelgandan so‘ng Tomonlar qonunchiligidagi o‘rnatilgan tartibga muvofiq akkreditatsiyani rasmiylashtiradilar va butun akkreditasiya muddati davomida vizasiz bo‘ladilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan fuqarolarning rasmiy ish faoliyati davrida ular bilan birga boshqa Tomon davlati hududida yashaydigan oila a’zolari (turmush o‘rtog‘i va voyaga yetmagan farzandlari)ga ham tatbiq yetiladi.

Amaldagi diplomatik pasportlari yegalari bo‘lgan, Tomonlar davlatlariga xizmat safarini amalga oshiradigan va boshqa Tomon davlati hududida **o‘ttiz sutkadan ortiq** bo‘lishni ko‘zlagan Tomonlar davlatlarining fuqarolariga vizalar ular fuqarosi bo‘lgan Tomon davlatining diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasining yozma murojaatiga asosan konsullik yig‘imlari undirilmasdan beriladi.

Bir Tomon davlatining boshqa Tomon davlati hududida joylashgan ob’ektlariga xizmat ko‘rsatuvchi Tomonlar davlatlarining fuqarolari xizmat vazifalarini bajarishi uchun shu boshqa Tomon davlati hududiga vizasiz kiradilar, chiqadilar va unda bo‘ladilar.

Mazkur xizmatchilarni chegaradan o‘tkazish milliy pasport va xizmat guvohnomasi asosida amalga oshiriladi.

Mazkur fuqarolarni boshqa Tomon davlati hududida vaqtincha ro‘yxatga olish va qayd qilish Tomonlar davlatlarining vakolatli organlari tarafidan ob’ektlarga xizmat ko‘rsatadigan tashkilotlarning taqdimnomasi asosida boj va yig‘imlar undirilmagan holda amalga oshiriladi.

Mazkur ob’ektlarga xizmat ko‘rsatishda foydalilaniladigan avtotransport vositalari, maxsus texnika hamda moddiy-texnikaviy resurslar barcha turdagи soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa xil to‘lovlardan ozod qilinadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan ob’ektlarning ro‘yxati Bitim imzolangan sanadan so‘ng **30 kun** ichida diplomatik kanallar orqali notalar almashish orqali aniqlanadi.

Tomonlar xalqaro avtomobil tashishlarini amalga oshiradigan transport korxonalarining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalariga murojaati asosida transport vositalarining haydovchilariga belgilangan tartibda **12 oyga qadar** muddatga ko‘p martalik viza beradilar.

Tomonlar bir-birlarini Bitimni qo‘llash sohasiga taalluqli bo‘lgan masalalar, shu jumladan, shaxsni va yegalarining fuqaroligini tasdiqlovchi amaldagi hujjatlar, ularni berish va ulardan foydalinish tartibiga kiritilgan o‘zgarishlar, Tomonlar davlatlari hududida xorijiy fuqarolarning bo‘lishlari qoidalari hamda tegishli qonunchilik hujjatlari yuzasidan xabardor qiladilar.

Tomonlar o‘zaro yozma rozilik asosida Bitimning 1- va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan hujjatlar ro‘yxatlariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha qaror qabul qilishlari mumkin.

Bunday holatda, amaldagi hujjatlarga o‘zgartirish kiritilgan yoki yangi hujjatlar amalga kiritilgan taqdirda, Tomonlar diplomatik kanallar orqali ularning kiritilishidan **kamida 30 kun** ilgari ularning namunalari bilan almashadilar.

Tomonlar Bitimning 1- va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan hujjatlarning namunalarini diplomatik kanallar orqali almashadilar.

Viza berish uchun konsullik yig‘imlarining tariflari Tomonlar tarafidan o‘zarolik shartlari asosida Bitimning 3-ilovasiga muvofiq belgilangan.

Tomonlar o‘zarolik asosida quyidagi shaxslarni viza uchun konsullik yig‘imi to‘lashdan ozod etadilar:

- Tomonlar o‘rtasidagi shartnomalarga muvofiq fan, texnika, ta’lim, madaniyat, san’at va sport sohasida almashuv tarzida borayotganlar;
- Ulug‘ Vatan urushi veteranlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1- va 2-guruh nogironlari - tegishli hujjat taqdim yetilgan holda;
- 16 yoshgacha bo‘lgan va 60 yoshdan oshgan fuqarolar;
- o‘quv yurtlarida, Tomonlar davlatlari hududlarida tashkil etiladigan kurslarda ta’lim olayotganlar taklif yetuvchi o‘quv yurti murojaatiga asosan.

Ikkala Tomon davlatining Bitim qoidalari qo‘llaniladigan fuqarolari davlat chegaralaridan o‘tish uchun belgilangan o‘tkazish punktlari orqali Tomonlarning milliy qonunchiligiga muvofiq davlat chegaralaridan o‘tish tartiblariga amal qilgan holda Tomonlar davlati hududiga kirishlari, chiqishlari va undan tranzit o‘tishlari mumkin.

Davlat chegaralaridan o‘tkazish punktlarining ro‘yxati alohida bitim bilan aniqlanadi.

Tomonlar davlatlarining fuqarolari boshqa Tomon davlati hududida bo‘lgan chog‘larida bu Tomon davlatining qonun va qoidalariга rioya qilishlari lozim.

Bir Tomon davlatining boshqa Tomon davlati hududida xizmat ishlari bilan bo‘lgan fuqarolarini vaqtincha propiskaga qo‘yish va ro‘yxatga olish Bitimning 1- va 2-ilovalarida

keltirilgan hujjatlar hamda xizmat va safar guvohnomasi asosida Tomonlar davlatlarining vakolatli organlari tarafidan yig‘im va to‘lovlardan undirilmasdan amalga oshiriladi.

Bitim Tomonlarning boshqa Tomon davlatining kelishi nomaqbul deb hisoblangan fuqarosi kelishini rad yetish yoki ularning davlatlari hududida bo‘lish muddatini cheklash huquqiga daxl qilmaydi.

Alovida hollarda (milliy xavfsizlikka, jamoat tartibi yoki fuqarolar sog‘lig‘iga tahdid, shu jumladan, favqulodda vaziyatlar va boshqalar) Tomonlar Bitim amal qilishini to‘la yoki qisman to‘xtatib turish huquqini saqlab qoladilar.

Bunday holatda manfaatdor Tomon boshqa Tomonni diplomatik kanallar orqali cheklovlar kuchga kirishidan **72 soat avval** xabardor qilgan holda boshqa Tomon davlati fuqarolarining vizasiz kirishi, chiqishi, uning hududida bo‘lishi va tranzit o‘tishiga tegishli cheklovlar kiritishi mumkin.

Yuqorida nazarda tutilgan holatlar bartaraf yetilganidan so‘ng, Tomonlar ushbu holatlar bartaraf etilgani to‘g‘risida bir-birlarini xabardor qilishlari va Bitimning amal qilishini qayta tiklashlari lozim.

Bitim qoidalarini qo‘llashda yuzaga keladigan masalalarni Tomonlar muzokara va maslahatlashuvlar yo‘li bilan hal etadilar.

Bitimga Tomonlarning o‘zaro kelishuviga asosan uning ajralmas qismi hisoblanadigan alovida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladigan va Bitimning 17-moddasida nazarda tutilgan tartibda kuchga kiradigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Bitim O‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi ishtirokchilar hisoblanadigan boshqa xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan Tomonlarning huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘iziston Hukumatlari o‘rtasida fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risida imzolangan Bitimlar qo‘shni qardosh xalqlar o‘rtasidagi abadiy do‘slik, munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga hamda fuqarolari o‘rtasida aloqalarni rivojlantirishga, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga, aloqalarni rivojlantirishga, Davlatlar chegarasini kesib o‘tish qoidalariga, fuqarolarning kirishlari, chiqishlari va unda bo‘lishlarini tartibga solishga, yanada takomillashtirishga, davlat chegarasi rejimini mustahkamlashga, qonuniylik va huquqiy tartibotni saqlashga xizmat qilishi bilan birga fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlaridagi huquqlari belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2000 yil 10 avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘iziston

Hukumatlari o‘rtasida fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risidagi Bitimlarni e’lon qilish haqida” 168-son buyrug‘i tasdiqlangan.

2-savol. O‘zbekiston Respublikasi chegara zonalarida bo‘lishni tartibga solishda ichki ishlар organlarining faoliyati.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 24 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasiga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 700-son qaroriga 2-ilova O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara rejimi to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan chegara zonasiga kirish (undan chiqish), undan o‘tish, u yerda bo‘lish (yashash), harakatlanish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Asosiy tushunchalar:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi (keyingi o‘rinlarda — Davlat chegarasi) — O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikni, suvni, yer qa’rini va samoviy hududni) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat;

xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish — O‘zbekiston Respublikasining chegarabo‘yi suv havzalaridan foydalanish, suv inshootlarini barpo etish, dehqonchilik, chorvachilik, ishlab chiqarish, tadqiqot, izlanish ishlарini amalga oshirish uchun yerdan, o‘simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish, konchilik ishlарini, geologik izlanishlarni hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish;

chegara zonası — chegara mintaqasiga tutash bo‘lgan, chegara rejimi joriy etiladigan chegaraoldi hududi yoki uning bir qismi;

chegara mintaqasi — Davlat chegarasiga bevosita tutash bo‘lgan, Davlat chegarasi rejimi joriy etiladigan chegaraoldi hududining bir qismi;

chegaraoldi hudud — Davlat chegarasiga tutash bo‘lgan ma’muriy-hududiy birlik (tuman, shahar) doirasidagi hudud;

chegara rejimi — chegara zonasiga kirish (undan chiqish), undan o‘tish, u yerda bo‘lish (yashash), harakatlanish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibi va qoidalari majmui.

Chegara zonasida chegara rejimiga rioya etilishi ustidan nazorat qilish ichki ishlар organlarining, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘sishlariga o‘z vakolatlari doirasida yukланади.

Chegara zonasini belgilash hamda jihozlash tartibi

Chegara zonasida doirasi, shuningdek, chegara zonasiga kiradigan tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar hamda temir yo‘l stansiyalari, aeroportlar va boshqa ob’ektlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlар vazirligi hamda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘sishlarining takliflari asosida Davlat chegarasini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish, chegara muammolarini hal etish, noqonuniy migratsiyani, respublika hududiga tovarlar va kontrafakt mahsulotlarini noqonuniy olib kirishga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyalar (keyingi o‘rinlarda — hududiy komissiyalar) tomonidan tegishli hududlar bo‘yicha aniqlanadi va belgilanadi (o‘zgartirish kiritiladi).

Bunda hududiy komissiyalar tomonidan:

chegara zonası chizig‘ini belgilash, uning tarkibiga kiradigan mamlakat ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, temir yo‘l stansiyalari, aeroportlar va boshqa ob’ektlar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha qaror qabul qilinadi;

hududiy komissiyalarning chegara zonasini belgilash to‘g‘risidagi qarorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga tasdiqlash uchun kiritiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan hududiy komissiyalarning chegara zonasini belgilash to‘g‘risidagi qarorlari tasdiqlanganidan so‘ng chegara zonasini belgihanlangan hududda chegara rejimi joriy etiladi.

Chegara zonasining chizig‘i Davlat chegarasi yoki (va) chegara mintaqasiga tutash bo‘lgan mamlakat ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarning ma‘muriy chegarasi yoki joylarda o‘zgarmas topoelementlar bo‘ylab belgilanadi.

Chegara zonasini ro‘yxatiga Davlat chegarasi yoki chegara mintaqasiga tutash bo‘lgan tuman, shahar, shaharcha, qishloq, ovullar ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq to‘liq yoki qisman, temir yo‘l stansiyalari, aeroportlar va boshqa ob‘ektlar yaxlitligicha kiritiladi.

Chegara zonasiga kirishda ogohlantiruvchi belgilar, axborot doskalarini o‘rnataladi va ichki ishlari hududiy organi navbatchisining pultiga axborot chiqarib beradigan texnik vositalar jihozlanadi.

Chegara zonasiga kirishni texnik jihozlash (kuzatuv va nazorat vositalari) mahalliy davlat hokimiyati organlari, ogohlantiruvchi belgilar, axborot doskalarini saqlanishining nazorati hududiy ichki ishlari organlariga yuklanadi.

Chegara rejimiga rioya etilishini nazorat qilish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘slnlari qonunchilikka muvofiq chegara zonasini va uning tashqarisida jangovar-xizmat (tezkor) faoliyatini amalga oshiradi.

Chegara zonasiga keladigan va shu yerda yashaydigan shaxslarning hujjatlari, zarur bo‘lganda ushbu zonada harakatlanadigan transport vositalari va yuklar O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlari organlari va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘slnlari tomonidan tekshiriladi.

Chegara zonasiga kirish (chiqish) nazorati ichki ishlari organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, Davlat chegarasida vaziyat murakkablashganda esa O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘slnlari tomonidan ham amalga oshiriladi.

Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish maqsadida, uning ayrim uchastkalaridagi chegara zonasida shaxslarning bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘slnlari tomonidan nazorat postlari qo‘yilgan holda nazoratga olinishi mumkin.

Chegara zonasida o‘rmondan foydalanish va o‘rmon xo‘jaligini yuritish tartibi ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

Shaxslarning chegara zonasiga kirishi (undan chiqishi), undan o‘tishi, u yerda bo‘lishi (yashashi), harakatlanishi, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibi

Chegara zonasida doimiy yashaydigan shaxslar chegara zonasini doirasida ro‘yxatga olish varaqasini olmasdan, doimiy ro‘yxatga olingan tuman, shahar va viloyat hududida harakatlanishi mumkin.

Chegara zonasida doimiy yashamaydigan va besh kundan ortiq muddatga keladigan fuqarolarning shaxsini tasdiqllovchi hujjatlari, shu jumladan fuqarolik biometrik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-kartasi, xizmat guvohnomasi, harbiy guvohnomasi, tugilganlik haqida guvohnomasidan (keyingi o‘rinlarda — shaxsni tasdiqllovchi hujjatlar) tashqari chegara zonasida bo‘lish uchun ichki ishlari organlari tomonidan beriladigan alohida ro‘yxatga olish varaqasi ham bo‘lishi shart.

Davlat o‘rmon fondi hududida joylashgan chegara zonasiga o‘rmondan foydalanish maqsadida keladigan shaxslarda yuqorida qayd etilgan ruxsat beruvchi hujjatlardan tashqari o‘rmon xo‘jaligi organlarining ruxsatnomasi (roziligi) ham bo‘lishi shart.

Chegara zonasida doimiy yashamaydigan va besh kundan ortiq muddatga keladigan shaxslar chegara rejimi qoidalarida belgilangan huquq va majburiyatlar haqida ma‘lumot olish uchun profilaktika inspektoriga yoki mahalla fuqarolar yigini raisiga murojaat qilishlari, shuningdek, chegara zonasiga kelgan shaxslarning ushbu Nizomda belgilangan tartibga rioya

etib yashashlari turar joy berayotgan (yashashlariga yo‘l qo‘yayotgan) shaxslar tomonidan ta’minlanadi.

O‘qishga ketgunicha chegara zonasidagi aholi punktlarida yashagan oliv, o‘rtalik maxsus va boshqa ta’lim muassasalarini o‘quvchilari hamda talabalari ushbu punktlarda, ularning ta’lim muassasalarida o‘qishini tasdiqlovchi hujjatlari hamda chegara zonasidagi avvalgi doimiy yashash va ro‘yxatga olingan joylari bo‘yicha bo‘lishi mumkin.

Chegara zonasida joylashgan aholi punktlariga xizmat safariga yuboriladigan shaxslar ushbu punktlarda ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari va xizmat safari hujjatlari bo‘yicha bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Bojxona qo‘mitasining harbiy xizmatchilari va xodimlari hamda O‘zbekiston Respublikasi chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo‘yicha ishchi guruh a‘zolari chegara zonasiga ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari (harbiy yoki xizmat guvohnomasi) bo‘yicha keladi va bo‘ladi. Ushbu shaxslarning oila a‘zolari chegara zonasida ular xizmat qilayotgan joydan beriladigan ma‘lumotnomalar asosida bo‘ladi.

Diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalarini, xalqaro tashkilotlari xodimlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiyadan o‘tgan boshqa shaxslar chegara zonasiga kirish uchun ruxsatni Tashqi ishlar vazirligidan oladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xizmatga ushbu joylardan chaqirilgan yoxud bu hududda yaqin qarindoshlari bo‘lsa, chegara zonasiga xizmat ko‘rsatmalari yoki o‘tish guvohnomalarini bo‘yicha kiradi va bo‘ladi.

Haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilgan shaxslar chegara zonasida ilova qilinadigan, nomma-nom tuzilgan ro‘yxatlar va mudofaa ishlari bo‘yicha tegishli tuman (shahar) bo‘limlari ko‘rsatmalari bo‘yicha boradigan punkti ko‘rsatilgan holda harakatlanadilar.

Chegara zonasida joylashgan sanatoriy, dam olish uylari, pansionatlar, turistik bazalar va boshqa davolash-sog‘lomlashtirish muassasalariga boradigan fuqarolar ushbu zonada shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, sanatoriya va turistik yo‘llanmalar yoki ushbu muassasalar tomonidan beriladigan ma‘lumotnomalar bo‘yicha bo‘ladilar.

Bolalar chegara zonasida joylashgan dam olish oromgochlari va bolalar uchun boshqa muassasalarda yo‘llanmalar asosida bo‘ladi. Ushbu muassasalardagi bolalarning ota-onalarini farzandlarini ko‘rish uchun chegara zonasida shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar asosida besh kun davomida bo‘ladilar.

Chegara zonasiga besh kundan ortiq muddatga keladigan shaxslar ro‘yxatga olish kartochkalarida ko‘rsatilgan ma‘muriy hudud doirasida yashash huquqiga ega bo‘ladilar.

Chegara zonasi doirasida ma‘muriy markaz, maktab, shifoxona va boshqa tashkilotlar joylashgan bo‘lsa hamda ularga xizmat ko‘rsatadigan shaxslarning bir qismi chegara zonasi tashqarisida yashasa, ushbu shaxslarga chegara zonasida shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, chegara zonasi doirasida joylashgan tegishli muassasalar va tashkilotlarda ularning ishlab chiqarish faoliyatini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘yicha bo‘lishiga ruxsat etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh davlatlarning chegaraoldi hududlarida yashovchi fuqarolari O‘zbekiston Respublikasining chegaradosh tuman va shaharlarining chegara zonasiga xalqaro shartnomalar asosida kirib kelishlari va bo‘lishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yoki vaqtinchalik yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lgan shaxslarning chegara zonasida bo‘lishlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Chet elga chiquvchi yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit harakatlanadigan shaxslar Davlat chegarasidan o‘tish huquqini beradigan tegishli hujjatlar bo‘lgandagina chegara zonasidan o‘tadilar.

Ushbu bandda ko'rsatilgan shaxslar tranzit harakatlanayotgan chegara zonasidagi punktlarida umumiylashtirish uchun shaxslar to'xtash va bo'lish huquqiga ega. Chegara zonasidagi orqali tranzit harakatlanayotgan ushbu shaxslar to'xtashga majbur bo'lган holatlarda bu haqida ichki ishlardan organlariga zudlik bilan xabar berishlari shart.

Chegara zonasida bo'lish huquqini beruvchi ro'yxatga olish varaqasini rasmiylashtirish va berish tartibi

Chegara zonasida ro'yxatga olish varaqlari chegara zonasidagi belgilangan aynan shu ma'muriy hudud (tuman, shahar, shaharcha, qishloq, ovul) doirasida bo'lish uchun beriladi.

Chegara zonasida yashash huquqini beruvchi ro'yxatga olish varaqasini olish uchun bu yerga besh kundan ortiq muddatga keladigan fuqarolar kelgan joylari bo'yicha ichki ishlardan organlarining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalariga (keyingi o'rnlarda — MvaFR bo'linmalari) kelgan kunlaridan boshlab, dam olish va bayram kunlarini hisobga olmagan holda, bir ish kunidan kechikmasdan murojaat etishlari lozim.

Ro'yxatga olish varaqasini olish uchun arizachi ichki ishlardan organlariga shaxsan tashrif buyurishlari shart.

Ro'yxatga olish varaqasini olish uchun ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq ariza va 2-ilovaga muvofiq so'rvonoma ariza beruvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari asosida «Pasport-viza» avtomatlashirilgan axborot tizimlari majmuasida (keyingi o'rnlarda — «Pasport-viza» tizimi) shakllantiriladi va ariza beruvchi tomonidan imzolanadi.

Ro'yxatga olish varaqasini berilishi haqidagi elektron so'rvonoma «Pasport-viza» tizimida shaxs tekshiruvi, hujjat tekshiruvi va fuqarolik tekshiruvidan, shuningdek, Ichki ishlardan vazirligining Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazi, Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati hamda Tezkor qidiruv departamenti Terrorizmga qarshi kurashish xizmatining ma'lumotlar bazasidan elektron tekshiruvdan o'tkaziladi.

Ro'yxatga olish varaqasining berilishi haqidagi elektron so'rvonoma «Pasport-viza» tizimida tekshiruvdan o'tgandan so'ng ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq QR-kod (matritsali shtrix-kod) qo'yilgan ro'yxatga olish varaqasi chop etiladi.

MvaFR bo'linmalari xodimlari ro'yxatga olish varaqlarini topshirish vaqtida varaqa oluvchilarini chegara zonasida bo'lish qoidalari bilan tanishtirishlari shart.

Chegara zonasiga ota-onasi yoki hamrohlik qiluvchi shaxslar bilan keladigan 16 yoshgacha bo'lган voyaga yetmaganlarga ro'yxatga olish varaqlarini ota-onasi yoxud hamrohlik qiluvchi shaxslarga beriladi.

Ro'yxatga olish varaqasi bir ish kunida beriladi.

Chegara zonasiga vaqtincha yashash uchun keladigan shaxslarga ro'yxatga olish kartochkalari bir oydan ortiq bo'lмаган muddatga beriladi.

Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod etilgan va avval chegara zonasida yashagan hamda doimiy yashash uchun qaytib kelgan shaxslarga ro'yxatga olish varaqlarini ularning doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini rasmiylashtirish uchun belgilangan muddatga beriladi.

Yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarining faoliyat turi bo'yicha besh kundan ortiq muddat chegara zonasida bo'ladigan xodimlariga ro'yxatga olish varaqlarini olti oygacha bo'lган muddatga beriladi va ular har oy ichki ishlardan o'tadi.

Shaxslarga vaqtincha yashash davrida yoki chegara zonasida bir necha marta bo'lishi zarurligi tufayli beriladigan ro'yxatga olish varaqlarini amal qilish muddati tugagandan so'ng haqiqiy hisoblanmaydi.

Ro'yxatga olish varaqlarining amal qilish muddatini uzaytirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar ichki ishlardan organlariga ularning amal qilish muddati tugashidan besh kun avval murojaat qilishlari shart.

Profilaktika inspektori va mahalla raisi chegara zonasiga kelgan shaxslarga chegara rejimi qoidalari nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarini haqida tushuncha beradi, ularning

yashash va harakatlanish qoidalariga rioya etishlari, shuningdek, ro'yxatga olish varaqasining amal qilish muddati tugagandan so'ng o'z vaqtida chiqib ketishlarini nazorat qiladilar.

Chegara zonasasi hududida bo'lgan shaxslar o'zlarini bilan pasport yoki shaxslarini tasdiqllovchi boshqa hujjat, shuningdek, chegara zonasida bo'lish huquqini beradigan hujjatni olib yurishlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar talablariga muvofiq ko'rsatishlari, chegara zonasida bo'lish sabablariga oid tushuntirishlar berishlari shart.

Chegara zonasida yashash huquqini beruvchi ro'yxatga olish varaqalarini chegara zonasida bo'lishlari maqsadga muvofiq bo'lman shaxslarga berilmaydi.

Ro'yxatga olish varaqalarini berish rad etilgan taqdirda, rad etilganlik bo'yicha o'rnatilgan tartibda shikoyat bilan murojaat qilish mumkin.

Chegara zonasidagi yaylov yerlardan foydalanish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining (keyingi o'rnlarda — Qo'mita) doimiy foydalanishida bo'lgan chegara zonasidagi yaylov yerlardan (keyingi o'rnlarda — yaylov yerlar) Qo'mita tomonidan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari va ichki ishlar organlariga kalendar yilda bir marta taqdim etiladigan ro'yxatga kiritilgan shaxslar (keyingi o'rnlarda — foydalanuvchilar) foydalananadi.

Yaylov yerlardan ijara huquqi asosida yer to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor va texnik xomashyosi o'simliklar resurslari nobud bo'lishiga yo'l qo'ymagan va yaylov xo'jaligiga zarar yetkazmagan holda tegishli vosita va usullar orqali yig'ib-terib olinadi.

Yerdan foydalanuvchilar yaylov yerlardan samarali va maqsadli foydalanishi, shuningdek, ekinlarga va hayvonot dunyosiga zarar yetkazilishiga, yaylov yernarning maishiy va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymasligi hamda yongin xavfsizligiga va qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan boshqa talablarga rioya etishlari shart.

Yaylov yerlarda yongin yuzaga kelganda va ularni bartaraf etish vaqtida yerdan foydalanuvchilarning yaylov yerga kirishi cheklanadi hamda transport vositalarining umumiy foydalanishda bo'lgan avtomobil yo'llaridan boshqa yo'llarda harakatlanishi taqiplanadi.

Qo'mita yerdan foydalanuvchining yaylov yerlardan foydalanish huquqi tugaganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarini va ichki ishlar organlarini 10 kun muddat ichida xabardor qiladi.

Chegara zonasida belgilanadigan rejim cheklovleri

Chegara zonasasi doirasida bo'ladigan shaxslar:

o'zlarini bilan shaxsini tasdiqllovchi, shuningdek, chegara zonasida bo'lish huquqini beradigan hujjatlarini olib yurishi;

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati vakillarining talabiga binoan hujjatlari, transport vositalari va tovarlarni tekshirish uchun taqdim etishga, chegara zonasida bo'lishining sababini tushuntirishi lozim.

Chegara zonasida joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlariga chegara zonasida bo'lish va yashash uchun ruxsatnomasi bo'lman shaxslarni ishga qabul qilish taqiplanadi.

Chegara zonasidagi davlat o'rmon fondi yerlarida hayvonlarni tutish (ov qilish) o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan beriladigan yo'llanma va varaqlar, boshqa hududlarda esa O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va uning hududiy bo'linmalari ruxsatnomasi bo'yicha amalgalash oshiriladi.

Barcha holatlarda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari bilan kelishilgan holda maxsus ajratilgan joylarda ov qilinadi.

Chegara zonasida chegara rejimiga rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari hamkorlikda profilaktika tadbirlarini o'tkazadi.

Chegara zonasasi doirasida:

xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish—O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari bilan kelishilgan holda hamda davlat o‘rmon fondi yoki Qo‘mitaning doimiy foydalanishida bo‘lgan yaylov yerlar tegishliligicha o‘rmon xo‘jaligi organlari yoki Qo‘mita bilan kelishilgan holda;

barcha turdag'i havo kemalari, shu jumladan, uchuvchisiz uchish apparatlarining parvozları, aerofoto suratga olish — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarini parvozlar boshlanishidan 10 kun avval xabardor qilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining ruxsatnomasi bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq chegara zonasida boshqa rejim cheklovları ham joriy etilishi mumkin.

Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2000 yil 10 avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘iziston Hukumatlari o‘rtasida fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risidagi Bitimlarni e’lon qilish haqida” 168-sod buyrug‘ini hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 iyuldag“O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara rejimi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 504-sod qarorini to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

1.O‘zbekiston Respublikasi hamda Qozog‘iston Respublikasi fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari tartibi;

2.O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qozog‘iston Respublikasi hududiga kelishlari, ketishlari va unda bo‘lib turishlari uchun lozim hujjatlar;

3.O‘zbekiston Respublikasi hamda Turkmaniston fuqarolarning o‘zaro qatnovlari va chegarabo‘yi viloyatlarida yashovchi fuqarolarga yengillashtirilgan qatnov tartibi;

4.O‘zbekiston Respublikasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlarining Turkmaniston davlat chegarasi bilan bevosita tutashgan tumanlari.

5. Chegara zonasi va chegara mintaqasida belgilanadigan rejim cheklovları;

6. Chegara zonasi va chegara mintaqasini belgilash hamda jihozlash tartibi;

7. Chegara rejimini buzganlik uchun javobgarlik;

8. Tashkilotlarning faoliyat turi bo‘yicha ko‘pincha uzoq vaqt chegara zonasida bo‘ladigan xodimlariga ro‘yxatga olish kartochkalari qancha muddatga beriladi va ular necha oyda ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tadi;

9. Chegara zonasiga keladigan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni ro‘yxatga olish kartochkalarini berish tartibi;

18-Mavzu: O‘zbekiston va qo‘sni davlatlar fuqarolarining o‘zaro kelib-ketishlari va chegara zonalarida bo‘lish tartibi.

Seminar– 2 soat

1-savol. O‘zbekiston va qo‘sni davlatlar fuqarolarining o‘zaro kelib-ketishlari tartibi.

2-savol. O‘zbekiston Respublikasi chegara zonalarida bo‘lishni tartibga solishda ichki ishlar organlarining faoliyati.

Ushbu seminar mashg‘uloti **«Blis-so‘rov»** interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«Blis-so‘rov» (inglizcha «blis» – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo yetadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, tinglovchilarning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Mashg‘ulatlarda ushbu metodni qo‘llash quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatini ochib berishni talab etadigan savollarni ishlab chiqib, tinglovchilar e’tiboriga havola qiladi

Tinglovchilar berilgan savolga qisqa muddatda lo‘nda, aniq javob beradi

Guruh (juftlik)da ishslashda bir nafar tinglovchi berilgan savolga javob qaytaradi, uning guruhdoshlari javobni to‘ldiradi (biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim)



O‘quv mashg‘ulotning savollari:

1-savol. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi Hukumati o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketish shartlari to‘g‘risida”gi Bitim.

2-savol. O‘zbekiston Respublikasi hamda Qozog‘iston Respublikasi fuqarolarning Bitimda ko‘zda tutilgan shartlarga muvofiq boshqa Tomon davlati hududiga kirishlari, chiqishlari, tranzit o‘tishlari hamda unda vaqtincha bo‘lishlari tartibi.

3-savol. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro qatnovlari va chegarabo‘yi viloyatlarida yashovchi fuqarolarga yengillashtirilgan qatnov tartibi to‘g‘risida”gi Bitim.

4-savol. O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston fuqarolarining Bitimda nazarda tutilgan tartibda boshqa Tomon davlati hududiga kirishlari, chiqishlari, tranzit o‘tishlari va unda vaqtincha bo‘lishlari tartibi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1.«O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq va chegara rejimini ta’minalashning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qanday qarori qabul qilindi?

2. Xizmat faoliyati va o‘rnatalgan rejimga rioya yetilishini nazorat qilish tartibi.

3. Chegara zonasiga kirish (o‘tish), bu yerda bo‘lish (yashash), harakatlanish va ishlarni amalga oshirish tartibi.

4. Chegara mintaqasiga kirish (bo‘lish) uchun ruxsatnomalar olish va ularni rasmiylashtirish tartibi.

19-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA ChET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO‘LMAGAN ShAXSLARNI VAQTINChA TURGAN JOYI BO‘YIChA RO‘YXATGA OLISH TARTIBI.

Ma’ruza 2- soat

Reja:

1. Boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

2. Yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishning yangi tartibi joriy etilishi.

1-savol. Boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo‘yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 22 apreldagi PF-5984-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan

shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 593-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlandi.

Ushbu Nizom boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni hamda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini belgilaydi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasida qonun hujjaligiga muvofiq mehnat, xizmat, ta’lim olish, davolanish, ziyyarat, dam olish maqsadida hamda investor, «faxriy fuqaro», vatandosh, sayyoh, ishbilarmon, xususiy mehmon sifatida yoki sport, madaniyat yo‘nalishida vaqtincha bo‘lishlari mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ichki ishlar organlarining Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari (MvaFRB), joylashtirish vositalari yoki davolash muassasalari orqali vaqtincha ro‘yxatga olinadilar. Vaqtincha ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga jismoniy shaxs shaxsiy identifikasiya raqami ro‘yxatga olingan hududiy MvaFRB tomonidan ularning yozma murojaatlariga asosan beriladi.

Vaqtincha ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ro‘yxatga olingan joylarida yashashlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha bo‘lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘z hohishlariga ko‘ra joylashtirish vositalarida, davolash muassasalarida yoki uy-joy maydonida taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslarni xabardor qilgan holda yashaydilar.

Jismoniy va yuridik shaxslar taklifisiz mustaqil ravishda O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar pasport nazoratidan o‘tishdan oldin Nizomda nazarda tutilgan talablar va javobgarlik bilan tanishib chiqadilar.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar yonida pasport yoki harakatlanish hujjati bo‘lishi hamda ular bu hujjatlarni vakolatli organlar vakillarining talabiga muvofiq taqdim etishlari shart.

Chet el fuqarolariva fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar milliy pasport yoki harakatlanish hujjati yo‘qolganligi haqida qabul qiluvchi tashkilotga va ichki ishlar organlariga darhol xabar qilishlari lozim.

Sayyoohlarning hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadigan soddalashtirilgan tartibda tekshiriladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar tashkilotlardan birining taklifiga muvofiq kelgan hollarda, boshqa tashkilot ushbu fuqaroga nisbatan majburiyatlarni va Nizomda nazarda tutilgan javobgarlikni o‘ziga olgan holda, uni o‘z yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida qabul qilish huquqiga ega.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish va uning hududida harakatlanishi uchun ruxsatnomalar berish tartibi O‘zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bitimlari bilan, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda tenglik asoslarida o‘zgartirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya etishlari shart.

Boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi. O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha bo‘lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar tegishli ravishda milliy pasport yoki harakatlanish hujjati bilan vaqtincha ro‘yxat asosida yashaydilar. Vaqtincha ro‘yxatga olish chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelganlaridan keyin hududiy MvaFRB yoki davolash muassasalariga uch ish kuni davomida, joylashtirish vositalariga esa ikki kun davomida murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.

Vaqtincha ro‘yxatga olinishning muddati chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi nazorat-o‘tkazish punkti orqali **kirib kelgan sanadan keyingi kunning 00:01 soatidan boshlab hisoblanadi**.

Quyidagilar vaqtincha ro‘yxatdan ozod qilinadilar:

a) respublikaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining taklifiga muvofiq kelgan xorijiy mamlakatlar davlat va hukumat rahbarlari, parlament va hukumat delegasiyalarining a’zolari, ushbu delegasiyalarning texnik xodimlari, sanab o‘tilgan shaxslarning oila a’zolari;

b) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan berilgan hujjatlar (qizil va moviy rangli Laissez-Passer pasporti) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasiga kelgan shaxslar;

v) O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditasiya qilingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar;

g) 16 yoshga to‘limgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar;

d) O‘zbekiston Respublikasiga bayram va dam olish kunlarida yoki oddiy kunlarda uchish kunigacha bo‘lgan muddatga keladigan hamda shu kunlar davomida respublikadan chiqib ketadigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;

ye) sayohat qilayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, agar ularning respublikaning har bir aniq aholi punktida bo‘lish muddati uch kundan oshmasa, ularning bo‘lganligini tasdiqlaydigan hujjatlardan (xizmatlardan foydalanganligini, tovarlar xarid qilganligini tasdiqlaydigan hujjatlar, foto yoki videotasvirlardan) biri mavjud bo‘lganda. Bunda bitta aholi punktida uzluksiz ro‘yxatdan o‘tish talabi qo‘yilmaydi;

j) O‘zbekiston Respublikasiga belgilangan tartibda kelgan chet el harbiy samolyotlari (kemalari) ekipajlarining a’zolari;

harbiy samolyotlar (kemalarning) ekipajlari a’zolarining qirg‘oqqa tushishi va O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yurishiga harbiy samolyotlar (kemalar) qabul qilish rejasiga muvofiq katta (harbiy) boshliq tomonidan ruxsat etiladi;

z) xalqaro yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashishni amalga oshiruvchi xorijiy avtotransport vositalari ekipajlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, tashishlarni amalga oshirayotgan yo‘nalishlaridagi shaharlarda va aholi yashash joylarida, shu jumladan boradigan joylarida bo‘lgan chog‘larida;

i) harbiy bo‘lmagan chet el kemalari ekipajlari tarkibiga kiruvchi shaxslar garnizonlarda va chegara shaharlarida bo‘lgan chog‘larida, bu shaxslar uyushgan holda sayohatga chiqqan vaqtlarida esa, O‘zbekiston Respublikasining boshqa shaharlarida ham. Chet el fuqarolarining ko‘rsatib o‘tilgan toifalarining ob’ektlardan chiqishlariga portlarda amalda bo‘lgan qoidalar va yo‘riqnomalarga muvofiq chegara qo‘shinlari vakillari tomonidan ruxsat etiladi;

k) xalqaro aviatsiya yo‘llarining fuqaro havo kemalari ekipajlari, xalqaro temir yo‘l poezdlari brigadalari tarkibiga kiruvchi shaxslar, qatnovning amaldagi jadvalida ko‘rsatilgan aeroportlarda yoki bekatlarda bo‘lgan chog‘larida.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha ro‘yxatga olish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

a) joylashtirish vositalari va davolash muassasalari ma’muriyati tomonidan ular kelib joylashgan vaqtida, qancha muddat bo‘lishlaridan qat’i nazar, «E-mehmon» dasturi yordamida;

b) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni taklif qilgan (qabul qilayotgan) va ularga turar joy bergen jismoniy shaxslar tomonidan:

chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning bo‘lish muddati 30 kundan oshmasa, ular kelib joylashgan paytda «E-mehmon» dasturi yordamida yoki uch ish kuni ichida hududiy MvaFRBga murojaat etish orqali;

agar chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lidan shaxslarning bo‘lish muddati 30 kundan oshsa, uch ish kuni ichida hududiy MvaFRBga murojaat etish orqali;

v) mustaqil ravishda sayohat qilayotgan, palatkali lagerlarda va tunash uchun joylashish vositasiga aylantirilgan yer transportida yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lidan shaxslar kelganlaridan keyin ikki kun mobaynida turistik-axborot markazlariga yoki yaqin oradagi joylashtirish vositalariga murojaat qilish yo‘li bilan «E-mehmon» dasturi orqali.

Joylashgan shaxslarning hisobi joylashtirish vositalari va davolash muassasalarining mas’ul shaxslari tomonidan yuritiladi.

Joylashtirish vositalari va davolash muassasalarining mas’ul shaxslari tomonidan ushbu talabning buzilishi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

MvaFRB, joylashtirish vositalari va davolash muassasalarining mas’ul shaxslari hamda fuqarolar tomonidan avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali vaqtincha ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lidan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar IIV MvaFRBBda umumlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida chet el fuqarolarining quyidagi toifalari akkreditasiya qilinadi:

a) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining boshliqlari va xodimlari, harbiy attashelar, diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalarining ma’muriy-texnik va xizmat ko‘rsatish xodimlari, ularning qaramog‘idagi oila a’zolari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lidan va uning hududida doimiy yashamaydigan uy ishchilari;

b) xorijiy davlatlar ommaviy axborot vositalari vakillari va ularning oila a’zolari;

v) O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiyadan o‘tgan xalqaro va hukumatlararo tashkilotlarning vakolatxonalari boshliqlari va xodimlari, shuningdek, ularning qaramog‘idagi oila a’zolari;

g) O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiyadan o‘tgan iqtisodiy, texnika hamkorlik va gumanitar yordam ko‘rsatish bo‘yicha xorijiy davlatlar hukumat tashkilotlarining boshliqlari va xodimlari, shuningdek, ularning qaramog‘idagi oila a’zolari.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan mazkur shaxslarga akkreditasiya kartochkalari beriladi hamda bevosita ularning milliy pasportlariga akkreditasiya haqida yozib qo‘yiladi.

30 kungacha vaqtincha ro‘yxatga olish uchun taklif qilgan (qabul qiladigan) shaxslar «E-mehmon» dasturi orqali turistik yig‘imni (mehmonxona yig‘imini) to‘laydilar va unga quyidagi ma’lumotlarni kiritadilar:

chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar vaqtincha ro‘yxatga olinadigan manzil va uy-joy mulkdori (mulkdorlari) to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasini ismi, tug‘ilgan sanasi, ko‘chmas mulkning kadastr raqami, telefon raqami);

chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasini ismi (mayjud bo‘lsa), tug‘ilgan sanasi, kelishdan maqsadi, viza turi, berilgan sanasi va amal qilish muddati, milliy pasport yoki harakatlanish hujjatining seriya va raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati).

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni 30 kungacha va undan ortiq muddatga vaqtincha ro‘yxatga olish uchun taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslar hududiy MvaFRBga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

milliy pasport yoki harakatlanish hujjati;

kadastr hujjatlarining (kadastr pasporti, ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reestridan ko‘chirma) asl nusxasi (nusxalari olinib, asli qaytariladi);

uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) yozma arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkonini bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

agar chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar mehnat faoliyati bilan shug‘ullansa, qabul qiluvchi yuridik shaxsning Nizomning 1-ilovasiga muvofiq belgilangan shakldagi talabnomasi;

investitsiya loyihasini amalga oshirish haqidagi ma’lumotlar - xorijiy investorlar, ular tomonidan chet el fuqarolari orasidan jalg etiladigan mutaxassislar va ularning oila a’zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) uchun investitsiya loyihasi viloyat hududida amalga oshirilgan taqdirda;

«Faxriy fuqaro» maqomini berish to‘g‘risidagi guvohnoma - «Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar, shuningdek, ularning oila a’zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) uchun.

30 kungacha vaqtincha ro‘yxatga olinganlik uchun turistik (mehmonxona) yig‘imi, 30 kundan ortiq vaqtincha ro‘yxatga olinganlik uchun esa «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Davlat bojlari stavkalarida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarning vaqtincha ro‘yxat muddatini uzaytirish uchun taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslar vaqtincha ro‘yxat muddati tugashidan oldin hududiy MvaFRBga yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlarni taqdim etgan holda murojaat qilishlari kerak.

«Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarga, shuningdek, ularning oila a’zolariga (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari)ga davlat boji undirilmasdan uch yil muddatgacha vaqtincha ro‘yxatga olish rasmiylashtiriladi va uzaytiriladi.

Vatandosh va uning oila a’zolarini vaqtincha ro‘yxatga olish Vazirlar Mahkamasining «Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlariga) O‘zbekiston Respublikasiga ko‘p marotabali kirish vizalarini berish hamda ularni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida» 2019 yildagi 17 apreldagi 326-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

MvaFRB hujatlarni rasmiylashtirganidan keyin bir ish kuni mobaynida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni «E-mehmon» dasturi yordamida vaqtincha ro‘yxatga olishni rasmiylashtiradi hamda taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslarga Nizomning 2-ilovasiga muvofiq QR-CODE bilan himoyalangan qayd varag‘ini (qayd varag‘i) beradi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni vaqtincha ro‘yxatga olishni rasmiylashtirish tartibi Nizomning 3-ilovasiga muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy investorlarni, ular tomonidan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar orasidan jalb etiladigan mutaxassislarini va ularning oila a’zolarini (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlarini vaqtincha ro‘yxatga olish xorijiy investorlar tomonidan ushu hududda investitsiya loyihasi amalga oshirilgan hollarda, vizaning amal qilish muddatiga (ular uchun xalqaro shartnomalar asosida vizasiz rejim o‘rnatilgan xorijiy davlatlar fuqarolari uchun - doimiy yashash joyidan ro‘yxatdan chiqishni talab etmasdan 1 yil muddatga) amalga oshiriladi. Ularni vaqtincha ro‘yxatga olishda MvaFRB tomonidan Nizomning 2-ilovasiga muvofiq berilgan qayd varag‘ining belgilangan bandiga «INVESTOR» so‘zi yoziladi.

Mazkur toifadagi qayd varag‘i chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarga respublikaning boshqa hududlarida vaqtincha ro‘yxatga olinmasdan bo‘lish va yashash huquqini beradi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarning vaqtincha ro‘yxatga olinish muddati milliy pasport yoki harakatlanish hujjati va viza muddatidan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Qayd varag‘i taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslarning xohishiga ko‘ra, davlat tili yoki rus va ingliz tilida rasmiylashtiriladi.

Quyidagilar vaqtincha ro‘yxatga olinishga tenglashtiriladi:

- a) safarlarning turoperator va turagent tomonidan ichki ishlar organlariga turistlarning milliy pasporti yoki harakatlanish hujjati ma’lumotlari, harakatlanish yo‘nalishlarining sxemalari, sayohat qilish vaqtida to‘xtash (tunash) joylari ko‘rsatilgan ro‘yxatlari «E-mehmon» dasturi yordamida elektron shaklda taqdim etilganda;

b) safarlar turoperator va turagent tomonidan aholi punktlaridan tashqarida tashkil etiladigan tur doirasida ekskursiya rahbari, gid va/yoki yo‘riqchi-boshlovchi hamrohligida, bunday tur yoki uning bir qismi 10 kundan oshmagan holda amalga oshirilganda;

v) safarlar chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan turoperator va turagentning avtoturini sotib olgan holda shaxsiy avtomobilda, mototsiklda, velosipedda, yayov yoki guruh tarkibida avtobusda amalga oshirilganda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha ro‘yxatga olinmasdan, Nizomning 10-bandida ko‘rsatilgan muddatdan ortiq vaqt davomida turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning joylashtirish vositalari va davolash muassasalariga MvaFRBning tegishli ruxsatisiz joylashtirish va ularning hujjatlarini rasmiylashtirish taqilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzgan, shuningdek, boshqa qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘ygan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar to‘g‘risida joylashtirish vositalari va davolash muassasalarining ma’muriyati, xususiy uy-joy egalari hududiy ichki ishlar organlariga darhol xabar berishlari shart.

Bunday shaxslarni joylashtirish vositalari va davolash muassasasida vaqtincha ro‘yxatga olish faqat ichki ishlar organlaridan ruxsat olingandan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Joylashtirish vositalari va davolash muassasalarida, shuningdek, xususiy uy-joyda yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning bo‘lish muddatini uzaytirish qabul qiluvchi tashkilotlarning yozma talabnomalari yoxud taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslarning yozma murojaatlari yoki viza rejimi qo‘llanilmaydigan, yoxud viza berishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llaniladigan, uchinchi shaxslarning taklifisiz, ammo vizaning amal qilish muddati doirasida kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning o‘z yozma arizalari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha ro‘yxatga olishni rasmiylashtirish chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar joylashtirish vositasiga yoki davolash muassasasiga kelgan paytda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiya qilinmagan chet el fuqarolarining diplomatik pasportlari joylashtirish vositalarida va davolash muassasalarida Nizomga muvofiq vaqtincha ro‘yxatga olinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik korpusning belgilangan tartibda akkreditasiya qilingan, milliy pasport yoki akkreditasiya kartochkasi asosida joylashtirish vositalarida yashayotgan va davolash muassasasida bo‘lgan a’zolari joylashtirish vositalarining va davolash muassasalarining hisobga olish daftarlari va kartochkalari bo‘yicha pasportlar va akkreditasiya kartochkalariga belgi qo‘ymasdan vaqtincha ro‘yxatga olinadilar.

“O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida Nizom”ning 15, 16, 17, 19, 20 va 22-bandlarida ko‘rsatilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida yoki MvaFRBda tegishli ravishda akkreditasiya yoki vizaning amal qilish muddati belgilangan tartibda uzaytirilgandan keyin joylashtirish vositalarida yoki davolash muassasalarida vaqtincha ro‘yxat muddati uzaytirib beriladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga MvaFRB orqali viza uzaytirilgandan (stikerdagi berilgan sanadan) so‘ng taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslar uch ish kuni davomida hududiy MvaFRBga, bir ish kunidan kechiktirmay esa joylashtirish vositalari yoki davolash muassasalariga vaqtincha ro‘yxat muddatini uzaytirish uchun tegishli hujjatlar bilan murojaat qilishi lozim.

Vaqtincha ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga davolash muassasalaridan Nizomning 4-ilovasiga muvofiq kartochka rasmiylashtirib beriladi.

Joylashtirish vositalari va davolash muassasalarining mas'ul shaxslari kelganlar haqidagi ma'lumotni ular joylashgan vaqtida «E-mehmon» dasturiga kiritadilar.

2-savol. Yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishning yangi tartibi joriy etilishi.

Joylashtirish vositalari va davolash muassasalarining belgilangan tartibda sertifikatsiz va «E-mehmon» dasturisiz faoliyat yuritishi taqiqlanadi.

Taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslar shu jumladan turoperator va turagentlar chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlari va majburiyatlari o‘z vaqtida tushuntirib berilishini ta’minlaydilar, shuningdek, ularni Nizomga muvofiq vaqtincha ro‘yxatdan o‘tishni, bo‘lish muddatini uzaytirishni, respublika hududida harakatlanishini hamda o‘zlariga belgilab berilgan bo‘lish muddati tugagach, O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketishini ta’minlash uchun javobgar bo‘ladilar.

Bu shaxslar tomonidan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган шахсларга uy-joy, transport vositalari berish yoxud boshqa xizmatlar ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va Nizom qoidalari buzilishiga olib kelishi oldindan ma’lum bo‘lgan hollarda, ushbu shaxslarning chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган шахсларга uy-joy, transport vositalari berishiga yoki boshqa xizmatlar ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hududiy ichki ishlar organlari joylashtirish vositalari va davolash muassasalari ma'muriyati, shuningdek, boshqa xususiy uy-joy egalari tomonidan chet el fuqarolari va

fuqaroligi bo‘lman shaxslarni vaqtincha ro‘yxatga olish talablariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni respublikaning boshqa hududlarida vaqtincha ro‘yxatga olishi doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxati bekor qilinmagan holda, kelgan joyi bo‘yicha uch kundan olti oygacha bo‘lgan muddatga amalga oshiriladi.

Investor sifatida doimiy yashashga ruxsatnomasi olgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarning boshqa hududlarda vaqtincha ro‘yxatga olinishi talab etilmaydi.

Joylashtirish vositalari yoki davolash muassasalariga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni vaqtincha ro‘yxatga olish ular kelib joylashgandan keyin ushu vositalar va muassasalarining ma’muriyati tomonidan yashash guvohnomasi yoki ID-karta yoxud harakatlanish hujjati asosida amalga oshiriladi.

Joylashtirish vositalari va davolash muassasalarining mas’ul shaxslari kelganlar haqidagi axborotni ular joylashgan vaqtida «E-mehmon» dasturiga kiritadilar.

Yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar vaqtincha ro‘yxatga olinish uchun boshqa hududga kelgan kunidan boshlab uch ish kunida hududiy MvaFRBga murojaat qiladilar va quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

yashash guvohnomasi yoki ID-karta yoxud harakatlanish hujjati;

tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma - 16 yoshga to‘lman shaxslar uchun (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa);

kadastr hujjatlarining (kadastr pasporti, ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reestridan ko‘chirma) asl nusxasi (nusxalari olinib, asli qaytariladi);

uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) turar joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaqanda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

agar chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs mehnat faoliyati bilan shug‘ullansa, yuridik shaxsnинг Nizomning 5-ilovasiga muvofiq belgilangan shakldagi talabnomasi.

Vaqtincha ro‘yxatga olinganlik uchun «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Davlat bojlari stavkalarida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

MvaFRB hujjatlarni rasmiylashtirganidan keyin bir ish kuni mobaynida vaqtincha ro‘yxatga oladi hamda Nizomning 6-ilovasiga muvofiq qayd varag‘ini beradi.

Qayd varag‘i taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslarning xohishiga ko‘ra, davlat tili yoki rus va ingliz tilida rasmiylashtiriladi.

Boshqa hududlarda joylashgan ta’lim muassasalariga o‘qishga kelgan, yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha ro‘yxatga olish MvaFRB tomonidan bir o‘quv yili davriga amalga oshiriladi. Ular boshqa ta’lim muassasasiga o‘qishga o‘tgan, akademik ta’til olgan, ta’lim muassasasidan bo‘shatilgan yoki vafot etgan hollarda, ushbu muassasalarning rahbarlari tegishli qaror qabul qilingan kunda vaqtincha ro‘yxatga olgan MvaFRBni bundan xabardor qiladilar.

Ta’lim muassasasi rahbarlarining bildirishi asosida MvaFRB vaqtincha ro‘yxatni bekor qiladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha ro‘yxatga olishni uzaytirish MvaFRB tomonidan ko‘rib chiqiladi. Buning uchun (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslar vaqtincha ro‘yxat muddati tugashidan oldin MvaFRBga Nizomning 38-bandida nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etadilar.

MvaFRB arizani qayd etgach, shuningdek, hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirgach, bir ish kunida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga vaqtincha ro‘yxatni uzaytiradi hamda Nizomning 5-ilovasiga muvofiq qayd varag‘ini beradi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning chegara zonasiga va tashrif uchun yopiq bo‘lgan joylarga kirishi hamda harakatlanishi faqat taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslarning yozma murojaatlari asosida ichki ishlar organlarining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Qabul qiluvchi tashkilotlarning iltimosiga ko‘ra, chet el fuqarolariga ko‘p marta kirish va harakatlanish uchun ruxsatnomalar berilishi mumkin.

Chegara zonasiga va tashrif uchun yopiq bo‘lgan joylarga kirish hamda harakatlanishga ruxsat berilmagan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ichki ishlar organlarining talabi bilan oldingi turar joylariga qaytishlari yoki boshqa punktga borishlari shart.

Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditatsiya qilingan chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish tartibi, agar O‘zbekiston ishtirokchisi bo‘lgan xalqaro kelishuvlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ikki tomonlama shartnomalar bilan va tenglik asosida belgilanadi.

MvaFRB chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar vaqtincha ro‘yxatga olinganidan keyin shu kunning o‘zida ularning ro‘yxatini (elektron ko‘rinishda) hududiy ichki ishlar organining huquqbazarliklarning oldini olish bo‘limiga yuboradi.

Ichki ishlar organi profilaktika (katta) inspektorlari o‘zları xizmat ko‘rsatayotgan hududda vaqtincha yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan pasport-viza rejimiga rioya etilishini maxsus avtomatlashtirilgan elektron dasturdan foydalangan holda nazorat qilib boradilar.

MvaFRB tomonidan rasmiylashtirib berilgan amaldagi qayd varag‘i yo‘qotib qo‘yilganda yoki yaroqsiz holga kelganda, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs yoxud taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxs bir ish kunida hududiy MvaFRBga milliy pasport yoki harakatlanish xujjatini taqdim etgan holda erkin shaklda yozilgan ariza bilan murojaat qiladi.

MvaFRB arizani ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsga yo‘qotib qo‘yilgan yoki yaroqsiz holga kelgan qayd varag‘i o‘rniga yangisini rasmiylashtirib beradi. Bunda davlat boji undirilmaydi.

Shaxsini tasdiqllovchi hujjati bo‘lman, belgilangan muddatda vaqtincha ro‘yxatga olinmagan, shuningdek, vaqtincha ro‘yxatga olingan manzilida yashamayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar haqida ularga yashash uchun turar joy maydoni bergen uy-joy mulkdori (mulkdorlari) bir ish kuni ichida hududiy MvaFRBni xabardor qilishi shart.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar vaqtincha yashash manzillarini respublikaning boshqa hududiga o‘zgartirsa, avvalgi manzillaridan chiqib ketganlaridan so‘ng uch ish kundan kechikmay, hududiy MvaFRBga, joylashtirish vositalari yoki davolash muassasalariga vaqtincha ro‘yxatga olish uchun bevosita yoxud taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxs orqali murojaat etishlari lozim.

Respublikaning muayyan manzilida vaqtincha ro‘yxat asosida yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar O‘zbekiston Respublikasining boshqa manzilida uch kundan ortiq bo‘lish istagini bildirsalar, amaldagi vaqtincha ro‘yxat bekor qilinmasdan, bo‘lish muddatiga vaqtincha ro‘yxatga olinadilar. Buning uchun yangi manzildagi hududiy MvaFRBga Nizomning tegishliligi bo‘yicha 17 va 38-bandlarida belgilangan hujjatlar taqdim etiladi.

Bunda yangi manzildagi vaqtincha ro‘yxatga olinish muddati avvalgi vaqtincha ro‘yxatga olinish muddatidan oshmasligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlilik va idoralar bilan hamkorlikda tasdiqlangan rejaga asosan respublika hududida joylashtirish vositalari va davolash muassasalari tomonidan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni qabul qilish qoidalariga rioya etishlari bo‘yicha monitoring va profilaktik tadbirlar o‘tkazib borliishini tashkil etadi va nazorat qiladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar, shuningdek, taklif qilgan (qabul qiladigan) jismoniy va yuridik shaxslarni Nizom talablariga rioya etishlari ichki ishlar organlari hamda Tashqi ishlar vazirligi o‘z vakolatlari doirasida joylardagi hokimiyat organlari va O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlikda nazorat qiladi.

“O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida Nizom” talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 593-son qarorni to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

1. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish uchun MvaFRB tomonidan davlat boji undirilishi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida chet el fuqarolarini akkreditasiya qilish tartibi.

3. “Xorijiy investor”, “Vatandosh” va «Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, shuningdek, ularning oila a’zolarini vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish va muddatini uzaytirish tartibi.

4. Yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni respublikaning boshqa hududlarida vaqtincha ro‘yxatga olish tartibi.

5. Boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi;

6. O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi;

7. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish shakllari;

8. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditasiyadan o‘tuvchi chet el fuqarolari;

9. O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy (xususiy) ishlar bo‘yicha, fuqaro (shaxs)larning takliflari bilan bo‘lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish;

10. O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy (xususiy) ishlar bo‘yicha, fuqaro (shaxs)larning takliflari bilan bo‘lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish muddatini uzaytirish.


19-Mavzu. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi.

Seminar - 2 soat

Ushbu o‘quv mashg‘uloti **“Savol-javob”** interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«Savol-javob» metodi mavzuning o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar tomonidan o‘zlashtirilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo‘lishiga bog‘liq.

Ta’lim jarayonida metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Ўқув машг‘улоти саволлари:

1-савол. Ўзбекистон Республикасиhududida чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларни вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олиш тартиби сайди норматив-хуқуқий нужжат билан белгиланади.

2-савол. Ўзбекистон Республикасиhududida чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларни вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олиш учун МваФРБ томонидан давлат божи ундирилиши.

3-савол. Хорижий инвесторларни, улар томонидан чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар орасидан жалб этиладиган мутахассисларни ва уларнинг оила аъзоларини вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олиш.

4-савол. Вақтинча рўйхатдан озод қилинадиган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар.

5-савол. Ўзбекистон Республикасида шахсий (хусусий) ишлар бўйича, фуқаро (шахс)ларнинг таклифлари билан бўлиб турган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларни вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олиш.

7. Чет эл фуқароларива фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг бўлиш муддати 30 кундан ошмаганда ва 30 кундан ошса уларни вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олиш тартиби;

8. Вақтинча рўйхатга олинишга тенглаштирилган.

20-MAVZU. O'ZBEKISTON HUDDUDIDA ChET EL FUQAROLARIVA FUQAROLIGI BO'L MAGAN ShAXSLARNI DOIMIY YaShASH JOYI BO'YICHA RO'YXATGA OLISh TARTIBI.

Ma'ruza – 2 soat

Reja:

1. Boshqa davlatlardan viloyatga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'l magan shaxslarga doimiy yashashga ruxsatnomalar berishning o'ziga xos jihatlari.

2. Respublikaning boshqa hududlarida doimiy yashovchi chet el fuqarolariva fuqaroligi bo'l magan shaxslarni viloyatda doimiy ro'yxatga olish tartibining o'ziga xos xususiyatlari.

3. Viloyat hududida doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'l magan shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi va doimi y ro'yxatini bekor qilishda unga qaratiladigan jihatlar.



1-savol. Boshqa davlatlardan viloyatga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'l magan shaxslarga doimiy yashashga ruxsatnomalar berishning o'ziga xos jihatlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo'yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 22 apreldagi PF-5984-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'l magan

shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 593-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan “Chet el fuqarolariva fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni Qoraqalpog‘iston Respublikasida va viloyatlarda doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlandi.

Ushbu Nizom Qoraqalpog‘iston Respublikasida va viloyatlarda (Toshkent viloyatidan tashqari) boshqa davlatlardan kelgan va doimiy propiska qilinish huquqiga yega bo‘lgan shaxslar - chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar toifalari ro‘yxatiga muvofiq boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomaga berish hamda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom qoidalari qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasiga sayyohlik va elektron viza bilan, 60 kungacha vizasiz kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini, konsullik muassasalarini, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini xodimlariga va ularning oila a’zolariga tatbiq etilmaydi.

Boshqa davlatlardan kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga viloyat hududida doimiy yashashga ruxsatnomaga berish shuningdek, yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni viloyat hududida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish (doimiy ro‘yxat), ichki ishlari organlarining Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari (MvaFRB) tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatda doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ro‘yxatga olingan joyida yashashlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etishlari shart.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni doimiy yashashga ruxsatnomaga olish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqqanlik va rasmiylashtirilganlik hamda doimiy ro‘yxatga olganlik uchun «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Davlat bojlari stavkalarida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Doimiy yashashga ruxsatnomaga olish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqqanlik va rasmiylashtirilganlik uchun davlat boji summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

8 foizi - O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligining byudjetdan tashqari jamg‘armasiga yo‘naltiriladi;

92 foizi - O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti hisobiga o‘tkaziladi.

Doimiy ro‘yxatga olganlik uchun davlat boji summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

10 foizi - O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari jamg‘armasiga yo‘naltiriladi;

90 foizi - O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti hisobiga o‘tkaziladi.

«Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, shuningdek, ularning oila a’zolariga (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlariga) doimiy yashashga ruxsatnomaga olish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqqanlik va rasmiylashtirilganlik hamda doimiy ro‘yxatga olganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

Boshqa davlatlardan viloyatga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga doimiy yashashga ruxsatnomaga berish tartibi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning viloyat hududiga doimiy yashashga ruxsatnomaga berish tartibi Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

Viloyatda doimiy yashashga ruxsatnomaga olish uchun boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan (vaqtincha ro‘yxat) manzildagi MvaFRBga murojaat qiladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq olingan uy-joyga ega bo‘lgan (Ro‘yxatning 1-bandi) chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs doimiy yashashga ruxsatnomaga olish uchun MvaFRBga **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda ikki nusxada ariza-anketa;
- milliy pasport yoki harakatlanish hujjati;
- 35x45 mm. o‘lchamli ikkita fotosurat.

Ro‘yxatning 1-bandi asosida viloyatda doimiy yashashga ruxsatnomaga berilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning qarindoshlari Ro‘yxatning 2 va 3-bandlari asosida hujjat topshirishi mumkin.

Qarindoshlar - o‘zlarining to‘g‘ri shajara bo‘yicha birinchi va ikkinchi darajadagi qarindoshlari bo‘lgan, ya’ni ota-onalar farzandlari, farzandlar ota-onalari, bobo va buvilar nevaralar, nevaralar bobo va buvilar doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning 2-bandiga mansub bo‘lgan) doimiy yashashga ruxsatnomaga olish uchun chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa, nusxasi olinib, asli qaytariladi).

Er (xotini) xotini (eri) doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga, basharti kamida besh yil birgalikda yashayotgan (Ro‘yxatning 3-band) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma (agar nikoh xorijda tuzilgan bo‘lsa, nusxasi olinib, asli qaytariladi).

Vasiylik va homiylikdagi hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs o‘z vasiysi (homiysi), tutingan ota-onasi doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning 4-band) doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- vasiylik yoki homiylikni hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) tasdiqlovchi hujjatlar (nusxalari olinib, asli qaytariladi).

Ro‘yxatning 4-bandiga asosan doimiy yashashga ruxsatnoma olgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs boshqa davlatlardan kelgan yoxud O‘zbekiston Respublikasining boshqa hududida istiqomat qiladigan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bilan nikohdan o‘tsa, uning turmush o‘rtog‘ining viloyatda doimiy ro‘yxatga olinishi Ro‘yxatning 3-bandiga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

Ota-onalari bo‘lmagan voyaga yetmagan tug‘ishgan aka-ukalar va opa-singillar, shuningdek, mehnatga qobiliyatsiz bo‘lgan hamda o‘z oilasi bo‘lmagan voyaga yetgan tug‘ishgan aka-uka va opa-singillar - o‘zlarining tug‘ishgan aka-uka yoki opa-singillari doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning 5-band) doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagilarni taqdim etadi:**

- tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa, nusxasi olinib, asli qaytariladi);
- ota-onasining o‘limi haqidagi guvohnoma (agar o‘lim xorijda rasmiylashtirilgan bo‘lsa, nusxasi olinib, asli qaytariladi).

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlariga, xo‘jalik birlashmalariga, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlariga ishga taklif etiladigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar, tor ixtisosdagi mutaxassislar tegishli organ yoki tashkilot rahbarining iltimosnomasiga ko‘ra, shuningdek, ularning oila

a'zolari (eri, xotini va o'z oilasi bo'lman farzandlari) (Ro'yxatning 6-band) doimiy yashashga ruxsatnomalar olish uchun MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to'g'risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo'lmananda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- nikoh tuzilganlik, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo'lsa, nusxalari olinib, asli qaytariladi);
- tegishli davlat hokimiyyati va boshqaruvi organi, xo'jalik birlashmasi, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkiloti rahbarining Nizomning 3-ilovasiga muvofiq pochta yoki feld'egerlik xizmati orqali yuboriladigan iltimosnomasi.

Xodimlarni viloyatda doimiy yashashga ruxsatnomalar olish yuzasidan iltimosnomalar kiritishi mumkin bo'lgan davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan yoki ilgari doimiy ro'yxatga olingan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lman shaxs (Ro'yxatning 7-band) doimiy yashashga ruxsatnomalar olish uchun MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to'g'risidagi arizasini (rozilagini) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo'lmanida, notarial tasdiqlangan arizasini (rozilagini) taqdim etadi.

Vatandosh va uning oila a'zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) (Ro'yxatning 8-band) doimiy yashashga ruxsatnomalar olish uchun MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to'g'risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo'lmananda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- nikoh tuzilganlik, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo'lsa) (nusxalari olinib, asli qaytariladi).

Xorijiy investor va uning oila a'zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) (Ro'yxatning 9-band) doimiy yashashga ruxsatnomalar olish uchun MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to'g'risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo'lmananda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- nikoh tuzilganlik, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo'lsa, nusxalari olinib, asli qaytariladi);
- kiritilgan investitsiyalar haqidagi quyidagi ma'lumotnomalardan biri:

a) xo‘jalik jamiyatlarining sotib olingan aksiyalari miqdori to‘g‘risida «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasi tomonidan berilgan ma’lumotnoma;

b) xo‘jalik jamiyatlarining sotib olingan ulushlari miqdori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etilganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan berilgan ma’lumotnoma.

«Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs va uning oila a’zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) (Ro‘yxatning 10-bandi) doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning 8-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkonи bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- nikoh tuzilganlik, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar (agar hujjatlar xorija rasmiylashtirilgan bo‘lsa, nusxalari olinib, asli qaytariladi);
- «Faxriy fuqaro» maqomini berish to‘g‘risidagi guvohnoma.

O‘zbekiston Respublikasiga «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni kuchga kirganidan keyin (1992 yil 28 iyul) kelgan hamda respublika hududida uzoq vaqtadan beri sobiq SSSR pasporti bilan yashayotgan yoki uni yo‘qotib qo‘ygan, shuningdek, hujjatlarga ega bo‘lmagan (tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma bundan mustasno) va Ro‘yxatga kirmagan shaxs shaxsini tasdiqlovchi hujjat olish uchun yashash joyidagi MvaFRBga **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- sobiq SSSR pasporti yoki tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma, ushbu hujjatlar bo‘lmaganda, harbiy guvohnoma yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olganligi yoki mehnat qilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar va ma’lumotnomalar (agar mavjud bo‘lsa);
- 35x45 mm o‘lchamli to‘rtta fotosurat.

Nizomning 19-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan so‘ng bir ish kunida MvaFRB tomonidan ariza topshirgan shaxsga Nizomning 4-ilovaga muvofiq shaklda bir yil muddatga ma’lumotnoma beriladi.

Mazkur ma’lumotnoma amal qilish muddati mobaynida egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjat hisoblanib, respublika hududida harakatlanish, vaqtincha yashash, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida (FHDYo organlari) hujjatni rasmiylashtirish, qonuniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, ta’lim muassasalarida tahsil olish uchun asos bo‘ladi.

Nizomning 20-bandida ko‘rsatib o‘tilgan shaxs O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning

8-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to'g'risidagi arizasini (rozilagini) yoxud shaxsan topshirish imkonib o'lmanida, notarial tasdiqlangan arizasini (rozilagini) taqdim etadi.

Ro'yxatga kirmagan shaxsga yashash guvohnomasi yoki ID-karta, agar ular xorijga doimiy yashashga ketish istagini bildirsa, harakatlanish hujjati rasmiylashtirib beriladi.

Hujjatlar qabul qilib olinganidan keyin MvaFRB rahbari o'z rezolyusiyasida ariza beruvchini Ro'yxatning qaysi bandiga asosan doimiy yashashga ruxsatnomalar olish mumkinligini ko'rsatadi, ikki hafta ichida ularni rasmiylashtiradi, ariza beruvchining shaxsiga oid ma'lumotlarni bazadan tekshiradi. Ro'yxatning 9-bandiga bandiga mansub chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lman shaxs murojaat qilganda, kiritilgan investitsiyalar haqidagi ma'lumotlarni tekshiradi.

IV Tezkor ma'lumotlar boshqarmasidan ariza beruvchiga doir ma'lumotlarni so'rab oladi hamda hujjatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasiga (QR IV MvaFRB) yoki viloyat ichki ishlar boshqarmasining MvaFRBga (IIB MvaFRB) yuboradi, ular taqdim etilgan hujjatlarni uch ish kuni ichida tekshiradi va materiallarni tegishli vakolatli organga yuboradi.

QR IV MvaFRB va IIB MvaFRB tegishli vakolatli organning ijobiy xulosasi olingan kundan boshlab o'n kun muddatda xulosa tayyorlaydi va tegishli hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi IV Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasiga (IV MvaFRBB) yakuniy xulosa qabul qilish uchun yuboradi, Ro'yxatning 9-bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

IV MvaFRBB ushbu masalani hal qilish chog'ida tegishli vakolatli organning fikrini so'raydi. Zarur hollarda esa ariza beruvchining shaxsini, boshqa davlat fuqaroligiga mansubligini aniqlash maqsadida xalqaro shartnomalar mavjud bo'lgan xorijiy davlatning vakolatli organiga so'rov nomalar yuborishi mumkin. Xalqaro shartnomalar mavjud bo'lman taqdirda, so'rov nomalar IV tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali yuboriladi.

IV MvaFRBB tegishli hujjatlar kelib tushgan (so'rov nomaga javob olingan) kundan boshlab bir oy muddat ichida xulosa chiqaradi hamda ushbu xulosa O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining o'rinnbosari tomonidan tasdiqlanadi. IV MvaFRBB xulosaga doir materiallarni tasdiqlangandan so'ng uch ish kuni ichida QR IV MvaFRB va IIB MvaFRBga yuboradi.

IVning ijobiy xulosasi olingach, QR IV MvaFRB va IIB MvaFRB ikki ish kunida hujjatlarni tegishli MvaFRBga chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lman shaxsga doimiy yashashga ruxsatnomani rasmiylashtirish uchun yuboradi.

Ro‘yxatning 9-bandi bo‘yicha hujjat topshirgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga nisbatan tegishli vakolatli organning ijobiy javobi olingan taqdirda QR IV MvaFRB va IIB MvaFRB o‘n kun muddatda IIIV MvaFRBB bilan kelishmasdan xulosa chiqaradi.

QR IIIV MvaFRB va IIB MvaFRBning ijobiy xulosasi boshqa davlatlardan viloyatga kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga belgilangan tartibda doimiy yashashga ruxsatnomani rasmiylashtirish va berish uchun asos hisoblanadi.

MvaFRB QR IIIV MvaFRB va IIB MvaFRBdan hujjatlarni qabul qilib olgach, uch ish kunida doimiy yashashga ruxsatnomaga berilganligi to‘g‘risida ariza beruvchini xabardor qiladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs doimiy yashashga ruxsatnomani rasmiylashtirish uchun MvaFRBga milliy pasport yoki harakatlanish hujjati yoxud Nizomning 4-ilovasiga muvofiq ma’lumotnomani taqdim etadi.

MvaFRB chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga ID-karta rasmiylashtirib bergach, shu kunning o‘zida Nizomning 5-ilovasiga muvofiq doimiy ro‘yxatga olishni rasmiylashtirish yuzasidan elektron so‘rovnama shakllantiriladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning so‘roviga ko‘ra, Nizomning 6-ilovasiga muvofiq QR-CODE bilan himoyalangan qayd varag‘i (qayd varag‘i) taqdim etiladi.

Ro‘yxatning 9-bandi bo‘yicha doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga Nizomning 7-ilovasiga muvofiq qayd varag‘i rasmiylashtirib beriladi. Mazkur qayd varag‘iga ega chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga respublikaning boshqa hududlarida vaqtincha ro‘yxatga olinmasdan bo‘lish va yashash huquqini beradi.

Bir vaqtning o‘zida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalari tushuntiriladi hamda bu haqida undan Nizomning 8-ilovasiga muvofiq tilxat olinadi.

Viloyatda doimiy ro‘yxatga olingan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs boshqa davlatga doimiy yashashga ketayotganligi munosabati bilan doimiy ro‘yxati bekor qilingandan so‘ng bir yil ichida respublikadan chiqib ketmasa, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini kesib o‘tmagan taqdirda, oldingi yashagan joyi bo‘yicha yoki viloyatning boshqa hududiga tegishli MvaFRB tomonidan doimiy yashashga ruxsatnomaga rasmiylashtiriladi.

Buning uchun ushbu fuqaroligi bo‘lmagan shaxs MvaFRBga respublikadan chiqib ketmaganligi sababini to‘liq ko‘rsatgan holda ariza bilan murojaat qiladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

harakatlanish hujjati;

uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) turar joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi), agar shaxsan o‘zi berish imkonи mavjud bo‘lmasa.

MvaFRB ariza bergan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish uchun Nizomning 30-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar olingandan so‘ng bir kunda IIV Tezkor ma’lumotlar boshqarmasiga so‘rovnama yuboradi. IIV Tezkor ma’lumotlar boshqarmasidan javob olingandan so‘ng uch ish kunida hududiy ichki ishlар organi rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan xulosa asosida belgilangan tartibda fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga doimiy yashashga ruxsatnomasi rasmiylashtirib beriladi.

Doimiy yashashga ruxsatnomasi rasmiylashtirilgan chet el fuqarosi va u bilan birga doimiy ro‘yxatga olingan 16 yoshga to‘lmagan farzandlarining milliy pasportiga Nizomning 9-ilovasiga muvofiq shtamp qo‘yiladi.

ID-kartani berish, uni almashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikasiyalash ID-kartasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

IIV tomonidan ijobiy xulosa qabul qilingan va ayni paytda uy-joy mulkdori tomonidan yozma rad javobi berilgan taqdirda, shuningdek, ariza beruvchi yoki uy-joy mulkdori xabardor qilingan kundan boshlab **olti oy muddat ichida** ariza beruvchi doimiy yashashga ruxsatnomasi rasmiylashtirish uchun murojaat qilmasa, MvaFRB xulosani ijro qilish imkoniyati yo‘qligini yozma ravishda ma’lum qilgan holda, uch ish kunida ariza beruvchining shaxsiy yig‘ma ish jildini QR IIV MvaFRB va IIB MvaFRB orqali IIV MvaFRBBga yuboradi.

IIV MvaFRBB olingan hujjatlarni o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlар vaziri o‘ribbosari tomonidan tasdiqlanadigan xulosa bilan avvalgi ijobiy xulosani bekor qiladi. Xulosa ariza beruvchining shaxsiy yig‘ma ish jildiga biriktirilgan holda, ijro uchun tegishliliqi bo‘yicha QR IIV MvaFRB va IIB MvaFRB orqali MvaFRBga qaytarib yuboriladi.

Viloyatga boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomasi berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror tegishincha QR IIV va IIB yoxud IIV tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Viloyatga boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomani berish rad etilgan taqdirda, hujjatlar uch ish kunida MvaFRBga qaytariladi, MvaFRB esa bir sutka ichida ushbu qarorni ariza beruvchiga yetkazadi.

Doimiy yashashga ruxsatnomasi berish quyidagi hollarda rad etiladi:

davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini muhofaza qilishni ta’minlash manfaatlari yo‘lida;
shaxs terroristik, ekstremistik, jinoiy va boshqa taqiqlangan tashkilotlarga daxldor bo‘lsa;

shaxs o‘zi va yaqin qarindoshlari haqida bila turib yolg‘on ma’lumotlar bersa yoki qalbaki hujjatlarni taqdim etsa;

hujjatlarni ko‘rib chiqish bosqichida doimiy yashashga ruxsatnomalar olishga uy-joy mulkdori tomonidan rad javobi berilsa.

2-savol. Respublikaning boshqa hududlarida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni viloyatda doimiy ro‘yxatga olish tartibining o‘ziga xos xususiyatlari.

Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 7 yanvardagi “Xorijiy davlatlar fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqini berish bilan bog‘liq qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 28 sentyabrdagi 593-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 7-son qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun yashash uchun guvohnomalarni olish tartibini soddallashtirish va arizalarni onlayn-tizim orqali ko‘rib chiqishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek boshqa davlatlardan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasida va viloyatlarda doimiy yashashga ruxsatnomalar berish haqida arizani ko‘rib chiqish 98 kundan 68 kunga, ko‘rib chiqish bosqichlari esa 10 tadan 8 taga qisqarmoqda;

Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga doimiy yashash uchun ruxsatnomalar berish haqidagi arizani ko‘rib chiqish muddati 128 kundan 68 kunga, ko‘rib chiqish bosqichlari esa 11 tadan 8 taga qisqarmoqda.

Doimiy ro‘yxatdan o‘tish uchun chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs vaqtincha ro‘yxat joyidagi MvaFRBga murojaat qilib, quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Nizomning 10-ilovasiga muvofiq shaklda ariza;

yashash guvohnomasi yoki ID-karta.

MvaFRB bir ish kunida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs doimiy ro‘yxatga olingan manzildagi MvaFRBga elektron tizim orqali shaxsiy yig‘ma ish jildini yuborish to‘g‘risida so‘rovnama yuboradi.

MvaFRB so‘rovnomani olgach, bir ish kunida ariza beruvchining shaxsiy yig‘ma ish jildini tegishli MvaFRBga jo‘natadi.

MvaFRB yig‘ma ish jildini olgach, bu haqida bir ish kunida ariza beruvchini xabardor qiladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs xabarni olgach, uch ish kunida MvaFRBga Nizomning 37-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- voyaga yetmaganlar uchun tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa, nusxasi olinib, asli qaytariladi).

MvaFRB bir ish kuni mobaynida taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqligi va haqiqiyligi tekshirilib Nizomning 5-ilovasiga muvofiq doimiy ro‘yxatga olishni rasmiylashtirish yuzasidan elektron so‘rovnoma shakllantiriladi.

Fuqaroning so‘roviga ko‘ra, doimiy ro‘yxatga olish rasmiylashtirilganidan so‘ng tegishlicha Nizomning 7 va 8-ilovalariga muvofiq qayd varag‘i taqdim etiladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning viloyat hududida shahar-tumanlararo doimiy ro‘yxatga olish belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Voyaga yetmaganlar doimiy ro‘yxatga olingan, biroq Manzil tizimiga kiritilmagan hollarda, avvalgi yashash joyidagi MvaFRB tomonidan Manzil tizimiga kiritiladi.

Ro‘yxatning 2-bandi asosida doimiy ro‘yxatga olinayotgan voyaga yetmaganlar avvalgi yashash joyi bo‘yicha MvaFRBning doimiy ro‘yxatga olinmaganligi to‘g‘risidagi elektron ma’lumotnomasi asosida ro‘yxatga olinadi.

Tarbiyalash, davolash va boshqa muassasalardagi yetim bolalar, ota-onalarining qarovisiz qolgan bolalar, shuningdek, qariyalar uylaridagi shaxslar ko‘rsatib o‘tilgan muassasalar tomonidan berilgan turar joy maydoniga doimiy ro‘yxatga olinadi.

3-savol. Viloyat hududida doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi va doimiy ro‘yxatini bekor qilishda unga qaratiladigan jihatlar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi quyidagi hollarda MvaFRB tomonidan bekor qilinadi:

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xorija doimiy yashashga ketganida;
chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha chiqqanda, agar u uch yildan ortiq vaqt mobaynida uzrli sabablarsiz O‘zbekistondagi doimiy yashash manziliga qaytmasa;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan vaqtincha xorija chiqqan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs harakatlanish hujjatining amal qilish muddati tamom bo‘lgunga qadar uzrli sabablarsiz

O‘zbekistondagi doimiy yashash manziliga qaytmasa yoki xorijda uni almashtirmasa yoxud uzrli sabablarsiz uni almashtirishni rad etsa;

chet el fuqarosi milliy pasportini amal qilish muddati tugagandan so‘ng olti oy davomida uni almashtirmasa yoki o‘z davlati fuqaroligidan chiqqanligi to‘g‘risida ma’lumotnomma taqdim etmasha;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalar, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari rahbarlari iltimosnomasiga binoan doimiy yashashga ruxsatnomma olgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ushbu organ va tashkilotlarning bildirishnomasi asosida;

bekor qilish to‘g‘risida shaxsan murojaat qilsa yoxud notarial tasdiqlangan ishonchnoma bo‘yicha boshqa shaxs murojaat qilsa yoki chet eldagi tegishli organlarning so‘roviga asosan;

agar shaxs yashash guvohnomasi yoki ID-kartani olayotganda yoki uni uzaytirish va almashtirishda, o‘zi va qarindoshlari haqida yolg‘on ma’lumot bergenida, kerakli hujjatlarni taqdim etmaganida yoki qalbaki, sohta hujjatlarni taqdim etganida;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborilganida;

sudning doimiy yashash ruxsatnomasini bekor qilish, bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qaroriga asosan;

vafot etganda - FHDYo organining o‘lim haqida guvohnoma yoki ma’lumotnomasi asosida.

Yashash guvohnomasi yoki ID-karta chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilganda bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilgan chet el fuqarosining yashash guvohnomasi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning ID-kartasi ushbu shaxs doimiy ro‘yxatga olingan MvaFRBga topshiriladi.

Nizomning 14-bandи asosida doimiy yashashga ruxsatnomma olgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi, xo‘jalik birlashmasi, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari rahbarining MvaFRBga taqdim etilgan bildirishnomasi asosida bekor qilinadi.

Agar chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy ro‘yxatga olinishi uchun boshqa asoslar mavjud bo‘lmasa, MvaFRB uch ish kuni mobaynida doimiy yashashga ruxsatnomani bekor qilish uchun shaxsiy yig‘ma ish jildini IIV MvaFRB va IIB MvaFRB orqali IIV MvaFRBBga yuboradi hamda bu haqda chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni ogohlantiradi.

IIV MvaFRBB olingan hujjatlarni o‘rganib chiqib, ichki ishlar vaziri o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan qaror bilan avvalgi ijobiy qarorni bekor qiladi. Qaror shaxsiy yig‘ma

ish jildiga biriktirilgan holda, ijro uchun tegishliliqi bo'yicha IIV MvaFRB va IIB MvaFRB orqali MvaFRBga qaytarib yuboriladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxs Nizomning 49-bandiga muvofiq viloyatda doimiy yashashga ruxsatnomaga bekor qilinishidan bosh tortgan taqdirda, uni O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish masalasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-sod qarori bilan tasdiqlangan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishi qoidalariiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu shaxslarning O'zbekiston Respublikasida qolishi uchun quyidagi holatlar asos bo'lishi mumkin:

ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan respublika hududida joylashgan boshqa davlat hokimiyati yoki boshqaruvi organiga, xo'jalik birlashmasiga, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotiga ishga o'tishi;

qonun hujjatlariga muvofiq viloyatda xususiy mulk qilib olingan uy-joyga ega bo'lishi;

viloyatda doimiy ro'yxatdan o'tgan turmush o'rtog'i bilan kamida besh yildan buyon birga yashayotgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxsning doimiy ro'yxatga olinganligi quyidagi hollarda MvaFRB tomonidan bekor qilinadi:

O'zbekiston Respublikasi hududida bir manzildan boshqa manzilga doimiy ro'yxatga olinganda;

chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxs doimiy ro'yxatga olingan uy-joy mulkdorning arizasiga ko'ra - O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksida belgilangan bir kishi uchun turar-joy maydonining ijtimoiy normasi to'g'risidagi qoidalari asosida

mulkdor o'zgarganda, uning arizasi va uy-joyga egalik qilishni tasdiqlovchi hujjatlar asosida;

sudning chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxsning uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan, bedarak yo'qolgan deb topish va ko'chirish haqidagi qarori asosida;

sohta hujjatlar yoki haqiqatga muvofiq bo'lмаган hujjatlar asosida doimiy ro'yxatga olinganligi aniqlanganda - sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi asosida;

umrbod ozodlikdan mahrum qilinganda - sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi asosida;

bekor qilish to'g'risida notarial tasdiqlangan ishonchnoma bo'yicha boshqa shaxs murojaat qilsa.

Viloyat hududida doimiy yashayotgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqish uchun doimiy ro‘yxatga olingan joyidagi MvaFRBga **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- Nizomning 11-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha ariza;
- yashash guvohnoma yoki ID-karta;
- fuqaroligi bo‘lman shaxsning amaldagi harakatlanish hujjati.

Harakatlanish hujjatini olish uchun fuqaroligi bo‘lman shaxs MvaFRBga Nizomning 12-ilovasiga (16 yoshga to‘lmanlar uchun Nizomning 13-ilovasiga) muvofiq shakl bo‘yicha ariza bilan murojaat qiladi.

Viloyat hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lman shaxsga xorijiy davlatga ketish uchun hujjatni rasmiylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida passport tizimini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2011 yil 5 yanvardagi PF-4262-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi bo‘lman shaxslarining biometrik harakatlanish hujjati to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalgalashiriladi.

MvaFRB xorijiy davlatga ketish uchun ariza bergan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lman shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish uchun bir ish kunida IIV Tezkor ma’lumotlar boshqarmasiga so‘rovnomalar yuboradi.

MvaFRB bir vaqtning o‘zida xorija ketayotgan fuqaroligi bo‘lman shaxs (faqt 18 yoshdan kattalar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z fikrini bildirish uchun elektron tizim orqali vakolatli organga yuboradi.

IIV Tezkor ma’lumotlar boshqarmasidan hamda vakolatli organdan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsni xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqish uchun to‘sinqinlik qiluvchi ma’lumotlar yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi kelib tushgandan so‘ng MvaFRB bir ish kunida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsga xabarnoma yuboradi.

Xabarnoma olgandan so‘ng chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs MvaFRBga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- yashash guvohnoma yoki ID -karta;
- milliy passport.

MvaFRB bir ish kunida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsni yashash guvohnomasi yoki ID-kartani olib qo‘yadi va ro‘yxatga olinganligini hamda chet el fuqarosining milliy passportidagi majud shtampni Nizomning 9-ilovasiga muvofiq bekor qiladi.

Chet el fuqarosini xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqarish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati 7 ish kunidan, fuqaroligi bo‘lman shaxsni hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati 15 ish kunidan oshmasligi lozim.

Xorijga doimiy yashashga ketayotgan fuqaroligi bo‘limgan shaxsning harakatlanish hujjatiga Nizomning 14-ilovasiga muvofiq shtamp qo‘yiladi.

Fuqaroligi bo‘limgan shaxs harakatlanish hujjatini olganidan so‘ng viza olish uchun tegishli davlatlarning diplomatik va konsullik vakolatxonalariga murojaat qiladi.

Viloyatda doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxs boshqa davlatga doimiy yashashga ketayotganligi sababli ro‘yxati bekor qilinganda, uning murojaati bo‘yicha tegishli MvaFRB tomonidan belgilangan tartibda ular respublika tashqarisiga chiqib ketgunga qadar vaqtincha ro‘yxatga olinishi mumkin.

Doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxsning xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqarish bo‘yicha notarial tasdiqlangan ishonchnomasi asosida boshqa shaxs murojaat qilsa yoki chet eldag'i tegishli organlarning so‘rovi kelsa MvaFRB uch ish kunida yashash guvohnomasi yoki ID-kartani olib qolib ro‘yxatni bekor qiladi hamda bir ish kunida ishonchli shaxsga ma’lumotnomasi rasmiylashtirib beradi yoki so‘rovnomasi ijrochisiga javob xati yuboradi.

Haqiqiy bo‘limgan yashash guvohnomasi yoki ID-karta bilan boshqa manzilga ro‘yxatga olish taqiqlanadi.

Xorijda bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni doimiy ro‘yxatini bekor qilish bundan mustasno.

Ro‘yxatdan chiqarilganda hamda yashash guvohnoma yoki ID-karta va doimiy ro‘yxat bekor qilinganda MvaFRB uch kun muddatda «manzil» tizimiga ro‘yxatdan chiqarilganligi holati yuzasidan ma’lumotlarni kiritadi.

Tug‘ilganligi, nikohi xorijiy davlatda qayd etilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxs O‘zbekiston Respublikasining konsullik legallashtirish qonunchiligi talablari asosida qonunlashtirilgan yoki Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi Konvensiya (Gaaga, 1961 yil 5 oktyabr) talablariga muvofiq apostil belgisi qo‘yilgan tug‘ilganligi, nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani taqdim etadi.

«Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida»gi Konvensiyaga (Minsk, 1993 yil 22 yanvar) hamda «Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida»gi Konvensiyaga (Kishinev, 2002 yil 7 oktyabr) a’zo davlatlarda tug‘ilganligi, nikohi qayd etilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxs tomonidan ushbu davlatlar qonunchiligi talablari asosida tasdiqlangan tug‘ilganlik, nikoh tuzilganligi to‘g‘risida guvohnoma taqdim etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi bilan rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi ikki tomonlama xalqaro shartnoma tuzilgan davlatlar hududida tug‘ilganligi, nikohi qayd etilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxs tomonidan taqdim etiladigan tug‘ilganlik, nikoh

tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga konsullik qonunlashtirilishi yoki apostil belgisini qo‘yish talab etilmaydi.

Xorijga vaqtincha chiqqan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs, xorijda bo‘lgan vaqtida yashash guvohnomasi yoki ID-kartani amal qilish muddati tugasa yoxud familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi o‘zgargan bo‘lsa, shuningdek, chet el fuqaroligidan chiqqan yoki qabul qilgan hamda tegishli yoshga etgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytib kelganidan so‘ng uch ish kunidan kechiktirmay tegishli hujjatlar bilan doimiy ro‘yxatga olingan joyidagi MvaFRBga murojaat qilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan bola FHDYo organlari tomonidan unga tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma rasmiylashtirilayotganda, otasi yoki onasining doimiy ro‘yxatga olingan manziliga idoralalararo avtomatlashтирilgan tizim orqali ma’lumotlarni kiritish yo‘li bilan doimiy ro‘yxatga olinadi.

16 yoshga to‘lmagan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs ota-onasi yoki vasiysining (homiyisining) doimiy (vaqtincha) ro‘yxatga olingan manziliga doimiy (vaqtincha) ro‘yxatga olinishi shart.

O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilganlik, nikoh tuzilganligi yoki ajrashganligi, o‘lim to‘g‘risidagi guvohnomalar «FHDYoning yagona elektron arxivi» axborot tizimi orqali olinadi.

Yashash guvohnomasi yoki ID-karta almashtirilganda, doimiy ro‘yxatga olinganlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar Manzil tizimda mas’ul xodim tomonidan yangilanadi.

Mulkdor o‘z oila a’zolarini va boshqa shaxslarni doimiy ro‘yxatdan o‘tkazish huquqiga ega.

Quyidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni doimiy ro‘yxatga olishda, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksida belgilangan bir kishi uchun turar joy maydonining ijtimoiy normasi to‘g‘risidagi qoidalari qo‘llanilmaydi:

er-xotin - bir-birining doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;
ota-onalar, farzandlar - bir-birining doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;
bobo-buvi, nevaralar - bir-birining doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;
vasiylikdagi (homiylikdagi) hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) shaxslar - vasiy (homiy), tutingan ota yoki ona doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

balog‘atga yetmagan, ota-onasi bo‘lmagan tug‘ishgan aka-ukalar, opa-singillar, shuningdek, mehnatga layoqatsiz tug‘ishgan aka-ukalar, opa-singillar, agar ularning o‘z oilalari bo‘lmasa, yoshidan qat‘i nazar, akasi, ukasi, opasi, singlisining ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

doimiy ro‘yxatga olingan tug‘ishgan aka-ukalar, opa-singillar - bir-birining doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

ilgari mazkur aholi punktida yashagan, mehnat shartnomasi bilan ishlash uchun vaqtincha boshqa joyga ketgan shaxslar, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq vaqtincha boshqa joyga ketganda, uy-joydan foydalanish huquqi saqlanib qoladigan fuqarolar - oldingi istiqomat joyiga yoki qarindoshlarining uy-joy maydoniga;

ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar - oldingi istiqomat joyiga, o‘z oila a’zolarining, qarindoshlari yoki hukm qilingunga qadar yashab turgan boshqa shaxslarning uy-joy maydoniga.

Ushbu Nizom talablariga rioya etilishi ichki ishlar organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Ushbu Nizomning buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjaligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi 593-sон qarori bilan tasdiqlangan “Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida Nizom”ni to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

1. Kamida 3 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritgan chet el fuqarosining doimiy yashash uchun xujjalalarini ko‘rib chiqish tartibi;
2. O‘zbekiston Respublikasiga «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni kuchga kirganidan keyin (1992 yil 28 iyul) kelgan hamda respublika hududida uzoq vaqtdan beri sobiq SSSR pasporti bilan yashayotgan yoki uni yo‘qotib qo‘yan, shuningdek, hujjalarga ega bo‘lmagan va Ro‘yxatga kirmagan shaxs shaxsini tasdiqlovchi hujjal olish tartibi;
- 3.O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish;
4. O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi bekor qilinishi.
- 5.O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomasi olish uchun viloyatga boshqa davlatlardan kelgan «Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning hujjalalarini ko‘rib chiqish tartibi;

6. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomasi berish;
7. Boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomasi berish

20-Mavzu. O‘zbekiston hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarni doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi.

Seminar- 2 soat


Ushbu o‘quv mashg‘uloti **“Baliq skeleti”** interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

«Baliq skeleti» grafik organayzer (GO) tinglovchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda tinglovchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o’qituvchi tinglovchilarni GOni qo‘llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) tinglovchilar kichik guruhlarga biriktiriladi;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar o’z yechimlarini jamoaga taqdim yetadi;
- 5) jamoa guruhlarning yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi

Tinglovchilar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



Tahlil qilinadigan muammolar: Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarni Qoraqalpog‘iston Respublikasida va viloyatlarda doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish va bekor qilishdagi ayrim muammolar.

1-muammo. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga rad javobi berilgan chet el fuqarosining O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishi.

2-muammo. Sobiq SSSR pasportlari bilan yashayotgan yoki ularni yo‘qotib qo‘ygan shaxslarni hujjatlashtirish.

3-muammo. Chet el fuqarosining doimiy yashashga ruxsatnomasi va doimiy ro‘yxatini bekor qilinishi.

4-muammo Vatandosh va uning oila a’zolari doimiy yashashga ruxsatnoma olish;

21-MAVZU. TOSHKENT SHAHAR VA TOSHKENT VILOYATIDA CHET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO‘LMAGAN SHAXSLARNI DOIMIY YASHASH JOYI BO‘YICHADA RO‘YXATGA OLISH TARTIBI.

Ma’ruza – 2 soat

Reja:

1. Boshqa davlatlardan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga doimiy yashash uchun ruxsatnoma berishning o‘ziga xos jihatlari.

2. Respublikaning boshqa hududlarida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olishning o‘ziga xos xususiyatlari.

3. Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi va doimiy ro‘yxatini bekor qilishning yangi tartib tamoyillari.



1-savol. Boshqa davlatlardan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga doimiy yashash uchun ruxsatnoma berishning o‘ziga xos jihatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo‘yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 22 apreldagi PF-5984-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolariva fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 593-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan “Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlandi.

Ushbu Nizom boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnama berish hamda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini belgilaydi.

Nizomning qoidalari qonun hujjatlariga muvofiq sayyohlik va elektron viza bilan, 60 kungacha O‘zbekiston Respublikasiga vizasiz kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari xodimlariga va ularning oila a’zolariga tatbiq etilmaydi.

Boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida doimiy yashashga ruxsatnama berish, shuningdek, yashash guvohnomasi yoki ID -kartaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish ichki ishlar organlarining Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ro‘yxatga olingan joyida yashashlari lozim.

Nizomning 1-ilovaga muvofiq Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olinish huquqiga yega bo‘lgan shaxslar - chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar toifalarining ro‘yxatida (keyingi o‘rinlarda - Ro‘yxat) nazarda tutilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olinish to‘g‘risida iltimosnoma berish huquqiga ega.

Ro‘yxatda nazarda tutilmagan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olinmaydi.

Toshkent shahrida uy-joyning oldi-sotdi bitimlarini, almashish, renta, umrbod ta’minalash sharti bilan o‘zgaga berish va hadya qilishni notarial tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, shuningdek, Toshkent shahridagi turar joy yoxud turar joy bo‘lmagan

bino shaklidagi ko‘chmas mulkni (ko‘chmas mulkning bir qismini) garovga (ipotekaga) qo‘yish, voz kechish va o‘zgaga berishning boshqa usullari quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar oluvchi tomon - chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs:

- Toshkent shahrida 2016 yil 7 oktyabrga qadar, shuningdek, Ro‘yxatning 1, 4, 5 va 8-bandlariga muvofiq doimiy ro‘yxatga olingan bo‘lsa;
- Ro‘yxatning 2, 3, 6, 7 va 9-bandlariga muvofiq Toshkent shahrida doimiy ro‘yxatga olingan va kamida uch yil doimiy yashab turgan (lavozimda bo‘lgan) bo‘lsa.

Toshkent viloyatida uy-joyning oldi-sotdi bitimlarini, almashish, renta, umrbod ta’minalash sharti bilan o‘zgaga berish va hadya qilishni notarial tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, shuningdek, Toshkent shahridagi turar joy yoxud turar joy bo‘lmagan bino shaklidagi ko‘chmas mulkni (ko‘chmas mulkning bir qismini) garovga (ipotekaga) qo‘yish, voz kechish va o‘zgaga berishning boshqa usullari quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar oluvchi tomon — chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs:

- Toshkent shahri yoki Toshkent viloyatida 2016 yil 7 oktyabrga qadar, shuningdek, Ro‘yxatning 1, 4, 5 va 8-bandlariga muvofiq doimiy ro‘yxatga olingan bo‘lsa;

- Ro‘yxatning 2, 3, 6, 7 va 9-bandlariga muvofiq Toshkent shahri yoki Toshkent viloyati hududida doimiy ro‘yxatga olingan va kamida uch yil doimiy yashab turgan (lavozimda bo‘lgan) bo‘lsa.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga respublikaning boshqa hududlaridan kelgan hamda bu hududlarda doimiy yashashga ruxsatnomaga berilgan chet el fuqarolariga fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi yangi qurilgan, narxi bazaviy hisoblash miqdorining 3300 baravaridan kam bo‘lmagan ko‘chmas mulkni bank hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirgan holda sotib olishlari mumkin.

Sud qarorlarini ijro etish tartibida turar joy yoxud turar joy bo‘lmagan bino shaklidagi ko‘chmas mol-mulkni kimoshdi savdolari orqali sotishga yoxud uni davlat ijrochisining naturadagi sotilmagan mol-mulkni o‘zida qoldirish to‘g‘risidagi taklifi bo‘yicha qarzni undiruvchiga — garovni saqlovchiga berish, agar oluvchi tomon tegishli ravishda Toshkent shahri yoki Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

Nizomning 1-ilovasida ko‘rsatilgan Ro‘yxatning 2 - 9-bandlariga muvofiq Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar qonun hujjalari muvofiq uy-joyga ega bo‘lgan taqdirda, ular o‘z xoxishlariga ko‘ra ushbu turar joyga Ro‘yxatning 1-bandi bo‘yicha doimiy ro‘yxatga olinishlari mumkin.

Chet el fuqarolariva fuqaroligi bo‘lman shaxslarning doimiy yashashga ruxsatnomalar uchun hujjalarni ko‘rib chiqqanlik va rasmiylashtirilganlik hamda doimiy ro‘yxatga olganlik «Davlat boji to‘g‘risida»gi uchun O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Davlat bojlari stavkalarida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Doimiy yashashga ruxsatnomalar uchun hujjalarni ko‘rib chiqqanlik va rasmiylashtirilganlik uchun davlat boji summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

8 foizi - O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari jamg‘armasiga yo‘naltiriladi;

92 foizi - O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti hisobiga o‘tkaziladi.

Doimiy ro‘yxatga olganlik uchun davlat boji summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

10 foizi - O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari jamg‘armasiga yo‘naltiriladi;

90 foizi - O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti hisobiga o‘tkaziladi.

«Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarolariva fuqaroligi bo‘lman shaxslarga, shuningdek, ularning oila a’zolariga (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlariga) doimiy yashashga ruxsatnomalar uchun hujjalarni ko‘rib chiqqanlik va rasmiylashtirilganlik hamda doimiy ro‘yxatga olganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

Boshqa davlatlardan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarga doimiy yashash uchun ruxsatnomalar berish tartibi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga doimiy yashashga ruxsatnomalar uchun boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan manzildagi MvaFRBga murojaat qiladi.

Qonun hujjalari muvofiq olingan uy-joyga ega bo‘lgan (Ro‘yxatning 1-bandi) chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lman shaxs doimiy yashashga ruxsatnomalar uchun MvaFRBga quyidagi hujjalarni taqdim etadi:

Nizomning 2-ilovaga muvofiq shaklda ikki nusxada ariza-anketa;

milliy pasport yoki harakatlanish hujjati;

35x45 mm o‘lchamli ikkita fotosurat.

Ro‘yxatning 1-bandi asosida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashashga ruxsatnomalar berilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarning qarindoshlari Ro‘yxatning 2 va 3-bandlari asosida hujjal topshirishlari mumkin.

Qarindoshlar - o‘zlarining to‘g‘ri shajara bo‘yicha birinchi va ikkinchi darajadagi qarindoshlari bo‘lgan, ya’ni ota-onalar farzandlari, farzandlar ota-onalari, bobo va buvilar nevaralar bobo va buvilar doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning 2-bandiga mansub bo‘lgan) doimiy yashashga ruxsatnomalar uchun chet el fuqarosi va

fuqaroligi bo‘lman shaxs MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari ***quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:***

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo‘lmanaga, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa) tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (nusxasi olinib, asli qaytariladi).

Er (xotini) xotini (eri) doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga, basharti kamida besh yil birgalikda yashayotgan (Ro‘yxatning 3-band) chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari ***quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:***

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo‘lmanaga, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- (agar nikoh xorijiy davlatda tuzilgan bo‘lsa) nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma (nusxasi olinib, asli qaytariladi).

Vasiylik va homiylikdagi hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs o‘z vasiysi (homiysi), tutingan ota-onasi doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning 4-band) doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari ***quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:***

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo‘lmanaga, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- vasiylik yoki homiylikni hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) tasdiqlovchi hujjatlar (nusxalari olinib, asli qaytariladi).

Ro‘yxatning 4-bandiga asosan doimiy yashashga ruxsatnoma olgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs boshqa davlatlardan kelgan yoxud O‘zbekiston Respublikasining boshqa hududida istiqomat qiladigan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lman shaxs bilan nikohdan o‘tsa, uning turmush o‘rtog‘ining Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olinishi Ro‘yxatning 3-bandiga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

Ota-onalari bo‘lman voyaga yetmagan tug‘ishgan aka-ukalar va opa-singillar shuningdek, mehnatga qobiliyatsiz bo‘lgan hamda o‘z oilasi bo‘lman voyaga yetgan tug‘ishgan aka-uka va opa-singillar - o‘zlarining tug‘ishgan aka-uka yoki opa-singillari doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning 5-band) doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari ***quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:***

- (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa) tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (nusxasi olinib, asli qaytariladi);

- ota-onasining o'limi haqidagi guvohnoma (agar fuqarolar xorijda vafot etgan bo'lsa) yoki ota-onasini o'lgan deb e'lon qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori nusxasi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, xo'jalik birlashmalariga, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlariga ishga taklif etiladigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'limgan shaxs bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar, tor ixtisosdagi mutaxassislar tegishli organ yoki tashkilot rahbarining iltimosnomasiga ko'ra, shuningdek, ularning oila a'zolari (eri, xotini va o'z oilasi bo'limgan farzandlari) (Ro'yxatning 6-band) doimiy yashashga ruxsatnama olish uchun MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berish to'g'risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo'limganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo'lsa) nikoh tuzilganlik, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar (nusxalari olinib, asli qaytariladi);

- tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi, xo'jalik birlashmasi, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkiloti rahbarining Nizomning 3-ilovaga muvofiq pochta yoki feld'egerlik xizmati orqali yuboriladigan iltimosnomasi.

Xodimlarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro'yxatga olish to'g'risida iltimosnomma kiritishi mumkin bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

«Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'limgan shaxs va ularning oila a'zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) (Ro'yxatning 7-band) doimiy yashashga ruxsatnama olish uchun MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berish to'g'risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo'limganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo'lsa) nikoh tuzilganlik, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar (nusxalari olinib, asli qaytariladi);

- «Faxriy fuqaro» maqomini berish to'g'risidagi guvohnoma.

Xorijiy investor va uning oila a'zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) (Ro'yxatning 8-band) doimiy yashashga ruxsatnama olish uchun MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berish to'g'risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo'limganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo'lsa) nikoh tuzilganlik, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar (nusxalari olinib, asli qaytariladi);

- kiritilgan investitsiyalar haqida quyidagi ma'lumotnomalardan biri:

a) xo'jalik jamiyatlarining sotib olingan aksiyalari miqdori to'g'risida «Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasi tomonidan berilgan ma'lumotnoma;

b) xo'jalik jamiyatlarining sotib olingan ulushlari miqdori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan berilgan ma'lumotnoma.

Vatandosh va uning oila a'zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) (Ro'yxatning 9-band) doimiy yashashga ruxsatnoma olish uchun MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berish to'g'risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkonini bo'limganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo'lsa) nikoh tuzilganlik, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar (nusxalari olinib, asli qaytariladi).

O'zbekiston Respublikasiga «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kuchga kirganidan keyin (1992 yil 28 iyul) kelgan hamda respublika hududida uzoq vaqtadan beri sobiq SSSR pasporti bilan yashayotgan yoki uni yo'qotib qo'ygan, shuningdek, hujjatlarga ega bo'limgan (tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma bundan mustasno) va Ro'yxatga kirmagan shaxs shaxsini tasdiqlovchi hujjat olish uchun yashash joyidagi MvaFRBga **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- sobiq SSSR pasporti yoki tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma, ushbu hujjatlar bo'limganda, harbiy guvohnoma yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat;

- O'zbekiston Respublikasida ta'lim olganligi yoki mehnat qilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar va ma'lumotnomalar (agar mavjud bo'lsa);

- 35x45 mm o'lchamli to'rtta fotosurat.

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan so'ng bir ish kunida MvaFRB tomonidan ariza topshirgan shaxsga Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda bir yil muddatga ma'lumotnoma beriladi.

Mazkur ma'lumotnoma amal qilish muddati mobaynida egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjat hisoblanib, respublika hududida harakatlanish, vaqtincha yashash, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida (keyingi o'rinnarda - FHDYo) hujjatni rasmiylashtirish, qonuniy mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, ta'lim muassasalarida tahsil olish uchun asos bo'ladi.

Nizomning 21-bandida ko‘rsatilgan shaxs O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomaga olish uchun MvaFRBga Nizomning 11-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasini (roziligin) yoxud shaxsan topshirish imkonini bo‘limganda, notarial tasdiqlangan arizasini (roziligin) taqdim etadi.

Ro‘yxatga kirmagan shaxsga yashash guvohnomasi yoki ID-karta, agar ular xorijiga doimiy yashashga ketish istagini bildirsa, harakatlanish hujjati rasmiylashtirib beriladi.

Hujjatlar qabul qilib olinganidan keyin MvaFRB rahbari o‘z rezolyusiyasida ariza beruvchini Ro‘yxatning qaysi bandiga asosan doimiy yashashga ruxsatnomaga olish mumkinligini ko‘rsatadi, ikki hafta ichida ularni rasmiylashtiradi, ariza beruvchining shaxsiga oid ma’lumotlarni bazadan tekshiradi. Ro‘yxatning 8-bandiga bandiga mansub chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxs murojaat qilganda, kiritilgan investitsiyalar haqidagi ma’lumotlarni tekshiradi.

IIV Tezkor ma’lumotlar boshqarmasidan ariza beruvchiga doir ma’lumotlarni so‘rab oladi hamda hujjatlarni Toshkent shahri va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalarining Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmalariga (IIBB MvaFRB) yuboradi, ular taqdim etilgan hujjatlarni uch ish kuni ichida tekshiradi va materiallarni tegishli vakolatli organga yuboradi.

IIBB MvaFRB tegishli vakolatli organning ijobiy xulosasi olingan kundan boshlab o‘n kun muddatda xulosa tayyorlaydi va tegishli hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi IIV Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasiga (IIV MvaFRBB) yakuniy xulosa qabul qilish uchun yuboradi, Ro‘yxatning 8-bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

IIV MvaFRBB ushbu masalani hal qilish davomida tegishli vakolatli organning fikrini so‘raydi. Zarur hollarda esa ariza beruvchining shaxsini, boshqa davlat fuqaroligiga mansubligini aniqlash maqsadida xalqaro shartnomaga mavjud bo‘lgan xorijiy davlatning vakolatli organiga so‘rovnama yuborishi mumkin. Xalqaro shartnomaga mavjud bo‘limgan taqdirda, so‘rovnama IIV tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali yuboriladi.

IIV MvaFRBB tegishli hujjatlar kelib tushgan (so‘rovnomaga javob olingan) kundan boshlab bir oy muddat ichida xulosa chiqaradi hamda ushbu xulosa O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. IIV MvaFRBB xulosaga doir materiallarni tasdiqlangandan so‘ng uch ish kuni ichida IIBB MvaFRBga yuboradi.

IIVning ijobiy xulosasi olingach, IIBB MvaFRB ikki ish kunida hujjatlarni tegishli MvaFRBga chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxsga doimiy yashashga ruxsatnomani rasmiylashtirish uchun yuboradi.

Ro‘yxatning 8-bandи bo‘yicha hujjat topshirgan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan tegishli vakolatli organning ijobiy javobi olingan taqdirda, IIBB MvaFRB o‘n kun muddatda IIV MvaFRBB bilan kelishmasdan xulosa chiqaradi.

IIBB MvaFRBning ijobiy xulosasi boshqa davlatlardan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga belgilangan tartibda doimiy yashashga ruxsatnomani rasmiylashtirish va berish uchun asos hisoblanadi.

MvaFRB IIBB MvaFRBdan hujjatlarni qabul qilib olgach, uch ish kunida doimiy yashashga ruxsatnomaga berilganligi to‘g‘risida ariza beruvchining elektron manzili orqali xabar beradi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs doimiy yashashga ruxsatnomani rasmiylashtirish uchun MvaFRBga milliy pasport yoki harakatlanish hujjati yoxud Nizomning 4-ilovasiga muvofiq ma’lumotnomani taqdim etadi.

MvaFRB chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga yashash guvohnomasi yoki ID-kartarasmiylashtirib bergach, shu kunning o‘zida Nizomning 5-ilovaga muvofiq doimiy ro‘yxatga olishni rasmiylashtirish yuzasidan elektron so‘rovnama shakllantiriladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning so‘roviga ko‘ra, Ro‘yxatning 1 va 5-bandlariga asosan hamda Nizomning 21-bandida ko‘rsatilgan shaxsga doimiy ro‘yxatga olish rasmiylashtirilganda Nizomning 6-ilovaga, Ro‘yxatning 2, 3, 4, 6, 7 va 9-bandlariga asosan doimiy ro‘yxatga olish rasmiylashtirilganda Nizomning 7-ilovaga, Ro‘yxatning 8-bandiga asosan doimiy ro‘yxatga olish rasmiylashtirilganda Nizomning 8-ilovaga muvofiq QR-CODE bilan himoyalangan qayd varag‘i (qayd varag‘i) taqdim etiladi.

Ro‘yxatning 8-bandи bo‘yicha doimiy ro‘yxatdan o‘tgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga respublikaning boshqa hududlarida vaqtincha ro‘yxatsiz bo‘lish va yashash huquqi beriladi.

Bir vaqtning o‘zida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalari tushuntiriladi hamda bu haqida undan Nizomning 9-ilovaga muvofiq tilxat olinadi.

Ushbu fuqarolarni doimiy yashashga ruxsatnomaga olish tartibi Nizomning 10-ilovaga muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olingan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs boshqa davlatga doimiy yashashga ketayotganligi munosabati bilan doimiy ro‘yxati bekor qilingandan so‘ng bir yil ichida respublikadan chiqib ketmasa, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini kesib o‘tmagan taqdirda, oldingi yashagan joyi bo‘yicha yoki respublikaning boshqa hududiga tegishli MvaFRB tomonidan doimiy yashashga ruxsatnomaga rasmiylashtiriladi.

Buning uchun ushbu fuqaroligi bo‘lмаган shaxs MvaFRBga respublikadan chiqib ketmaganligi sababini to‘liq ko‘rsatgan holda ariza bilan murojaat qiladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

harakatlanish hujjati;

uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) turar joy maydoni berish to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi), agar shaxsan o‘zi berish imkonи mavjud bo‘lmasa.

MvaFRB ariza bergen fuqaroligi bo‘lмаган shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish uchun Nizomning 33-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar olingandan so‘ng bir kunda IIV Tezkor ma’lumotlar boshqarmasiga so‘rovnama yuboradi. IIV Tezkor ma’lumotlar boshqarmasidan javob olingandan so‘ng uch ish kunida hududiy ichki ishlар organi rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan xulosa asosida belgilangan tartibda fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga doimiy yashashga ruxsatnomasi rasmiylashtirib beriladi.

Doimiy yashashga ruxsatnomasi rasmiylashtirilgan chet el fuqarosi va u bilan birga doimiy ro‘yxatga olingan 16 yoshga to‘lмаган farzandlarining milliy pasportiga Nizomning 11- ilovaga muvofiq shtamp qo‘yiladi.

Chet el fuqarosi uchun O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi 5 yil muddatga, ammo milliy pasportning amal qilish sanasidan oshmagan muddatga beriladi. Chet el fuqarosi 60 yoshga to‘lganidan keyin yashash guvohnomasi milliy pasportning amal qilish muddatiga beriladi.

Fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga yashash guvohnomasi 5 yil muddatga u 60 yoshga to‘lganidan keyin esa muddatsiz beriladi.

Ro‘yxatning 8-bandida nazarda tutilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga yashash guvohnomasi - 10 yil muddatga, biroq milliy pasport yoki harakatlanish hujjatining amal qilishidan ortiq bo‘lмаган muddatga beriladi.

Yashash guvohnomasining amal qilish muddati besh martagacha Nizomning 36, 37 va 38-bandlarida belgilangan muddatlarga uzaytiriladi, shundan keyin u almashtiriladi.

ID-kartani berish, almashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning identifikasiyalash ID-kartasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

IIV tomonidan ijobjiy xulosa qabul qilingan va ayni paytda uy-joy mulkdori tomonidan yozma rad javobi berilgan taqdirda, shuningdek, ariza beruvchi yoki uy-joy mulkdori xabardor qilingan kundan boshlab olti oy muddat ichida ariza beruvchi doimiy yashashga ruxsatnomasi rasmiylashtirish uchun murojaat qilmasa, MvaFRB xulosani ijro qilish imkoniyati yo‘qligini

yozma ravishda ma'lum qilgan holda, uch ish kunida ariza beruvchining shaxsiy yig'ma ish jildini IIBB MvaFRB orqali IIV MvaFRBBga yuboradi.

IIV MvaFRBB olingan hujjatlarni o'rganib chiqib, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri o'rinosari tomonidan tasdiqlanadigan xulosa bilan avvalgi ijobiy xulosani bekor qiladi. Xulosa ariza beruvchining shaxsiy yig'ma ish jildiga biriktirilgan holda, ijro uchun tegishliliги bo'yicha IIBB MvaFRB orqali MvaFRBga qaytarib yuboriladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomalar berishni rad etish to'g'risidagi qaror tegishlicha Toshkent shahri yoki Toshkent viloyati IIBB yoxud IIV tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomalar berish rad etilgan taqdirda, hujjatlar uch ish kunida MvaFRBga qaytariladi, MvaFRB esa bir sutka ichida ushbu qarorni ariza beruvchiga yetkazadi.

Doimiy yashashga ruxsatnomalar berish quyidagi hollarda rad etiladi:

davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini muhofaza qilishni ta'minlash manfaatlari yo'lida; shaxs terroristik, ekstremistik, jinoiy va boshqa taqiqlangan tashkilotlarga daxldor bo'lsa; shaxs o'zi va yaqin qarindoshlari haqida bila turib yolg'on ma'lumotlar bersa yoki qalbaki hujjatlarni taqdim etsa;

hujjatlarni ko'rib chiqish bosqichida doimiy yashashga ruxsatnomalar olishga uy-joy mulkdori tomonidan rad javobi berilsa.

2-savol. Respublikaning boshqa hududlarida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro'yxatga olishning o'ziga xos xususiyatlari.

Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 7 yanvardagi "Xorijiy davlatlar fuqarolariga O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqini berish bilan bog'liq qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni ro'yxatga olish tartibini soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 28 sentyabrdagi 593-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 7-son qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar uchun yashash uchun guvohnomalarni olish tartibini soddallashtirish va arizalarni onlayn-tizim orqali ko'rib chiqishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek boshqa davlatlardan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasida va viloyatlarda doimiy yashashga ruxsatnomalar berish haqida arizani ko‘rib chiqish 98 kundan 68 kunga, ko‘rib chiqish bosqichlari esa 10 tadan 8 taga qisqarmoqda;

Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga doimiy yashash uchun ruxsatnomalar berish haqidagi arizani ko‘rib chiqish muddati 128 kundan 68 kunga, ko‘rib chiqish bosqichlari esa 11 tadan 8 taga qisqarmoqda.

Hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida e’lon qilingan va 09.01.2023 yildan kuchga kirdi.

Ro‘yxatda nazarda tutilgan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olish istagini bildirgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar doimiy yashash joylaridagi MvaFRBga ariza bilan murojaat qiladi.

MvaFRB ariza topshirilgandan so‘ng bir ish kunida chet el fuqarolariga fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar doimiy ro‘yxatga olish istagini bildirgan Toshkent shahri yoki Toshkent viloyatidagi MvaFRBga (tegishli MvaFRB) elektron tizim orqali Nizomning 12-ilovaga muvofiq shaklda so‘rov yuboradi.

Tegishli MvaFRB so‘rov qabul qilingandan so‘ng uch ish kunida murojaat qiluvchining Ro‘yxatga muvofiqligini hamda uy-joy hujjatlarini o‘rganib chiqib, Nizomning 13-ilovaga muvofiq shaklda javob xati yuboradi.

MvaFRB ijobiy javob olgan taqdirda, bir ish kunida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning shaxsiy yig‘ma ish jildini tegishli MvaFRBga jo‘natadi.

Tegishli MvaFRB shaxsiy yig‘ma ish jildini olgach, bu haqida bir ish kunida ariza beruvchining elektron manziliga xabar yuboradi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs xabarni olgandan so‘ng tegishli MvaFRBga murojaat etib, belgilangan tartibdagi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Qonun hujjatlariga muvofiq olingan uy-joyga ega bo‘lgan (Ro‘yxatning 1-band), respublikaning boshqa hududlaridan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs doimiy ro‘yxatga olish uchun tegishli MvaFRBga **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- Nizomning 14-ilovaga muvofiq shaklda ariza;
- yashash guvohnomasi yoki ID-karta.

Ro‘yxatning 1-band asosida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning qarindoshlari Ro‘yxatning 2 va 3-bandlari asosida doimiy ro‘yxatga olinadi.

Qarindoshlar - o‘zlarining to‘g‘ri shajara bo‘yicha birinchi va ikkinchi darajadagi qarindoshlari bo‘lgan, ya’ni ota-onalar farzandlari, farzandlar ota-onalari, bobo va buvilar nevaralar bobo va buvilar doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning

2-bandiga mansub bo‘lgan) respublikaning boshqa hududlaridan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmasan shaxs doimiy ro‘yxatdan o‘tish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo‘lmasan shaxs doimiy ro‘yxatdan o‘tish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**
- tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa) (nusxasi olinib, asli qaytariladi).

Er (xotini) xotini (eri) doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga respublikaning boshqa hududlaridan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmasan shaxs doimiy ro‘yxatdan o‘tish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo‘lmasan shaxs doimiy ro‘yxatdan o‘tish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**
- nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma (agar nikoh xorijda tuzilgan bo‘lsa) (nusxasi olinib, asli qaytariladi).

Vasiylik va homiylikdagi hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) respublikaning boshqa hududlaridan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmasan shaxs o‘z vasiysi (homiyisi), tutingan ota-onasi doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning 4-band) doimiy ro‘yxatga olish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkoni bo‘lmasan shaxs doimiy ro‘yxatdan o‘tish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**
- vasiylik yoki homiylikni hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) tasdiqlovchi hujjatlar (nusxalari olinib, asli qaytariladi).

Ota-onalari bo‘lmasan voyaga yetmagan tug‘ishgan aka-ukalar va opa-singillar shuningdek, mehnatga qobiliyatsiz bo‘lgan hamda o‘z oilasi bo‘lmasan voyaga yetgan tug‘ishgan aka-uka va opa-singillar - o‘zlarining tug‘ishgan aka-uka yoki opa-singillari doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga (Ro‘yxatning 5-band) respublikaning boshqa hududlaridan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmasan shaxs doimiy ro‘yxatga olish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa, nusxasi olinib, asli qaytariladi);
- ota-onasining o‘limi haqidagi guvohnoma (agar fuqarolar xorijda vafot etgan bo‘lsa) yoki ota-onasini o‘lgan deb e’lon qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori nusxasi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, xo‘jalik birlashmalariga, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlariga ishga taklif etiladigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar, tor ixtisosdagi mutaxassislar tegishli organ yoki tashkilot rahbarining iltimosnomasiga ko‘ra, shuningdek, ularning oila a’zolari (eri, xotini va o‘z oilasi bo‘lmagan farzandlari) (Ro‘yxatning 6-band) bo‘lgan, respublikaning boshqa hududlaridan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs doimiy ro‘yxatga olish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- nikoh tuzilganlik, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo‘lsa, nusxalari olinib, asli qaytariladi);
- tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi, xo‘jalik birlashmasi, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkiloti rahbarining Nizomga 3-ilovaga muvofiq pochta yoki feld’egerlik xizmati orqali yuboriladigan iltimosnomasi.

«Faxriy fuqaro» maqomi berilgan respublikaning boshqa hududlaridan kelgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs, shuningdek, uning oila a’zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari), (Ro‘yxatning 7-band) doimiy ro‘yxatga olish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- nikoh tuzilganlik, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo‘lsa, nusxalari olinib, asli qaytariladi);
- «Faxriy fuqaro» maqomini berish to‘g‘risidagi guvohnoma.

Xorijiy investor va uning oila a’zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) (Ro‘yxatning 8-band) doimiy ro‘yxatga olish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);
- nikoh tuzilganlik, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar (agar hujjatlar xorijda rasmiylashtirilgan bo‘lsa, nusxalari olinib, asli qaytariladi);
- kiritilgan investitsiyalar haqidagi quyidagi ma’lumotnomalardan biri:
 - a) xo‘jalik jamiyatlarining sotib olingan aksiyalari miqdori to‘g‘risida «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasi tomonidan berilgan ma’lumotnoma;

b) xo‘jalik jamiyatlarining sotib olingan ulushlari miqdori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil yetilganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan berilgan ma’lumotnomasi.

Vatandosh va uning oila a’zolari (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlari) (Ro‘yxatning 9-band) doimiy ro‘yxatga olish uchun MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan **tashqari quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- nikoh tuzilganlik, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar (agar hujjatlar xorija rasmiylashtirilgan bo‘lsa, nusxalari olinib, asli qaytariladi).

Respublikaning boshqa hududlaridan keladigan 16 yoshga to‘lmagan shaxslarni Ro‘yxatning 1, 2, 4 va 5-bandlari asosida doimiy ro‘yxatga olish tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma asosida ham amalga oshirilishi mumkin.

Barcha zarur hujjatlar taqdim etilgandan keyin MvaFRB tomonidan bir ish kuni mobaynida taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqligi va haqiqiyligi tekshiriladi hamda ariza beruvchi Ro‘yxatda nazarda tutilgan shaxslar toifasiga muvofiq bo‘lgan taqdirda Nizomning 5-ilovaga muvofiq doimiy ro‘yxatga olishni rasmiylashtirish yuzasidan elektron so‘rovnama shakllantiriladi.

MvaFRB rahbari yoki uning o‘rinbosari o‘z rezolyusiyasida ariza beruvchini Ro‘yxatning qaysi bandiga asosan doimiy ro‘yxatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning so‘roviga ko‘ra, Toshkent shahri yoki Toshkent viloyatida 2016 yil 7 oktyabrga qadar doimiy ro‘yxatga ega bo‘lganda yoki Ro‘yxatning 1 va 5-bandlariga asosan doimiy ro‘yxatga olinayotganda Nizomga 6-ilovaga, Ro‘yxatning 2, 3, 4, 6, 7 va 9 bandlariga asosan doimiy ro‘yxatga olinayotganda Nizomning 7-ilovaga, Ro‘yxatning 8-bandiga asosan doimiy ro‘yxatga olinayotganda Nizomning 8-ilovaga muvofiq qayd varag‘i taqdim etiladi.

Ushbu fuqarolarni doimiy yashashga ruxsatnomasi olish tartibi Nizomning 15-ilovaga muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududi bo‘ylab boshqa manzilga doimiy ro‘yxatdan o‘tish uchun chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs hududiy MvaFRBga Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari **quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:**

- uy-joy mulkdorining (mulkdorlarining) uy-joy maydoni berishi to‘g‘risidagi arizasi (roziligi) yoxud shaxsan topshirish imkon bo‘lmaganda, notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi);

- voyaga yetmaganlar uchun tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (agar fuqaro xorijda tug‘ilgan bo‘lsa, nusxasi olinib, asli qaytariladi).

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududi bo‘ylab boshqa manzilga doimiy ro‘yxatga olish tartibi Nizomning 61 va 62-bandlariga asosan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmaganlar doimiy ro‘yxatga olingan, biroq Manzil tizimiga kiritilmagan hollarda, avvalgi yashash joyidagi MvaFRB tomonidan Manzil tizimiga kiritiladi.

Ro‘yxatning 2-bandi asosida doimiy ro‘yxatga olinayotgan voyaga yetmaganlar avvalgi yashash joyi bo‘yicha MvaFRBning doimiy ro‘yxatga olinmaganligi to‘g‘risidagi elektron ma’lumotnomasi asosida ro‘yxatga olinadi.

Tarbiyalash, davolash va boshqa muassasalardagi yetim bolalar, ota-onalarining qarovisiz qolgan bolalar, shuningdek, qariyalar uylaridagi shaxslar ko‘rsatib o‘tilgan muassasalar tomonidan berilgan turar joy maydoniga doimiy ro‘yxatga olinadi.

3-savol. Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi va doimiy ro‘yxatini bekor qilishning yangi tartib tamoyillari.

O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi quyidagi hollarda MvaFRB tomonidan bekor qilinadi:

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xorijga doimiy yashashga ketganida;

chet el fuqarosi O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha chiqqanda, agar u uch yildan ortiq vaqt mobaynida uzrli sabablarsiz O‘zbekistondagi doimiy yashash manziliga qaytmasa;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan vaqtincha xorijga chiqqan fuqaroligi bo‘lman shaxs harakatlanish hujjatining amal qilish muddati tamom bo‘lgunga qadar uzrli sabablarsiz O‘zbekistondagi doimiy yashash manziliga qaytmasa yoki xorijda uni almashtirmasa yoxud uzrli sabablarsiz uni almashtirishni rad etsa;

chet el fuqarosi milliy pasportini amal qilish muddati tugagandan so‘ng olti oy davomida uni almashtirmasa yoki o‘z davlati fuqaroligidan chiqqanligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi taqdim etmasa;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmali, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari rahbarlari iltimosnomasiga binoan doimiy yashashga ruxsatnomasi olgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar ushbu organ va tashkilotlarning bildirishnomasi asosida;

bekor qilish to‘g‘risida shaxsan murojaat qilsa yoxud notarial tasdiqlangan ishonchnomalar bo‘yicha boshqa shaxs murojaat qilsa yoki chet eldagisi tegishli organlarning so‘roviga asosan;

agar shaxs yashash guvohnomasi yoki ID-kartani olayotganda yoki uni uzaytirish va almashtirishda, o‘zi va qarindoshlari haqida yolg‘on ma’lumot berganda, kerakli hujjatlarni taqdim etmaganda yoki qalbaki, soxta hujjatlarni taqdim etganda;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborilganda;

sudning doimiy yashash ruxsatnomasini bekor qilish, bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qaroriga asosan;

vafot etganda - FHDYo organining o‘lim haqidagi guvohnoma yoki ma’lumotnomasini asosida.

Yashash guvohnomasi yoki ID-karta chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilganda bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilgan chet el fuqarosining yashash guvohnomasi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning ID-kartasi ushbu shaxs doimiy ro‘yxatga olingan MvaFRBga topshiriladi.

Nizomning 17-bandis asosida doimiy yashashga ruxsatnoma olgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy yashashga ruxsatnomasi tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi, xo‘jalik birlashmasi, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari rahbarining MvaFRBga taqdim etilgan bildirishnomasi asosida bekor qilinadi.

Agar chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy ro‘yxatga olinishi uchun boshqa asoslar mavjud bo‘lmasa, MvaFRB uch ish kuni mobaynida doimiy yashashga ruxsatnomani bekor qilish uchun shaxsiy yig‘ma ish jildini IIV MvaFRB va IIB MvaFRB orqali IIV MvaFRBBga yuboradi hamda bu haqda chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni ogohlantiradi.

IIV MvaFRBB olingan hujjatlarni o‘rganib chiqib, ichki ishlar vaziri o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan qaror bilan avvalgi ijobiylari qarorni bekor qiladi. Qaror shaxsiy yig‘ma ish jildiga biriktirilgan holda, ijro uchun tegishliligi bo‘yicha IIV MvaFRB va IIB MvaFRB orqali MvaFRBga qaytarib yuboriladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs Nizomning 69-bandiga muvofiq Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashashga ruxsatnoma bekor qilinishidan bosh tortgan taqdirda, uni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish masalasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-son qarori bilan tasdiqlangan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishi qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida qolishi uchun quyidagi holatlar asos bo‘lishi mumkin:

ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan respublika hududida joylashgan boshqa davlat hokimiyati yoki boshqaruvi organiga, xo‘jalik birlashmasiga, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotiga ishga o‘tishi;

qonun hujjatlariga muvofiq Toshkent shahri va Toshkent viloyatida xususiy mulk qilib olingan uy-joyga ega bo‘lishi;

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatdan o‘tgan turmush o‘rtog‘i bilan birga yashayotgan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy ro‘yxatga olinganligi quyidagi hollarda MvaFRB tomonidan bekor qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasi hududida bir manzildan boshqa manzilga doimiy ro‘yxatga olinganda;

chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy mulkdorining arizasiga ko‘ra - O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksida belgilangan bir kishi uchun turar-joy maydonining ijtimoiy normasi to‘g‘risidagi qoidalari asosida;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalar, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari rahbarlari iltimosnomasiga binoan doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ushbu organ va tashkilotlarning bildirishnomasi asosida;

mulkdor o‘zgarganda, uning arizasi va uy-joyga egalik qilishni tasdiqlovchi hujjatlar asosida;

sudning chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning uy-joydan foydalanish huquqini yo‘qotgan, bedarak yo‘qolgan deb topish va ko‘chirish haqidagi qarori asosida;

soxta hujjatlar yoki haqiqatga muvofiq bo‘lmagan hujjatlar asosida doimiy ro‘yxatga olinganligi aniqlanganda - sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi asosida;

umrbod ozodlikdan mahrum qilinganda - sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi asosida;

bekor qilish to‘g‘risida notarial tasdiqlangan ishonchnoma bo‘yicha boshqa shaxs murojaat qilganda.

Nizomning 56-bandi asosida doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning doimiy ro‘yxati tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi, xo‘jalik birlashmasi, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari rahbarining MvaFRBga taqdim etilgan bildirishnomasi asosida bekor qilinadi.

MvaFRB, agar ushbu chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmañan shaxsda doimiy ro‘yxat uchun boshqa asoslar mavjud bo‘lmasa, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmañan shaxsni belgilangan tartibda Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan ilgarigi yashash joyiga yoki uning arizasiga ko‘ra doimiy ro‘yxatini bekor qiladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmañan shaxs ro‘yxati bekor qilinishi yuzasidan ariza yozishdan bosh tortgan taqdirda, uning doimiy ro‘yxati hududiy MvaFRB tomonidan tayyorlangan xulosa asosida bekor qilinadi.

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organi, xo‘jalik birlashmasi, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkiloti rahbari iltimosnomasi asosida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga ega bo‘lgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmañan shaxs Toshkent shahri va Toshkent viloyatida xodimini doimiy ro‘yxatga olish to‘g‘risida iltimosnomasi kiritishi mumkin bo‘lgan boshqa organ yoki tashkilotga ishga o‘tgan taqdirda, uning doimiy ro‘yxatga olinganligi bekor qilinmaydi.

Buning uchun chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmañan shaxs bir oy muddat ichida boshqa organ va tashkilotga ishga qabul qilinganligi haqida ish joyidan berilgan ma’lumotnomani MvaFRBga taqdim etishi lozim.

Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida doimiy yashayotgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmañan shaxs xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqish uchun doimiy ro‘yxatga olingan joyidagi MvaFRBga **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- Nizomning 16-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha ariza;
- yashash guvohnoma yoki ID-karta;
- fuqaroligi bo‘lmañan shaxsning amaldagi harakatlanish hujjati.

Harakatlanish hujjatini olish uchun fuqaroligi bo‘lmañan shaxs MvaFRBga Nizomning 17-ilovaga (16 yoshga to‘lamanlar uchun Nizomning 18-ilovaga) muvofiq shakl bo‘yicha ariza bilan murojaat qiladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmañan shaxsga xorijiy davlatga ketish uchun hujjatni rasmiylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2011 yil 5 yanvardagi PF-4262-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi bo‘lmañan shaxslarining biometrik harakatlanish hujjati to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalgalashiriladi.

MvaFRB xorijiy davlatga ketish uchun ariza bergen chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmañan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish uchun ariza berilgan kundan so‘ng bir ish kunida IIV Tezkor ma’lumotlar boshqarmasiga so‘rov nomasi yuboradi.

MvaFRB bir vaqtning o‘zida xorijga ketayotgan fuqaroligi bo‘lмаган shaxs (faqat 18 yoshdan katta bo‘лганлар) то‘ғ‘risidagi ma’лumotlarni o‘z fikrini bildirish uchun elektron tizim orqali vakolatli organga yuboradi.

IV Tezkor ma’лumotlar boshqarmasidan hamda vakolatli organdan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxsni xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqish uchun to‘sinqinlik qiluvchi ma’лumotlar yo‘qligi to‘ғ‘risida ma’лumotnomaga kelib tushgandan so‘ng MvaFRB bir ish kunida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga xabarnoma yuboradi.

Xabarnoma olgandan so‘ng chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs MvaFRBga **quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- yashash guvohnoma yoki ID-karta;
- milliy pasport.

MvaFRB bir ish kunida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning yashash guvohnomasi yoki ID-kartani olib qo‘yadi va ro‘yxatga olinganligini hamda chet el fuqarosining milliy pasportidagi majud shtampni Nizomning 11-ilovaga muvofiq bekor qiladi.

Chet el fuqarosini xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqarish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati 7 ish kunidan, fuqaroligi bo‘lмаган shaxsni hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati 15 ish kunidan oshmasligi lozim.

Xorijga doimiy yashashga ketayotgan fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning harakatlanish hujjatiga Nizomning 19-ilovaga muvofiq shtamp qo‘yiladi.

Fuqaroligi bo‘lмаган shaxs harakatlanish hujjatini olganidan so‘ng viza olish uchun tegishli davlatlarning diplomatik va konsullik vakolatxonalariga murojaat qiladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olingan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs boshqa davlatga doimiy yashashga ketayotganligi sababli ro‘yxati bekor qilinganda, uning murojaati bo‘yicha tegishli MvaFRB tomonidan belgilangan tartibda ular respublika tashqarisiga chiqib ketgunga qadar vaqtincha ro‘yxatga olinishi mumkin.

Doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqarish bo‘yicha notarial tasdiqlangan ishonchnomasi asosida boshqa shaxs murojaat qilganda yoki chet eldagi tegishli organlarning so‘rovi kelib tushganda, MvaFRB uch ish kunida yashash guvohnomasi yoki ID-kartani olib qolib ro‘yxatdan chiqaradi hamda bir ish kunida ishonchli shaxsga ma’лumotnomaga rasmiylashtirib beradi yoki so‘rov nomasi ijrochisiga javob xati yuboradi.

Haqiqiy bo‘lмаган yashash guvohnomasi yoki ID-kartabilan boshqa manzilga ro‘yxatga olish taqiqlanadi.

Xorijda bo‘лган chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarning doimiy ro‘yxatini bekor qilish bundan mustasno.

Ro‘yxatdan chiqarilganda hamda yashash guvohnoma yoki ID–karta va doimiy ro‘yxatbekor qilinganda IIBB MvaFRB bir ish kunida muddatda «manzil» tizimiga ro‘yxatdan chiqarilganligi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritadi.

Tug‘ilganligi, nikohi xorijiy davlatda qayd etilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasining konsullik legallashtirish qonunchiligi talablari asosida qonuniylashtirilgan yoki Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi Konvensiya (Gaaga, 1961 yil 5 oktyabr) talablariga muvofiq apostil belgisi qo‘yilgan tug‘ilganlik, nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani taqdim etadi.

«Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida»gi Konvensiyaga (Minsk, 1993 yil 22 yanvar) hamda «Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida»gi Konvensiyaga (Kishinev, 2002 yil 7 oktyabr) a’zo davlatlarda tug‘ilganligi, nikohi qayd yetilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs tomonidan ushbu davlatlar qonunchiligi talablari asosida tasdiqlangan tug‘ilganlik, nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga taqdim etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi bilan rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi ikki tomonlama xalqaro shartnama tuzilgan davlatlar hududida tug‘ilganligi, nikohi qayd etilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs tomonidan taqdim etiladigan tug‘ilganlik, nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga konsullik qonunlashtirilishi yoki apostil belgisini qo‘yish talab etilmaydi.

Nizomga muvofiq Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olingan vasiylikdagi (homiylikdagi) hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning qarindoshlari Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatga olinmaydi.

Xorijga vaqtincha chiqqan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning xorijda bo‘lgan vaqtida yashash guvohnomasi yoki ID-kartani amal qilish muddati tugagan taqdirda yoxud familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi o‘zgargan bo‘lsa, shuningdek, chet el fuqaroligidan chiqqan yoki qabul qilgan hamda tegishli yoshga yetgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytib kelganidan so‘ng uch ish kunidan kechiktirmay tegishli hujjatlar bilan doimiy ro‘yxatga olingan joyidagi MvaFRBga murojaat qilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan bola FHDYo organlari tomonidan unga tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma rasmiylashtirilayotganda, otasi yoki onasining doimiy ro‘yxatga olingan manziliga idoralalararo avtomatlashtirilgan tizim orqali ma’lumotlarni kiritish yo‘li bilan doimiy ro‘yxatga olinadi.

16 yoshga to‘lmanan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmanan shaxs ota-onasi yoki vasiysining (homiyisining) doimiy (vaqtincha) ro‘yxatga olingan manziliga doimiy (vaqtincha) ro‘yxatga olinishi shart.

O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilganlik, nikoh tuzilganligi yoki ajrashganligi, o‘lim to‘g‘risidagi guvohnomalar «FHDYoning yagona elektron arxiv» axborot tizimi orqali olinadi.

Yashash guvohnomasi yoki ID-karta almashtirilganda, doimiy ro‘yxatga olinganlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar Manzil tizimida mas’ul xodim tomonidan yangilanadi.

Mulkdor o‘z oila a’zolarini va boshqa shaxslarni doimiy ro‘yxatdan o‘tkazish huquqiga ega.

Quyidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmanan shaxslarni doimiy ro‘yxatga olishda, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksida belgilangan bir kishi uchun turar joy maydonining ijtimoiy normasi to‘g‘risidagi qoidalari qo‘llanilmaydi:

er-xotin - bir-birining doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

ota-onalar, farzandlar - bir-birining doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

bobo-buvi, nevaralar - bir-birining doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

vasiylikdagi (homiylikdagi) hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) shaxslar - vasiy (homiy), tutingan ota yoki ona doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

balog‘atga yetmagan, ota-onasi bo‘lmanan tug‘ishgan aka-ukalar, opa-singillar, shuningdek, mehnatga layoqatsiz tug‘ishgan aka-ukalar, opa-singillar, agar ularning o‘z oilalari bo‘lmasa, yoshidan qat’iy nazar, akasi, ukasi, opasi, singlisining ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

doimiy ro‘yxatga olingan tug‘ishgan aka-ukalar, opa-singillar - bir-birining doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga;

ilgari mazkur aholi punktida yashagan, mehnat shartnomasi bilan ishlash uchun vaqtincha boshqa joyga ketgan shaxslar, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq vaqtincha boshqa joyga ketganda, uy-joydan foydalanish huquqi saqlanib qoladigan fuqarolar - oldingi istiqomat joyiga yoki qarindoshlarining uy-joy maydoniga;

ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar - oldingi istiqomat joyiga, o‘z oila a’zolarining, qarindoshlari yoki hukm qilingunga qadar yashab turgan boshqa shaxslarning uy-joy maydoniga.

Nizom talablariga rioya etilishi ichki ishlar organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi. Tinglovchilar mustaqil ta'limda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi 593-son qarori bilan tasdiqlangan "Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi to'g'risida Nizom"ni to'liq o'rganadilar va konspekt qiladilar.

1. Boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida doimiy yashashga ruxsatnomalar berish;
2. Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida doimiy ro'yxatga olinish huquqiga ega bo'lgan shaxslar;
3. Toshkent shahrida uy-joyning oldi-sotdi bitimlarini, almashish, renta, umrbod ta'minlash sharti bilan o'zgaga berish va hadya qilishni notarial tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish;
4. Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga doimiy yashashga ruxsatnomalar olish uchun boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar vaqtinchalik turgan joyi bo'yicha ro'yxatidan o'tkazish tartibi;
6. Xorijiy investor va uning oila a'zolari doimiy yashashga ruxsatnomalar olish tartibi.

21- Mavzu. Toshkent shahar va Toshkent viloyatida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi.


Seminar- 2 soat

Ushbu o'quv mashg'uloti "**Debat**" metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

«Debat» (fransuzcha «debattere» so'zidan olingan bo'lib, «debas» – «bahslashmoq») texnologiyasi yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtaida o'zaro bahs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv mashg'ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi:

O'rganilayotgan mavzu yuzasidan bahs yuritilishi
zarur bo'lgan muammo tanlanadi



Bahslashish uchun ikki nafar tinglovchi, guruh yoki juftlikning etiboriga tanlangan muammo havola etiladi

Muammo yuzasidan alohida tinglovchi, guruh yoki juftlik tomonidan bildiriladigan fikrlar tahlil qilinadi

Ekspertlarning fikrlari tinglanadi

Debatda bildirilgan fikrlar yuzasidan xulosa chiqariladi

Debat yakunlanadi

O‘quv mashg‘ulotning muammoli savollari:

1-muammo. Chet yel fuqarosining O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan oila qo‘rishi, ishlashi va Toshkent shahrida yashashi.

2-muammo. Chet yel fuqarosining O‘zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritishi va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishi.

3-muammo. Viloyatda doimiy yashovchi fuqaroligi yo‘q shaxsning Toshkent shahrida doimiy yashashi va ishlashi.

4-muammo «Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxs va ularning oila a’zolari doimiy yashashga ruxsatnoma olish tartibi.

21-Mavzu. Toshkent shahar va Toshkent viloyatida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi.

Amaliy- 2 soat

22-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA DOIMIY YaShOVChI ChET EL FUQAROSI VA FUQAROLIGI BO‘LMAGAN ShAXSNING IDENTIFIKASIYA ID-KARTASI.

Ma’ruza 2-soat

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxsning identifikasiya ID-kartasini rasmiylashtirish.
2. ID-kartani rasmiylashtirish, berish, almashadirish va bekor qilish tartibi.

3. ID-kartadan foydalanish.



1-savol.O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning identifikatsiya ID-kartasini rasmiylashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida identifikasiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6065-son Farmonning 2-Ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan (keyingi o'rinnarda — doimiy ro'yxatga olingan) chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxsga identifikasiya ID-kartasini rasmiylashtirish, berish, almashtirish hamda undan foydalanish tartibini belgilaydi.

ID-karta ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan O'zbekiston Respublikasida doimiy ro'yxatga olingan chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga quyidagi muddatlarga beriladi:

yangi tug'ilgan bolaga bir yoshgacha — ikki yil muddatga (ota-onalar, vasiylarning (homiyrlarning) ixtiyoriga ko'ra);

bir yoshdan 16 yoshgacha — 5 yil muddatga (ota-onalar, vasiylarning (homiyrlarning) ixtiyoriga ko'ra).

16 yoshdan 60 yoshgacha — 5 yil muddatga;

60 yoshdan oshganlarga — 10 yil muddatga.

O'zbekiston Respublikasida doimiy ro'yxatga olingan chet davlat fuqarolariga ID-karta uning milliy pasportining amal qilish sanasidan oshmagan muddatga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalar tashkil qilish uchun kamida 3 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritgan chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs — xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona muassisi (ishtirokchisi), shuningdek, ularning oila a'zolariga (eri, xotini va voyaga yetmagan farzandlariga) — ID-karta 10 yil muddatga, biroq milliy pasportning amal qilishidan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi.

ID-karta qat'iy hisobga olinadigan hujjat hisoblanadi.

ID-karta belgilangan namuna bo'yicha lotin alifbosida o'zbek tilida, Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun esa — ID-karta olish uchun murojaat qilgan O'zbekiston Respublikasida doimiy ro'yxatga olingan chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'limgan shaxsning xohishiga ko'ra lotin alifbosida qoraqalpoq yoki o'zbek tillarida personallashtiriladi.

ID-karta blankasiga quyidagi asosiy ma'lumotlar kiritiladi:

a) hujjatning nomi;

b) ID-kartaning raqami;

v) ID-karta egasining:

familiyasi, ismi, otasining ismi;

tug'ilgan sanasi;

fuqaroligi;

tug'ilgan joyi;

jinsi;

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqami;

g) ID-kartaning:

berilgan sanasi;

kim tomonidan berilgani;

amal qilish muddati tugaydigan sana;

d) ID-karta egasining raqamli surati.

ID-kartada uning egasining imzosi bo'lishi shart (16 yoshga yetganidan keyin).

Vazirlik va idoralarning avtomatlashtirilgan tizimlari orqali ID-karta egasining roziligi bilan davlat xizmatlarini ko'rsatishda ID-kartaga kiritilgan ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Chipga ID-karta egasining quyidagi ma'lumotlari kiritiladi:

biografik ma'lumotlari;

millati mavjud bo'lgan taqdirda;

raqamli surati;

qo'l barmoqlarining izlari — 16 yoshga yetganidan keyin;

Yelektron raqamli imzosi kalitining sertifikati — 16 yoshga yetganidan keyin.

Qonun hujjatlariga muvofiq chipga boshqa ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

Yelektron raqamli imzo kaliti sertifikati ID-kartaning amal qilish muddati davomida haqiqiy hisoblanadi.

2-savol. ID-kartani rasmiylashtirish, berish, almashtirish va bekor qilish tartibi.

ID-kartani rasmiylashtirish va berish ushbu Nizomga ilovaga muvofiq, quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

a) O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarolariga yoki fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga:

ularning ota-onalari, vasiylarining (homiyalarining) ixtiyoriga ko‘ra — bola tug‘ilgandan boshlab 16 yoshga to‘lguniga qadar;

shaxs 16 yoshga to‘lganda;

shaxsnинг familiyasi, ismi, otasining ismi, millati, fuqaroligi, tug‘ilgan sanasi, jinsi o‘zgarganda;

b) ID-kartaning amal qilish muddati tugaganda;

v) ID-kartaga yoki chipga kiritilgan ma’lumotlarda noaniqliklar, xatolar va texnik nuqsonlar mavjudligi aniqlanganda;

g) ID-karta yoki chip yaroqsiz holga kelganda;

d) ID-kartani ashyoviy dalil sifatida olib qo‘yilganida;

ye) ID-karta yo‘qotib qo‘yilganda.

ID-karta egasining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, fuqaroligi, jinsi o‘zgarganligi yoki ID-kartaga kiritilgan ma’lumotlarda noaniqliklar mavjudligi aniqlanganligi munosabati bilan almashtirilayotganda, O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs tomonidan ma’lumotlarni yig‘ish punktiga ushbu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi va ariza kelib tushgan kundan boshlab besh ish kunida ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar ID-kartani yo‘qotgan taqdirda, yangi ID-karta belgilangan tartibda ID-karta yo‘qolganligi haqida ariza kelib tushgan kundan boshlab besh ish kunida beriladi. ID-kartasi bo‘lмаган O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs 16 yoshga to‘lganda ID-karta olish uchun bir oydan kechikmasdan ma’lumotlarni yig‘ish punktiga murojaat qilishi shart. Xorijiy davlatlarga vaqtincha chiqqan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs xorijda bo‘lgan vaqtda ID-kartaning amal qilish muddati tugasa yoxud familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, fuqaroligi, jinsi o‘zgargan bo‘lsa, shuningdek, chet davlat fuqaroligidan chiqqan yoki qabul qilgan hamda tegishli yoshga yetgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytib kelganidan so‘ng uch ish kunidan kechiktirmay tegishli hujjatlar bilan doimiy ro‘yxatga olingan manzildagi ma’lumotlarni yig‘ish punktiga ID-kartani almashtirish masalasida murojaat qilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs ID-karta olish uchun ma’lumotlarni yig‘ish punktiga **quyidagilarni taqdim etadi**:

belgilangan shakldagi ariza-anketa;

chet davlat fuqarosining milliy pasporti (O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi uchun ID-karta birinchi marotaba rasmiylashtirilayotganda);

ilgari berilgan yashash guvohnomasi yoki ID-karta;

tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma (ID-karta birinchi marotaba rasmiylashtirilayotganda);

vakolatli organlar tomonidan berilgan arizachining fuqaroligi tugaganligini tasdiqlaydigan hujjat (chet davlat fuqaroligidan chiqqan yoki fuqaroligini yo‘qotgan holatda);

davlat boji to‘langanligi haqida kvitansiya (elektron to‘lov tizimlari orqali to‘langanda kvitansiya majburiy emas).

ID-karta ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan hujjatlar to‘liq qabul qilib olingandan so‘ng bir ish kuni mobaynida beriladi.

O‘zgalar yordamiga muhtoj qariyalar, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra mustaqil harakatlanish imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar ID-kartani rasmiylashtirish va olish uchun ma’lumotlarni yig‘ish punktiga shaxsan o‘zлari yoki qonuniy vakillari orqali (og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda) murojaat etganda, ID-karta ma’lumotlarni yig‘ish punktining mas’ul xodimi tomonidan o‘n besh kun muddatda ushbu shaxslarning yashash manziliga borgan holda rasmiylashtiriladi va beriladi.

Bunda ko‘rsatilgan xizmat uchun qo‘srimcha to‘lov undirilmaydi.

Ma’lumotlarni yig‘ish punkti taqdim etilgan hujjatlar asosida arizachining biografik ma’lumotlarini, elektron ko‘rinishdagi qo‘l barmoq izlarini yig‘adi, shaxsni old tomondan raqamli formatda suratga oladi va ID-kartani rasmiylashtirish uchun talabnama shakllantiradi.

Arizachiga avval jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqami biriktirilmagan yoki jismoniy shaxsning avvalgi shaxsiy identifikasiya raqami xatolik bilan biriktirilgan bo‘lsa, talabnama ID-kartaga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqamini biriktirish uchun ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markaziga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi talabnomadagi jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqami mavjudligi va to‘g‘riligini tekshiradi, mavjud bo‘lmagan hollarda esa real vaqt rejimida jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqamini shakllantiradi va shakllantirilgan talabnomani ma’lumotlarni yig‘ish punktiga yuboradi.

Agar O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs qo‘l barmoq izlari olinishidan bosh tortsa yoxud ko‘zoynakda yoki bosh kiyimda suratga tushish istagidan qaytmasa, ma’lumotlarni yig‘ish punkti fuqaroga ID-karta rasmiylashtirishni rad etadi.

ID-kartani rasmiylashtirish uchun «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

ID-karta rasmiylashtirish va berish jarayonida unda texnik nuqsonlar aniqlansa, basharti ular ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, ID-karta bepul almashtiriladi.

16 yoshga to‘lman shaxslarning ID-kartalari ularga ID-karta berish bo‘yicha murojaat qilgan ota-onalari yoki vasiylariga (homiyalariga) beriladi.

16 yoshga to‘lgan shaxslarga identifikasiya ID-kartalari berilganda ushbu shaxs bir vaqtning o‘zida davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchi sifatida hamda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yiladi.

Bunda, shaxsning biografik ma’lumotlari o‘zgarishi munosabati bilan ID-karta almashtirilganda yoki bekor qilinganda bu haqidagi ma’lumotlar real vaqt rejimida Davlat soliq qo‘mitasi va AT «Xalq banki»ga taqdim etib boriladi.

Quyidagi holatlarda O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsning ID-kartasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan bekor qilinadi:

qonunda belgilangan tartibda xorijga doimiy yashashga ketganida;

chet davlat fuqarosi O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha chiqqanda, agar u uch yildan ortiq vaqt mobaynida uzrli sabablarsiz O‘zbekistondagi doimiy yashash manziliga qaytmasa;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan vaqtincha xorijga chiqqan fuqaroligi bo‘lman shaxs harakatlanish hujjatining amal qilish muddati tamom bo‘lgunga qadar uzrli sabablarsiz O‘zbekistondagi doimiy yashash manziliga qaytmasa yoki xorijda uni almashtirmasa yoxud uzrli sabablarsiz uni almashtirishni rad etsa;

bekor qilish to‘g‘risida shaxsan murojaat qilsa yoxud notarial tasdiqlangan ishonchnoma bo‘yicha boshqa shaxs murojaat qilsa yoki chet davlatdagi tegishli organlarning so‘roviga asosan;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborilganda;

sudning shaxsni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarori asosida;

vafot etganda — fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining o‘lim haqida guvohnoma yoki ma’lumotnomasi asosida;

chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilganda;

chet davlat fuqarosi milliy pasportining amal qilish muddati tugaganidan so‘ng olti oy davomida uni almashtirmasa yoki o‘z davlati fuqaroligidan chiqqanligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi taqdim etmasa;

davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari rahbarlari iltimosnomasiga binoan doimiy yashashga ruxsatnama olgan chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar — ushbu organ va tashkilotlarning bildirishnomasi asosida;

shaxs ID-kartani olayotganda yoki uni almashtirishda o‘zi yoki qarindoshlari haqida yolg‘on ma’lumot berganda, qalbaki, soxta hujjatlarni taqdim etganda.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning bekor qilingan ID-kartasi shaxsning so‘nggi yashash joyidagi ma’lumotlarni yig‘ish punkti yoki turgan joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonasi yoxud konsullik muassasasiga yo‘q qilish uchun topshirilishi shart. O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga topshirilgan ID-kartalar yo‘q qilish uchun Ichki ishlar vazirligiga yuboriladi. Nizomning 22-bandи o‘ninchи, o‘n birinchi va o‘n ikkinchi xatboshi asosida ID-kartasi bekor qilingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga 30 kun muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishi to‘g‘risida ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan ogohlantiriladi. Chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs belgilangan muddatda respublika hududidan chiqib ketishdan bosh tortgan taqdirda, qonunchilikka muvofiq chora ko‘riladi.

3-savol. ID-kartadan foydalanish

ID-karta egasining shaxsini va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy ro‘yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalaniladi.

ID-karta yo‘qolgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs darhol yangi ID-kartani rasmiylashtirish uchun ma’lumotlarni yig‘ish punktiga murojaat qilishi shart. Topib olingan ID-karta egasiga qaytarish uchun ichki ishlar organiga topshirilishi lozim. Vafot etgan shaxsning ID-kartasi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga topshiriladi va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi ID-kartani yo‘q qilish maqsadida ma’lumotlarni yig‘ish punktiga yuboriladi. Hibsga olingan yoki ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsning ID-kartasi surishtiruv, tergov organlari yoki sud tomonidan olib qo‘yiladi. Agar shaxs sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilinsa, uning ID-kartasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Jazoni ijro etish bosh boshqarmasiga yuboriladi.

Shaxs jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilganida yoki jazo muddatini o‘tab bo‘lgach, unga ID-kartasi surishtiruv, tergov organlari, sud yoxud jazoni ijro etish muassasasining ma’muriyati tomonidan qaytariladi.

ID-karta surishtiruv, tergov organlari yoki sud tomonidan ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilgan taqdirda, yangi ID-karta vakolatli organning olib qo'yish haqidagi tegishli qarori taqdim etilgach, ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasida doimiy ro'yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxsga yangi ID-karta berish chog'ida ilgari berilgan yashash guvohnomasi yoki ID-karta yo'q qilish uchun ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan olib qolinadi.

Fuqaroligi o'zgargan yoki xorijiy davlatda doimiy yashashga qolish istagini bildirgan O'zbekiston Respublikasida doimiy ro'yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxs ID-kartani so'nggi yashash joyidagi ma'lumotlarni yig'ish punkti yoki turgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonasi yoxud konsullik muassasasiga topshirishi shart.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga topshirilgan ID-kartalar yo'q qilish uchun Ichki ishlar vazirligiga yuboriladi. O'zbekiston Respublikasida doimiy ro'yxatga olingan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxs ID-kartani olish yoki almashtirish yuzasidan o'z vaqtida murojaat qilmasligi, uni yaroqsiz holga keltirishi, yo'qotib qo'yishi, shuningdek, boshqa shaxsga tegishli bo'lgan ID-kartani qonunga xilof ravishda olib qo'yish, ID-kartadan g'arazli maqsadlarda foydalanish, uni yo'q qilish, yaroqsiz holatga keltirish yoki yashirish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga asosan javobgarlik belgilanadi. Jazoni ijro etish muassasasida jazoni o'tab chiqqan, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagi ofatlar (turar joylarning yoki yashash uchun mo'ljallanmagan joylarning yong'ini, qulashi, transport vositalarining yonishi) yuz bergenligi oqibatida ID-kartasi yo'qolganligi yoki yaroqsiz holga kelganligi to'g'risida murojaat etgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Bunda, jazoni ijro etish muassasasida jazoni o'tab chiqqan shaxs bu holatni tasdiqlovchi tegishli hujjatni taqdim etadi, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagi ofatlar (turar joylarning yoki yashash uchun mo'ljallanmagan joylarning yong'ini, qulashi, transport vositalarining yonishi) yuz bergenligi holatini tasdiqlash zarurati bo'lganda, ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limlari tomonidan so'rov asosida qonunchilikda belgilangan vakolatli idoralardan ma'lumotnomalar olinadi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxs ID-kartasi o'g'irlangan hollarda bu haqidagi arizalar jinoyat sodir yetilgan joydagi yoki chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxsning yashash joyidagi hududiy ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlari xodimlari tomonidan qabul qilinadi. Bunday arizalar qabul qilinganligi haqida chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga ma'lumotnomalar beriladi va ular javobgarlikka tortilmaydi. Talabnomaga kiritilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga voyaga yetmagan shaxslar nomidan

murojaat qilgan shaxslar yoki voyaga voyaga yetgan va ID-kartani birinchi marotaba olayotgan O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar shaxsan javobgar hisoblanadi.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi. Tinglovchilar mustaqil ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida identifikasiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6065-son Farmonning 2-Ilovasi bilan “O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasi to‘g‘risida Nizom”ni to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

22-Mavzu. O‘bekistonda doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasi.

Seminar– 2 soat

Ushbu o‘quv mashg‘uloti **“Suhbat”** interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotda o‘qituvchi va o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar o‘rtasida dialogik xarakterga ega savol-javobga asoslanuvchi ushbu metod negizini jonli muloqot tashkil etadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo‘srimcha savollar berish, o‘quvchi (tinglovchi va kursant)ning fikrlashga undash imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. Ta’limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o‘qituvchi va o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar o‘rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi.

Metodni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

O‘qituvchi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larni metod mohiyati bilan tanishtiradi

O‘qituvchi mavzu yuzasidan o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar savollar bilan tanishtiriladi

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masala mohiyatini yoritishga kirishadi (agar o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; bordi-yu, javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o‘qituvchi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)ga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo‘srimcha savol beradi)

O‘rganilayotgan masalaning mohiyati to‘la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi

O‘qituvchi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning faoliyatini baholab, mashg‘ulotga yakun yasaydi

bo‘lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasi to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjat.

2-savol. ID-karta ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga berish muddatlari.

3-savol. ID-kartadan foydalanish tartibi.

4-savol. ID-kartani rasmiylashtirish, berish, almashtirish va bekor qilish tartibi.

5-savol. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasini rasmiylashtirish qaysi holatlarda rad etiladi.

22-Mavzu: O‘zbekistonda doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasi.

Amaliy – 2 soat

23-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI FUQAROLIGI BO‘LMAGAN ShAXSLARNING BIOMETRIK HARAKATLANISH HUJJATI.

Ma’ruza (2 soat)

Reja:

1-savol. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning xorijga chiqishi uchun biometrik harakatlanish hujjati.

2-savol. Harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish, berish va undan foydalanish tartibi.

1-savol: Fuqaroligi bo‘lman shaxslarning xorijga chiqishi uchun biometrik harakatlanish hujjati.

O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimini yanada takomillashtirish hamda zamonaviy xalqaro standartlar va talablarni inobatga olgan holda fuqaroligi bo‘lman shaxslarga harakatlanish hujjatlarini rasmiylashtirish, berish va almashtirish tartibini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4262-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning 2-ilovasi bilan “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi bo‘lman shaxslarining biometrik harakatlanish hujjati to‘g‘risida”gi nizomi qabul qilindi. Ushbu Nizom:- fuqaroligi bo‘lman shaxslarning xorijga chiqishi uchun biometrik harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish, berish, almashtirish tartibini belgilab beradi.



fuqaroligi bo‘lman shaxsning biometrik harakatlanish hujjati - (harakatlanish hujjati) O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lman shaxsning xorijda shaxsini tasdiqlovchi, harakatlanish hujjati yegasining shaxsiy biografik ma’lumotlari va biometrik parametrlari kiritilgan elektron tashuvchi qurilma (chip)ga ega bo‘lgan hujjatdir.

Fuqaroligi bo‘lman shaxs harakatlanish hujjati olish uchun doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joyi bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish punktiga murojaat qilishi lozim. Fuqaroligi bo‘lman shaxslarga harakatlanish hujjati **besh yil** muddatga (bir yoshga to‘lman fuqaroligi bo‘lman shaxslarga **ikki yil** muddatga) beriladi. Harakatlanish hujjatining amal qilish muddati tugagach, shaxs uni ma’lumotlarni yig‘ish punktiga topshirishi shart.

O‘zgalar yordamiga muhtoj qariyalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish va berish tegishli murojaat asosida belgilangan tartibda ushbu shaxslarning doimiy yashash yoki bo‘lish joyiga borgan holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish hujjati talabnomasi DPMga jo‘natilganidan keyin ma’lumotlarni yig‘ish punktida ***o‘n ish kuni*** mobaynida, xorijda — ***o‘n besh ish kuni*** mobaynida beriladi.

Harakatlanish hujjati belgilangan namuna bo‘yicha tayyorlanadi va o‘zbek hamda ingliz tillarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun esa qoraqalpoq, o‘zbek va ingliz tillarida personallashtiriladi.

Harakatlanish hujjati blanki qat’iy hisobga olinadigan hujjat hisoblanadi. Blanklarni: -
-ishlab chiqarish «Davlat belgisi» Davlat ishlab chiqarish birlashmasida;
-personallashtirish va yo‘q qilish — DPMda;
-harakatlanish hujjatini egalariga berish — ma’lumotlarni yig‘ish punktlarida amalga oshiriladi.

Harakatlanish hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi hududidagi ma’lumotlarni yig‘ish punktlariga yetkazib berish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Davlat feld’egerlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Harakatlanish hujjatlarini xorijdagi ma’lumotlarni yig‘ish punktlariga va konsullik muassasalaridan O‘zbekiston Respublikasiga yetkazib berish belgilangan tartibda diplomatik pochta vositasi orqali amalga oshiriladi.

Harakatlanish hujjati blankasiga quyidagi asosiy ma’lumotlar kiritiladi:

- harakatlanish hujjatini bergen davlatning nomi;
- hujjatning nomi;
- hujjatning turi;
- harakatlanish hujjatini bergen davlatning kodi;
- harakatlanish hujjatining raqami;
- familiyasi, ismi, otasining ismi;
- millati;
- fuqaroligi;
- tug‘ilgan sanasi;
- tug‘ilgan joyi;
- jinsi;
- berilgan sanasi;
- kim tomonidan berilgani;
- personallashtiruvchi idora;
- amal qilish muddati tugaydigan sana;
- egasining raqamlı surati;
- egasi haqidagi mashina o‘qiydigan ma’lumotlar.

Chipga quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

- harakatlanish hujjatining egasi to‘g‘risidagi biografik ma’lumotlar;
- egasining raqamlı surati;
- pasport egasining qo‘l barmoqlari izlari — 16 yoshga yetganidan keyin.

Harakatlanish hujjatiga qaydlar kiritiladi.

ichki ishlar organlari bo‘linmalari tomonidan

-hamrohlik qiluvchi shaxslar (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun) haqidagi, vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligi haqidagi, ilgari qo‘yilgan qaydlarni bekor qilish haqidagi;

chevara nazorati bo‘linmalari tomonidan

-O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan o‘tganlik holati haqidagi va ilgari qo‘yilgan qaydlarni bekor qilish haqidagi;

sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan

-qon guruhi va qaysi rezusga mansubligi haqidagi; Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning roziligiga ko‘ra;

O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari tomonidan

-konsullik ro‘yxatiga olish yoki konsullik ro‘yxatidan chiqarish haqidagi, hamrohlik qiluvchi shaxslar haqidagi (16 yoshga to‘lmagan bolalar uchun), ilgari qo‘yilgan qaydlarni bekor qilish haqidagi;

-xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan;

-xorijiy davlatlarga kirish ruxsatnomalari (vizalar) haqidagi qaydlar kiritiladi.

Harakatlanish hujjatiga Nizomda nazarda tutilmagan yozuv va qaydlarni kiritish taqiqланади.

2-savol: Harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish, berish va undan foydalanish tartibi.

Harakatlanish hujjati quyidagi hollarda rasmiylashtiriladi va beriladi:

- 1.** fuqaroligi bo‘lmagan shaxs xorijga chiqayotganda;
- 2.** fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasi harakatlanish hujjatlari bilan hujjatlashtirilgan shaxslarning farzandi O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida tug‘ilganida;
- 3.** amal qilish muddati tugaganida;
- 4.** shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, millati, tug‘ilgan sanasi o‘zgarganida;
- 5.** yozuvlarda noaniqliklar va xatolar mavjudligi aniqlanganda;
- 6.** alohida ma’lumotlar yoki vizalar uchun mo‘ljallangan betlari ishlatalib bo‘linganida;
- 7.** sud ajrimi bilan harakatlanish hujjatining amal qilishi to‘xtatilganida;
- 8.** harakatlanish hujjati blankasi yaroqsiz holga kelganida;
- 9.** harakatlanish hujjati yo‘qotib qo‘yilganida.

Harakatlanish hujjati egasining familiyasi, ismi, otasining ismi, millati, tug‘ilgan sanasi o‘zgarganligi yoki yozuvlarda noaniqliklar mavjudligi aniqlanganligi munosabati bilan almashtirilayotganda, fuqaroligi bo‘lмаган shaxs ma’lumotlarni yig‘ish punktiga ushbu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Agar fuqaroligi bo‘lмаган shaxs O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqayotganida harakatlanish hujjatining amal qilish muddati bir yildan kamroq vaqtini tashkil etsa, ushbu hujjat almashtirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lмаган shaxs harakatlanish hujjatini olish va almashtirish uchun o‘zi doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joydagi ma’lumotlarni yig‘ish punktiga quyidagilarni taqdim etadi:

- belgilangan shakldagi ariza;
- ilgari berilgan harakatlanish hujjati;
- fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilishi uchun berilgan guvohnomasi yoki ID-kartasi;
- tug‘ilganlik haqida guvohnoma (16 yoshga to‘lмаган shaxslar uchun);
- ota-onalar, vasiylar (homiyalar)ning fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga (voyaga yetmaganlar uchun) xorijga chiqishi uchun notarial tasdiqlangan roziligi;
- fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga (voyaga yetmaganlar uchun) hamrohlik qiluvchi shaxsning notarial tasdiqlangan majburiyati;
- 35 x 45 mm o‘lchamdagи 2 ta fotosurat;
- davlat boji to‘langanligi haqida kvitansiya.

15 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar ota-onalar, vasiylar (homiyalar)ning voyaga yetmagan shaxsning mustaqil ravishda xorijga chiqishiga notarial tasdiqlangan roziligi bo‘lgan taqdirda xorijga kuzatuvchisiz chiqishi mumkin.

Voyaga yetmagan fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga harakatlanish hujjatini rasmiylashtirishda quyidagi hollarda ota-onalardan birining roziligi talab qilinmaydi:

- 1)** ota-onaning biri vafot etganida (vafot etganlik to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi taqdim etilgan taqdirda);
- 2)** fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan berilgan yolg‘iz ona to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi mavjud bo‘lganda;
- 3)** agar bolaning ota-onasidan biri chet el fuqarosi bo‘lsa;
- 4)** ota-onalardan biri sud tomonidan ota-onalik huquqidан mahrum qilinganida (sud qarorining nusxasi taqdim etilgan taqdirda);
- 5)** ota-onalardan biri sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilganda (sud qarorining nusxasi taqdim etilgan taqdirda);

6) ota-onalardan biri sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda (sud qarorining nusxasi taqdim etilgan taqdirda);

7) agar ota-onalardan biri O‘zbekiston Respublikasi hududidan o‘chirilganda va xorijda doimiy yashayotganda.

Ushbu masala yuzasidan ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘rtasida chiqqan har qanday nizolar sud tartibida hal qilinadi. Ota-onalardan biri o‘z bolasining xorijga chiqishiga rozi bo‘lmagan taqdirda, uning xorijga chiqish huquqini cheklash uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega. 16 yoshga to‘lmagan shaxslar nomidan ularning ota-onalari, vasiylari (homiylari), ushbu shaxslarni xorijga yuborayotgan tashkilotlarning vakillari tegishli arizalar bilan murojaat qiladilar. Ma’lumotlarni yig‘ish punkti taqdim etilgan hujjatlar asosida arizachining biografik ma’lumotlarini, elektron ko‘rinishdagi (16 yoshdan katta shaxslar uchun) **qo‘l barmoq izlarini yig‘adi**, shaxsni old tomonidan raqamli formatda **suratga oladi** va harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish uchun talabnama tuzib, so‘ng DPAga jo‘natadi. Ma’lumotlarni yig‘ish punkti fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga yangi harakatlanish hujjati berish chog‘ida ilgari berilgan hujjatni olib qo‘yadi va uni yo‘q qilish uchun DPAga jo‘natadi. DPM fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning tayyor harakatlanish hujjatini DFX orqali hujjat rasmiylashtirish uchun talabnama jo‘natgan ma’lumotlarni yig‘ish punktiga yoki diplomatik kanallar orqali ma’lumotlarni yig‘ish punktlariga yetkazib berish uchun Tashqi ishlar vazirligiga topshiradi. Ma’lumotlarni yig‘ish punktlari esa harakatlanish hujjatlarini egalariga berishni ta’minlashlari kerak. 16 yoshga to‘lmagan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning harakatlanish hujjati ularning ota-onalariga, vasiylari (homiylari)ga, harakatlanish hujjati berish haqida ariza bilan murojaat qilgan tashkilotlarning vakillariga beriladi.

Nazarda tuting: Agar fuqaroligi bo‘lmagan shaxs qo‘l barmoq izlari olinishidan bosh tortsa va ko‘zoynakda yoki bosh kiyimda suratga tushish istagidan qaytmasa, ma’lumotlarni yig‘ish punkti unga harakatlanish hujjati rasmiylashtirishni rad etish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalarida doimiy konsullik ro‘yxatiga olingan va vaqtincha O‘zbekiston Respublikasida bo‘ladigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar harakatlanish hujjatini olish va almashtirish uchun Tashqi ishlar vazirligiga murojaat etadilar. Xorijga doimiy yashash uchun belgilangan tartibda chiqqan, ammo konsullik muassasasida ro‘yxatga olinmagan va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lgan paytlarida harakatlanish hujjatlarini yo‘qotib qo‘ygan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar so‘nggi doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joylaridagi ma’lumotlarni yig‘ish punktlariga murojaat etadilar. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs harakatlanish hujjatini O‘zbekiston Respublikasi hududida yo‘qotib qo‘ygan taqdirda bu haqda o‘z vaqtida uni bergen ma’lumotlarni yig‘ish punktiga xabar berishi lozim. Mazkur ma’lumotlarni yig‘ish punkti qonunda nazarda tutilgan choralarini

ko‘rganidan keyin yangi harakatlanish hujjatini beradi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar boshqa davlat fuqaroligini olgan taqdirda harakatlanish hujjatini keyin DPAga yo‘q qilish maqsadida topshirish uchun o‘zлari kelgan joydagi ma’lumotlarni yig‘ish punktiga topshirishlari shart. Topib olingan harakatlanish hujjati ichki ishlar organlariga yoki O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasasiga topshirilishi lozim.

Vafot etgan shaxsning harakatlanish hujjati fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish idorasiga topshiriladi. Xorijda vafot etgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning harakatlanish hujjati O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan Tashqi ishlar vazirligiga jo‘natiladi. Ushbu idoralar esa hujjatni yo‘q qilish uchun DPAga yuboradi. Hibsga olingan yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning harakatlanish hujjati surishtiruv, tergov idoralari yoki sud tomonidan olib qo‘yiladi. Agar shaxs sudning hukmi bilan qamoqda qoldirilsa, uning harakatlanish hujjati Jazoni ijro etish Departamentiga jo‘natiladi. Shaxs qamoqdan ozod etilganida yoki jazo muddatini o‘tab bo‘lgach, unga harakatlanish hujjati tergov, sud idoralari yoki jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan qaytariladi. Hibsga olingan yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning muddati o‘tgan harakatlanish hujjatlari belgilangan tartibda yo‘q qilish uchun ma’lumotlarni yig‘ish punktiga jo‘natiladi. Tekshirish, verifikatsiya (solishtirib o‘qish) jarayonida noaniqliklar yoki chegara (migratsiya) belgilari, xorijiy vizalar, ruxsatnoma yozuvlari qalbakilashtirilgani alomatlari aniqlangan, belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilgan harakatlanish hujjatlari tegishli vazirliklar va idoralarga jo‘natish uchun chegara nazorati bo‘linmalari tomonidan olib qo‘yilishi mumkin. Majburiyatni bajarish maqsadida harakatlanish hujjatini garov sifatida qabul qilish va topshirish taqiqilanadi.

Quyidagi hollarda harakatlanish hujjati o‘z kuchini yo‘qotadi.

- amal qilish muddati tugaganida;
- harakatlanish hujjati blankasi yaroqsiz holga kelganida;
- sud ajrimi bilan amal qilishi to‘xtatib turilganida;
- egasi biror-bir davlat fuqaroligini qabul qilganida;
- uni rasmiylashtirish chog‘ida ataylab yolg‘on ma’lumotlar taqdim qilinganida.

Shtamplar va blankalar namunalari tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar, Tashqi ishlar, Sog‘liqni saqlash vazirliklari va Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan tasdiqlanadi.

Harakatlanish hujjatini berish uchun O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorda davlat boji yoki konsullik yig‘imlari undiriladi.

Jazoni ijro etish muassasasida jazoni o‘tab chiqqan, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagi ofatlar (yong‘in, joylarning qulashi) yuz

berganligi oqibatida harakatlanish hujjati yo‘qolganligi yoki yaroqsiz holga kelganligi to‘g‘risida ariza bilan murojaat etgan shaxs *javobgarlikka tortilmaydi*. Bunda, jazoni ijro etish muassasasida jazoni o‘tab chiqqan shaxs bu holatni tasdiqllovchi tegishli hujjatni arizaga ilova qiladi, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagi ofatlar yuz berganligi holatini tasdiqlash zarurati bo‘lganda, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlari tomonidan so‘rov asosida qonunchilik hujjatlarida belgilangan vakolatli idoralardan ma’lumotnama olinadi.

Sud ajrimi bilan amal qilishi to‘xtatib turilgan harakatlanish hujjati o‘rniga yangi harakatlanish hujjati berish tartibi:- Qidiruvda bo‘lgan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi respublika hududida ushlangan taqdirda sud ajrimi bilan amal qilishi to‘xtatib turilgan harakatlanish hujjati ichki ishlar organlari yoki chegara nazorati bo‘linmalari tomonidan ma’lumotlarni yig‘ish punktiga yo‘q qilish uchun jo‘natish maqsadida olib qo‘yiladi va unga harakatlanish hujjati olib qo‘yilganligi haqida dalolatnama beriladi. Vaqtincha xorijda bo‘lgan sud ajrimi bilan harakatlanish hujjatining amal qilishi to‘xtatib turilgan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi O‘zbekiston Respublikasiga qaytish guvohnomasini olish uchun konsullik muassasasiga murojaat etganda uning harakatlanish hujjati olib qo‘yiladi va unga bu haqida dalolatnama beriladi. Olib qo‘yilgan harakatlanish hujjati yo‘q qilish uchun Tashqi ishlar vazirligi orqali ma’lumotlarni yig‘ish punktiga yuboriladi. Sud ajrimi bilan harakatlanish hujjatining amal qilishi to‘xtatib turilgan ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga yangi harakatlanish hujjati ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o‘n kun ichida beriladi.

Yangi harakatlanish hujjatini olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- belgilangan shakldagi ariza;
- protsessual majburlov chorasi bekor qilinganligi haqida tasdiqlangan qaror nussasi;
- davlat boji to‘langanligi haqida kvitansiya.

Sud ajrimi bilan harakatlanish hujjatining amal qilishi to‘xtatib turilgan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortilmaydi. Tergov hibxonalar yoki vaqtincha saqlash hibxonalarida saqlanayotgan shaxsga yangi harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish ushbu shaxslar saqlanayotgan joyga borgan holda amalga oshiriladi.

Fuqaroligi bo‘limgan shaxsning harakatlanish hujjatidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik:

- fuqaroligi bo‘limgan shaxsning haqiqiy bo‘limgan harakatlanish hujjatidan foydalanganligi;
- harakatlanish hujjatini ataylab yaroqsiz holga keltirganligi;
- ehtiyyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo‘qotib qo‘yganligi;

- fuqaroligi bo‘lмаган шахслар о‘зларининг харакатланиш ҳуҷатларидан г‘аразли мақсадлари ю‘лида фойдалanganligi, со‘нг ularni yo‘qotib qo‘yanligi to‘g‘risida ariza bergenligi;
- boshqa shaxslarga tegishli harakatlanish ҳуҷатларидан foydalanganligi;
- g‘arazli yoki boshqa maqsadlarda harakatlanish ҳуҷatiga egalik qilganligi, uni yo‘q qilganligi, yaroqsiz holga keltirganligi, yashirganligi.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarida olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida “Fuqaroligi bo‘lмаган шахслarning biometrik harakatlanish ҳуҷati” mavzusini yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida pasport tizimini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF- 4262- sonli Farmoni 2-ilovasini to‘liq o‘rgananish va konspekt qilish.

Nazorat uchun savollar.

1-savol. Fuqaroligi bo‘lмаган шахслarning biometrik harakatlanish ҳуҷati qanday xujjat xisoblanadi?

2-savol. Sud ajrimi bilan amal qilishi to‘xtatib turilgan harakatlanish ҳуҷati o‘rniga yangi harakatlanish ҳуҷatini berish tartibi.

3-savol. Fuqaroligi bo‘lмаган шахсning harakatlanish ҳуҷatidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik:

23-Mavzu. Fuqaroligi bo‘lмаган шахслarning biometrik harakatlanish ҳуҷati

Seminar - 2 soat

Ushbu seminar mashg‘uloti, “**Blis-so‘rov**” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi. “Blis-so‘rov” (inglizcha “blis” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, o‘quvchi (tinglovchi)larning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiyqismlar mohiyatining ochib berilishini talab yetadigan savollarni ishlab chiqib, o‘quvchilar ye’tiboriga havola qiladi

Tinglovchilar berilgan savolga qisqa muddatda lo‘nda, aniq javob beradi

Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar tinglovchi berilgan savolga javob qaytaradi uning guruhdoshlari javobni to‘ldiradi, (biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim)

Metodni qo‘llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g‘oyalarning mohiyati tinglovchilar tomonidan og‘zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin. O‘qituvchi “Blis-so‘rov” metodini turli ko‘rinishda mashg‘ulotlarda qo‘llashi mumkin. Bu o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

Quyida “Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjati” mavzusi asosida jadval keltiriladi: **“Blis-so‘rov” jadvali**

Саволлар		Жавоблар
1.	фуқаролиги бўлмаган шахснинг биометrik harakatlanish hujjati	
2.	Chip?	
3.	Personallashtirish?	
4.	Verifikatsiyalash?	
5.	Ma’lumotlarni yig‘ish punkti?	
6.	harakatlanish hujjati olish uchun talabnoma?	
7.	harakatlanish hujjatini berish muddatlari?	
8.	harakatlanish hujjati beriladi?	

24-MAVZU. MIGRATSİYa VA FUQAROLIKNI RASMIYLAshTIRISH BILAN BOG‘LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UChUN JAVOBGARLIK.

Reja:

- 1. Pasport tizimi hamda O'zbekistonga kelish, ketish va tranzit o'tish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbazarliklar uchun javobgarlikni belgilanishi.**
- 2. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish jinoyati uchun javobgarlik holatini ko'rib chiqilishi.**



1-savol. Pasport tizimi hamda O'zbekistonga kelish, ketish va tranzit o'tish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbazarliklar uchun javobgarlikni belgilanishi.

Pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 5 yanvardagi PF-4262-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi nizom" - O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasportini rasmiylashtirish, berish, almashtirish, undan foydalanish tartibini, shuningdek, pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik tug'risidagi Kodeksida:

- pasportga ega bo'lishi shart bo'lgan fuqaroning pasportsiz yoki haqiqiy bo'lмаган passport bilan, vaqtincha yoki doimiy ro'yxatdan o'tmay yashashi, passportni ataylab yaroqsiz holga keltirganligi, shuningdek passportni ehtiyyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo'qotib qo'yganligi;
- fuqarolar o'z passportlaridan g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanganligi, so'ng ularni yo'qotib qo'yganligi to'g'risida ariza bergenligi, shuningdek boshqa fuqarolarga tegishli passportlardan foydalanganligi;
- passport tizimi qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan fuqarolarning pasportsiz yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujatlarsiz yashashiga yo'l qo'yganligi, shuning barobarida fuqarolarning o'zlari egallab turgan joylarda pasportsiz yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujatlarsiz, vaqtincha yoki doimiy ro'yxatdan o'tmagan yoxud turgan joyi bo'yicha hisobga olinmagan shaxslarning yashashiga yo'l qo'yganligi;
- fuqarolarning passportlarini noqonuniy olib qo'yish yoki passportlarni garov sifatida qabul qilish;

- chegara zonasiga kirish yoki bu zonada yashash, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo‘lishi vaqtincha cheklangan joylarga kirish va bu joylarda bo‘lish qoidalarini buzish;

- g‘arazli yoki boshqa tuban maqsadlarda pasportni egallab olish, xuddi shuningdek uni yo‘q qilish, yaroqsiz holga keltirish, yashirish uchun ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

Pasport tizimi qoidalarini buzish (223-modda). Fuqaroning pasportsiz yoki haqiqiy bo‘lmagan pasport bilan, doimiy propiskasiz yoxud turgan joyi bo‘yicha hisobga turmasdan yashashi, pasportni qasddan yaroqsizlantirishi yoki ehtiyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo‘qotib qo‘yishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarosining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning haqiqiy bo‘lmagan yashash guvohnomasi bilan yashashi, vaqtincha yoki doimiy propiskasiz yashashi, yashash guvohnomasini qasddan yaroqsizlantirishi, ehtiyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo‘qotib qo‘yilganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

223-moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ayni bir huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Pasport tizimi qoidalariga rioya etish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar tomonidan shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz yashashiga yo‘l qo‘yilishi, xuddi shuningdek fuqarolar tomonidan o‘z turar joylarida shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz, vaqtincha yoki doimiy propiskasiz yoxud turgan joyi bo‘yicha hisobda turmasdan yashashiga yo‘l qo‘yilishi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxs o‘n olti yoshga to‘lishi munosabati bilan o‘z vaqtida pasport olmaganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilmaydi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs o‘n olti yoshga to‘lishi munosabati bilan yashash guvohnomasini o‘z vaqtida olmaganligi uchun ma’muriy javobgarlikka ham tortilmaydi.

Pasportdan g‘ayriqonuniy foydalanish (223¹-modda). Fuqarolarning yo‘qolganligi to‘g‘risida o‘zlari ariza bergan o‘z pasportlaridan, shuningdek boshqa fuqarolarga tegishli bo‘lgan pasportlardan g‘arazli maqsadlarda foydalanishi uchun bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Fuqarolardan pasportlarini qonunga xilof ravishda olib qo'yish yoki pasportlarni garovga olish (223³-modda). Fuqarolardan pasportlarini qonunga xilof ravishda olib qo'yish yoki pasportlarni garovga olish (*ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 5 yanvardagi PF-4262-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi nizomning 33-bandi, 57-bandi beshinchi xatboshisi*)-mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Fuqaro o'z pasportini avaylab-asrashi shart. Pasport yo'qotilgani haqida fuqaro ichki ishlar organlariga yoki O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatiya vakolatxonasida yoxud konsullik muassasasiga darhol xabar qilishga majburdir. Ular esa fuqaroning iltimosiga binoan, unga belgilangan namunadagi ma'lumotnomha beradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilganidan tashqari fuqaroning pasportini tortib olish, shuningdek pasportni garov tariqasida qoldirish va garovga olib qolish taqiqlanadi. Pasportni ataylab buzish - hujjatdan o'z vazifasida foydalanish mumkin bo'lmay qolishi natijasida yoki undan foydalanish (hujjatning muhim qismiga siyoh to'kilgan, hujjatning bir qismi yirtib olingen hamda yo'qotilgan va hokazo) ancha qiyinlashadigan darajada zarar keltirishdir. Fuqarolarning o'z pasportlaridan yoki boshqa fuqarolarga tegishli pasportlardan g'arazli maqsadda foydalanishi, odatda, biror manfaat ko'rish: garov, qayd etilishi va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Ushbu moddalar bo'yicha ma'muriy huquqbazarlik ishlari Ichki ishlar organlari tomonidan ko'rib chiqiladi (248-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga binoan, respublikada bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar qonunlarga, jamoat tartibiga riousa qilishlari, hokimiyat vakillarining qonuniy talablarini bajarishlari lozim. O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan umumiy asosda (alohida qoidalari faqat tegishli imtiyoz va immunitetdan foydalanuvchi shaxslarga nisbatan ishlatiladi) ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Jamoat tartibini saqlashni ta'minlash, xorijiy fuqarolar uchun O'zbekiston Respublikasida bo'lgan vaqtlarida va respublika hududi orqali o'tayotganlarida normal sharoit yaratib berish maqsadida xorijiy fuqarolar hamda fuqaroligi bo'limgan shaxslarga muayyan va majburiy qoidalari o'rnatiladi. Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-sod qarori bilan tasdiqlangan "Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalari" hamda "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o'tishlari qoidalari"ni buzilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish (225-modda).

Chet el fuqarosining yoki fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzishi, ya’ni haqiqiy bo‘lмаган hujjatlar bilan yashashi, vaqtincha propiskaning, ko‘chishning yoki yashash joyini tanlashning belgilangan tartibiga rioya etmaganligi, bo‘lish muddati tugagach chiqib ketishdan bo‘yin tovlashi, xuddi shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tish qoidalariga o‘n sutkagacha rioya etmaganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Chet el fuqarosining yoki fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini o‘n sutkadan ortiq, ammo o‘ttiz sutkadan ko‘p bo‘lмаган muddatga buzishi, - bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Chet el fuqarosining yoki fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini o‘ttiz sutkadan ortiq muddatga buzishi, - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishi qoidalarida nazarda tutilgan chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni qabul qilish tartibini mansabdor shaxs tomonidan buzilishi uchun mansabdor shaxsga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni xususiy ishlar bilan O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilgan shaxs tomonidan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarning vaqtincha propiskadan o‘tishini, shuningdek ularning bu yerda bo‘lishning belgilangan muddati o‘tgach chiqib ketishini ta’minalash yuzasidan choralar ko‘rilmaganligi, xuddi shuningdek shaxs tomonidan xususiy ishlar bilan kelgan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga uy-joy maydoni, transport vositalarini berish yoxud boshqa xizmatlar ko‘rsatish, agar bu O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalari buzilishiga olib kelishi oldindan ayon bo‘lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilmaydi.

MJtKning 225-moddasining birinchi - beshinchi qismlarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklar uchun - temir yo‘l vokzallari va aeroportlardagi bo‘linmalarning, ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlarining (boshqarmalarining) boshliqlari va boshliq o‘rnibosarlari Ichki ishlar organlari nomidan ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga va ma’muriy jazo qo‘llashga haqli.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzganligi uchun 225-moddaning birinchi - uchinchi qismlarida belgilangan jarimani to‘lamagan taqdirda, ular keyinchalik O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi bir yil muddatga cheklangan holda O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuboriladi.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxs O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzishni ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etgan taqdirda, ular keyinchalik O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi uch yil muddatga cheklangan holda O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuboriladi.

Xorijiy fuqaro: O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish ularning O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi keyinchalik bir yildan uch yilgacha muddatga cheklangan holda, majburiy yoki nazorat ostida mustaqil ravishda chiqib ketishidan iborat. Ma’muriy tarzda chiqarib yuborish tuman (shahar) ma’muriy sudi tomonidan qo‘llaniladi.

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish MJtKning 51², 51⁸, 51⁹, 56, 57, 58-moddalarida, 61¹-moddasi birinchi qismida, 94, 165¹, 184², 184³, 189, 189¹, 201, 202¹, 224¹-moddalarida, 225-moddasi yettinchi va sakkizinchi qismlarida, 239, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan huquqbazarliklar sodir etilgan taqdirda qo‘llanilishi mumkin **(29¹-modda. Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish).**

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish to‘g‘risidagi sud qarorini bajarmaslik (225¹-modda).

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar tomonidan ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish to‘g‘risida qabul qilingan sud qarorlarini bajarmaslik uchun bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoxud o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Chet elga chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini buzish (226-modda).

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan chet elga chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishni so‘rab murojaat etishning belgilangan tartibini buzganligi uchun qonunga xilof ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlarni musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Belgilangan tartibni buzgan holda chet elga chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish uchun mansabdar shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish (346²-modda).

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish mazkur shaxslar qaysi chet davlat hududiga chiqarib yuborilayotgan bo‘lsa, o‘sha chet davlatning hokimiyat vakiliga ularni rasmiy ravishda topshirish yoxud chiqarib yuborilayotgan shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan nazorat ostida mustaqil ravishda chiqib ketishi yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Agar chiqarib yuborilayotgan shaxsni chet davlat vakiliga topshirish O‘zbekiston Respublikasining mazkur davlat bilan tuzilgan shartnomasida nazarda tutilmagan bo‘lsa, chiqarib yuborish O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mitasi tomonidan belgilanadigan joyda amalga oshiriladi.

Chet el fuqarosini yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan o‘tkazish punkti orqali chiqarib yuborish to‘g‘risida mazkur shaxs qaysi chet davlat hududiga (hududi orqali) chiqarib yuborilayotgan bo‘lsa, o‘sha chet davlatning hokimiyat vakillari, agar O‘zbekiston Respublikasining ushbu davlat bilan tuzilgan shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, xabardor qilinadi.

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ma’muriy tarzda chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish dalolatnama bilan rasmiylashtiriladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ma’muriy huquqbazarliklarning ob’ekti boshqaruvning belgilangan tartibi hisoblanadi. **Ob’ektiv tomoni** ham harakat, ham harakatsizlik shaklida ifodalanadi. **Sub’ekt-fuqarolar** va mansabdar shaxslar. **Sub’ektiv tomoni** qilmishning qasd yoki ehtiyoitsizlikdan sodir etilganligi bilan belgilanadi.

2-savol. Qonunga xi洛f ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish jinoyati uchun javobgarlik holatini ko‘rib chiqilishi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodesida chet elga chiqish va O‘zbekiston Respublikasiga kirish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilab berilgan.

Qonunga xi洛f ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish (JK 223-moddasi).

Belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o‘tish —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) chegarani yorib o‘tish yo‘li bilan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;
- g) chet elga chiqishi uchun maxsus kelishuv talab qilinadigan mansabdor shaxs tomonidan;
- d) O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi belgilangan tartibda cheklangan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, - besh yildan o‘n yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida nazarda tutilgan siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun kirish hujjatlarini tegishli darajada rasmiylashtirmasdan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadilar. Jinoyatning bevosita **ob’ekti** chet elga chiqish va O‘zbekiston Respublikasiga kirishning qonunda belgilangan tartibi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4079-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomi» hamda xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari va tranzit o‘tishlari tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi 408-son qarori bilan tasdiqlangan «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari va O‘zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibi», «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlari qoidalari», «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari qoidalari»da belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o‘tish bilan bog‘liq munosabatlarni jinoyat-huquqiy qo‘riqlashdan maqsad fuqarolarning ko‘chib yurish erkinligi

bilan bog‘liq konstitusiyaviy huquqlarini amalga oshirishlarini tartibga solish va yetarli sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi davlat va jamiyat suvereniteti hamda xavfsizligini ta’minlash uchun respublikadan chiqish va unga kirish, davlat chegaralaridan o‘tish tartibini belgilab bergen. Shundan kelib chiqib, davlat chegarasiga tajovuz qilish - bu, avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining bir me’yordagi tartibiga tajovuz qilish deb topiladi.

Jinoyat **ob’ektiv tomondan** qonunda belgilangan tartibni buzib, chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirishda ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish deganda, transport vositasi (avtomashina, kema, samolyot, velosiped, ot va boshqa mexanik hamda transportning boshqa turlari) yordamida davlat chegarasini kesib o‘tish tushuniladi.

Davlat chetarasidan o‘tish deganda, uni piyoda kesib o‘tish tushuniladi.

Davlat chetarasini beltilantan tartibni buztan holda kesib o‘tish deganda, quyidagi harakatlardan birini sodir etish orqali o‘tish tushuniladi: tartibni buzish orqali (masalan, ruxsat berilgan chegara punktlarini aylanib o‘tish) yoki tegishli ruxsati bo‘lmay turib kesib o‘tish (masalan, chegaradan o‘tish huquqini beruvchi haqiqiy hujjatlar bo‘lmagan hollarda chegarani kesib o‘tish).

Davlat chegarasini faqat g‘ayriqonuniy kesib o‘tish ijtimoiy xavfli deb topiladi va sharhlanayotgan moddaning tarkibini tashkil etadi.

Davlat chegarasini ruxsat punktlarini aylanib o‘tib yoki ruxsat punktlaridan yoxud chegara tashqarisiga (O‘zbekistondan) yoki O‘zbekistonga kirib kelayotgan, turidan qat’i nazar (ya’ni havo, SUV, yerda yuradigan transport va hokazo), transport vositasida belgilangan qoidalarni buzib kesib o‘tishni davlat chegarasidan o‘tish tartibini buzish deb hisoblash lozim.

Soxta, muddati o‘tgan, boshqa shaxs nomiga rasmiylashtirilgan, noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan hujjatlardan foydalangan holda davlat chegarasini kesib o‘tish tetishli ruxsatnomasiz davlat chegarasini kesib o‘tish deb topiladi. *Masalan*, Uzbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan unga chegaradan o‘tishga ruxsat berilganligi haqida uning pasportiga tegishli yozuv kiritilmagan yoki soxta yozuvdan foydalangan holda chegaradan o‘tish sharhlanayotgan modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda aybdorning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishi yoki unga kirayotganligi ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, agar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi belgilangan tartibni buzgan holda O‘zbekiston Respublikasidan chiqqan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasiga qaytib kirishi ham g‘ayriqonuniy deb topilishi lozim.

Bunda shuni ham nazarda tutish lozimki, agar noqonuniy kirish yoki chiqish, shuningdek, chegarani kesib o‘tish soxta hujjatlardan foydalangan holda amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda bu qilmish jinoyatlar majmui tariqasida JK 223- va 228-moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorning harakatlari agar u oxirgi zarurat holatida sodir etilgan bo‘lsa jinoyat sifatida e’tirof etilmaydi.

Jinoyat davlat chegarasi kesib o‘tilayotgan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Quyidagilar davlat chegarasini kesib o‘tish vaqtি deb topiladi:

a) aybdor faktik jihatdan davlat chegarasini kesib o‘tishi yoki o‘tmasligidan qat’i nazar, davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari nazaratidan muvaffaqiyatli o‘tish, masalan, samolyot uchishiga qadar shaxs tomonidan aeroport chegara nazaratidan o‘tish tugallangan jinoyat deb topiladi. Xuddi shunday holatda, shaxs o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra chegara nazaratidan o‘ta olmagan hollarda, uning harakatlari O‘zbekiston hududiga g‘ayriqonuniy kirish yoki undan chiqishga suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim;

b) davlat chegarasi orqali o‘tkazishning belgilangan punktlaridan tashqarida davlat chegarasi chizig‘i (tegishli yuza)ni faktik jihatdan kesib o‘tish.

Jinoyat **sub’ektiv** tomondan to‘g‘ri kasd orqali sodir etiladi. Shaxs o‘z harakatlarining g‘ayriqonuniyligini biladi, ya’ni O‘zbekiston_Respublikasi hududini hujjatsiz, soxta hujjatlardan foydalangan holda yoxud tegishli ruxsatnomasiz kesib o‘tayotganligini anglaydi va buni xohlaydi.

Sub’ektiv tomonning qo‘srimcha belgilari - **motiv** va **maqsad** turlicha bo‘lishi mumkin. Agar aybdor shaxs davlat chegarasidan o‘tish qoidalarini O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyat sodir etish (masalan, josuslik, qo‘poruvchilik, terrorizm va boshqalar) maqsadida kesib o‘tsa, u holda uning harakatlari jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Mazkur jinoyat ehtiyoitsizlik orqasida (masalan, mo‘ljalni yo‘qotish tufayli chegarani kesib o‘tish) sodir etilganda jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi. Davlat chegarasi majburiy ravishda kesib o‘tilgan (masalan, tabiiy ofat, halokat va boshq.) hollarda ham qilmishda sharhlanayotgan jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmaydi.

16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs yoki chet el fuqarosi mazkur **jinoyat sub’ekti** bo‘lishi mumkin.

Chet elga chiqish yoki g‘ayriqonuniy ravishda O‘zbekiston Respublikasiga kirish:

- a) chegarani yorib o‘tish yo‘li bilan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;

g) chet elga chiqishi uchun maxsus kelishuv talab qilinadigan mansabdor shaxs tomonidan;

d) O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi belgilangan tartibda cheklangan shaxs tomonidan sodir etilganida, aybdorning qilmishi O‘zbekiston Respublikasi JK 223-moddasining 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 223-moddasi 3-qismiga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida nazarda tutilgan siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun kirish hujjatlarini tegishli darajada rasmiylashtirmsandan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadilar». Konstitusyaning 93-moddasi 1-qismi 22-bandiga asosan, fuqarolik va siyosiy boshpana berish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan hal etiladi.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilangan siyosiy boshpana berish to‘g‘risidagi qoidaga binoan, chiqish hujjatlarini tegishli tartibda rasmiylashtirmagan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga nisbatan sharhanayotgan modda qo‘llanilmaydi.

Quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berilmaydi: agar shaxs O‘zbekiston Respublikasida jinoyat deb topiluvchi qilmishni sodir etgani uchun xorijda qidirilayotgan bo‘lsa yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti maqsad va prinsiplariga qarshi harakatlar sodir etganlikda aybdor bo‘lsa; jinoyat ishi bo‘yicha ayblanuvchi sifatida jalb etilgan yoki unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi mavjud bo‘lsa; u ta’qib etilmaydigan uchinchi davlatdan kelgan bo‘lsa; bila turib yolg‘on ma’lumotlar bergen bo‘lsa; u ta’qib etilmaydigan uchinchi davlatning fuqaroligiga ega bo‘lsa. Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalari buzganlik uchun jinoiy javobgarlik olib tashlandi, ma’muriy javobgarlik sanksiyalari yengillashtirildi. Shuningdek, ushbu turdagilari ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqilishida tezkorlikni ta’minlash maqsadida ma’muriy ish (jarima qismi)ni ko‘rib chiqish vakolati sudlardan olinib, ichki ishlar organlariga berildi. Respublikamizga turli yo‘nalishlarda kirib kelgan xorijiy fuqarolar bo‘lish qoidalari turli muddatlarda buzganda ularga nisbatan bir xildagi ma’muriy chora qo‘llanilgan bo‘lsa, endilikda ularning qoidabuzarlik turi va muddatiga qarab ularni ma’muriy javobgarlikka tortish tartibi belgilab qo‘yildi. Shu bilan birga, ularga ma’muriy choralarini qo‘llashdagi ortiqcha ovoragarchiliklarni oldi olindi va respublikamiz aholisi, qo‘shti bo‘lgan davlat fuqarolari va o‘zoq xorijiy davlatlar fuqarolariga yengillik hamda qulaylik yaratish bilan birga ularning respublikamizga turli yo‘nalishlarda kelishlariga va turizm salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Mustaqil ta'limning mazmunini tinglovchilar ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta'lim jarayonida yanada chuqurroq o'zlashtirishlari va navbatdagi mashg'ulotga mo'ljallangan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 5 yanvardagi PF-4262-sonli Farmonini to'liq o'rghanadilar va konspekt qiladilar.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlari Ichki ishlar organlari tomonidan ko'rib chiqilishi;
2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalari;
3. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o'tish qoidalari;
4. Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish tartibi;
5. Chet el fuqarosining yoki fuqaroligi bo'limgan shaxsning O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalari buzish;
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida nazarda tutilgan siyosiy boshpana huquqidan foydalanish;
7. Davlat chegarasini kesib o'tish vaqt;
8. Chet elga chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini buzish.

24-Mavzu. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq huquqbazarliklar uchun javobgarlik.

Seminar – 2 soat

Ushbu o'quv mashg'uloti "**Suhbat**" interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

Mashg‘ulotda o‘qituvchi va o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar o‘rtasida dialogik xarakterga ega savol-javobga asoslanuvchi ushbu metod negizini jonli muloqot tashkil etadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo‘sishimcha savollar berish, o‘quvchi (tinglovchi va kursant)ning fikrlashga undash imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. Ta’limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o‘qituvchi va o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar o‘rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi.

Metodni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

O‘qituvchi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larni metod mohiyati bilan tanishtiradi

O‘qituvchi mavzu yuzasidan o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar savollar bilan tanishtiriladi

O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masala mohiyatini yoritishga kirishadi (agar o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; bordi-yu, javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o‘qituvchi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)ga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo‘sishimpl beradi)

O‘rganilayotgan masalaning mohiyati to‘la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi

O‘qituvchi o‘quvchi (tinglovchi va kursant)larning faoliyatini baholab, mashg‘ulotga yakun yasaydi

O‘quv mashg‘uloti savollari:

- 1-savol. Pasport tizimi qoidalarini buzish (MJtK 223-modda).
- 2-savol.O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish (MJtK 225-modda).
- 3-savol.Chet elga chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini buzish (MJtK 226-modda).
- 4-savol.Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish (MJtK 346-modda).
- 5-savol.Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish (JK 223-moddasi).

24-Mavzu. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik.

Amaliy– 2 soat

25-MAVZU. BUKLET YoKI PLASTIK KO'RINISHIDAGI BIOMETRIK HUJJATLARNI HISOBINI YuRITISH VA YO'Q QILISH TARTIBI.

Ma'ruza (2soat)

Reja:

- 1. Biometrik hujjatlarning hisobini yuritish va yo'q qilish xususiyatlari.**
 - 2. «Biopasport – yo'q qilish» dasturidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.**
- 1-savol.Biometrik hujjatlarning hisobini yuritish va yo'q qilish xususiyatlari.**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2022 yil 11 noyabr kunidagi 492-son buyrug'i bilan "Buklet yoki plastik ko'rinishidagi hujjatlarni yo'q qilish tartibi" tasdiqlandi.

Unga ko'ra MvaFRBda buklet yoki plastik ko'rinishidagi biometrik xujjatlarning hisobini yuritish va yo'q qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalar va ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi.

Biometrik hujjatlarning hisobini yuritish. Biometrik hujjatlarning blanklari qat'iy hisobi yuritiladigan hujjatlar hisoblanadi. Biometrik hujjatlarning umumiy hisobi Davlat personallashtirish markazi tomonidan yuritiladi.



Texnik nosoz yoki ma'lumotlarda xatolik bilan personallashtirilgan biometrik hujjatlarning hisobini yuritish va yo'q qilish Davlat personallashtirish markazi tomonidan amalga oshiriladi. Ular:

-qabulini qayd etish jarayonida «buzilgan yoki talablarga to'g'ri kelmaydi»;

-egasiga berish jarayonida «buzilgan yoki talablarga to'g'ri kelmaydi», «hujjatdagi ma'lumotlarida xato» va «hujjat chipini o'qishida xato» holatidagi biometrik hujjatlardir.

Texnik nosoz yoki ma'lumotlarda xatolik bilan personallashtirilgan biometrik hujjatlarni biometrik pasport tizimida qayd etish, ularni aniqlanish holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlarining biometrik ma'lumotlarni yig'ish punktlari tomonidan qabulini qayd etish yoki egasiga berish jarayonida amalga oshiriladi.

O‘rnatilgan tartibda amalda emas deb topilgan yoki amal qilish muddati tugagan biometrik hujjatlar hisobini yuritish va yo‘q qilish migratsiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ular:

-yozuvlarda noaniqliklar borligi, biografik ma’lumotlarini o‘zgartirganlik va amal qilish muddati tugaganligi sababli almashtirilgan;

-hujjat blankining ma’lumotlar, yashash joyi yoki vizalar uchun mo‘ljallangan varaqlari to‘lganligi hamda blank yaroqsiz holga kelganligi sababli almashtirilgan;

-O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarilgan va fuqarolikni yo‘qotganligi, shuningdek asossiz berilganligi sababli bekor qilingan;

-egasi belgilangan muddatda olib ketmagan hamda egasi vafot etgan;

-biografik va biometrik (raqamli fotosurat va barmoq izlari) ma’lumotlarida xatolik aniqlangan biometrik hujjatlardir.

Biometrik hujjatlarning hisobini olib borish, saqlash va ularni yo‘q qilinganligi haqidagi hujjatlarni yuritish ishlari belgilangan tartibda, to‘liq ta’minlanishi shart.

Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimida qayd etish va hisobini yuritish punktlardagi biometrik pasport tizimiga ulangan kompyuter qurilmalariga o‘rnatilgan va sozlangan O‘zbekiston Respublikasi «Bio – pasport» avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasi tarkibiga kiruvchi «Biopasport –yo‘q qilish» dasturi orqali amalga oshiriladi.

Biometrik hujjatlarni yo‘q qilishga tayyorlash va yo‘q qilish. Texnik nosoz yoki ma’lumotlarda xatolik bilan personallashtirilgan biometrik hujjatlar dasturga kiritilib, tegishli amallar bajarilishi natijasida 2 nusxada belgilangan shakldagi «Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar ro‘yxati – «O‘ram – PACKING» chop etiladi.

Ro‘yxat migratsiya xizmati boshlig‘i (o‘rinbosari) tomonidan imzolanadi va gerbli muhr bilan tasdiqlanadi.

Ro‘yxatga 1 tadan 50 tagacha biometrik hujjat kiritilishi mumkin.

Ro‘yxatda qayd etilgan biometrik hujjatlar ro‘yxatning bir nusxasi bilan birga qog‘oz qutiga (tayyor biometrik hujjatlar keltirilgan quti) joylanadi.

Biometrik hujjatlar joylangan qutilar, migratsiya xizmati bevosita bo‘ysunuvchi ichki ishlar organi boshlig‘i (o‘rinbosari) tomonidan imzolangan aloqa xati bilan, reestr asosida O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va komunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat feld’egerlik xizmati yoki O‘zbekiston Respublika Maxsus aloqa bog‘lamasi orqali Davlat personallashtirish agentligiga yuboriladi.

Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar joylangan qutilarni Davlat feld’egerlik xizmati yoki Maxsus aloqa bog‘lamasi xodimlariga topshirganlik yuzasidan tuzilgan reestrlar «Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlarni topshirishni qayd etish kitobi»ga qayd etiladi.

Davlat feld’egerlik xizmati yoki Maxsus aloqa bog‘lamasi ichki ishlar organlari bilan tuzilgan shartnomada doirasida migratsiya xizmatlari yoki ular bevosita bo‘ysunuvchi ichki ishlar organlaridan yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar joylangan qutilarni qabul qilib oladi va Davlat personallashtirish agentligiga yetkazadi.

O‘rnatilgan tartibda amalda emas deb topilgan yoki amal qilish muddati tugagan biometrik hujjatlarni dasturga kiritib, tegishli amallarni bajarish natijasida 1 nusxada ro‘yxat chop etiladi.

Ro‘yxat migratsiya xizmati boshlig‘i tomonidan imzolanadi va gerbli muhr bilan tasdiqlanadi.

Yo‘q qilishga tayyorlangan, texnik nosoz yoki ma’lumotlarda xatolik bilan personallashtirilgan biometrik hujjatlar har oyda kamida bir marotaba Davlat personallashtirish agentligiga yuboriladi.

Yo‘q qilishga tayyorlangan, o‘rnatilgan tartibda amalda emas deb topilgan yoki amal qilish muddati tugagan biometrik hujjatlarni yo‘q qilish ishlari migratsiya xizmatlari tomonidan har oyda kamida bir marotaba amalga oshiriladi.

Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar tegishliligi bo‘yicha Davlat personallashtirish agentligiga yuborilgunga yoki punktda yo‘q qilingunga qadar, migratsiya xizmatida maxsus temir shkaf yoki seyflarda saqlanadi.

Dasturda va «Yo‘q qilingan biometrik hujjatlarni qayd etish kitobi»da qayd etilgan, o‘rnatilgan tartibda amalda emas deb topilgan yoki amal qilish muddati tugagan biometrik hujjatlar yoqish yo‘li bilan yo‘q qilinadi.

Biometrik hujjatlarni yoqish yo‘li bilan yo‘q qilish jarayonini aholi va atrof muhitga zarar yetkazmasdan, shuningdek yong‘in xavfsizligi qoidalariга rioya etgan holda amalga oshirilishiga shart-sharoitni migratsiya xizmati bevosita bo‘ysunuvchi ichki ishlar organi boshlig‘i ta’minlaydi.

Biometrik hujjatlarni yo‘q qilishga oid hujjatlarni yuritish.

Texnik nosoz yoki ma’lumotlarda xatolik bilan personallashtirilgan hamda o‘rnatilgan tartibda amalda emas deb topilgan yoki amal qilish muddati tugagan biometrik hujjatlarni yo‘q qilish bo‘yicha tuzilgan ro‘yxatlar «Yo‘q qilingan biometrik hujjatlar ro‘yxatini qayd etish kitobi»ga qayd etiladi va har chorakda, ro‘yxat tuzilgan sana ketma-ketligi bo‘yicha tartiblangan holda alohida yig‘majildga tikiladi.

Biometrik hujjatlarni yo‘q qilishga oid hujjatlar migratsiya xizmatlarida mavjud arxivda, agar ular bo‘lmasan taqdirda tegishli ichki ishlar organining arxivida, maxsus temir shkaf yoki seyflarda saqlanish muddati tugagunga qadar saqlanadi.

«Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlarni topshirishni qayd etish kitobi», «Yo‘q qilingan biometrik hujjatlar ro‘yxatini qayd etish kitobi» hamda ro‘yxatlar tikilgan yig‘majidlarning **saqlanish muddati 10 yil**.

Biometrik hujjat egasining oxirgi doimiy ro‘yxat manzili bo‘yicha migratsiya xizmati tomonidan yo‘q qilinadi.

Agar biometrik hujjat boshqa ichki ishlar organ tomonidan berilgan bo‘lsa, yo‘q qilinganligi to‘g‘risida biometrik hujjatni bergen organga xabar berilmaydi.

Yo‘q qilingan biometrik hujjatlar haqidagi ma’lumotlar biometrik pasport tizimida elektron ko‘rinishda qayd etib boriladi.

Dastur orqali yo‘q qilingan biometrik hujjatlar haqidagi ma’lumotlarni istalgan vaqtida olish imkoniyati yaratilgan.

Dasturdan uslubiy ko‘rsatma talablariga qat’iy rivoja qilgan holda foydalanish shart.

Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlarning qat’iy hisobini yuritish, ularni turlarga ajratish, saqlash, biometrik pasport tizimida qayd etish, dasturga kiritish, tegishliligi yuzasidan Davlat personallashtirish markaziga yuborish yoki yo‘q qilish, shuningdek ularga nisbatan hujjatlarni yuritish ishlarini o‘rnatalgan tartibda amalga oshirishga migratsiya xizmatlari boshliqlari bevosita mas’uldirlar.

Mazkur talablarni buzgan migratsiya xizmatining mas’ul xodimlari (raxbarlari) qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

2-savol. «Biopasport – yo‘q qilish» dasturidan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari.

O‘zbekiston Respublikasi «Bio–pasport» avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasi tarkibiga kiruvchi «Biopasport–yo‘q qilish» dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi tomonidan personallashtirilgan, holatidan kelib chiqqan holda yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining biometrik pasportlari hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlari haqidagi ma’lumotlarni biometrik pasport tizimida qayd etish, shuningdek «Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar ro‘yxati – «O‘ram–PACKING»ni chop etish imkonini beradi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi va biometrik pasport tizimiga dasturiy xizmat ko‘rsatishga mas’ul pudratchi tashkilotning mutaxassis xodimlari tomonidan o‘rnataladi va sozlanadi.

Ushbu dastur biometrik ma'lumotlarni yig'ish punktlaridagi biometrik pasport tizimiga ulangan kompyuter qurilmalariga o'rnatiladi.


Dasturdan punkt bilan Davlat personallashtirish agentligi oralig'ida tashkil etilgan ajratilgan aloqa kanali ishchi holatda bo'lganda (online) foydalanish mumkin.

«Biopasport – yo'q qilish» dasturidan foydalanish.

Dastur kompyuterning ishchi stolida joylashgan maxsus yorliq yordamida yuklanadi (1-rasm).




Dasturni faqatgina biometrik pasport tizimida ishlash imkoniyatini beruvchi maxsus elektron kalit (token) orqali ishga tushirish mumkin (2-rasm).




2-rasm

Dasturga kirish uchun kompyuter qurilmasiga o'rnatilgan elektron kalitga tegishli maxsus kod (parol) kiritiladi (3-rasm). *Eslatma:* punkt operatorlarining o'zlariga tegishli bo'lmagan elektron kalitdan foydalanishlari qat'iyan man qilinadi. 3-rasm




Elektron kalit kodini (parol) 3 marotaba noto'g'ri kiritish kalit ishchi holatining yo'qolishiga (blokirovka holatiga tushishiga) olib keladi. Elektron kalit ishchi holatini tiklash Ichki ishlar vazirligining tegishli me'yoriy hujjati talablari asosida amalga oshiriladi. Dasturning asosiy oynasi quyidagi ko'rinishga ega bo'lib (4-rasm).




4-rasm

Dastur yuklanganda «Yo'q qilishni tasdiqlash» oynasi joriy oyna tarzida ochiladi (5-rasm).



5-rasm

O'rnatilgan tartibda amalda emas deb topilgan yoki amal qilish muddati tugagan biometrik hujjatlarni yo'q qilish haqidagi ma'lumotlarni dasturga kiritish uchun «Almashtirilganlar» oynasidan foydalaniadi (6-rasm).



6-rasm

«Almashtirilganlar» oynasi orqali kiritilgan biometrik hujjatlarni yo'q qilish ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.


«Yo'q qilishni tasdiqlash» oynasi orqali yo'q qilinishi lozim bo'lgan biometrik hujjatlar haqidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Ushbu oyna orqali kiritilgan ma'lumotlarni «Almashtirilganlar» va «DPA tomonidan brak» oynalari orqali faqat bir marotaba yo'q qilish mumkin.

Ma'lumotlarni kiritishni ikki usulda amalga oshirish mumkin.

Birinchi usul – biometrik hujjatlarning seriya raqamlarini «Yo'q qilishni tasdiqlash» oynasining tegishli yacheykalariga klaviatura qurilmasi yordamida qo'lda kiritish.

Ikkinci usul – DESKO chip o'qish klaviaturasining maxsus qismidan biometrik hujjatlarning mashinada o'qitiluvchi maydonini o'tkazish orqali «Yo'q qilishni tasdiqlash» oynasining tegishli yacheykalariga biometrik hujjatlarning seriya raqamlarini avtomatik ravishda kiritish (7-rasm).




7-rasm

Yo'q qilinishi lozim bo'lgan biometrik hujjatlar haqidagi ma'lumotlarni dasturga kiritishda ikkala usul ham bir xil natija beradi.


Dasturga bir urinishda 50 tagacha yo'q qilinishi lozim bo'lgan biometrik hujjat haqidagi ma'lumotni kiritish mumkin.

50 tadan ortiq biometrik hujjat haqidagi ma'lumot kiritilganda quyidagi ogohlantirish oynasi yuzaga keladi (8-rasm).



8-rasm


Dasturda bir biometrik hujjatni ikki marotaba ro‘yxatga kiritish imkoniyati chegaralangan (9-rasm).



9-rasm

«Yo‘q qilishni tasdiqlash» oynasi orqali biometrik hujjatlarning seriyasini kiritishda faqat lotin alifbosidagi xarflar qabul qilinadi.

«Yo‘q qilishni tasdiqlash» oynasi orqali biometrik hujjatlarning seriyasini kiritishda yettita raqamgacha yaxlitlash tizimi joriy qilingan bo‘lib, yettitadan kam raqamlar kiritilgan taqdirda, dastur tomonidan avtomatik ravishda raqamlar oldiga nol sonlari qo‘yiladi va yettita raqam ko‘rinishga keltiriladi (10 va 11-rasmlar).



10-11-rasm

50 ta yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjat haqidagi ma'lumot kiritilgach (12-rasm).

12-rasm

13-rasm

«Holatini tekshirish» tugmasi dasturga kiritilgan yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar holatini Davlat personallashtirish markazida mavjud tizimlardan tekshirib, dasturning tegishli maydonida aks ettiradi (14-rasm).


Есемжарылдаштырылған	Биометрик жүхжаталарның йүз килиш (3.0.0.5)													
Марказлық тапсын	Йүз килимін атап отынчылаңыз													
Холаттын тапсын	Сәйкеслеу тапсын													
Тапсынаның рұмындарының жарықтары	Экспорт Microsoft Excel													
Алғаштағынан аптал	DPM тапсындан брак													
Анықтауда	Йүз килимін тасдиди													
Серия	Реквизит													
Анықтауда	Йүз килимін сабабы													
Марказлық тапсын	Йүз килимін атап отынчылаңыз													
Группалдану тапсынаның тапсындарынан														
Ходотын	Тапсын	Серия	Реквизит	Фамилия	Имені	Шаршығы	Тапсынан	Бергендегі сана	Анап санды	Белор санды	Жинис	Шахшығынан	Көрсеткіншіл сана	Күнделік
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 2464367	MIZBARRAHIMOVA	MALCHAT	MIRGUL	MIRGULXAMET	23.06.2004	04.08.2013	03.08.2018	01.08.2018	F	62306046-46-1000	12.09.2018 10:37...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 3189309	ABDUG'ANTYEVDA	MUSLIMQAMAN	MUSLIM	MUSLIMXALY	12.06.2011	24.10.2013	23.10.2018	24.07.2018	F	6121216156400	12.09.2018 10:37...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 2507337	DOLSKY	PLATON	VALEREVICH	VALEREVICH	07.04.2009	09.08.2013	08.08.2018	22.07.2018	M	50704095649022	12.09.2018 10:37...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 00916894	ULLIGEBEKOV	MUXAMMAD	ULLIGEBEK	ULLIGEBEK O.	15.05.2009	21.02.2013	20.02.2018	11.07.2018	M	5105096540015	12.09.2018 10:37...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 00916895	ABDILKHAN	ULUGBEK	ULUGBEK	ULUGBEK O.	04.04.2009	02.02.2013	02.02.2018	22.07.2018	M	49405096540015	12.09.2018 10:38...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 8133271	SATTAROV	SHERZOD	TURSHIBEK	TURSHIBEK	12.07.1998	12.30.2013	29.12.2018	24.07.2018	M	31207780211343	12.09.2018 10:38...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 1487195	SHOYOQUBOVA	XILOLA	SHOHMANISU	SHOHMANISU	20.04.1995	29.10.2013	29.10.2018	22.07.2018	F	42004950210030	12.09.2018 10:38...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 1102983	YUDGOROVA	ROZIYAKOV	MIRXOSIP	MIRXOSIP	28.09.2009	22.03.2013	21.03.2018	24.07.2018	F	62809096540014	12.09.2018 10:38...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 1974806	SAYGODEV	MADINABORU	BOTIR QIZI	BOTIR QIZI	30.05.1997	25.06.2013	24.06.2018	30.07.2018	F	43005976540018	12.09.2018 10:38...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 4681204	QASIMOV	MURAT	MURAT	MURAT	16.03.1992	15.03.2013	22.07.2018	12.09.2018 10:38...	F	61630300000000	12.09.2018 10:38...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 3577482	ASKAROV	MUNIRA	TURANDOSH	TURANDOSH	05.06.1992	11.12.2010	18.12.2018	02.07.2018	F	40203000000000	12.09.2018 10:39...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 7263875	KOSHPOV	SARVAR	NABIJON O.	NABIJON O.	21.05.2002	18.10.2014	20.05.2018	24.07.2018	M	5210526540015	12.09.2018 10:39...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 1595893	LUDOSHEVA	SHAHRIZODA	JAMILQODI	JAMILQODI	02.07.2003	26.05.2013	25.05.2018	24.07.2018	F	6020736540022	12.09.2018 10:39...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 8851576	KOMILJONOVА	GULIZEROB	ULQIMCHYQ	ULQIMCHYQ	10.10.1998	02.03.2015	01.03.2025	31.07.2018	F	41010986540073	12.09.2018 10:39...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 01704540	TURSON	ZORBAQ	ZORBAQ	ZORBAQ	26.06.1999	17.08.2013	16.08.2028	22.07.2018	F	42605996540013	12.09.2018 10:39...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 7428084	NURMENDISOVA	RESULAT	SHOKRAT	SHOKRAT	25.06.1993	30.04.2013	30.04.2018	24.07.2018	F	40203000000000	12.09.2018 10:39...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 2618994	SHAMSITAYEV	DURDINA	SHAKASIM	SHAKASIM	25.06.1983	13.01.2016	12.01.2026	22.07.2018	F	42050820000000	12.09.2018 10:40...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 7773784	ABZALOVA	MUNIBURSOVA	ADMID XAQI	ADMID XAQI	23.05.2001	26.09.2017	25.09.2027	05.08.2018	F	62206016540037	12.09.2018 10:40...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 6786378	ZAXIDOV	GULCHEKRA	ABDUMANNI	ABDUMANNI	11.05.1980	20.02.2015	19.02.2025	05.08.2018	F	4105800170036	12.09.2018 10:40...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 5996284	MURKABAR	TOHQIQIYAYEVA	SHUKRAT	SHUKRAT	30.10.2002	30.06.2014	29.10.2018	21.07.2018	F	63010026400022	12.09.2018 10:40...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 0774903	VULISOV	MILIPAKH	MILIPAKH	MILIPAKH	02.07.2002	02.07.2013	02.07.2018	24.07.2018	F	40203000000000	12.09.2018 10:41...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 9955533	ABDULLATYEV	SHAXLO	NURILLA GIZI	NURILLA GIZI	09.05.1999	05.06.2010	04.06.2018	05.08.2018	F	40905996540039	12.09.2018 10:41...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 5159063	OLIMQOVA	SHANXOZA	SHOKRAT	SHOKRAT	16.04.1993	17.04.2014	16.04.2024	05.08.2018	F	4160493017244	12.09.2018 10:41...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 8373126	SOBIROVA	UMIDA	MIRBABOS	MIRBABOS	03.10.1998	15.01.2015	14.01.2025	05.08.2018	F	30130986540033	12.09.2018 10:41...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 0446799	KAYUMOVA	RAYANA	FARXURDIN	FARXURDIN	22.05.1990	27.11.2012	26.11.2022	05.08.2018	F	42205500070012	12.09.2018 10:41...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 8474182	KODAEYEV	MUXTOR	TOXIRXODI	TOXIRXODI	27.01.1976	26.01.2013	25.01.2025	05.08.2018	M	32701276120000	12.09.2018 10:41...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 8480100	SHOKRAT	SHOKRAT	SHOKRAT	SHOKRAT	20.04.1993	24.07.2013	24.07.2018	05.08.2018	F	4105800170036	12.09.2018 10:41...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 4536183	ABDULAZADOVA	MUKARRAMA	ABDURAHIM	ABDURAHIM	13.12.1997	02.03.2014	01.03.2024	05.08.2018	F	4131297640006	12.09.2018 10:42...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 2189125	YAXDAROVA	OZODA	MIRXIMMAT	MIRXIMMAT	04.05.1993	07.12.2015	06.12.2025	05.08.2018	F	4045930211427	12.09.2018 10:42...	ПОН/КІФА...
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 1344349	NURMUKHAMMEDOV	JASURBEK	JASURBEK	JASURBEK	21.07.2002	07.05.2013	06.05.2018	05.08.2018	M	52102706540015	12.09.2018 10:42...	ПОН/ГІДАРЛЫ
БЕСКІР КІҮНДІЛІН/АНА/...	P	AAB 0188442	SEMAKOVA	ELEONORA	RINATYONA	RINATYONA	18.09.1967	05.08.2012	04.08.2018	05.08.2018	F	4180967201007	12.09.2018 10:42...	ПОН/ГІДАРЛЫ
ИШАУЛАПТЫРЫЛЫТ	P	AAB 0056809	VAXITOV	RUSLAN	RAFIKOVICH	RAFIKOVICH	10.01.1986	15.03.2012	14.03.2022	M	31001860290026	12.09.2018 10:56...	ПОН/ГІДАРЛЫ	

14-rasm
«Almashtirilganlar» oynasi orqali kiritilgan biometrik hujjatlarning holati “Bekor qilingan/almashgan” bo‘lishi lozim

«Ishlatilyapti» (egasi yangi pasport bilan hujjatlashtirilmagan, egasi vafot etgan yoki hujjat bekor qilinganligi haqidagi ma'lumotlar tizimga kiritilmagan), «Tizimda mavjud» (biometrik hujjatning yo'q qilinganligi haqidagi ma'lumot avval dastur orqali tizimga kiritilgan), «Buzilgan» (texnik nosoz yoki ma'lumotlarda xatolik bilan personallashtirilgan) va «Topilmadi» (biometrik hujjat biometrik pasport tizimida mavjud yemas) holatidagi biometrik


hujjatlarni yo‘q qilish haqidagi ma’lumotlarni «Almashtirilganlar» oynasi orqali dasturga kiritish imkoniyati cheklangan.

Dasturga kiritilgan ma’lumotlar orasida holati yo‘q qilish shartlariga mos kelmaydigan biometrik hujjatlar aniqlangan taqdirda, ular haqidagi yozuvlarni ro‘yxatdan o‘chirish asosiy menyudagi «Tanlanganlarni ro‘yxatdan o‘chirish» tugmasi orqali amalga oshiriladi (15-rasm).




15-rasm

«Tanlanganlarni ro‘yxatdan o‘chirish» tugmasi bosilgach, dastur orqali bajarilayotgan amallarni tasdiqlash uchun qo‘srimcha so‘rov oynasi ochiladi va «Es» tugmasini bosish orqali tanlangan biometrik hujjatlar haqidagi yozuvlarni ro‘yxatdan o‘chirish amallari yakunlanadi (16-rasm).




16-rasm

Dasturning asosiy menyusidagi «Eksport Microsoft Yexcel» tugmasi dasturga kiritilgan ma’lumotlar ro‘yxatini elektron ko‘rinishini shakllantirish va saqlash imkoniyatini beradi (17, 18 va 19-rasmlar).



17-rasm




18-rasm

Blanklar.xlsx - Microsoft Excel															
Файл		Главная		Вставка		Разметка страницы		Формулы		Данные		Рецензирование		Вид	Надстройки
E9															
	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O
1	Холати	Тип	Серия	Раками	Фамилия	Иони	Шарифи	Түнгизган	Берилган сана	Авал санаси	Бекор санаси	Жиноти	Шахой раками	Кўшичча	
2	БЕКОР КИЛИНГАН/АЛАМАШАН	P	AB	5115616	ZUFAROVA	SHAINA	SHABZOZOVA	10.06.2016	23.09.2016	22.09.2018	29.05.2018	F	6106166540014	50 Кончиарли	
3	БЕКОР КИЛИНГАН/АЛАМАШАН	P	AA	3178581	MADRAXIMOV	DONIYORBEK	SARVAR O'GLI	16.06.2001	22.10.2013	15.06.2017	24.07.2018	M	5106010210990	50 Кончиарли	
4	БЕКОР КИЛИНГАН/АЛАМАШАН	P	AA	4338945	ZAKROVA	SHARIZODA	YOLOSH QIZ	20.06.2005	16.02.2014	19.06.2018	25.07.2018	F	6206023540025	50 Кончиарли	
5	БЕКОР КИЛИНГАН/АЛАМАШАН	P	AA	6435230	SADIKOVA	MULISA	NURULLAYEVNA	29.06.1989	05.08.2014	04.08.2024	23.07.2018	F	52068890310521	50 Кончиарли	
6	БЕКОР КИЛИНГАН/АЛАМАШАН	P	AA	9633451	NAZIROV	AZAMAT	ALSHER O'GLI	07.05.1994	08.05.2015	07.05.2025	05.08.2018	M	3070594021048	12.09.2018 10:34:05 50 Кончиарли	
7	БЕКОР КИЛИНГАН/АЛАМАШАН	P	AA	9152274	FAZLIDINOV	BEKKOD	SHABOUDIN O'GLI	04.03.1989	26.03.2015	25.03.2025	05.08.2018	M	30403890310531	12.09.2018 10:34:17 50 Кончиарли	
8	БЕКОР КИЛИНГАН/АЛАМАШАН	P	AB	4914363	NIKMATILAYEVA	IRIDA	MAMMUD QIZI	02.09.2000	07.09.2016	06.09.2026	05.08.2018	F	6209006540033	12.09.2018 10:34:24 50 Кончиарли	
9	БЕКОР КИЛИНГАН/АЛАМАШАН	P	AA	5692265	DADAJONOVA	MUSLIMA	FARXOD QIZI	22.10.2007	09.06.2014	08.06.2019	20.07.2018	F	62210076540014	12.09.2018 10:34:43 50 Кончиарли	


19-rasm

Yo‘q qilishga tayyorlangan biometrik hujjatlar holati va ular haqidagi ma'lumotlar to‘g‘riliği tekshirilgach, dasturning asosiy menyusidagi «Saqlash va DPMga yuborish» tugmasi orqali ro‘yxatda keltirilgan biometrik hujjatlar yo‘q qilinishini tasdiqlovchi ma'lumot Davlat personallashtirish agentligiga yuboriladi (20-rasm).




20-rasm

«Saqlash va DPMga yuborish» tugmasi bosilgach, dasturni yuklagan elektron kalit egasini tekshirish maqsadida, elektron kalitning parolini kiritish uchun maxsus oyna ochiladi (21-rasm).




21-rasm


Elektron kalit paroli kiritilib «OK» tugmasi bosilgach, dastur orqali bajarilayotgan amallarni tasdiqlash uchun qo'shimcha so'rov oynasi ochiladi va «Es» tugmasini bosish orqali ro'yxatda keltirilgan biometrik hujjatlar yo'q qilinishini tasdiqlovchi ma'lumotlarni Davlat personallashtirish agentligiga yuborish amallari yakunlanadi (22-rasm).




Dastur tomonidan, kiritilgan ma'lumotlar saqlanganligi va Davlat personallashtirish agentligiga yuborilganligi to'g'risida ma'lumot oynasi ochiladi. (23-rasm).



Ma'lumot oynasidan so'ng ekranda ro'yxat ochiladi (24-rasm).



Dasturda ro‘yxatni chop etish, chop etishga printer qurilmasini tanlash, ro‘yxatni saqlash, yopish va ro‘yxat bilan ishslash uchun bir qator amallarni bajarish imkoniyatlari yaratilgan (25-rasm).



«Almashtirilganlar» oynasi orqali kiritilgan biometrik hujjatlar ro‘yxati bir nusxada chop etiladi. Chop etilgan ro‘yxat quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (26-rasm).

ЙЎҚ ҚИЛИНИШИ ЛОЗИМ БЎЛГАН ПАСПОРТЛАР РЎЙХАТИ (УРАМ-PACKING)							Паспортлар сони: 50			Сана: 26.09.2018	
Ходим:	Suleymanov Doniyor	№	Тури	Серия	Раками	Фамилияси	Исми	Шарифи	Туғилган сана	Сабаби	Бекор санаси
1	P	AC	0057749	NURSAIDOV	ISAKUL	ISHANKULOVICH	ISHANKULOVICH	LESBEK QIZI	18.07.1972	50 КОНИКАРЛИ	02.09.2018
2	P	AC	0091535	KALIKOV	AYGERIM	LESBEK QIZI	LESBEK QIZI	02.09.1990	50 КОНИКАРЛИ	13.08.2018	
3	P	AC	0200001	AHMADOV	ABDULLA	RUSTAMJON QIZI	RUSTAMJON QIZI	04.02.1998	50 КОНИКАРЛИ	13.08.2018	
4	P	AB	0144049	ASHURBOYEV	MUHAMMAD	VICTORIYA	ALEKSANDROVNA	21.11.2016	50 КОНИКАРЛИ	09.08.2018	
5	P	AC	0246781	IVANSOVA	YULDUZ	DILSHODA	DILSHODA	29.01.1990	50 КОНИКАРЛИ	13.08.2018	
6	P	AA	1151106	DADAYEV	GULAMJON	SABIRJANOVICH	SABIRJANOVICH	18.09.1976	50 ТОНИТАРЛИ	20.08.2018	
7	P	AA	1200398	TASHBOYEV	NAFISA	GULOMOVNA	GULOMOVNA	27.03.1988	50 ТОНИТАРЛИ	18.08.2018	
8	P	AA	1151107	ASRIBEKOV	FARID	GULOMOVNA	GULOMOVNA	15.01.1990	50 ТОНИТАРЛИ	18.08.2018	
9	P	AA	1200540	KOMILOV	BAXTUYOR	ODILON O’GILI	ODILON O’GILI	06.10.1991	50 ТОНИТАРЛИ	16.08.2018	
10	P	AA	2191354	IBRAGIMOVA	FERITZA	SHUKHMMADJON O’GILA	SHUKHMMADJON O’GILA	11.06.1980	50 ТОНИТАРЛИ	14.08.2018	
11	P	AA	2191355	TAKHIBOV	FATIMA	DILSHODA	DILSHODA	17.07.1980	50 ТОНИТАРЛИ	13.08.2018	
12	P	AA	21945620	IVANKO	DANIL	IGOREVICH	IGOREVICH	14.12.2008	50 ТОНИТАРЛИ	09.08.2018	
13	P	AA	21945629	ZAKHIDOV	UMIDJON	AKHMAJUD O’GILI	AKHMAJUD O’GILI	04.04.1995	50 ТОНИТАРЛИ	13.08.2018	
14	P	AA	21945630	DMITRIYEV	DILSHOD	SHOKRANOVICH	SHOKRANOVICH	03.08.1976	50 КОНИКАРЛИ	05.08.2018	
15	P	AA	21945636	UMAROV	RAXMONJON	ZOKIROVICH	ZOKIROVICH	11.10.2005	50 ТОНИТАРЛИ	04.08.2018	
16	P	AA	21945637	TOSMO LATOVA	SHUBROK	ZOKIROVICH	ZOKIROVICH	15.02.2003	50 ТОНИТАРЛИ	13.08.2018	
17	P	AA	21945638	SEGOYAY	LYUBABA	ANDREYEVNA	ANDREYEVNA	18.10.2010	50 КОНИКАРЛИ	13.09.2018	
18	P	AB	3169153	SHARIPOV	ABDULLA	FAYZULLAYEVICH	FAYZULLAYEVICH	26.12.1976	50 КОНИКАРЛИ	24.08.2018	
19	P	AB	3169154	MUHAMMADKULOVA	KAMILA	AZAMIDONOVICH	AZAMIDONOVICH	03.03.1989	50 ТОНИТАРЛИ	10.08.2018	
20	P	AB	3169155	SHAMURATOV	KASAN	RAYSHAN O’GILI	RAYSHAN O’GILI	31.07.1994	50 КОНИКАРЛИ	07.08.2018	
21	P	AB	409067	SHARIPOV	ISOD	SHOKRANOVICH	SHOKRANOVICH	07.01.1990	50 КОНИКАРЛИ	13.08.2018	
22	P	AB	4288460	SHARIPOV	SHOKRAN	RUSTAMOVICH	RUSTAMOVICH	23.10.2002	50 КОНИКАРЛИ	08.09.2018	
23	P	AB	4413451	MIRZAYEV	MIRZAKARIM	SHAVAKURJON	SHAVAKURJON	23.10.1997	50 ТОНИТАРЛИ	10.08.2018	
24	P	AA	4488927	NASRILAYEV	SHUKURJON	SHUKURJON	SHUKURJON	03.06.1990	50 ТОНИТАРЛИ	20.08.2018	
25	P	AA	5121527	KALIKOV	HAMIDA	MELKOZYEVNA	MELKOZYEVNA	07.08.1996	50 КОНИКАРЛИ	02.08.2018	
26	P	AB	56230889	KOSHVAKOVA	XURSHIDA	USHMANOVNA	USHMANOVNA	15.02.1985	50 КОНИКАРЛИ	21.08.2018	
27	P	AB	56280063	KALIBAEVA	KALIBAEVA	ZAKIROVNA	ZAKIROVNA	20.10.2002	50 КОНИКАРЛИ	09.08.2018	
28	P	AB	6200716	AKHMETJAKOV	TAMILLA	ZAKIROVICH	ZAKIROVICH	04.01.1994	50 КОНИКАРЛИ	13.08.2018	
29	P	AB	6200717	DAUTOVNA	DAUTOVNA	ZAKIROVNA	ZAKIROVNA	20.08.1983	50 ТОНИТАРЛИ	09.08.2018	
30	P	AB	67118393	SHOMATOV	UMID	GOFURJONOVICH	GOFURJONOVICH	11.04.1990	50 КОНИКАРЛИ	11.08.2018	
31	P	AA	67118394	SHOMATOV	SHOMATOV	GAYRAT O’GILI	GAYRAT O’GILI	22.09.1994	50 ТОНИТАРЛИ	02.08.2018	
32	P	AB	67118395	SHOMATOV	SHOMATOV	SHARIMOVICH	SHARIMOVICH	22.12.1990	50 ТОНИТАРЛИ	01.08.2018	
33	P	AB	6947990	ABDULLAYEV	DILSHOD	DAURJON	DAURJON	07.07.1998	50 КОНИКАРЛИ	21.08.2018	
34	P	AA	7198820	MIRAKHMETOV	TOHRUJON	ERIKINOVICH	ERIKINOVICH	12.03.1997	50 КОНИКАРЛИ	14.09.2018	
35	P	AB	7795606	TURDUSHEVA	SARIBEK	ALIMOVICH	ALIMOVICH	18.10.1989	50 КОНИКАРЛИ	02.08.2018	
36	P	AB	82752111	ALIMOV	ALIMOV	SHOKRANOVICH	SHOKRANOVICH	20.06.1970	50 КОНИКАРЛИ	18.08.2018	
37	P	AB	83000007	NAZAROVATOV	BAKHODIR	XIYABOEVNA	XIYABOEVNA	03.06.1990	50 КОНИКАРЛИ	18.08.2018	
38	P	AB	9215432	KALIKOV	AYNUR	AKHMETJAKOVICH	AKHMETJAKOVICH	23.11.1994	50 КОНИКАРЛИ	18.08.2018	
39	P	AB	92282654	DILSHODAYEV	PARICK	AKHMETJAKOVICH	AKHMETJAKOVICH	05.08.1994	50 КОНИКАРЛИ	18.08.2018	
40	P	AB	94066900	KURBONNOVA	KALIDA	BAZAROVNA	BAZAROVNA	12.07.1980	50 КОНИКАРЛИ	11.09.2018	
41	P	AB	94066901	SAYDALIYEVA	MAKSUDA	BAZAROVNA	BAZAROVNA	22.08.1985	50 КОНИКАРЛИ	02.08.2018	
42	P	AB	94066902	SHAMANOV	OTIMA	BAZAROVNA	BAZAROVNA	04.08.1984	50 КОНИКАРЛИ	02.08.2018	
43	P	AB	9471733	ARTIKBAYEVA	UMIDA	USHMANOVNA	USHMANOVNA	10.05.1985	50 КОНИКАРЛИ	22.08.2018	
44	P	AB	95735320	SALIMOV	AKHMETJAKOV	VALISHEROVICH	VALISHEROVICH	22.08.1997	50 КОНИКАРЛИ	05.08.2018	
45	P	AB	95735321	MIRAKHMETOV	AKBAR	AZIMJON O’GILI	AZIMJON O’GILI	18.01.1990	50 КОНИКАРЛИ	01.09.2018	
46	P	AB	97359722	RAXIMOV	VALISHEROVICH	VALISHEROVICH	VALISHEROVICH	03.10.1985	50 КОНИКАРЛИ	31.08.2018	
47	P	AB	97359723	RAXIMOV	AKBAR	AZIMJON O’GILI	AZIMJON O’GILI	03.09.1997	50 КОНИКАРЛИ	01.09.2018	
48	P	AB	9789784	KABILOV	IBRAHIMJON	VALISHEROVICH	VALISHEROVICH	12.03.1971	50 КОНИКАРЛИ	01.09.2018	
49	P	AB	9866664	CHILASHVILI	AKRAM	AZIMOVICH	AZIMOVICH	13.01.1990	50 КОНИКАРЛИ	01.09.2018	
50	P	AB	9968050	KALIKOV	MUXAMADIYAR	LESBEK ULI	LESBEK ULI	13.01.1990	50 КОНИКАРЛИ	01.09.2018	

Натижу шахс имзоси 28.09.2018 04:19:57

3/3

Ro‘yxat maxsus shtrix kod hamda harf va raqamlardan iborat unikal qayd raqamiga ega. Ushbu qayd raqamlari biometrik pasport tizimi tomonidan avtomatik tarzda, har bir tayyorlangan ro‘yxat uchun unikal ko‘rinishda shakllantiriladi (27-rasm).

ЙЎҚ ҚИЛИНИШИ ЛОЗИМ БЎЛГАН ПАСПОРТЛАР РЎЙХАТИ (УРАМ-PACKING)							Паспортлар сони: 50			Сана: 28.09.2018	
Ходим: Suleymanov Doniyor				Паспортлар сони: 50			Сана: 28.09.2018				
№	Тури	Серия	Раками	Фамилияси	Исми	Шарифи	Туғилган сана	Сабаби	Бекор санаси		
1	P	AC	0057749	NURSAIDOV	ISAKUL	ISHANKULOVICH	18.07.1972	50 КОНИКАРЛИ	02.09.2018		

27-rasm


Ro‘yxatda mas’ul shaxs imzosi va muhr uchun maxsus joy ajratilgan (28-rasm).

48	P	AB	9789784	RABILUV	IBRAHIMJON	VALISHEROVICH	03.10.1985	50 КОНИКАРЛИ	01.09.2018
49	P	AB	9866664	CHILASHVILI	AKRAM	AZIMOVICH	12.03.1971	50 КОНИКАРЛИ	01.09.2018
50	P	AB	9968050	KALIKOV	MUXAMADIYAR	LESBEK ULI	13.01.1990	50 КОНИКАРЛИ	01.09.2018

27-rasm

Texnik nosoz yoki ma’lumotlarda xatolik bilan personallashtirilgan biometrik hujatlarni yo‘q qilish haqidagi ma’lumotlarni dasturga kiritish uchun «DPA tomonidan brak» oynasidan foydalilanildi (28-rasm).

Bu turdagи biometrik hujjatlarni yo‘q qilish Davlat personallashtirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.




28-rasm

«DPA tomonidan brak» oynasi orqali kiritilgan biometrik hujjatlarning holati «Buzilgan» bo‘lishi lozim.


«Ishlatilyapti» (egasi yangi pasport bilan hujjatlashtirilmagan, egasi vafot etgan yoki hujjat bekor qilinganligi haqidagi ma’lumotlar tizimga kiritilmagan), «Tizimda mavjud» (biometrik hujjatning yo‘q qilinganligi haqidagi ma’lumot avval dastur orqali tizimga kiritilgan), «Bekor qilingan/almashgan» (o‘rnatilgan tartibda amalda emas deb topilgan yoki amal qilish muddati tugagan) va «Topilmadi» (biometrik hujjat biometrik pasport tizimida mavjud emas) holatidagi biometrik hujjatlarni yo‘q qilish haqidagi ma’lumotlarni «DPA tomonidan brak» oynasi orqali dasturga kiritish imkoniyati cheklangan.

«DPA tomonidan brak» oynasi orqali ma’lumotlarni kiritishda, har bir biometrik hujjatda mavjud nosozlik va xatolik sababi alohida ko‘rsatiladi. Sabablar avvaldan shakllantirilgan maxsus lug‘atda mavjud tegishli yozuvlarni tanlash orqali dasturga kiritiladi (29-rasm).



29-rasm

Tegishli sabablarni belgilamasdan «Saqlash va DPAGa yuborish» tugmasi bosilganda, ma’lumotlarni saqlashda xatolik mavjudligi yuzasidan oyna ochiladi (30-rasm).



Ma’lumotlar to‘liq kiritilgach, «Saqlash va DPAGa yuborish» tugmasi bosiladi (31-rasm).

Suleymanov Doniyor

Биометрик хужоатларни йўқ қилиш (3.0.0.5)

Марказий тизим	Йўқ қилиши далолатномаси
Холатини текшириш	Саклаш ва сабаби
ДПМга юбори	Танланганларни рўйхатни учирни
	Экспорт Microsoft Excel
	Алмаштирилгандар
	ДПМ томонидан брек


Йўқ қилиши сабаби

Марказий тизим Йўқ қилиши далолатномаси

Группалаш учун устунни шу ерга олиб ўтинг

Холати	Сабаби	Тури	Се...	Раками	Фамилия	Исми	Шарифи	Туғилган	Берилган ...	Амал санаси	Бекор санаси	Жи...
БУЗИЛГАН	Чиқда де...	P	AC	0837073	DJULBEKOV	XUSAN	SAYFULLAY...	29.01.1961	24.08.2018	23.08.2028	M	
БУЗИЛГАН	Чиқда де...	P	AB	6319309	MIRSHAROFOV	NODIRBEK	OYBEK O'...	10.10.1999	27.03.2017	26.03.2027	M	
БУЗИЛГАН	Чиқда де...	P	AB	9114637	NIYAZMATOVA	MUXARAM	XXX	02.01.1952	22.02.2019	22.02.2019	C	

Dasturni yuklagan elektron kalit egasi tekshirilib (32-rasm), bajarilayotgan amallar tasdiqlangach (33-rasm), kiritilgan ma'lumotlar saqlanganligi va Davlat personallashtirish agentligiga yuborilganligi to‘g‘risida ma'lumot oynasi ochiladi (34-rasm).



32-rasm

33-rasm

34-rasm

Ma'lumot oynasidan so‘ng, ekranda ro‘yxat ochiladi (35-rasm).

Йўқ қилиниши лозим бўлган паспортлар рўйхати (УРАМ-PACKING)
СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ИИБ

R24000280918-0001

Ходим: Suleymanov Doniyor						Паспортлар сони: 3			Сана: 28.09.2018	
№	Тури	Серия	Раками	Фамилияси	Исми	Шарифи	Туғилган сана	Сабаби	Бекор санаси	
1	P	AC	0837073	DJULBEKOV	XUSAN	SAYFULLAYEVICH	29.01.1961	2		
2	P	AB	6319309	MIRSHAROFOV	NODIRBEK	OYBEK O'GLI	10.10.1999	2		
3	P	AB	9114637	NIYAZMATOVA	MUXARAM	XXX	02.01.1952	2		

Масъул шахс именси: 28.09.2018 04:35:11 1/1

Technologic ASBT

«DPM tomonidan brak» oynasi orqali kiritilgan biometrik hujjatlar ro‘yxati **ikki nusxada chop etiladi**.

Chop etilgan ro‘yxat quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (36-rasm).

Йўқ қилиниши лозим бўлган паспортлар рўйхати (УРАМ-PACKING)
СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ИИБ

R24000280918-0001


Ходим: Suleymanov Doniyor						Паспортлар сони: 3			Сана: 28.09.2018	
№	Тури	Серия	Раками	Фамилияси	Исми	Шарифи	Туғилган сана	Сабаби	Бекор санаси	
1	P	AC	0837073	DJULBEKOV	XUSAN	SAYFULLAYEVICH	29.01.1961	2		
2	P	AB	6319309	MIRSHAROFOV	NODIRBEK	OYBEK O'GLI	10.10.1999	2		
3	P	AB	9114637	NIYAZMATOVA	MUXARAM	XXX	02.01.1952	2		

Масъул шахс именси: 28.09.2018 04:35:11 1/1


Technologic ASBT

Ushbu harakatlar natijasida yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar haqidagi ma’lumotlarni dasturga kiritish, Davlat personallashtirish agentligiga yuborish va ro‘yxatlarni tayyorlash ishlari yakunlanadi.

Dasturning «Markaziy tizim» oynasi orqali tizimga kiritilgan yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar haqidagi ma’lumotlarni olish mumkin (37-rasm).




«Markaziy tizim» oynasidagi «Bo‘linmalar hisoboti» menyusi orqali maxsus hisobot shakllarini olish mumkin (38-rasm).



38-rasm

Olingan ma’lumotlarni elektron ko‘rinishda saqlash va chop etish mumkin (39-rasm).



Dasturda biometrik ma’lumotlarni yig‘ish punkti nomi va dasturni ishga tushirgan elektron kalit egasi haqidagi ma’lumotlar doimiy ravishda aks etib turadi (40-rasm).

Suleymanov Doniyor

Биометрик хужожатларни йўқ қилиш (3.0.0.5)

Марказий тизим Йўқ қилиш далолатномаси
Холатини текшириш Саклаш ва ДТМга юборни Танланганинни рўйхатдан ўчириш Экспорт Microsoft Excel
Алмаштирилганлар ДПМ тононидан брак
Аналалар Йўқ қилиш сабаби
Марказий тизим Йўқ қилиш далолатномаси
Алмаштирилганлар

Группалаш учун устунни шу ерга олиб ўтишинг:
Холати Тури Серия Рақами Фанилия Иси Шарифи Туғилган Берилган с... Анал санаси Бекор санаси Жиҳоз
Сони 0
(24000) СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ИНН

Dastur bilan ishslash jarayonida dasturiy to‘xtalishlar va boshqa noma’lum xatoliklar yuzaga kelgan taqdirda, shuningdek, dasturni yangidan yoki qayta o‘rnatish uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasiga murojaat qilinadi.

Dasturda kuzatiladigan har bir to‘xtalishlar va xatoliklar Vazirlikning tegishli buyrug‘i asosida punktlarda yuritiladigan «Texnik to‘xtashlarni qayd etish» kitobiga qayd etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2018 yil 5 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining biometrik pasportlari hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarining hisobini yuritish va yo‘q qilish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi 300-son buyrug‘i Prezidentining 2017 yil 30 maydagi PF-5061-son «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining biometrik pasportlari hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarining hisobini yuritish va yo‘q qilishni tartibga solish to‘g‘risida»gi Farmon ijrosini ta’minalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Davlat personallashtirish agentligi tomonidan personallashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining biometrik pasportlari hamda fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning yo‘l hujjatlari hisobini yuritish va yo‘q qilish tartibini belgilaydi.

Unda, biometrik hujjatlarning hisobini yuritish, biometrik hujjatlarni yo‘q qilishga tayyorlash va yo‘q qilish hamda biometrik hujjatlarni yo‘q qilishga oid hujjatlarni yuritish tartibi hamda «Biopasport – yo‘q qilish» dasturidan foydalanish tartibi belgilab berildi.



Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:

Tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining biometrik pasportlari hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarining hisobini yuritish va yo‘q qilishni tartibga solish to‘g‘risida»gi PF-5061-son Farmonini va Ichki ishlar

vazirligining 2022 yil 11 noyabr kunidagi 492-son buyrug'i bilan "Buklet yoki plastik ko'rinishidagi hujjatlarni yo'q qilish tartibi"ni to'liq o'r ganadilar va konspekt qiladilar.

25-Mavzu. Buklet yoki plastik ko'rinishidagi biometrik hujjatlarni hisobini yuritish va yo'q qilish tartibi.

Seminar – 2 soat

Ushbu o'quv mashg'uloti "**Suhbat**" interfaol metodidan foydalanish orqali o'tkaziladi.

Mashg'ulotda o'qituvchi va o'quvchi (tinglovchi va kursant)lar o'rtasida dialogik xarakterga ega savol-javobga asoslanuvchi ushbu metod negizini jonli muloqot tashkil etadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo'shimcha savollar berish, o'quvchi (tinglovchi va kursant)ning fikrlashga undash imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. Ta'limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o'qituvchi va o'quvchi (tinglovchi va kursant)lar o'rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi.

Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'rildi:

O'qituvchi o'quvchi (tinglovchi va kursant)larni metod mohiyati bilan tanishtiradi

O'qituvchi mavzu yuzasidan o'quvchi (tinglovchi va kursant)lar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi

O'quvchi (tinglovchi va kursant)lar savollar bilan tanishtiriladi

O'quvchi (tinglovchi va kursant)lar savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masala mohiyatini yoritishga kirishadi (agar o'quvchi (tinglovchi va kursant)larning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; bordi-yu, javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o'qituvchi o'quvchi (tinglovchi va kursant)ga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo'shimcha savol beradi)

O'r ganilayotgan masalaning mohiyati to'la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi

O'qituvchi o'quvchi (tinglovchi va kursant)larning faoliyatini baholab, mashg'ulotga yakun yasaydi

O'quv mashg'uloti savollari:

1-savol. Biometrik hujjatlarni yo'q qilishga tayyorlash va yo'q qilish.

2-savol. Biometrik hujjatlarni yo'q qilishga oid hujjatlarni yuritish.

3-savol. Ma'lumotlarni elektron ko'rinishda saqlash va chop etish.

25-Mavzu: Buklet yoki plastik ko'rinishidagi biometrik hujjatlarni hisobini yuritish va yo'q qilish tartibi.

Amaliy– 2 soat

26-MAVZU. MIGRATSIYa VA FUQAROLIKNI RASMIYLAShTIRISH XIZMATIGA OID XORIJIY TAJRIBA.

Ma'ruza-2 soat

Reja:

- 1.Yaponiya Migratsiya xizmati faoliyati to‘g‘risida.**
- 2.Koreya Respublikasi Migratsiya xizmatida zamonaviy axborot texnalogiyalari.**
- 3. “Pekin” xalqaro aeroportida Migratsiya xizmati faoliyati.**

1-savol. Yaponiya migratsiya xizmati faoliyati to‘g‘risida.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev 2020 yilning 24 yanvar kuni Parlamentga murojaatida, Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi degan edi.

Bugun biz har tomonlama taraqqiy topib borayotgan, o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib tinch, osoyishta hayot kechirayotgan, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga tayanib, huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyat qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan mamlakatda yashamoqdamiz. Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik,

dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik hamda hamjihatlik yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatda Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari hamda bo‘lishlarining huquqiy asoslari va tartibi munosabatlarini tartibga solish zarurati davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu bois, davlat rahbarining tashabbusi bilan xavfsizlik tizimini barqarorlashtirish, Respublikada tinchlik va osoyishtalikni ta’minalash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining 76-bandи pasport-viza, migratsiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagagi “Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3126-son Qarori keltirilgan vazifalarning ijrosini ta’minalashga qaratilgan asosiy hujjat hisoblanib, Qarorda migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish samaradorligini oshirishning 7 ta asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining eng muhim vazifalari ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ulardan biri tashqi migratsiya munosabatlari holatini tahlil qilish orqali fuqarolarga qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro shartnomalarni tuzish bo‘yicha takliflar tayyorlash vazifasi ham belgilab berilgan. Bu borada xorijiy davlatlar migratsiya xizmatlari faoliyati qanday yo‘lga qo‘yilganligini Yaponiya, Koreya Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi Migratsiya xizmatlari misolida ko‘rib chiqamiz.



Yaponiya: (*Yaponiya aholisi soni 121.561.801 nafarni, Tokioda 37 million aholi istiqomat qiladi*) O‘zbekiston va Yaponyaning o‘zaro munosabatlari tarixi qadimiy asrlarga borib taqaladi. Buyuk ipak yo‘li orqali o‘zbek va yapon xalqlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar bo‘lganligi o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Yaponiya birinchilardan bo‘lib 1991 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Mustaqilligini” tan oldi va 1992 yildan diplomatik aloqalarni o‘rnatdi. Ushbu davrdan boshlab ikki davlat fuqarolarining turli yo‘nalishdagi munosabatlari rivojlanib bormoqda.

Yaponiyaga xorijiy fuqarolarning kirib kelishi, bo‘lishi migratsiya qonuni bilan belgilab qo‘yilgan va nazorati Migratsiya departamentiga yuklatilgan.

Yaponiya migratsiya xizmati 1947 yilda Yaponiya Adliya vazirligining soxaviy tizimlardan biri sifatida tashkil topgan bo‘lib, uning vazifasi etib Yaponiyaga fuqarolarning qonuniy kirib-chiqishini tekshirish, nazorat qilish, xorijiy fuqarolarni kelishdan maqsadi, ularning bo‘lish tartibiga rioya etishlari, ularning ro‘yxatdan o‘tishlari, migratsiya qonunini buzgan qoidabuzarlarni chiqarib yuborish va boshqa bir qator vazifalar yuklatilgan.

Ushbu xizmatga Adliya vazirligi Migratsiya markaziy departamenti raxbarlik qiladi. Markaziy departament joylardagi oltita departamentlardan tashkil topgan. Markaziy departamentga qo‘yi tizimdagi 8 ta yirik shaharlarda (*Tokio, Osaka, Nagoya, Fukuoka, Xirosima, Senday, Sapporo va Takamasu*) joylashgan migratsiya departamentlari buysunadi. O‘z navbatida joylardagi migratsiya departamentlarining hududiy ja’mi 95 ta bo‘limlari mavjud. Hududiy departamentlar fuqarolarning kirish-chiqishi, xorijiy fuqarolarning Yaponiyada bo‘lishlari va qochoqlik maqomini berish masalalarini ko‘rib chiqish vazifalarini bajaradi. Har bir departamentda kadrlar bilan ishslash xizmati, umumiy masalalar, moliya, kirish-chiqish nazorati, turli yo‘nalishda keluvchi xorijiy fuqarolarni nazorat qilish, tergov, hisobga olish va chiqarib yuborish boshqarmalari faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari Yaponiyada 3 ta migratsiya markazlari (*Omura, Ibaraki va Usiku shaharlari*) mavjud bo‘lib, ularda Yaponiyadan chiqarib yuborish belgilangan xorijiy fuqarolarni ushlab turish markazlari joylashgan.

Xorijiy fuqarolarning Yaponiyaga kirish tartibi:

Xorijiy fuqarolar Yaponiyaga kirish uchun Yaponianing xorijdagi diplomatik muassasalari tomonidan rasmiylashtirib beriladigan kirish viza asosida kirib keladilar (*vizasiz kirib kelishi belgilangan davlatlar bundan mustasno*).

Xorijiy fuqarolarning Yaponiyaga qonuniy kirishlarini rasmiylashtirish migratsiya inspektorlari tomonidan xalqaro havo va dengiz portlarida ularning pasportlariga qo‘yib beriladigan shtampda kelishdan maqsadi (statusi) va kelish muddati ko‘rsatib beriladi.

Xorijiy fuqarolarni ro‘yxatdan o‘tish tartibi:

Yaponiyada xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo‘q shaxslarning huquqiy maqomi asosan ikkita qonun bilan belgilab qo‘yilgan: 1952 yil 28 apreldagi “Xorijiy fuqarolarni ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun va 1952 yil 4 oktyabrdagi “Kirish, chiqish va qochoqlik maqomini berishni nazoratga olish to‘g‘risida”gi (migratsiya qonuni) qonun bilan tartibga solingan.

Mazkur qonunga asosan xorijiy fuqaro Yanoniya 90 kundan ortiq muddatda kelgan yoki tug‘ilgan kunidan 60 kun ichida yoki bo‘lmasa Yaponiya fuqaroligidan chiqqan shaxslar yashash joyidagi hududiy munisipal organdan ro‘yxatdan o‘tishlari kerak.

Ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi yashash guvohnoma xorijiy fuqarolar shu jumladan fuqaroligi yo‘q shaxslarga 5 yil muddatga beriladi.

Yaponiyaga 90 kundan kam bo‘lgan muddatga kelgan xorijiy fuqarolar, shu jumladan qonun bilan belgilab berilgan toifadagi xorijiy fuqarolar ro‘yxatdan o‘tishdan ozod etiladilar.

Yaponiya qonunlarini buzgan xorijiy fuqarolar “Xorijiy fuqarolarni ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonunga asosan Yaponiya hududidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Bugungi kunda Yaponiya fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga vizasiz 30 kungacha bo‘lgan muddatga kirib kelishlari, Yaponiyaga 90 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga borish istagi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun yengillashtirilgan tartibda viza berish tartibi joriy etilgan.



2-savol. Koreya Respublikasi migratsiya xizmatida zamonaviy axborot texnologiyalari.

Koreya Respublikasi (*aholisi 51.269.830 nafarni, Seul shahrida 10 milliondan ortiq*): Koreya Respublikasi Migratsiya xizmati 1961 yilda Koreya Respublikasi Adliya vazirligi tarkibida tashkil etilgan bo‘lib, Migratsiya xizmati bosh markazi Seul shahrida joylashgan.

Migratsiya xizmatining vazifalari etib, chegara nazorati, xorijiy fuqarolarga kirish ruxsatnomasini berish, xorijiy fuqarolarga Koreyada vaqtincha yashash va doimiy yashashga yashashga ruxsatnama berish, Koreya fuqaroligini olish va bekor qilish to‘g‘risidagi hujjatlarni ko‘rib chiqish va qochoqlik maqomini berish, davlat chegalarini noqonuniy kesib o‘tishga qarshi kurashish, xorijiy fuqarolarni noqonuniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlarini aniqlash hamda noqonuniy yurgan xorijiy fuqarolarni Koreya hududidan tashqariga chiqarib yuborish vazifalari yuklatilgan.

Koreya Respublikasiga 1991 yildan oddiy ish joylariga xorijdan ishchi kuchini jalg etish maqsadida xorijdan ishchilarni chaqirish, ularni o‘qitish va ishlatish boshlangan va 2004 yildan boshlab xorijiy ishchi kuchi kelishi oshib borgan va ularning ish haqlari oshirilgan. Bu o‘z navbatida migratsiya xizmati tomonidan tegishli vazifalarni bajarish talab etilgan.

Ushbu vazifalardan biri ya’ni xorijiy fuqaroning Koreyada doimiy yashashga qolishi va Koreya Respublikasi fuqaroligini olish tartibi qanday tartibda ko‘rib chiqiladi. Xorijiy davlat fuqarosi Koreya fuqaroligini olish istagi bo‘lsa, davlat iqtisodiyotiga 500 000 ming AQSh dollaridan kam bo‘lmagan investisiya olib kirgan bo‘lishi yoki bo‘lmasa yana bir shartlaridan

biri Koreya fuqarosi bilan oila qo‘rgan va 3 yil birga yashagan bo‘lishi, shuningdek koreys tilini, madaniyatini, tarixini, qonunlari va konstitusiyasini bilishi lozimligi belgilab qo‘yilgan.

Investisiya olib kirgan xorijiy fuqarolarga, etnik koreyslarga, sportchilarga yoki olimlarga yengillashtirilgan tartibda fuqarolikni berish tizimi joriy etilgan.

Koreya fuqarosi boshqa davlat fuqaroligini qabul qilsa Koreya fuqaroligini yo‘qotishi, xorijiy davlat fuqarolik pasporti bilan Koreya fuqaroligini olsa, ushbu fuqarodan Koreya hududida chet el pasportini ishlatmaslik haqida majburiyatnomasi olinadi. Ikki davlat fuqarolik pasportiga ega 27 yoshga to‘lmagan o‘g‘il bolalar armiya chaqiruviga bormasa, Koreya fuqaroligi bekor qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Koreyada yashash guvohnomasini olish uchun Koreya fuqarosi bilan oila qo‘rgan xorijiy fuqaro 2 yil birga yashaganidan so‘ng, yashash guvohnomasini olish uchun murojaat qilishi mumkin. Bunda uning koreys tilini bilishi, moliyaviy ta’minoti, ishlashi va yashash joyi inobatga olinadi.

Koreya fuqarosi bilan oila qo‘rmagan xorijiy fuqaro Koreya qonunlarini buzmagan holda 5 yil vaqtincha yashaganidan so‘nggina yashash guvohnomasini olish uchun murojaat qilishlari mumkin. Ularning hujjatlarini xorijiy fuqaroning vaqtincha yashayotgan hududiga qarab bir yilgacha ko‘rib chiqilishi mumkin. Doimiy yashashga qolish uchun hujjatlar bilan birga 200.000 von miqdorida davlat boji to‘lashlari lozim.

Koreyaga 1 mln. AQSh dollari miqdorida investisiya kiritgan xorijiy fuqaroga yengillashtirilgan tartibda yashash guvohnomasi beriladi.

Koreya Respublikasi fuqaroligini berish va bekor qilish Adliya vazirining vakolatiga kiradi.

So‘nggi yillarda Koreyaga noqonuniy mehnat muhajirlari soni ortib borishi munosabati bilan, chegara nazorat maskanlarida xizmat olib boruvchi migratsiya xizmati xodimlari ayrim xorijiy fuqarolarning barmoq izlari va fotosuratlarini olish, hujjatlarini sinchkovlik bilan tekshirish va ularning ayrimlari bilan suhbat o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan.

Suhbat davomida xorijiy fuqaroning Koreyaga kelishdan maqsadi, undan tegishli hujjatlarni taqdim etishi, qaytib ketish biletining borligini, mehmonxona bron qilinganligi, Koreyadan chaqirgan fuqaro yoki tashkilot bilan bog‘lanish uchun ular haqidagi ma’lumotlarni, Koreyada bo‘lishi davomida yashashi va sayohat qilishi, aylanishi uchun yetarli miqdorda mablag‘i to‘g‘risida ma’lumotlarni oladilar.

Bugungi kunda Koreyada 8 ta aeroport va 16 ta dengiz portlari mavjud bo‘lib, aeroportlardan eng kattasi “Inchon” xalqaro aeroporti bo‘lib, ushbu aeroportning o‘zidan Koreyaga uchib keluvchi va uchib ketuvchilar 67% tashkil etadi.

Koreyaning eng katta xalqaro aeroportlaridan biri “Inchon” xalqaro aeroportining Migratsiya xizmati faoliyatini ko‘rib chiqamiz.

“Inchon” xalqaro aeroporti uzunligi 1 km bo‘lib, 50 ta nazorat tekshiruv joylari mavjud, unda boshqa xizmatlar bilan birga Migratsiya xizmati xodimlari ham faoliyat olib borishadi. “Inchon” xalqaro aeroporti Migratsiya xizmatida 3 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, ular xalqaro aloqalar bo‘limi, shubha o‘yg‘otgan pasportlarni ekspert tekshiruvidan o‘tkazib berish bo‘limi va fuqarolar haqidagi pasport ma’lumotlarini tekshirish, jamlash bo‘limlaridan tashkil topgan. Migratsiya xizmati 30 dan ortiq xorijiy davlatlar xalqaro aeroportlari bilan yo‘lovchi fuqarolar to‘g‘risida ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Migratsiya xizmati xodimlari tomonidan xorijiy fuqarolarning pasport nazorat tekshiruvini avtomatlashtilgan texnika yordamida 18 soniyada amalga oshiradi. Bu borada AQShlari bilan “Avtomatlashtirilgan migratsiya nazorati” dasturi bo‘yicha shartnomaga imzolangan. Shu bilan birga 2002 yildan Koreyaning o‘zida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy kompyuter texnika vositalari va dasturiy ta’minotlaridan foydalanib kelinmoqda.

Birgina 2015 yilning sentyabr oyining o‘zida 1 mln. 800 nafar xorijiy fuqarolar Koreyaga kirib kelishgan.

Koreyaga 90 kundan kam bo‘lgan muddatga kelgan xorijiy fuqarolar, shu jumladan qonun bilan belgilab berilgan toifadagi xorijiy fuqarolar ro‘yxatdan o‘tishdan ozod etiladilar. 90 kundan ortiq muddatga kelgan xorijiy fuqarolar yashash joyi bo‘yicha vaqtincha ro‘yxatdan o‘tishlari kerak. Buning uchun ular ariza, rasm, barmoq izini topshirishlari va 30.000 von miqdorida davlat bojini to‘lashlari kerak.

Koreyada bo‘lish tartibini buzgan xorijiy fuqarolar belgilangan miqdorda jarimaga tortiladilar yoki Koreyadan o‘z vatanlariga chiqarib yuboriladilar. Shaxsini tasdiqlovchi hujjati bo‘lmagan xorijiy fuqarolarning shaxsini aniqlash uchun 2 ta Reabilitatsiya markazlari (Xvason va Chonjongda) tashkil etilgan. Ushbu markazda xorijiy fuqaroning shaxsi aniqlangunga qadar ushlab turiladi.

Koreya poytaxti bo‘lgan Seul shahri Migratsiya xizmatida 7 ta boshqarma tashkil etilgan bo‘lib, ular xorijiy fuqarolarni hisobga olish, viza berish, qidiruv, qochoqlar bilan ishlash, jinoyat va jarima bilan shug‘ullanish, elektron aloqa hamda xorijiy fuqarolarni moslashtirish va o‘qitish boshqarmalaridir. Ular Seul shahrining 13 ta ma’muriy hududida joylashgan aholiga xizmat ko‘rsatadilar.

Koreyada “Qochoqlik maqomini berish to‘g‘risida”gi Qonun 2013 yilda qabul qilingan bo‘lib, Adliya vazirligi tizimida Migratsiya xizmatining qochoqlar bilan ishlash Markazi tashkil etilgan. Ushbu Markaz faoliyatini Adliya vaziri o‘rinbosari nazorat qilib boradi. Qochoqlik maqomini olish bo‘yicha Adliya vaziri nomiga xorijiy fuqaro tomonidan berilgan ariza

14 nafar mutaxasis ekspertlar tomonidan 1 oy davomida o‘rganib chiqiladi. Qochoqlik maqomini so‘rab kelgan xorijiy fuqarolarni qabul qilish Markazi o‘z faoliyatini 2014 yilda boshlagan, unda xorijiy fuqaro Markazda qochoqlik maqomi berilgunga qadar saqlab turilishi, buning uchun markazda ularning yashashi, ovqatlanishi, ishlashi, sport bilan shug‘ullanishi, dam olishi, o‘qishi, koreys tili, madaniyati, tarixi, qonunlarini o‘rganishi, davolanishi va boshqa kerakli bir qator zaruriy sharoitlar yaratilgan. Ekspertlar tomonidan ularning murojaatlari ijobiy ko‘rib chiqilganda qochoqlik mandati beriladi yoki rad etilganda o‘z vatanlariga chiqarib yuboriladi.

Koreya fuqarolari uchun davlat ichida shaxsini tasdiqlovchi ID-kartani va yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish vazifasini hududiy polisiya (Davlat departamentiga qaraydi) tomonidan amalga oshiriladi. Koreya fuqarolari 19 yoshdan ID-karta olishi, saylovda ishtirok etishi va ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. 18 yoshdan harbiy hisobga olinadi va 19 yoshdan harbiy xizmatga chaqiriladi.

Koreya fuqarolari xorijga chiqish pasportini olish uchun Koreya Tashqi ishlar vazirligiga belgilangan tartibda murojaat qilishlari mumkin. Koreya fuqarolariga biometrik pasportni 2008 yildan berishni boshlashgan, pasport 48 varaqdan iborat, amal qilish muddati 10 yil. Koreya fuqarolari 145 ta davlatga vizasiz borib kelishlari mumkin.

Koreya fuqarolari asosan doimiy yashashga AQSh va Kanadaga borishadi.

Bugungi kunda Koreya fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga vizasiz
kungacha bo‘lgan muddatga kirib kelishlari mumkin.

30



3-savol. “Pekin” xalqaro aeroportida Migrasiya xizmati faoliyati.

Xitoy Xalq Respublikasi (*aholisi 1.474.016.821, Pekin shahri aholisi 21.893.000*) 2018 yildan Jamoat xavfsizligi vazirligi tizimida bo‘lgan Kirish, chiqish boshqarmasi - Migrasiya ishlari bo‘yicha davlat boshqarmasi (Migrasiya xizmati)ga o‘zgartirilgan. Migrasiya xizmati bevosita Jamoat xavfsizligi vazirligi tarkibidagi xizmat hisoblanadi.

Ushbu xizmat kirish-chiqish va chegara tekshiruvi hamda yangi viza tizimi nazoratini olib boradi.

Migrasiya xizmatining asosiy vazifalaridan biri etib migratsiya siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish hamda boshqarib borish.

Ushbu xizmat kirish-chiqish, chegara postlarida xujjatlarni tekshirish va chegara oldi aholisi bilan aloqalarni nazorat qilib borish, fuqarolik pasporti va ID-kartabilan xujjatlashtirish,

ro‘yxatga olish, pasport-viza nazorati, chegara nazorati, xorijiy fuqarolarga kirish ruxsatnomasini berish, xorijiy fuqarolarni Xitoy Xalq Respublikasida vaqtincha yashash va doimiy yashashga yashashga ruxsatnoma berish, fuqarolik bilan bog‘liq hujjatlarni ko‘rib chiqish va qochoqlik maqomini berish, davlat chegalarini noqonuniy kesib o‘tishga qarshi kurashish, xorijiy fuqarolarga viza berish, xalqaro aloqalar, kadrlar bilan ishslash, xorijiy fuqarolarni noqonuniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlarini aniqlash hamda noqonuniy yurgan xorijiy fuqarolarni Xitoy hududidan tashqariga chiqarib yuborish vazifalarini bajaradi.

Pekin shahrida joylashgan Migratsiya xizmatining ushbu vazifalarni bajaruvchi va ularni hududlardagi qo‘yi tizimlar tomonidan ijro etilishini ta’milovchi, tekshiruvchi hamda nazorat qiluvchi tegishli sohaviy boshqarmalari faoliyat ko‘rsatadi.

Buni Pekin shahri Migratsiya xizmati faoliyati misolida ko‘rib chiqsak. Pekin shahri Migratsiya xizmati bosh ofisi Pekin shahrida joylashgan bo‘lib, uning qo‘yi tizimlari Pekin shahrining bo‘lingan ma’muriy hududlari ya’ni tumanlarida ham tashkil etilgan. Ular o‘zlariga qaraydigan hududda yashovchi aholiga belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda xizmat ko‘rsatadilar.

Pekin shahri Migratsiya xizmati tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi Xitoy fuqarolarini ID-karta bilan xujjatlashtirish uchun elektron navbat orqali ro‘yxatga olinishi, ro‘yxat bo‘yicha ID-karta uchun hujjatlarni rasmiylashtirishni va Migratsiya xizmati ma’muriy binosining o‘zida ID-karta rasmiylashtirilib fuqaroga topshirish yo‘lga qo‘yilgan. Buning uchun fuqarolarni hujjatlari va ma’lumotlarini qabul qilish, barmoq izlarini olish va fotosuratga tushirish xonalar hamda Xitoyning o‘zida ishlab chiqilgan ID-kartani tayyorlovchi va chop etuvchi maxsus xonalar tashkil etilgan.

Bundan tashqari Pekin Migratsiya xizmatida Xitoy fuqarolarining yashash joyiga borib davlat tomonidan belgilangan to‘lov asosida xizmat ko‘rsatish tartibi ham yo‘lga qo‘yilgan. Xitoy fuqarolari shaxsini tasdiqlovchi ID- kartani yoki biometrik pasport olish uchun yashash joyidan elektron hujjatni to‘ldirishi, navbat olishi, belgilangan miqdordagi davlat bojini to‘laganidan so‘ng migrasiya xizmati xodimi uyiga kelib hujjatlarni qabul qilib olishi va tayyor ID-kartani yoki pasportni egasiga topshirib ketishi mumkin. Ushbu ko‘rsatilgan xizmatlar uchun fuqaro ID-karta yoki biometrik pasport uchun belgilangan davlat bojidan tashqari ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qo‘sishimcha davlat tomonidan belgilangan to‘lovni amalga oshirishi lozim.

Yoki bo‘lmasa xizmat yuzasidan yoki tezlashtirib olish istagi bo‘lgan Xitoy fuqarolari xorijga chiqish biometrik pasportni yoki ID-kartani belgilangan qo‘sishimcha to‘lov turini to‘lagan holda qisqa muddatda olishlari ham mumkin.

Shuningdek, Pekin Migrasiya xizmati ma'muriy binosida fuqarolar uchun barcha shartsharoit va qo'layliklar yaratilgan bo'lib, xizmat turiga qarab fuqarolar elektron navbat orqali qabul qilish tizimi yo'lga qo'yilgan, mahalliy aholi qabuli alohida va xorijiy fuqarolar qabuli alohida tashkil etilgan. Xorijiy fuqarolarni vaqtincha yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish va ularning viza muddatlarini uzaytirish bo'yicha hujjatlarini qabul qilish va ularga tayyor pasportlarni topshirish elektron dasturlashtirilgan kompyuter texnikalari yordamida amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.

Endi Xitoyning "Pekin" xalqaro aeroportida xizmat olib boruvchi Migrasiya xizmati faoliyati.

"Pekin" xalqaro aeroporti 2019 yil 25 sentyabrda ochilgan bo'lib, dunyodagi eng katta aeroportlardan biri hisoblanadi, terminal maydoni 700 ming m² tashkil etadi, 4 qavatdan iborat, birinchi terminal bir yilda 45 million passajirlarni o'tkazish imkoniyatiga ega. 2025 yilga kelib barcha terminallar orqali 72 mln.dan 100 mln.gacha passajirlarni o'tkazishi mumkin.

Birinchi qavati xalqaro reyslar uchun, ikkinchi qavati ichki reyslar uchun, uchinchi qavati ichki reyslar uchishi uchun va turtinchi qavati xalqaro reyslar uchun. Aeroport binosining tagida yerosti temiyo'l stansiyasi (metro) joylashgan.

Demak, "Pekin" xalqaro aeroportida ham Migrasiya xizmati xodimlari xizmat olib borishadi, ular kirib kelayotgan mahalliy va xorijiy fuqarolarni pasportlarini tekshiruv nazoratidan o'tkazadilar. Bunda mahalliy va xorijiy fuqarolar uchun alohida o'tish yo'lklari mavjud bo'lib yo'lklarni fuqaroning pasportini o'qiydigan texnik qo'rilmalar, video va fotosuratga olish moslamalari va barmoq izini olish texnikalari o'rnatilgan. Migrasiya xizmati xodimlari xizmat joyiga xodimlarni xizmat ko'rsatishini yo'lovchilar tomonidan baholab boruvchi "Baholash" qurilmasi o'rnatilgan.

Unda fuqaro migrasiya xizmati xodimini xizmat jarayonida unga ko'rsatgan xizmatini ixtiyoriy ravishda qurilmadagi "a'lo", "yaxshi" va "qoniqarsiz" tugmasini bosishi mumkin. Fuqarolar tomonidan berilgan baholar jamlanib xodimning xizmat olib borishi baholab boriladi. Aeroport markazida Migrasiya xizmati xodimlari xizmat faoliyati fuqarolarning kirish-chiqishini nazorat qilushi Markaz tashkil etilgan bo'lib, ushbu markaz zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jihozlangan. Xodimlar aeroport ichki hududida yurishlari uchun ikki oyoqli samokatlar berilgan.

Bundan tashqari fuqarolarning pasportlarida biror bir shubha yoki qalbakilashtirish alomati bo'lsa ushbu pasportlarni tekshirib berish uchun aeroport hududida alohida ma'muriy binoga ega bo'lgan ekspertiza xizmati joylashgan. Ushbu xizmat barcha zamonaviy texnika vositalari va barcha davlatlarning pasport namunalariga ega.

Shu bilan birga aeroport xududini kuzatib borish uchun 2 mingdan ortiq video kuzatuv kameralari o‘rnatalgan bo‘lib, ular nazorat-kuzatuv shtabi tomonidan kuzatib boriladi va nazoratga olinadi.

Ushbu jarayonlarda migrasiya xizmati xodimlari tunu-kun xizmat olib borishlari tashkil etilgan hamda Xitoyda ishlab chiqilgan eng zamонавиy dasturiy ta’mintonlar o‘rnatalgan kompyuter texnikalari bilan jihozlangan.

Xitoy Xalq Respublikasi, shu jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining Gonkong maxsus ma’muriy hududi fuqarolari uchun mamlakatning xalqaro aeroportlari orqali ko‘pi bilan 7 kun muddatga O‘zbekiston Respublikasiga kirishning vizasiz rejimi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘s Shinlarining bo‘linmalariga yo‘lovchilar to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim qiluvchi tashuvchining qaytuvchi aviachiptasi mavjud bo‘lganda ruxsat beriladi.

Ushbu mavzumizda biz Sizlar bilan xorijiy davlatlar tajribalarini Yaponiya, Koreya va Xitoy davlatlari Migrasiya xizmatlari misolida ko‘rib chiqdik.

Demak, ushbu davatlarda ham migrasiya jarayonlari o‘zlarining qonunlari bilan tartibga solingan va mustahkamlab qo‘yilgan hamda ushbu qonunlar ijrosini ta’minalash va nazorat qilish vazifalari Migrasiya xizmatlariga yuklatilgan.

Bir narsani alohida ta’kidlab o‘tish joyizki, ushbu davlatlar migrasiya xizmatlarida ishlatib kelinayotgan barcha zamонавиy dasturlar va texnika vositalari ushbu davatlarning o‘zlarida ishlab chiqarilganligi, migrasiya xizmati faoliyati elektron boshqaruv tizimi asosida amalga oshirilishi ish unumdonligiga, samaradorligiga, sifatiga va tezkor ma’lumotlarni olish hamda nazorat o‘rnatalishiga xizmat qilishi ko‘rib chiqdik.

Ushbu davlatlar yoki boshqa rivojlangan davlatlar Migrasiya xizmati tajribalaridan kelib chiqqan holda kelajakda ushbu davatlarning samarali jihatlari o‘zimizda ham Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatida tadbiq etilsa kelgusida o‘zining albatta ijobiy natijasini beradi.

Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq:


Mustaqil ta’limning mazmunini tinglovchilar ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini mustaqil ta’lim jarayonida yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari va navbatdagi mashg‘ulotga mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishlari tashkil etadi.

Tinglovchilar mustaqil “Xorijiy davlatlar tajribalari - Yaponiya, Koreya Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi Migrasiya xizmatlari misolida” mavzusini to‘liq o‘rganadilar va konspekt qiladilar.

26-Mavzu. Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatiga oid xorijiy tajriba.

Ushbu o‘quv mashg‘uloti “**Davra suhbati**” interfaol metodidan foydalanish orqali o‘tkaziladi.

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan savollar yuzasidan tinglovchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.



“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir tinglovchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va tinglovchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar.

So‘zlayotgan tinglovchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa tinglovchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

TAXMINIY TEST SAVOLLARI

1.“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi bo‘limgan shaxslarining biometrik harakatlanish hujjati to‘g‘risidagi nizom” qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan tasdiqlangan?

2.Fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga harakatlanish hujjati qancha muddatga beriladi?

3.Harakatlanish hujjati blankasiga qanday ma’lumotlar kiritilmaydi?

4.Bir yoshga to‘limgan fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga harakatlanish hujjati qancha muddatga beriladi?

5.Fuqaroligi bo‘limgan shaxs O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqayotganida harakatlanish hujjatining amal qilish muddati qancha vaqt ni tashkil etsa, almashtirilishi mumkin?

6. O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish hujjati necha ish kuni mobaynida berilishi kerak?

7. Harakatlanish hujjati chipiga qanday ma’lumotlar kiritiladi?

8. Harakatlanish hujjati talabnomasi DPAga jo‘natilganidan keyin xorijda egasiga necha ish kuni mobaynida berilishi kerak?

9. Agar fuqaroligi bo‘lмаган shaxs qo‘л barmoq izlari olinishidan bosh tortsa va ko‘zoynakda yoki bosh kiyimda suratga tushish istagidan qaytmasa ma’lumotlarni yig‘ish punkti xodimi qanday huquqga ega?

10. Sud ajrimi bilan harakatlanish hujjatining amal qilishi to‘xtatib turilgan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun qanday chora qo‘llaniladi?

11. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjatda belgilab berilgan?

12. Qonun hujjatlariga muvofiq uy-joyga ega bo‘lgan xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar - xususiy mulk qilib sotib olingan uy-joyga Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi 593-son qarori bilan tasdiqlangan Ro‘yxatning qaysi bandi bilan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga qo‘yiladi?

13. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qaysi toifa chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi 593-son qarori bilan tasdiqlangan Ro‘yxatning 4-bandiga muvofiq doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga qo‘yish tartibini aytib bering.

14. «Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar, shuningdek, ularning oila a’zolari Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi 593-son qarori bilan tasdiqlangan Ro‘yxatning qaysi bandi bilan doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga qo‘yiladi?

15. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 sentyabrdagi 593-son qarori bilan tasdiqlangan Ro‘yxatining 8-bandi bilan qaysi toifa chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinadi?

16. Boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish hamda ularga yashash guvohnomasi yoki ID-karta rasmiylashtirib berish.

17. Qaysi hollarda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga doimiy yashash uchun ruxsat berishga rad etiladi?

18. Chet el fuqarolariga fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni doimiy ro‘yxatga olish bilan bog‘liq harakatlarning idoralararo elektron hamkorlikni ta’minlovchi avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

19. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjatda belgilab berilgan?

20. Qaysi toifa chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxsni investor deb ataymiz?

21. Yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘лган chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar vaqtincha ro‘yxatga olinish uchun boshqa hududga kelgan kunidan boshlab necha kun ichida hududiy MvaFRBga murojaat qiladilar.

22. Ichki ishlar organi profilaktika (katta) inspektorlari o‘zlarini xizmat ko‘rsatayotgan hududda vaqtincha yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar tomonidan pasport-viza rejimiga rioya etilishini qanday tartibda nazorat qilib boradilar.

23. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarning bo‘lish muddati 30 kundan oshsa, necha kun ichida hududiy MvaFRBga murojaat etish orqali vaqtincha ro‘yxatga olishni amalga oshiradi.

24. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni vaqtincha ro‘yxatga olinishga tenglashtiriladi?

25. Yashash guvohnomasi yoki ID-kartaga ega bo‘лган chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni respublikaning boshqa hududlarida vaqtincha ro‘yxatga olishi doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxati bekor qilinmagan holda, kelgan joyi bo‘yicha qancha muddatga amalga oshiriladi.

26. Qaysi toifa chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar, shuningdek, ularning oila a’zolari IIO tomonidan vaqtincha ro‘yxatga olish davlat boji undirilmasdan uch yil muddatgacha rasmiylashtiriladi va uzaytiriladi?

27. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarning bo‘lish muddati 30 kundan oshmasa, ular kelib joylashgan paytda «E-mehmon» dasturi yordamida yoki necha kun ichida hududiy MvaFRBga murojaat etish orqali amalga oshiriladi.

28. Qaysi toifa chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar vaqtincha ro‘yxatdan ozod etilgan?

29. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni Qoraqalpog‘iston Respublikasida va viloyatlarda doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat.

30. Viloyatga boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash uchun ruxsat berish rad etish.

31. Chet el fuqarosini xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqarish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati necha kundan oshmasligi kerak.

32. Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lмаган shaxsning O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligini hamda egasining shaxsini va fuqaroligini tasdiqlovchi, shuningdek, egasining shaxsiy biografik ma’lumotlari va biometrik parametrlari kiritilgan elektron tashuvchi qurilmaga (chipga) ega bo‘лган hujjat.

33. Fuqaroligi bo‘lman shaxsni xorijiy davlatga ro‘yxatdan chiqarish uchun hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati necha kundan oshmasligi kerak.

34. Boshqa davlatga doimiy yashashga ketayotganligi sababli doimiy ro‘yxati bekor qilingan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar qaysi hollarda qayta doimiy yashashga ruxsatnomasi rasmiylashtiriladi?

35. Er (xotini) xotini (eri) doimiy ro‘yxatga olingan uy-joy maydoniga, basharti kamida necha yil birgalikda yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar doimiy yashashga ruxsatnomasi olish uchun MvaFRBga hujjatlarni taqdim etishlari mumkin.

36. IIV MvaFRBBga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomasi olish uchun chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarning tegishli hujjatlar kelib tushgan (so‘rovnoma javob olingan) kundan boshlab qancha muddat ichida xulosa chiqaradi.

37. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsatnomasi olish uchun chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarning hujjatlari bo‘yicha QR IIV MvaFRB va IIB MvaFRB tegishli vakolatli organning ijobiy xulosasi olingan kundan boshlab qancha muddatda xulosa tayyorlaydi.

38. Ro‘yxatdan chiqarilganda hamda yashash guvohnoma yoki ID-karta va doimiy ro‘yxat bekor qilinganda MvaFRB qancha muddatda «manzil» tizimiga ro‘yxatdan chiqarilganligi holati yuzasidan ma’lumotlarni kiritadi.

39. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining biometrik pasportlari hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqaroligi bo‘lman shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarining hisobini yuritish va yo‘q qilish tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan?

40. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining biometrik pasportlari hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqaroligi bo‘lman shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarining hisobini yuritish va yo‘q qilish tartibi Ichki ishlar vazirining qaysi buyrug‘ida belgilab berilgan?

41. Biometrik hujjatlarning umumiyligi hisobi qaysi organ yoki tashkilot tomonidan yuritiladi?

42. Texnik nosoz yoki ma’lumotlarda xatolik bilan personallashtirilgan biometrik hujjatlarning hisobini yuritish va yo‘q qilish qaysi organ yoki tashkilot tomonidan amalga oshiriladi?

43. O‘rnatilgan tartibda amalda emas deb topilgan yoki amal qilish muddati tugagan biometrik hujjatlar hisobini yuritish va yo‘q qilish qaysi organ yoki tashkilot tomonidan amalga oshiriladi?

44. Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlar haqidagi ma’lumotlar dasturiga nechtagacha biometrik hujjat kiritilishi mumkin?

45. «Yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjatlarni topshirishni qayd etish kitobi», «Yo‘q qilingan biometrik hujjatlar ro‘yxatini qayd etish kitobi» hamda ro‘yxatlar tikilgan yig‘ma jildlarning saqlanish muddati qancha?

46. Elektron kalit kodini (parol) necha marotaba noto‘g‘ri kiritish kalit ishchi holatining yo‘qolishiga (blokirovka holatiga tushishiga) olib keladi?

47. Dasturga bir urinishda nechtagacha yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan biometrik hujjat haqidagi ma’lumotni kiritish mumkin?

48. «DPA tomonidan brak» oynasi orqali kiritilgan biometrik hujjatlar ro‘yxati necha nusxada chop etiladi?

49. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolarini O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish va ko‘p martalik kirish vizalarini berish hamda ularni ichki ishlar organlari tomonidan vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat.

50. Vatandoshlarni O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish uchun taklif qiluvchi doimiy istiqomat qiladigan joyidagi MvaFR bo‘linmasiga qanday hujjatlarni taqdim etadi?

51. MvaFRBda vatandoshlarni taklif qilish haqidagi hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati necha ish kunidan oshmasligi lozim.

52. Qaysi toifa chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat qiluvchi va uning fuqarolari bo‘lgan qarindoshlari tomonidan berilgan taklifnomaga asosida keladigan, amal qilishi mobaynida O‘zbekiston hududiga cheklanmagan marta tashrif buyuradigan vatandoshlar va ularning oila a’zolari uchun 2 yil muddatga beriladigan viza toifasi.

53. Vatandoshlarni taklif qilish haqidagi taklifnomaga berilgan kundan boshlab qancha muddat davomida amal qiladi.

54. Vatandoshlarga ko‘p martalik kirish vizalarini rasmiylashtirish uchun taklif etuvchining hujjatlari ko‘rib chiqish muddati.

55. Vatandoshlar O‘zbekiston Respublikasida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun tegishli ruxsatnomaga olish masalasida qancha muddatda murojaat qilishlari kerak.

56. Vatandoshlarning «VTD» turdagisi vizalari mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun berilgan ruxsatnomasi yoki ta’lim muassasasi bilan tuzilgan shartnomaga muddatiga uzaytirilganda viza turi uzgartiriladimi?

57. Vatandoshlar yashash manzillarini o‘zgartirsalar necha kundan kechikmay vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joy bo‘yicha hududiy MvaFR bo‘linmasiga turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishni o‘zgartirish uchun murojaat qilishi lozim.

58. Vatandoshlarning kirish vizasi va vaqtincha propiskasi qaysi hollarda bekor qilinadi?

59. Fuqarolarning taklifnomasi bo'yicha xorijiy fuqaroga O'zbekiston Respublikasiga kelishga viza berish uchun ruxsatnomani rasmiylashtirish muddati necha kundan oshmasligi kerak.

60. Xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasiga kirish vizalari, shu jumladan tranzit kirish vizalari kim tomonidan beriladi.

61. Kirish vizalari, qoidaga ko'ra, qancha muddatga beriladi.

62. «Faxriy fuqaro» maqomi berilgan chel el fuqarolari qanday vizalarni olish huquqiga ega?

63. Yuridik shaxslarning taklifnomalariga binoan O'zbekiston Respublikasiga kontrakt va shartnomalar bo'yicha uch oydan ortiq muddatga ishga kelayotgan xorijiy fuqarolarga vizalar berish tartibi.

64. Tranzit vizani O'zbekiston Respublikasining chet eldag'i konsullik muassasasi tomonidan rasmiylashtirish qancha muddatda amalga oshiriladi.

65. Fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakatlar ro'yxatiga kiritilgan xorijiy fuqarolar O'zbekistonga kirish vizasini qanday olishlari mumkin?

66. Xorijiy fuqaroning O'zbekiston Respublikasidan ketishiga qaysi hollarda ruxsat berilmaydi?

67. Qaysi toifa xorijiy fuqarolarning vizasi amal qilish muddati O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytiriladi?

68. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari va O'zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat.

69. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishlari Qoidalari qaysi normativ- huquqiy hujjat bilan belgilab qo'yilgan?

70. Qaysi holatlarda chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasiga kirish huquqi - o'n yilga cheklanadi?

71. Chet el fuqarolarini O'zbekiston Respublikasida bo'lish muddatini qisqartirish?

72. Qaysi holatlarda chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasiga kirish huquqi- umrbod cheklanadi?

73. Chet el fuqarolarini O'zbekiston Respublikasiga notijorat maqsadlarda shaxsiy ishlar bo'yicha taklif qilgan va ularga uy-joy maydonini bergan shaxslar majburiyatları.

74. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining shaxsiy va xizmat avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasining bojxona organlarida hisobga qo'yish tartibi.

75. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida qaysi toifa chet el fuqarolari akkreditatsiyadan o‘tadilar?

76. O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan va yashash guvohnomalariga ega bo‘lgan chet el fuqarolarini boshqa xududda vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazish shaxsni doimiy yashash joyidan o‘chirmagan holda amalga oshiriladi.

77. Yo‘l harakati to‘g‘risidagi konvensiya qaerda va qachon qabul qilingan?

78. Katta ijtimoiy xavf tug‘dirmaydigan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etganligi uchun jazoni ijro etib bo‘lgan yoki o‘tab bo‘lganidan keyin yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan chet el fuqarolariga qanday choralar qo‘llaniladi?

79. Xorijiy fuqarolarga beriladigan xizmat kirish vizasi.

80. Tranzit vizasi O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit bilan o‘tuvchi xorijiy fuqarolarga qancha muddatga beriladi.

81. O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishda majburiy to‘xtash qanday hollarda bo‘lishi mumkin?

82. O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tuvchi xorijiy fuqarolar to‘xtash vaqtida qaysi obektlar xorijiy fuqarolar yashaydigan joylar bo‘lishi mumkin?

83. Xorijiy fuqarolarga joy va transport vositalari berilgan barcha hollarda ularning egalari bu haqda qancha muddatda ichki ishlar organlariga ma’lum qilishlari shart.

84. O‘zbekiston Respublikasining kirish, chiqish va tranzit vizalari (elektron bo‘lmagan) toifalarining viza turlari.

85. Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari Qoidalari qaysi normativ-huquqiy hujjatda belgilab qo‘yilgan?

86. Qaysi hollarda O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali vizasiz tranzit o‘tishga ruxsat beriladi?

87. S-2 vizasi qaysi toifa xorijiy fuqarolarga beriladi?

88. Xorijiy fuqarolarga beriladigan ziyorat kirish vizasi.

89. Ichki ishlar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘iziston Hukumatlari o‘rtasida fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risidagi Bitimlarni e’lon qilish haqida” buyrug‘i.

90.O‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi fuqarolaridan undiriladigan vizalar uchun konsullik yig‘imlari tarifiga asosan 6 oygacha ko‘p martalik kirish-chiqish vizasini rasmiylashtirganlik uchun konsullik yig‘imi.

91. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro qatnovlari va chegarabo‘yi viloyatlarida yashovchi fuqarolarga yengillashtirilgan qatnov tartibi to‘g‘risida”gi Bitim qachon imzolangan?

92.O‘zbekiston bilan Qирғиз Respublikasi o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risida”gi Bitimda ko‘zda tutilgan shartlarga muvofiq tomonlar fuqarolari vizasiz qancha muddat boshqa tomon davlati hududiga kirishlarni, chiqishlarni tranzit o‘tishlari hamda unda vaqtincha bo‘lishlari mumkin.

93.O‘zbekiston bilan Qозог‘истон Respublikasi o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketish shartlari to‘g‘risida”gi Bitimga asosan Tomonlar davlatlarining milliy pasportga ega bo‘lgan fuqarolari boshqa Tomon davlati hududiga qancha muddat ro‘yxatga olinmagan holda kiradilar va unda bo‘ladilar.

94.O‘zbekiston bilan Qозог‘истон Respublikasi o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketish shartlari to‘g‘risida”gi Bitim qachon imzolangan?

95.Xorazm va Buxoro viloyatlarida, shuningdek Qoraqalpog‘истон Respublikasi, Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarining Turkmaniston chegarasiga bevosita tutashgan tumanlarida doimiy istiqomat qiluvchi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Turkmanistonning Dashouz va Lebop viloyatlariga qancha muddat bo‘lishlari mumkin.

96.O‘zbekiston bilan Qирғиз Respublikasi o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risida”gi Bitim qachon imzolangan?

97.O‘zbekiston bilan Тоjikiston Respublikasi o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risida”gi Bitimga asosan Tomonlar xalqaro avtomobil tashishlarini amalga oshiradigan transport korxonalarining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalariga murojaati asosida transport vositalarining haydovchilariga belgilangan tartibda qancha muddatga viza beradilar.

98.O‘zbekiston bilan Тоjikiston Respublikasi o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro kelib-ketishlari to‘g‘risida”gi Bitim qachon imzolangan?

99. Ixcham elektron qurilma, USB-kalit. Foydalanuvchini tizimda qayd etish, elektron yozishmalarni ximoyalash va axborot resurslari bilan ma’lumotlar almashinushi xavfsizligini ta’minlash bu?

100. Ichki ishlar vazirining “O‘zbekiston Respublikasi IIV Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlarida yuritiladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimlar xavfsizligini ta’minlash xamda ulardagи elektron axborot resurslaridan foydalanish tartibi bo‘yicha Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i.

101.Avtomatlashtirilgan tizimni himoya qilishda shaxsiy parol uzunligi nechta simvoldan kam bo‘lmasligi kerak.

102. Avtomatlashtirilgan ish joyi va server qurilmalari orasida tarmoq xavfsizligini ta'minlash texnologiyasi bo'lib maxsus tarmoq qurilmalari bu?

102. Avtomatlashtirilgan tizim (AT) xavfsizligini ta'minlash choralari.

103. Avtomatlashtirilgan tizim (AT) resurslaridan foydalanish huquqini berish.

104. Avtomatlashtirilgan tizimni himoya qilishda parolning uzunligi?

105. Shaxsiy tanib olish uchun raqam, Tokenden foydalanishda tizimga kirish uchun raqamlar ketma-ketligidan iborat kalit(parol) bu?

106. Blokdan yechadigan personal kalit bu?

107. Parol o'zgartirilgan holda yangi parol eskisidan kamida nechta simvolga farq qilishi lozim?

108. O'zbekiston Respublikasiga noqonuniy kirish yoki chiqish, shuningdek, chegarani kesib o'tish soxta hujjatlardan foydalangan holda amalga oshirilgan bo'lsa, u holda bu qilmish jinoyatlar majmui tariqasida qaysi moddalari bo'yicha kvalifikasiya qilinadi?

109. Ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar, agar O'zbekiston Respublikasi MJtKda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi?

110. O'zbekiston Respublikasi JK 223- moddasining 2-qismi?

111. Qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik?

112. O'zbekiston Respublikasiga noqonuniy kirish yoki chiqish, shuningdek, chegarani kesib o'tish soxta hujjatlardan foydalangan holda aybdorning harakatlari agar u oxirgi zarurat holatida sodir etilgan bo'lsa?

113. Qaysi hollarda O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berilmaydi?

114. O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish to'g'risidagi sud qarorini bajarmagan chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga qanday jazo chora ko'rildi?

115. O'zbekiston Respublikasidan qonunga xi洛 ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o'tish tartibini bo'zgan shaxslarga qanday jazo choralar qo'llaniladi?

116. Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish to'g'risidagi qarorni ijro etish O'zbekiston Respublikasi MJtKning qaysi moddasida belgilab berilgan?

117.O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 225-moddasining birinchi - beshinchi qismlarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar uchun qanday ma’muriy jazo qo‘llashga haqli.

118. Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va jabrlanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar jazoni ijro etish tugagan kundan boshlab qancha muddat saqlanadi?

119. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida identifikasiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6065-son Farmonning 2-Ilovasi bilan “O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasi to‘g‘risida” Nizom qaysi normativ-huquqiy xujjat bilan tasdiqlagan.

120. ID-karta yangi tug‘ilgan bolaga bir yoshgacha qancha muddatga beriladi?

121. ID-karta bir yoshdan 16 yoshgacha qancha muddatga beriladi?

122. ID-karta 60 yoshdan oshganlarga qancha muddatga beriladi?

123. Chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikasiya ID-kartasi bu ?

124. Chip — bu ?

125. Personallashtirish — bu ?

126. ID-kartasi bekor qilingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga qancha muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishi to‘g‘risida ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan ogohlantiriladi?

127. ID-kartasi bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatga olingan chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs 16 yoshga to‘lganda ID-karta olish uchun necha kundan kechikmasdan ma’lumotlarni yig‘ish punktiga murojaat qilishi shart.

128. ID-karta ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan hujjatlar to‘liq qabul qilib olingandan so‘ng necha kun mobaynida beriladi.

129. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara rejimi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” qanday qaror tasdiqlagan.

130. “O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara rejimi to‘g‘risidagi Nizom” qanday tartibni belgilaydi?

131. Chegara zonasiga vaqtincha yashash uchun keladigan shaxslarga ro‘yxatga olish kartochkalari qancha muddatga beriladi?

132. Chegara zonasiga ota-onasi yoki hamrohlik qiluvchi shaxslar bilan keladigan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslar ro‘yxatga olish kartochkalari qanday tartibda rasmiylashtirib beriladi?

133.Chegara zonasida joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlariga qanday shaxslarni ishga qabul qilish man etiladi.

134.Chegara zonasiga keladigan barcha shaxslarni ro‘yxatdan o‘tish tartibi?

135.Tashkilotlarning faoliyat turi bo‘yicha ko‘pincha uzoq vaqt chegara zonasida bo‘ladigan xodimlariga ro‘yxatga olish kartochkalari qancha muddatga beriladi?

136.Ro‘yxatga olish kartochkalarining amal qilish muddatini uzaytirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar ichki ishlar organlariga ularning amal qilish muddati tugashidan necha kun avval murojaat qilishlari shart.

137.Yaponiya migrasiya xizmati qaysi vazirlik tarkibiga kiradi?

138. Koreya Respublikasi migrasiya xizmati qaysi vazirlik tarkibiga kiradi?

139.Xitoy Xalq Respublikasi migrasiya xizmati qaysi vazirlik tarkibiga kiradi?

140.Yaponiyaga qancha muddatdan kam bo‘lgan muddatga kelgan xorijiy fuqarolar, shu jumladan qonun bilan belgilab berilgan toifadagi xorijiy fuqarolar ro‘yxatdan o‘tishdan ozod etiladilar?

141.Yaponiya fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga vizasiz necha kungacha vizasiz kirib kelishlari mumkin?

142.Koreya Respublikasida “Qochoqlik maqomini berish to‘g‘risida” Qonun qachon qabul qilingan?

143.Koreya Respublikasi fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga vizasiz necha kungacha vizasiz kirib kelishlari mumkin?

144. Koreya Respublikasiga necha kundan ortiq muddatga kelgan xorijiy fuqarolar yashash joyi bo‘yicha vaqtincha ro‘yxatdan o‘tishlari kerak?

145.Qaysi yildan Xitoy Xalq Respublikasi Jamoat xavfsizligi vazirligi tizimida bo‘lgan Kirish, chiqish boshqarmasi - migrasiya ishlari bo‘yicha davlat boshqarmasi (migrasiya xizmati)ga o‘zgartirildi?

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari uchun “Pasport tizimini ta’minalash” mutaxassisligi bo‘yicha serjantlar tarkibi xodimlarini maxsus kasbiy tayyorlash kursining “Pasport tizimini ta’minalash” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmuada O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyati, sohasidagi islohotlar, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha va doimiy bo‘lish asoslari, fuqarolikni rasmiylashtirish va migratsiya bilan bog‘liq huquqbazarliklar uchun javobgarlik, ma’muriy huquqbazarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan korxona, muassasa,

tashkilotlarga taqdimnomalar kiritish hamda xorijiy davlatlar tajribalari - Yaponiya, Koreya Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi migratsiya xizmatlari misolida to‘liq yoritib berilgan.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua, avvalo O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutiga ichki ishlar organlari uchun “Pasport tizimini ta’minlash” mutaxassisligi bo‘yicha serjantlar tarkibi xodimlarini maxsus kasbiy tayyorlash kursining “Pasport tizimini ta’minlash” tinglovchilari o‘z bilim va kunikmalarini oshirishga, amalga oshirishi lozim bo‘lgan vazifalarni tashkil etishlarida, undan foydalanishlariga, o‘z ustilarida ishlashlariga, xizmat davomida yuzaga keladigan ayrim masalalarni yechishlarida yordamchi bo‘lishiga, ularning bilim va tajribalari oshishiga hamda rivojlangan xorijiy davlatlar migratsiya xizmatlari faoliyatini o‘rganish orqali sohani yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

GLOSSARIY:

O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimini ta’minlash – ushbu jarayonni tashkil etuvchi sub’ektlarning bu boradagi kompleks faoliyati bo‘lib, mamlakatda pasport tizimi qoidalarining samarali ishlashiga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy, tashkiliy va boshqa turdagи chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi.

ariza beruvchi— O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari bo‘yicha davlat organiga murojaat qilgan voyaga yetgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki chet davlat fuqarosi yoxud voyaga yetgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs.

yolg‘iz ota yoki ona— bolani tarbiyalayotgan ota (ona), basharti bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi rasmiy hujjatlarda ota-onasidan biri haqidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa yoxud bunday ma’lumotlar tarbiyalayotgan otaning (onaning) so‘zlariga asosan kiritilgan bo‘lsa;

bola— o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs;

fuqaroligi bo‘lмаган shaxs— O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lмаган va o‘zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lмаган shaxs;

fuqarolikning o‘zgarishi — O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish yoki tugatish;

vatandosh— O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan yoki ilgari uning hududida yashagan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lмаган, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashaydigan shaxs va uning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan keyingi qarindoshlari, basharti, agar ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi qarindoshlari O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan bo‘lsa hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘lsa;

identifikatsiyalovchi ID-kartasi — O‘zbekiston Respublikasi hududida identifikatsiyalovchi karta egasining shaxsini va fuqaroligini, shuningdek doimiy ro‘yxatga olinganligini tasdiqlaydigan, egasining shaxsiga doir biografik va biometrik ma’lumotlar kiritilgan elektron jismga (chipga) ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga yoki chet davlat fuqarosiga yoxud fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga beriladigan hujjat;

tirikchilikning qonuniy manbai— ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlар, tadbirkorlik faoliyatidan yoki mulkdan olingen foyda, pensiya, stipendiya, alimentlar, ijtimoiy nafaqalar, moliyaviy jamg‘armalar yoki oila a’zolari va boshqa shaxslarning moliyaviy yordami, shuningdek boshqa qonuniy daromadlar;

chet davlat fuqarosi— O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lмаган, boshqa davlat fuqaroligiga va o‘zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lgan shaxs;

O‘zbekiston Respublikasining xorijda doimiy yashovchi fuqarosi— O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy yashash joyidan ro‘yxatdan chiqqan hamda xorijga doimiy yashashga chiqib ketish uchun ruxsatnomal rasmiylashtirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

yashash— shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning tashqarisida qonuniy asosda turishi;

Davlat boji - yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar bergenlik uchun undiriladigan majburiy to‘lovdir.

Davlat bojini to‘lovchilar - vakolatli muassasalarga va mansabdar shaxslarga murojaat qilayotgan va o‘ziga nisbatan yuridik ahamiyatga molik harakat va hujjalalar berish amalga oshiriladigan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to‘lovchilardir.

chip — ID-kartadagi biografik ma’lumotlar, raqamli fotosurat va qo‘l barmoq izi hamda boshqa ma’lumotlarni saqlovchi elektron qurilma;

personallashtirish — ID-karta egasining biografik va biometrik ma’lumotlarini ID-kartaga kiritish;

verifikatsiyalash — ID-kartaga kiritilgan biometrik ma’lumotlarning ID-karta egasining biometrik ma’lumotlariga mosligini maxsus texnik qurilma yordamida tekshirish;

ma’lumotlarni yig‘ish punkti — ID-karta olish uchun murojaat qilgan fuqarolarning biografik va biometrik ma’lumotlarini jamlash, ID-kartalarni personallashtirish va berish vazifalarini bajaruvchi ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari hamda davlat xizmatlari markazlari;

ID-karta olish uchun talabnomasi — ID-karta oluvchi haqida ma’lumotlarni yig‘ish punkti tomonidan shakllantirilgan biografik va biometrik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron hujjat.

personallashtirish — harakatlanish hujjati blankasiga uning egasi to‘g‘risidagi biografik ma’lumotlar va biometrik parametrlarni kiritish;

verifikasiya — harakatlanish hujjatiga kiritilgan biometrik parametrlarning harakatlanish hujjati egasining biometrik parametrlari bilan mosligini mashina yordamida tekshirish;

konsullik muassasasi — O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining konsullik bo‘limi, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatda ta’sis etiladigan bosh konsulxonasi, konsulxonasi, vise-konsulxonasi va konsullik agentligi;

konsullik ro‘yxati — tegishli konsullik okrugi hududiga kelgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni xorijdagi O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari qoshida belgilangan tartibda qayddan o‘tkazish;

doimiy konsullik ro‘yxati — doimiy yashash uchun xorijga chiqish ruxsatnomasini belgilangan tartibda rasmiylashtirgan, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasasi konsullik okrugi hududida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni qayddan o‘tkazish;

vaqtincha konsullik ro‘yxati — xorijga vaqtincha chiqish ruxsatnomasini belgilangan tartibda rasmiylashtirgan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan qayddan o‘tkazish;

konsullik okrugi — konsullik muassasasiga konsullik vazifalarini bajarish uchun biriktirilgan bir yoki bir necha davlat hududi;

ma'lumotlarni yig'ish punkti — pasport olish uchun murojaat qilgan fuqarolarning biografik ma'lumotlarini va biometrik parametrlarini jamlash, ushbu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat personallashtirish agentligiga topshirish hamda fuqarolarga biometrik parametrlarga ega pasportlar berish bo'yicha vazifalarni bajaruvchi ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik-huquq departamenti, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalari;

harakatlanish hujjati olish uchun talabnoma — harakatlanish hujjati oluvchi haqida ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan shakllantirilgan biografik ma'lumotlar va biometrik parametrlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat (talabnoma).

vasiylik — o'n to'rt yoshga to'lmanan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ta'minlash, ularga tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli;

davolash muassasalari — sanatoriylar, davolash pansionatlari, davlat tasarrufidagi va xususiy klinikalar, shifoxonalar, kasalxonalar va boshqa tibbiy muassasalar;

harbiy hisob hujjatlari — chaqiruv uchastkasida qayd etilganligi haqidagi guvohnoma (chaqiriluvchilar uchun), harbiy guvohnoma va zaxiradagi ofiserning guvohnomasi (harbiy xizmatga majburlar uchun);

homiylilik — o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ta'minlash, ularga tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli;

YaIDXP — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali;

«E-mehmon» dasturi — mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarida yashovchilarni hisobga olishning maxsus elektron avtomatlashtirilgan dasturi.

chet ellik investor - O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalar tashkil qilish uchun kamida 3 million AQSh dollari miqdorida investisiya kiritgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmanan shaxs — chet el investisiyalari ishtirokidagi korxona muassisasi (ishtirokchisi);

manzil tizimi - chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmanan shaxslarni doimiy ro'yxatga olish bilan bog'liq harakatlarning idoralararo elektron hamkorlik orqali amalga oshirilishini ta'minlovchi avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

milliy pasport yoki harakatlanish hujjati - chet el fuqarosining xorijga chiqish milliy pasporti yoki xorijiy davlatda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lman shaxsning xorijga chiqish va harakatlanish hujjati;

yashash guvohnomasi - chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsning O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligini hamda egasining shaxsini va fuqaroligini tasdiqllovchi hujjat. Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqiydir;

ID-karta- chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxsning O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligini hamda egasining shaxsini va fuqaroligini tasdiqllovchi, shuningdek, egasining shaxsiy biografik ma’lumotlari va biometrik parametrlari kiritilgan elektron tashuvchi qurilmaga (chipga) ega bo‘lgan hujjat. Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqiydir;

yangi qurilgan ko‘chmas mulk - tuman (shahar) hokimining qurilishi tugallangan binoni, inshootni, uy-joyni foydalanishga qabul qilib olish to‘g‘risida komissiya dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi qarori asosida mulk huquqi vujudga kelgan hamda qabul qilib olinganiga uch yildan ko‘p bo‘lman ko‘chmas mulk.

joylashtirish vositalari - mehmonxonalar, apartotellar, apartamentlar kompleksi (rezidensiya), spa-mehmonxonalar, butik-otellar, motellar, turistik lagerlar, dam olish uylari va zonalari, turistik qishloqlar, kempinglar, sanatoriylar, pansionatlar, dam olish zonalari va uylari (markazlari), turizm va sport bazalari, palatkali (kemping) lagerlar va komplekslar, oilaviy mehmon uylari, o‘tov va palatkali lagerlar va boshqa obektlar, shuningdek, tunash uchun qayta jihozlangan yer usti avtotransportlari;

vaqtincha ro‘yxat - chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni joylashtirish vositalari, davolash muassasalarida vaqtincha ro‘yxatga olish yoki ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan xususiy uy-joy, korxona, tashkilot va muassasalar tasarrufidagi yotoqxonalarda vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish;

chet ellik investor - xorijiy investisiya kiritish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining kamida 8500 baravarida xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etish shaklida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investisiya kiritgan hamda amal qilish muddati uch yilgacha bo‘lgan ko‘p martalik investisiya vizasiga ega chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lman shaxs.

doimiy yashashga ruxsatnoma berish - boshqa davlatlardan kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududida doimiy

yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish hamda ularga yashash guvohnomasi yoki ID-kartarasmiylashtirib berish;

fuqaroligi bo'lman shaxsning biometrik harakatlanish hujjati - O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lman shaxsning xorijda shaxsini tasdiqlovchi, egasining shaxsiy biografik ma'lumotlari va biometrik parametrlari kiritilgan elektron tashuvchi qurilmaga (chipga) ega bo'lgan hujjat.

reabilitatsiya markazi — muayyan yashash joyiga ega bo'lman shaxslarni ularning shaxsi aniqlangungacha sudning ajrimi asosida o'ttiz sutkadan ko'p bo'lman muddatga saqlab turish va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan ichki ishlar organlari tizimidagi davlat muassasasi;

muayyan yashash joyiga ega bo'lman shaxs — shaxsini tasdiqlovchi hujjati, shuningdek, biron-bir manzilda doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinmagan yoxud yashash joyi bo'yicha hisobda turmagan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir yetishga moyil bo'lgan 18 yoshdan oshgan shaxs;

reabilitatsiya qilish — muayyan yashash joyiga ega bo'lman shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa turdag'i yordam ko'rsatish, shuningdek, ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti — xorijga chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish, shuningdek, xorijda turish vaqtida egasining shaxsini va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, pasport egasining shaxsiy biografik ma'lumotlari va biometrik parametrlari saqlangan elektron axborot tashuvchiga (chipga) ega bo'lgan hujjat;

verifikatsiya — pasportga kiritilgan biometrik parametrlar uning egasining biometrik parametrlari bilan mosligini mashinada tekshirish;

xorijda vaqtincha bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari — O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, xorijga chiqib, vaqtincha u yerda bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

xorijda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari — O'zbekiston Respublikasidagi doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxati bekor qilinib, xorijga doimiy yashashga chiqish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma rasmiylashtirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

pasport olish uchun talabnoma — pasport oluvchi haqida ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan shakllantirilgan biografik ma'lumotlar va biometrik parametrlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat;

personallashtirish — pasport egasining biografik ma'lumotlarini va biometrik parametrlarini pasport blankiga kiritish;

ma'lumotlarni yig'ish punkti — xorijga chiqish biometrik pasportini olish uchun murojaat qilgan fuqarolarning biografik ma'lumotlarini va biometrik parametrlarini jamlash, ushbu ma'lumotlarni Adliya vazirligi huzuridagi Davlat personallashtirish agentligiga (keyingi o'rinnarda — DPA) yuborish hamda fuqarolarga yangi rasmiylashtirilgan biometrik parametrlari pasportlarni berish vazifalarini bajaruvchi ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari hamda tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazlari;

xizmatdan foydalanuvchi — xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va olish uchun murojaat etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxati bekor qilinib, xorijga doimiy yashashga chiqib ketgan va doimiy konsullik ro'yxatida turadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bundan mustasno).

davlat personallashtirish markazi - «Xorijga chiqish pasporti» tizimini yaratish va O'zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha loyiha buyurtmachisi va loyiha boshqarilishini ta'minlovchi organ;

biometrik hujjat olish uchun talabnoma – biometrik hujjat oluvchi hakida ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan shakllantirilgan biografik ma'lumotlar va biometrik parametrlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat;

vatandoshning oila a'zolari - vatandoshning turmush o'rtog'i, uning ota-onasi va farzandlari (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar);

taklif qiluvchi - O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi, unga nisbatan turmush o'rtog'i, to'g'ri shajara bo'yicha birinchi, ikkinchi, uchinchi darajali va yon shajara bo'yicha qarindoshlar-vatandoshlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

VTD turdag'i kirish vizasi - O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat qiluvchi va uning fuqarolari bo'lgan qarindoshlari tomonidan berilgan taklifnomalar asosida keladigan, amal qilishi mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududiga cheklanmagan marta tashrif buyuradigan vatandoshlar va ularning oila a'zolari uchun 2 yil muddatga beriladigan viza toifasi;

MvaFR bo'linmalari - Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi, shahar (tuman) ichki ishlar bo'limlari ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limlari.

fuqaroligi bo'limgan shaxs - O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'limgan va o'zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo'limgan shaxs;

yashash guvohnomasi - O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga ruxsat berilganligini isbotlaydigan fuqaroligi yo‘q shaxslar yoki xorijiy fuqarolarning shaxsini tasdiqllovchi hujjat;

xorijiy investor - xorijiy investisiya kiritish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining kamida 8500 baravarida xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etish shaklida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investisiya kiritgan hamda amal qilish muddati uch yilgacha bo‘lgan ko‘p martalik investisiya vizasiga ega chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs;

tranzit vizasi - O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit bilan o‘tuvchi xorijiy fuqarolarga 3 kungacha muddatga beriladigan viza;

xorijiy investor - xorijiy investisiya kiritish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining kamida 8500 baravarida xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etish shaklida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investisiya kiritgan hamda amal qilish muddati uch yilgacha bo‘lgan ko‘p martalik investisiya vizasiga ega chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs.

fuqaroni ro‘yxatga olish va ro‘yxatdan chiqarish - fuqaroning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi muayyan joyda doimiy yoki vaqtincha yashash faktining O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli xizmatlari tomonidan belgilangan tartibda qayd qilinishi;

token - ixcham elektron qurilma, USB-kalit. Foydalanuvchini tizimda qayd etish, elektron yozishmalarni ximoyalash va axborot resurslari bilan ma’lumotlar almashinushi xavfsizligini ta’minalash uchun xizmat qiladi;

sertifikatsiya - tizimda foydalanuvchilar tomonidan elektron kalit (token) yordamida ma’lum bir turdagи amallarni bajarish uchun ruxsat berilishi;

talabnoma - tegishli vakolatli organlarning yozma talabiga binoan shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida ma’muriy javobgarlikka tortilgan yoki tortilmaganligi haqidagi ma’lumotlarni so‘rash uchun belgilangan shakldagi rasmiy hujjat;

verifikatsiya - hujjat egasining biometrik parametrlarini, hujjatga kiritilgan biometrik parametrlar bilan mosligini maxsus mashina yordamida tekshirish;

CRL - qaytarib olingan sertifikatlar ro‘yxati;

CSCA - Davlatlar tomonidan kabul kilinadigan sertifikatlash markazi;

DESCO - Biometrik hujjatni DESCO qurilmasi yordamida yelektron chipdagi ma’lumotlarni o‘qishtish qo‘rimasi;

GUID (Globally Unique Identifier) - Talabnomaning 32 raqam va harflar ketma-ketligidan iborat yagona statistik identifikator;

ICAO - “Fuqaro aviasiyasi halqaro tashkiloti” Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaro aviasiyasi xalqaro me’yorlarini belgilovchi maxsus tashkiloti, xavfsizlikni ta’minlash, samaradorlikni oshirish maqsadida rivojlanishga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasi 1992 yildan ICAO - “Fuqaro aviasiyasi halqaro tashkiloti”ga a’zo;

PIN (Personal Identification Number) - shaxsiy tanib olish uchun raqam, Tokendan foydalanishda tizimga kirish uchun raqamlar ketma-ketligidan iborat kalit(parol);

PUK (Personal Unblocking Key) - blokdan yechadigan personal kalit;

VPN (Virtual Private Network) - avtomatlashtirilgan ish joyi va server qurilmalari orasida tarmoq xavfsizligini ta’minlash texnologiyasi bo‘lib maxsus tarmoq qurilmalari (Cisco) yordamida;

ma’muriy huquqbazarlik tushunchasi - Ma’muriy huquqbazarlik deganda qonun hujjalariiga binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi;

ma’muriy huquqbazarlikni qasddan sodir etish - Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligi g‘ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo‘lsa, uning zararli oqibatlariga ko‘zi yetgan, yuz berishini istagan bo‘lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bunday ma’muriy huquqbazarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi;

xos raqam - yagona markazlashtirilgan axborot tizimi tomonidan ma’muriy bayonnomaga bog‘liq bo‘lmagan, ma’muriy jazoga tortilgan shaxsga nisbatan axborot tizimiga kiritilgan qarorga beriladigan identifikatsiyalash raqami;

billing tizimi - ma’muriy jazo chorasisiga tortilgan shaxslarga nisbatan undirilgan yoki to‘langan jarima yig‘imlarini (summalarini) avtomatlashtirilgan elektron to‘lov tizimlari orqali hisobga olish tizimi;

chet davlat fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikatsiya ID-kartasi — egasining shaxsini va fuqaroligini hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy ro‘yxatga olinganligini tasdiqlovchi, egasining shaxsiy biografik va biometrik ma’lumotlari kiritilgan elektron tashuvchi qurilma (chip)ga ega bo‘lgan hujjat;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi — O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida va havo bo‘sning ida) belgilovchi chiziq va bu chiziq bo‘yicha o‘tuvchi vertikal sath;

chevara zonasi — O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi tutash hududning bir qismi bo‘lib, uning doirasida chevara rejimi joriy etiladi;

chevara mintaqasi — chevara zonasining O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi chizig‘iga bevosita tutash qismi;

chevara daryolari, ko‘llari va boshqa suv havzalari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasining chizig‘i o‘tgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasiga bevosita tutashgan va chevara mintaqasida joylashgan suv obektlari, gidrografiya elementlari;

tozalash mintaqasi — O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi bo‘ylab, shuningdek, chevara daryolari va suv havzalarining qirg‘oqlarida uning texnik tavsiflariga muvofiq suvini muhofaza qilish zonasining tashqi chegarasi bo‘ylab o‘tgan joyning 5 metr kenglikdagi mintaqasi;

profilaktika mintaqasi — O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi bo‘ylab, shuningdek, chevara daryolari va suv havzalarining qirg‘oqlarida uning texnik tavsiflariga muvofiq suvini muhofaza qilish zonasining tashqi chegarasi bo‘ylab o‘tgan joyning 100 metr kenglikdagi mintaqasi;

chevara zonasidagi chevara rejimi — chevara zonasiga kirish (chiqish), undan o‘tish, bo‘lish (yashash), harakatlanish va xo‘jalik hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydigan qoidalar to‘plami;

chevara mintaqasidagi chevara rejimi — alohida rejim cheklovleri o‘rnataladigan chevara mintaqasiga kirish (chiqish), undan o‘tish, bo‘lish, harakatlanish va xo‘jalik hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydigan qoidalar to‘plami.

fuqaroligi bo‘limgan shaxsning biometrik harakatlanish hujjati — O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘limgan shaxsning xorijda shaxsini tasdiqlovchi, egasining shaxsiy biografik ma’lumotlari va biometrik parametrlari kiritilgan elektron tashuvchi qurilmaga (chipga) ega bo‘lgan hujjat.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. *N.T. Ismoilov, D.D. Babaev Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish: O‘quv qo‘llanma.* – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, – 2014.,
2. *X.X. Baxramov Ichki ishlar idoralari tomonidan ma’muriy majburlash choralarini qo‘llash asoslari va tartibi: O‘quv qo‘llanma* – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.,
3. *O‘zbekiston Respublikasida migrasiya siyosatini ta’minlash muammolari va yechimlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2019 yil 17 may).* – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.,

4. Huquqbarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.,
5. Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.,
6. Ichki ishlar organlari tizimidagi tub islohotlar – xalq manfaatlariga xizmat qilishni ta’minlash kafolati. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020.,
7. Ichki ishlar organlari faoliyati. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020.,
8. Ichki ishlar organlari xizmatiga kirish maxsus kursi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish Instituti , 2021.

Qo‘srimcha adabiyotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. *Mirziyoev Sh.M.* Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – T., “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
2. *Mirziyoev Sh.M.* Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
3. *Mirziyoev Sh.M.* Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
4. *Mirziyoev Sh.M.* Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
5. *Mirziyoev Sh.M.* Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 596 b.
6. *Mirziyoev Sh.M.* Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T., “O‘zbekiston”, 2018. – 512 b.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.– T., 2021. – Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrdagi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-167-II-son qonuni;
6. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2016.– № 38.– 438-m.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017.

9. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagagi “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-489-son qonuni;

10. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 13 martdagagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida” O‘RQ-610-son Qonuni;

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. № 15.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2883-son Qarori;

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 maydagagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining biometrik pasportlari hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarining hisobini yuritish va yo‘q qilishni tartibga solish to‘g‘risida”gi PF-5061-son Farmoni;

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagagi “Ichki ishlar organlarining migrasiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3126-son Qarori;

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibini takomillashtirishga doir muhim chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5156-son Farmoni;

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishslash va ularning xizmatini tashkil yetish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3413-son Qarori;

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizasiya qilishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4079-son Qarori;

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 06 martdagagi “Jamoat xavfsizligini

ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sun Farmoni;

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 apreldagi "Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo'yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5984-sun Farmoni;

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 27-sun Farmoni;

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-sun qarori;

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 apreldagi "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-sun qarori;

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sun Farmoni;

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahqamasining 1996 yil 21 noyabrdagi "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo'lishlari va tranzit o'tishlari tartibi haqida"gi 408-sun Qarori;

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni doimiy va vaqtincha propiska qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 28 avgustdagい PQ-3924-sun qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 845-sun Qarori;

26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 martdagи "O'zbekiston Respublikasida identifikasiya ID-kartalarini rasmiylashtirish va berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 129-sun Qarori;

27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 maydagи "O'zbekiston Respublikasida doimiy va vaqtincha propiska qilish tartibini yanada soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 28 dekabrdagi 1049-sun qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida 320-sun Qarori;

28. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 1 yanvardagi "Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan

ishlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2-son buyrug‘i.

Elektron ta’lim resurslari:

- http://mvd.uz (O‘zbekiston Respublikasi IIV);
- http://ipkmvd.uz (O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti);
- http://akadmvd.uz (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi);
- http://lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);
- http://www.sil.uz (Toshkent davlat yuridik universiteti);
- http://www.connect.uz (O‘zbekiston umumta’lim portali);
- http://uzsci.net (Ilmiy ta’lim tarmog‘i).